

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI VAZIRLIGI
TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
T.T. Safarov 
“28” 08 2019 yil.



Barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun

“Dinshunoslik”

fanidan

O'QUV USLUBIY MAJMUA

Toshkent – 2019

O.Sirojov, D.Mirjavharova, E.Axmedov

“Dinshunoslik” fanlaridan o`quv-uslubiy majmua. - T., TKTI. - 2019.

Mazkur majmuada “Dinshunoslik” fanidan sellabus, ishchi dastur, ma’ruza matnlari, ta’lim texnologiyasi, amaliy mashg’ulotlar uchun topshiriklar, mustaqil ish mavzulari, nazorat turlari uchun tayyorlangan umumiy nazorat savollari, glossariy va keys stadi jamlangan.

TKTI 1 kurs bakalavrlari uchun “Dinshunoslik” fanidan tayyorlangan ushbu uslubiy majmua kafedraning 28-avgust 2019-yil muxokama qilindi va tasdiqlandi.

BAYONNOMA №1

Tuzuvchilar: O.Sirojov, D.Mirjavharova, E.Axmedov

Taqrizchilar: f.f.d.prof. S.Otamurotov, s.f.n.dots.X.Yorqulov

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIMI VAZIRLIGI
TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

Barcha bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari talabalari uchun

‘‘Dinshunoslik’’

fanidan

SILLABUS

Toshkent – 2019

Barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun

“Dinshunoslik” fanidan

Sillabus

TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYA INSTITUTI

Mirjavharova Dilorom Sobirovna Toshkent kimyo texnologiya instituti, “Ijtimoiy siyosiy fanlar” kafedrasida katta o'qituvchisi



Bog'lanish uchun telefon: +998909448929 (mob)

Elektron pochta:

1. Ilmiy qiziqishlari: Milliy ma'naviy meros, ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy madaniyat, jaxon xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganish. Milliy o'zlikni anglash jarayonlarini o'rganish.

2. Ilmiy maktabi: 09.00.04. Ijtimoiy falsafa mutaxassisligi bo'yicha falsafa fanlari doktori, professor, S.Otamuratov rahbarligi ostida "Mustaqillik sharoitida milliy madaniy merosni o'rganishning milliy o'zlikni anglashdagi o'rni"

Axmedov Ergash Kuldashevich Toshkent kimyo texnologiya instituti, “Ijtimoiy siyosiy fanlar” kafedrasida o'qituvchisi



Bog'lanish uchun telefon: +998998206079 (mob)

Elektron pochta: ahmedov.ergash@mail.ru

3. Ilmiy qiziqishlari: Ma'naviyatga tahdidlar, axborot xurujlari, g'oyaviy kurashlar. Missionerlik harakati va prozelitizmning milliy ma'naviyatimizga ta'siri.

4. Ilmiy maktabi: 09.00.04. Ijtimoiy falsafa mutaxassisligi bo'yicha falsafa fanlari doktori, professor, S.Otamuratov rahbarligi ostida "Missionerlik harakatining milliy ma'naviy taraqqiyotga taxdidi va uning oldini olish muammolari"

3. O'tkazilish joyi va vaqti: 1-2 -semestr dars jadvaliga asosan.

4. O'quv fanining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi:

"Milliy g'oya:asosiy tushuncha va tamoyillar", "Psixologiya", "Falsafa", "O'zbekiston tarixi", "Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti".

5. O'quv fanining tavsifi:

5.1.O'quv fanining yo'naltirilganligi.

"Dinshunoslik" fani xalqni yuksak ma'naviyat sari birlashtirish, sog'lom e'tiqodni shakllantirish, mamlakatimizda yashaydigan millati, tili va dinidan qat'iy nazar har bir fuqaroning yagona vatan baxt saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'alarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirishga yo'naltirilgan.

5.2.Maqsadi:

Talabalarga milliy va diniy qadriyatlarning tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlar ila uyg'unligini tushuntirish, ularda diniy bag'rikenglik madaniyatini, dinga nisbatan to'g'ri yondashuvini shakllantirish va jamiyat uchun yuksak ma'naviyatli kadrlarni tarbiyalashdan iborat.

5.3.Vazifalari:

- Talabalarni turli dinlar bilan yaqindan tanishtirish orqali ularning diniy bilimlarini kengaytirish;

- dinshunoslik fanining o'ziga xos jihatlarini, ularning boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro aloqadorligiga oid masalalarni ochib berish;
- talabalarga hozirgi davrdagi dinlarning ma'lum xalq hayotida tutgan o'rni haqida umumiy nazariy tushunchalar berish;
- talabalarning davlat va din munosabatlari, dinlararo bag'rikenglik g'oyasi va madaniyati to'g'risidagi tasavvurlarini boyitish;
- din va diniy qadriyatlarning talqin etilishi va bugungi kundagi ahamiyatini o'rgatish;
- globallashuv jarayonida diniy sohada kechayayotgan tendentsiyalarni yoritish;
- yoshlarda turli zararli diniy sekta va oqimlarning buzg'unchi g'oyalarga qarshi immunitetini shakllantirish.

5.4.O'quv fanining mazmuni:

“Dinshunoslik” fanini talabalarga o'qitishning ahamiyati katta. Insoniyat to'qnash kelgan bugungi globallashuv sharoitidagi barcha muammolar va to'siqlarning yechimi ma'naviyatga borib taqalmokda. SHuning uchun xam BMT XXI asrni gumanitar asr, ya'ni ijtimoiy hayotni insoniylashtirish, madaniylashtirish davri deb e'lon qildi. Demak, inson hayoti, uning ma'naviyati bilan bog'lik muammolarni hal qilmasdan turib taraqqiyotni ta'minlashi dargumon.

Fan dasturining asosiy maqsadi - talaba yoshlarni jahon dinlari, SHarq madaniyati yodgorliklari, xususan Markaziy Osiyo xalqlarining boy ma'naviy merosi - mutafakkirlar asarlarida jamlangan ma'naviy mulk, xalqimizning barhayot udum, an'ana, turmush va e'tiqod tarzini ifodalovchi ilmiy ma'lumotlar bilan tanishtirishga qaratilgan. Ikkinchidan, tarixiy xaqiqatni qaror toptirish, ajdodlar merosini o'rganish va o'rgatish asosida, yurt istiqboli - yosh avlodni milliy fidoiylik ruxida tarbiyalash, ularda o'zlikni anglash, diniy bag'rikenglik, Vatan tuyg'usi, ona yurt g'ururi - sharqona qadriyatlar asosida milliy mafkurani shakllantirishdir. “Dinshunoslik” kursini o'qitishdan yana bir maqsad, talabalarga milliy va diniy qadriyatlarning tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unligini tushuntirish, ularda diniy bag'rikenglik madaniyatini, dinga nisbatan to'g'ri yondashuvini shakllantirish g'oyaviy boshliqqa yo'l qo'ymaslik, yoshlarni millat va istiqbol manfaatlariga zid g'oyalar, qarashlar ta'siriga tushib qolishining oldini olishni taminlashdir.

5.5.Fanni o'rganish rejasi:

№	MAVZULAR	Ajratilgan soatlar	
		Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot
1.	Dinshunoslik faniga kirish	2	2
2.	Dinning mohiyati, tuzilishi va funksiyasi	2	2
3.	Urug' –qabila va milliy dinlar	2	2
4.	Jahon dinlari: buddizm va xristianlik	2	2
5.	Islom dini	2	2
6.	Islom ta'limoti	2	2
7.	Xalqimiz ma'naviy yuksalishda dinlarning o'rni	2	2
8.	O'zbekistonda vijdon erkinligi	2	2
9.	Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: O'zbekiston tajribasi	2	2
	JAMI:	18	18

6. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati:

6.1. Nazariy-metodologik adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-23 jildlar. – Toshkent: O'zbekiston, 1996-2015.

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

3. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

6.2. Asosiy adabiyotlar

1. Yo'ldoshev X., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik (Ma'ruzalar matni) T., 2000y.
2. Jabborov I., Jabborov S. Jahon dinlari tarixi. T., «O'zbekiston», 2002y.
3. Xusanov S. Mirjavharova D. Dinshunoslik (o'quv-uslubiy qo'llanma). T.: -2005
4. Xusanov S. Jumaniyozov X. Mirjavharova D. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. T.: -2005 y.
5. Dinshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma / Ochildiev A. va boshqalar. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi. 2013. -320 b.
6. Dunyo dinlari tarixi /tuzuvchilar: S.Agzamxodjaev, D.Raximjonov, N.Muxamedov va b. –Toshkent: ToshDSHI, 2011. – 262 b.
7. Qurooni karim maonolarining tarjima va tafsiri / tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – T. «Toshkent islom universiteti» nashriyoti, 2014. – 625 b.
8. Bibliya / Sovremennyy perevod bibleyskix tekstov. – Moskva, 1997. – 1150 s.
9. Tora (Pyatiknijie Moiseevo). / Pod. obsh. red. prof. G.Branovera. – Ierusalim, Moskva: Shamir, 1993. – 1136 s.

6.3. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al mufrat (Adab durdonalari) T., 1990y.
2. Ochilov S. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. T., 1997y.
3. Tulenov J., G'ofurov Z. Mustaqillik va milliy tiklanish. T., 1995y.
4. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. T., 1998y.
5. Abduraxmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. To'ldirilgan ikkinchi nashri. T., 2002y.
6. Jumaboev Y. O'zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. T., 1997y.
7. Diniy ekstremizm va fundamentalizm: tarixi, mohiyati va bugungi havfi. T., 2000y.
8. Munavvarov Z. va boshqalar. Terrorizm: iddao va haqiqat. T., 2001y.
9. E.Xolidov, M.Lafasov, M.Rustamov “Merosimiz ildizlari” T.Ma'naviyat, 2008y.
10. Xusnitdinov Z. Islom: yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar. T., UME., 2000.
11. Abdullaev A.G'., Hakimova N., Jo'raev SH., Karimov J. Ilmdan boshqa najot yo'q. –T.: “Toshkent islom universiteti”, 2015y.
12. Tulepov A. Internetga in qurgan “o'rgimchaklar”. –T.: “Movarounnahr”, 2014y.
13. . Tulepov A. ISHID fitnasi. –T.: “Movarounnahr”, 2015y.

14. Otamuratov S.O. Globallashuv va milliy-ma'naviy havfsizlik. -T.: 2015y.
15. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning maonaviy-maorifiy asoslari / Masoul muharrir Z.Husniddinov. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot matbaasi, 2005.
16. Imom al-Buxoriy. Al-Adab al-mufrad. – T.: O'zbekiston, 1990.
17. Imom al-Buxoriy: Al-Jomio as-sahih: IV jild. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1993.
18. Islom va dunyoviy-maorifiy davlat (o'zb. va nemis tillarida). / Z.I.Munavvarov va V.Shnayder-Detersning Umumiy tahriri ostida. – T.: Imom Buxoriy xalqaro jamg'armasi-Fridrix Ebert jamg'armasi, 2003. – 291 b.
19. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-Jomi as-sahih (ishonarli to'plam). 4 jildli. T., Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1999.
20. Ishoqov M.M. Xalq dahosining qadimgi ildizlari va ilk kurtaklari (Zardushtiylik, Zardusht va Avesto haqida) // «Til va adabiyot taolimi» jurnali, № 2 (1992), B. 3-12.
21. G'azzoliy, Muhammad Abu Xomid. Ihyo-ul-ulum / Arabchadan Alouddin Mansur tarjimai // Kamalak. Adabiy-tanqidiy yillik to'plam. T., Yosh gvardiya, 1990.

Rus tilida

22. Басилов В.Н. Шаманство у народов Средней Азии и Казахстана. М., 1992.
23. Бергсон А. Два источника морали и религии. М., 1994.
24. Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. Пер. с англ. И.М. Стеблин-Каменского. Послесл. Э.А. Грантовского. 2-е издание, исправленное. М., 1988; третье издание, полностью переработанное. Санкт-Петербург, 1994.
25. Бартольд В.В. История изучения Востока в Европе и России // Бартольд В.В. Сочинения. Т. 9. М.: Восточная литература, 1977, сс. 197-482.
26. Бартольд В.В. Научная поездка в Западную Европу // Там же, сс. 564-580.
27. Вебер М. Избранные произведения. М., 1990.
28. Вебер М. Хозяйственная этика мировых религий. М., 1991.
29. Кимелев Ю.А. Современная западная философия религии. М., 1989.
30. М., 1999.
31. Рудольф У. Ал-Матуриди и суннитская теология в Самарканде. Алматы, 1999.
32. Угринович Д.М. Введение в религиоведение. М., 1985.

G'arb tillarida

1. Bel A. La religion musulmane en Berbérie: Esquisse dohistoire et de sociologie religieuses. 1. Etablissement et développement de lo Islam en Berbérie du VIIe au XXe siècle. Paris, 1938.
2. Bibliography of Islamic Central Asia. Compiled and edited by Yuri Bregel. Parts I-III. Bloomington: Indiana University, 1995.
3. Bosworth C.E. The New Islamic Dynasties. A chronological and genealogical manual. Edinburgh: University Press, 1996.
4. Donaldson B.A. The Wild Rue: A Study of Muhammadan Magic and Folklore in Iran. London, 1938.
5. The Encyclopaedia of Islam. New Edition. Leiden-London, 1960-...
6. The Encyclopaedia of Religion and Ethics. Edinburgh, New York, 1925.
7. The Encyclopaedia of Religion. Eliade, M. editor. 15 volumes. New York, 1987.
8. The Oxford Encyclopedia of Modern Islamic World. 4 volumes. New York, Oxford, 1995.
9. Waardenburg J. Classical Approaches to the Study of Religion. 2 vol. Mouton, The Hague, Paris, 1973-1974.
10. World Religions. From Ancient History to the Present. Editor: Geoffrey Parrinder. New York, Bicester, 1983.

6.4. Elektron ta'lim resurslari:

1. www.gov.uz
2. www.press-service.uz
3. www.UzA.Uz
4. www.tiu.uz
5. www.bilim.uz.
6. www.history.ru
7. www.ziyonet.uz
8. <http://www.fikr.uz>

7. Bilimlarni nazorat qilish:

Talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish rejalashtiriladi:

Joriy nazorat - talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazoratlar auditoriya mashg'ulotlarida og'zaki va aralash shakllarda o'tkaziladi.

Oraliq nazorat - semestr davomida o'quv dasturining tegishli bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratlar test va kollokvium shaklida o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat - semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat yozma shaklda o'tkaziladi.

Joriy nazorat:

Og'zaki – 5 baho

Mustaqil ta'lim – 5 baho

Oraliq nazorat:

Kollokvium - 5 baho (kodeks asosida)

Test - 5 baho

Yakuniy nazorat:

YaN – o'quv jarayoni grafigida belgilangan vaqtda yozma ish yoki og'zaki shaklda o'tkaziladi - 5 baho

	Nazorat turidagi topshiriqlarning nomlanishi	Maksimal yig'ish mumkin bo'lgan bal	O'tkazish vaqti
1. Joriy nazoratdagi baholar taqsimoti		5 baho	Semestr davomida
	Talabaning amaliy mashg'ulot-lardagi faolligi va o'zlashtirish darajasi, daftarlarning yuritilishi va holati	5	Semestr davomida
	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi (keys-stadilar, esse, referat, taqdimot va boshqa turdagi mustaqil ta'lim topshiriqlari)	5	
2. Oraliq nazorat		5 baho	Semestrning 4 haftasi
	Oraliq nazorat (ma'ruza o'qituvchisi tomonidan yozma ravishda qabul qilinadi)	5	

3. Yakuniy nazorat (yozma ish)			5 baho	Semestr- ning oxirgi haftasida	
Jami:			5 baho		
No	Nazorat shakllari	Semestr	Nazorat turlari	Nazorat turlari bo'yicha ballar	Nazorat turlarini o'tkazish sanasi
1.	2.	3.	4.	5.	6.
I	Joriy nazorat	2	Og'zaki	5	
			Og'zaki	5	
			Og'zaki	5	
			Og'zaki	5	
			Og'zaki	5	
			Og'zaki	5	
			Og'zaki	5	
			Og'zaki	5	
			Og'zaki	5	
			Mustaqil ish	5	
	Jami				
II	Oraliq nazorat		Yozma ish	5	
III	Yakuniy nazorat		Yozma ish	5	
	Jami			5	

O'zlashtirish ko'rsatkichlari

- 5 - bahogacha "a'lo"
- 4 - bahogacha "yaxshi"
- 3 - bahogacha "qoniqarli"
- 2 - bahogacha "qoniqarsiz"

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

a) 5 baho uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- Fanning mohiyati va mazmunini to'liq yoritma olsa;
- Fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymas;
- Fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
- Fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- Berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;

- Konspektni puxta tayyorlagan bo'lsa;
- Mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy-xuquqiy xujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;
- fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsa;

b) 4 baho uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;
- fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushingan bo'lsa;
- fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirida bajarsa;
- fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;
- fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa;
- fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy xujjatlarni o'zlashtirgan bo'lsa.

v) 3 baho ball uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;
- fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilmasa;
- bayon qilish ravon bo'lmasa;
- fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
- fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.

g) quyidagi hollarda talabning bilim darajasi qoniqarsiz bilan baholanishi mumkin:

- fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;
- fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;
- fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;
- fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;
- fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;
- fanni bilmasa.

O'quv fanining talablari:

Dinshunoslik kishilarning diniy e'tiqodi, dinlar, ulardagi oqimlar va mazxablar, din jamiyatning ajralmas kismi ekanligi xaqida **tasavvurga ega bo'lishi lazim.**

—Dinning umumiy ta'rifi, uning kelib chiqishi, ta'limoti muqaddas manbalari, oqimlari, jahonda mavjud bo'lgan dinlarning umumiy xususiyatlari, dunyo diniy xaritasi, dunyo xalqlarining dinga bog'liq qadriyatlari to'g'risida, din va qonun o'zaro munosabatlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar tug'risida"gi qonun haqida **habardor bo'lishi**

— Dinning insoniyat tarixiy taraqqiyotida tutgan o'rni, uning insoniyatga o'tkazgan ijtimoiy - psixologik ta'siri, birlashtiruvchilik, qonunlashtiruvchilik, tartibga soluvchilik, tasalli beruvchilik kabi jamiyadagi vazifalari, dunyo madaniyati va san'at soxalarining shakllanishida dinning o'rnini xamda buddizm, xristianlik, islom kabi dunyo dinlari va konfutsiychilik, yaxudiylik, hinduiylik kabi millim dinlarning kelib chiqishi, ta'limoti, mukaddas manbalari va hozirgi zamonda tutgan o'rnini, diniy marosimlarni **bilishi kerak**

— Diniy bag'rikenglik tamoyillariga amal qilish, dunyokarashlar erkinligini ta'minlash jarayonida jamiyatning boshka a'zolarini barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ko'maklashish, Vataniga va millim kadriyatlarga sadoqatli, har tomonlama yetuk komil insonlarni tarbiyalash **tajribasiga ega bo'lishi lozim.**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT KIMYO – TEXNOLOGIYA INSTITUTI



ABDULQAYMAN
TashkENT o'quv ishlari bo'yicha
prorektor

Jobs. T. Safaroy

08 2019 y.

"IJTIMOIY-SIYOSIY FANLAR" KAFEDRASI

« DINSHUNOSLIK »
fani bo'yicha

ISHCHI O'QUV DASTURI

(Bakalavriatning barcha yo'nalishlari uchun)

Umumiy o'quv saati	— 60
Shu jumladan:	
Ma'ruza	— 18
Amaliy mashg'ulot	— 18
Mustaqil ish	— 24

TOSHKENT - 2019

Annotatsiya: Ushbu ishchi o'quv dasturi OO'MTV ning 18.08.2018 yildagi buyrug'i bilan tasdiqlangan namunaviy o'quv rejasi va TKTI ning 2019-2020 o'quv yili uchun tasdiqlangan ishchi o'quv rejasi asosida tuzilgan bo'lib, kunduzgi bakalavriat ta'lim jarayoni uchun mo'ljallangan. Fan o'qituvchilari va talabalar foydalanishlari uchun tavsiya etiladi.

Tuzuvchilar: D.S. Mirjavharova
E.K.Axmedov

Taqrizchi: falsafa fanlari doktori, prof.

Otamuratov S.O.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Ijtimoiy-siyosiy fanlar" kafedrasining 2019 yil " 28 " avgustdagi 1-sonli majlisida ko'rib chiqilib, ijtimoiy-gumanitar fanlar ilmiy-uslubiy Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

"Ijtimoiy-siyosiy fanlar" kafedrasini mudiri  **O.Sirojov**

Fanning ishchi o'quv dasturi Ijtimoiy-siyosiy fanlar ilmiy-uslubiy Kengashining 2019 yil " ____ " avgustdagi 1-sonli majlisida tasdiqlandi.

Ijtimoiy-siyosiy fanlar

Ilmiy-uslubiy Kengash raisi

 **prof. Otamuratov S.O.**

I.Kirish.

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

“Dinshunoslik” fani gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar blokiga kiritilgan bo'lib, 1-kursda o'qitilishi maqsadga muvofiq. “Dinshunoslik” fani gumanitar fanlar turkumiga kiradi va barcha dinshunoslik bo'lmagan ta'lim yo'nalishlarida ham o'qitiladi. Mazkur fan dinshunoslikka oid fanlarning asosiy mazmun-mohiyatini o'zida mujassam etadi va yo'nalishdagi boshqa fanlar uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga milliy va diniy qadriyatlarning tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unligini tushuntirish, ularda diniy bag'rikenglik madaniyatini, dinga nisbatan to'g'ri yondashuvini shakllantirish va jamiyat uchun yuksak ma'naviyatli kadrlarni tarbiyalashdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga hozirgi davrdagi dinlarning ma'lum xalq hayotida tutgan o'rni haqida umumiy nazariy tushunchalar berish, ularning davlat va din munosabatlari, dinlararo bag'rikenglik g'oyasi va madaniyati to'g'risidagi tasavvurlarini boyitish; din va diniy qadriyatlarning talqin etilishi va bugungi kundagi ahamiyatini o'rgatish; globallashtirish jarayonida diniy sohada kechayotgan tendentsiyalarni yoritish, yoshlarda turli zararli diniy sekta va oqimlarning buzg'unchi g'oyalarga qarshi immunitetini shakllantirish.

Fan bo'yicha talabaning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

-davlat va din munosabati, Markaziy Osiyoda tarqalgan dinlar tarixi, ta'limoti, muqaddas manbalari, yo'nalishlari, jahonda mavjud bo'lgan dinlarning mushtarak xususiyatlari, dinlardagi oqimlar va mazhablar, dunyoning konfessional xaritasi, din va qonun o'zaro munosabatlari haqida *tasavvurga ega bo'lish*;

- missionerlik, prozeletizm va diniy ekstremizmning jamiyat hayotiga tahdid solishi hamda salbiy ta'siri va oqibatlari; dinlararo bag'rikenglik tamoyitlariga amal qilish, dinning mohiyati ezgulikdan iborat ekanini anglash, dinning ijtimoiy taraqqiyot bilan bevosita bog'liqligini tushunib etish; din va diniy qadriyatlarning inson ma'naviy hayotida tutgan o'rnini his etishini *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

- dunyoviy va diniy ilmlarning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini anglash, ularga nisbatan o'zining mustaqil fikrini bildirish; din niqobi ostidagi turli buzg'unchi g'oyalarga qarshi immunitetini shakllantirib borish, ularning yovuz niyatlariga o'zining erkin va xolis munosabatini bildirish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.

**III. Fanning ma’ruza, amaliy, seminar va mustakil ish mashg’ulotlari
mavzularining soatlar bo’yicha taqsimoti.**

№	Mavzuning nomi	Jami Aud soat	Ma’ruza soati	Seminar	J.N. O.N. Ya.N.	O’tilgan vaqt	Mustaqil ish
1.	Dinshunoslik faniga kirish		2	2	J.N		2
2.	Dinning mohiyati, tuzilishi va funksiyasi		2	2			2
3.	Urug’ –qabila va milliy dinlar		2	2			4
4.	Jahon dinlari: buddizm va xristianlik		2	2			4
5.	Islom dini		2	2	O.N		2
6.	Islom ta’limoti		2	2			2
7.	Xalqimiz ma’naviy yuksalishda dinlarning o’rni		2	2			4
8.	O’zbekistonda vijdon erkinligi		2	2			2
9.	Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: O’zbekiston tajribasi		2	2	J.N		2
	Jami	36	18	18			24

IV. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-mavzu. Dinshunoslik faniga kirish.

Dinshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Dinshunoslikning ijtimoiy –gumanitar fanlar bilan aloqadorligi. Dinshunoslik fanini o'rganishning jamiyat barqarorligini mustahkamlash, diniy bag'rikenglikni tarbiyalash, vijdon erkinligini ta'minlashdagi ahamiyati. Dinshunoslikda shakllangan mifologik, tarixiy, sotsiologik, antropologik va boshqa maktablar.

2-mavzu. Dinning mohiyati, tuzilishi va funksiyasi

Dinga berilgan ta'riflar. Din –ijtimoiy ongshakli, muayyan turmush va tafakkur tarzi, ma'naviy qadriyat sifatida. Dinning jamiyat va shaxs ma'naviyati yuksalishidagi, komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyati. Dinning strukturasi.

Dinning ijtimoiy funksiyalari: dunyoqarashni shakllantirish yosh avlodni tarbiyalash, tartibga solish, birlashtirish, tasalli berish, aloqa o'rnatish va h.k.

Dinlar tasnifi.

3-mavzu. Urug' –qabila va milliy dinlar.

Insoninigi dastlabki madaniyat o'choqlari va ulardagi diniy tasavvurlarning xilma –xilligi. Ilk tabu (ta'qiq), totemizm, animizm, fotesizm, shomonlik, magiya (sexrgarlik). Qadimgi Misr , Bobil va Assuriya dinlari. Antik davrda ko'pxudolik dinlari. Hinduiylik. Vedalar va upanishadlar –hinduiylik muqaddas kitoblari. Braxmanlik ta'limotida kastalar. Konfutsiylik. Daosizm –falsafiy ta'limot. Iudaizm –yaxudiy milliy dini. Yapon milliy dini –sintoizm, uning asosiy aqidalari va marosimlari.

4-mavzu. Jahon dinlari: buddizm va xristianlik.

Buddizm. Buddizm ta'limoti –to'rt oliy haqiqat, nirvana. Buddizm ahloqiy ta'limot –“pancha –shila”. Buddizmdagi oqimlar: mahayana, hinayana, lamaizm va h.k. O'zbekiston hududidagi buddizm yodgorliklari va ularning tadqiq etilishi.

Xristianlik. Xristian ilohiyoti. Yakka xudoning uch qiyofasi : Ota –xudo,O’g’il – xudo, Muqaddas ruh. Xristianlikdagi asosiy oqimlar –ortodoks (provoslavie), katolitsizm, protestantizm, Xristianlikning O’rta Osiyoga kirib kelishi.

5-mavzu. Islom dini.

Islom dini shakllanishidagi tarixiy sharoit. Muhammad payg’ambar (a.s) hayoti va faoliyati.Vahiyning nozil bo’la boshlashi. Madinaga hijrat. Makkaning fath etilishi. Halifalik. Islomda mazhablarning paydo bo’lishi, ilk ixtiloflar. Islom dinining O’rta Osiyoga kirib kelishi. Qur’on – islom dinining muqaddas kitobi. Hadislar. Islom ta’limotida oila muqaddasligi. Er –xotinning bir –biriga nisbatan huquq va burchlari. Islomda ayollarga munosabat.

6- mavzu. Islom ta’limoti

Islom ilohiyoti, uning asosiy aqidalari. Islom falsafasi olam va odamning yaratilishi, inson hayotining mazmuni, ezgulik va yovuzlik kurashi to’g’risida. Kalom falsafasi. Imom Moturidiy ta’limoti. Abu Nasr Farobiy va Abu Ali ibn Sinoninh falsafiy qarashlari. Abu Homid G’azzoliy, Ibn Rushd falsafiy ta’limotlari. Tasavvuf (sufizm) ta’limoti va tariqatlari. O’zbekiston allomalarining islom ta’limoti va dunyoviy fanlarni rivojlantirishdagi tarixiy xizmatlari

7-mavzu. Xalqimiz ma’naviy yuksalishda dinlarning o’rni.

Avesto –xalqimiz diniy, ahloqiy, ilmiy abadiy qarashlarini ifoda etadigan bebaho ma’naviy meros. Turkiy xalaqlarning islomgacha bo’lgan yakka xudolik dini – tangriga e’tiqod va uning diniy ong rivojidagi ahamiyati. “Musulmon renessansi” – Sharq uyg’onish davri ma’naviyatining xususiyatlari. Mustamlaka va mustabid tuzum sharoitida o’zbek xalqini milliy va diniy qadriyatlardan mahrum etishga urunishlar. Mustaqillik yillarida O’zbekistonda ma’naviyatning davlar siyosatida ustuvor sohaga aylanishi, Hadisshunoslik, fikh, tasavvuf maktablarining tashkil etilishi. Diniy –ma’naviy merosni o’rganishning hozirgi zamon muammolarini hal etishdagi roli.

8-mavzu. O'zbekistonda vijdon erkinligi.

Vijdon erkinligi tushunchasi. Xalqaro me'yoriy hujjatlarda vijdon erkinligi. O'zbekistonda vijdon erkinligining Asosiy Qonun bilan kafolatlanishi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan diniy konfessiya va tashkilotlar. Missionerlik va prozelitizm xavfining bartaraf etilishi. Ma'rifiy islomni targ'ib etish –yoshlarni diniy mutaassiblik, aqidaparastlik va ekstremistik g'oyalardan muhofaza etishning oqilona yo'li.

9-mavzu. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: O'zbekiston tajribasi.

Diniy mutaassiblik (fanatizm) ekstremizm, aqidaparastlik (fundamentalizm), xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmuni va reaksiya mohiyati. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash. Virtual olam tahdidlari. Internet muammosi. Kibermakon va din. Global tarmoqdagi g'oyaviy hurujlarga qarshi kurash. O'zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy va tashkiliy asoslari. O'zbekiston rahbariyatining bu boradagi tashabbuslari va ularning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishi.

V. Seminar mashg'ulotlari. (18 soat)

1-Mashg'ulot. (2 soat)

Mavzu: Dinshunoslik faniga kirish

Reja:

1. Dinshunoslik fanining predmeti va maqsadi.
2. Dinshunoslik fanini o'qitish va o'rgatishning vazifalari.
3. Dinning kelib chiqishi haqidagi qarashlar.
4. Sog'lom e'tiqod va diniy bag'rikenglik

2-Mashg'ulot. (2 soat)

Mavzu: Dinning mohiyati, tuzilishi va funksiyasi

Reja:

1. Dinga berilgan ta'riflar. Din –ijtimoiy ong shakli, tafakkur tarzi, ma'naviy qadriyat sifatida.
2. Dinning ildizlari va dinlar tasnifi.
3. Dinning ijtimoiy funksiyalari.
4. Dinning jamiyat va shaxs ma'naviyati yuksalishidagi ahamiyati.

3-Mashg'ulot. (2 soat)

Mavzu: Urug' –qabila va milliy dinlar.

Reja:

1. Dinning ibtidoiy shakllari.
2. Qadimgi Hindistondagi milliy dinlar.
3. Konfutsiylik, Daosizm diniy falsafiy ta'limot.
4. Iudaizm –yahudiylik milliy dini.
5. Yapon milliy dini –sintoizm, uning asosiy aqidalari va marosimlari.

4-Mashg'ulot. (2 soat)**Mavzu: Jahon dinlari: buddizm va xristianlik.****Reja:**

1. Buddaviylik dini va ta'limoti.
2. Buddaviylik O'rta Osiyoda
3. Xristianlik dini mohiyati va ta'limoti
4. Xristianlikning O'rta Osiyoga kirib kelishi va hozirgi davrda xristianlik.

5-Mashg'ulot. (2 soat)**Mavzu: Islom dini.****Reja:**

1. Arabiston yarim orolida islom vujudga kelgan davrdagi shart –sharoit va ma'naviy hayot .
2. Islom dinining kelib chiqishi, shakllanishi va boshqa o'lkalarga tarqalishi .Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi.
3. Islom dinining asosiy manbalari. Qur'on, uning tuzulishi, jamlanishi.
4. Hadislar Islom dinining Qur'ondan keyingi ikkinchi manbaidir.
5. Islom dini manbalarining tarbiyaviy ahamiyati. Islomda oila masalasi.

6-Mashg'ulot. (2 soat)**Mavzu: Islom ta'limoti****Reja:**

1. Islom ta'limoti, uning asosiy aqidalari.
2. Islom dinidagi asosiy yo'nalishlar va mazhablar.
3. Islom dinida aqidaviy masalalarni izohlashda Movorounnahr Moturudiya maktabining o'rni. Kalom ilmi.
4. Tasavvuf ta'limoti va uning Markaziy Osiyodagi tariqatlari
5. Islom huquqshunosligining shakllanishi va shariatning mohiyati

7-Mashg'ulot. (2 soat)

Mavzu: Xalqimiz ma'naviy yuksalishda dinlarning o'rni.

Reja:

1. Turkiy xalqlarning islomgacha bo'lgan diniy e'tiqodi. Zardushtiylik diniy ta'limoti
2. Musulmon Renessansi –Sharq uyg'onish davri ma'naviyatining xususiyatlari
3. Mustamlaka va mustabid tuzim sharoitida o'zbek xalqini milliy va diniy qadriyatlardan mahrum etilishi va toptalishi
4. Mustaqillik yillrida O'zbekistonda ma'naviyatning davlat siyosatida ustuvor sohaga aylanishi
5. Xalqimiz ma'naviy yuksalishida dinlarning o'rni.

8-Mashg'ulot. (2 soat)

Mavzu: O'zbekistonda vijdon erkinligi.

Reja:

1. Din masalasida mavjud xalqaro me'yoriy hujjatlar
2. Vijdon erkinligi diniy e'tiqod erkinligidir.
3. Mustaqil O'zbekistonda vijdon erkinligining Konstitutsion kafolatlanishi.
4. Missionerlik va prozelitizmga qarshi kurashning huquqiy-amaliy asoslari.
5. Globallashuv va din. Mazhabsizlik va uning salbiy oqibatlari.

9-Mashg'ulot (2 soat)

Mavzu: Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: O'zbekiston tajribasi.

Reja:

1. Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblikning mazmun-mohiyati.
2. Terrorizm tushunchasi va uning asosiy belgilari.
3. Islom niqobidagi ekstremizmning g'oyaviy ildizlari.
4. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. O'zbekiston tajribasi

Amaliy mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi. Ko'rgazmali materiallar va axborot multimedia qurilmalaridan foydalaniladi.

VI. Mustaqil ta'lim

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Allomalar din to'g'risida.
2. Dinning ijtimoiy vazifalari(kompensatorlik, integratorlik, regulyatorlik, kommunikativ, legitimlovchilik).
3. Ilk diniy tasavvurlar.
4. Qadimgi Yunon va Misr xudolari.
5. Qadimgi Misr ehromlari.
6. Yahudiylik dinining xususiyatlari.
7. Hinduiylikdagi uchlik (trimurti) xudolari
8. Zardushtiylikning vujudga kelishi
9. "Avesto" –zardushtiylikning muqaddas manbasi.
- 10.Meditatsiya – buddaviylikning muhim qoidalari.
- 11.Buddaviylikdagi to'rt haqiqat.
- 12.Iso Masih (Nisus Xristos) hayotiga doir ma'lumotlar.
- 13.Xristianlik manbalari.
- 14.Xristianlik oqimlari.
- 15.Islomni vujudga kelishi va tarqalishi.
- 16.Islomdagi mazhablar
- 17.Islom -ma'rifat dini.
- 18.Qur'on Sharq xalqlarining diniy , ilmiy va ma'naviy me'rosi sifatida.
- 19.Hadislarda milliy va diniy qadriyatlarning aks etishi.
- 20.Tasavvuf falsafasi.
- 21.Diniy e'tiqod ning paydo bo'lishi.
- 22.Dinning ilk ko'rinishlari
- 23.O'rta Osiyo xalqlari diniy tasavvurlarining shakllanishi
- 24.O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan diniy konfessiya va tashkilotlar
- 25.Qur'oni karim va umuminsoniy g'oyalari
- 26.Qur'oni Karim suralarining to'planishi va mushaf qilinishi.
- 27.Hanafiy mazhabi
- 28.Hanafiylikdagi bag'rikenglik g'oyalari
- 29.Payg'ambar hadislari va sunnasi.
- 30.Buyuk muhaddis Ismoil al-Buxoriy.
- 31.Kubraviya tariqati va ta'limotining o'ziga xos jihatlari.
- 32.Naqshbandiya tariqati
- 33.Yassaviya tariqati
- 34.Markaziy Osiyoda hadisshunoslikning rivojlanishi

35. Missionerlikka qarshi kurashning huquqiy-amaliy asoslari
36. O'zbekiston Respublikasida faoliyati aniqlangan norasmiy diniy jamoalar
37. Mustaqil O'zbekistonda Vijdon erkinligining Konstitutsion kafolatlanishi.
38. Din, e'tiqod erkinligi va ilmiy dunyoqarash.
39. Diniy ekstremizm va fundamentalizm.
40. Xalqaro terrorizmga qarshi kurash.
41. O'rta Osiyo xalqlari tarixida din.
42. Islomning e'tiqodga aylantirish davrida O'rta Osiyo xalqlari madaniyati.
43. Imom Marg'inoniy – mashhur fiqhshunos.
44. Islom ta'limotida oila muqaddasligi.
45. Islomda ayollarga munosabat.
46. Ilm fan, ma'naviyat va e'tiqod
47. Jahon dinlari va tafakkur erkinligi
48. Yangi davr dinlari va hur fikrlilik
49. Din va zamonaviylik
50. Islomiy odoblarning xususiyatlari

Fan dasturining bajarilishi kalendar rejasi

Mashg'ulot turi: **Ma'ruza**, 2019-2020 o'quv yili

Fakultet: _____ Gurux _____

Fanning nomi: **Dinshunoslik**

Ma'ruza o'qituvchisi: _____

Amaliy mashg'ulotlari o'qituvchisi: _____

№ T.b.	Mavzular nomi	Reja bo'yicha ajratilgan xajm	Amalda bajarilishi		O'qituvchi imzosi
		soatda	soat	sana	
1.	Dinshunoslik faniga kirish	2			
2.	Dinning mohiyati, tuzilishi va funksiyasi	2			
3.	Urug' –qabila va milliy dinlar	2			
4.	Jahon dinlari: buddizm va xristianlik	2			
5.	Islom dini	2			
6.	Oraliq nazorat	2			
7.	Islom ta'limoti	2			
8.	Xalqimiz ma'naviy yuksalishda dinlarning o'rni	2			
9.	O'zbekistonda vijdon erkinligi	2			
10.	Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: O'zbekiston tajribasi	2			
11	Yakuniy nazorat	2			
Jami		22			

Fan dasturining bajarilishini kalendar rejasi

Mashg'ulot turi: **Seminar**, 2019-2020 o'quv yili

Fakultet: _____ Guruh _____

Fanning nomi: **Dinshunoslik**

Ma'ruza o'qituvchisi: _____

Amaliy mashg'ulotlari o'qituvchisi: _____

№ T.b.	Mavzular nomi	Reja bo'yicha ajratilgan xajm	Amalda bajarilishi		O'qituvchi imzosi
			soat	sana	
1.	Dinshunoslik faniga kirish	2			
2.	Dinning mohiyati, tuzilishi va funksiyasi	2			
3.	Urug' –qabila va milliy dinlar	2			
4.	Jahon dinlari: buddizm va xristianlik	2			
5.	Islom dini	2			
6.	Islom ta'limoti	2			
7.	Xalqimiz ma'naviy yuksalishda dinlarning o'rni	2			
8.	O'zbekistonda vijdon erkinligi	2			
9.	Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: O'zbekiston tajribasi	2			
Jami		18			

VII. Baholash jadvali.

Fan uchun 36 soat xajmida vaqt ajratiladi. Ulardan 18 soat ma'ruza va 18 soat amaliy mashg'ulotga mo'ljallangan. Fan bir semestr davomida o'qitiladi. Darslar davomida ikki marta joriy, bir marta oraliq va bir matra yakuniy nazorat o'tkaziladi.

2019 – 2020 o'quv yili semestr _____ kafedra _____
fani bo'yicha talabaning bilimni baholash.

Baholash jadvali.

Yuqori baho - 5 . Yaxshi baho – 4 , Qoniqarli baho -3, Qoniqarsiz baho - 2
Joriy va oraliq baholashlardan qoniqarli baho olgan talaba yakuniy baholashga qo'yiladi.

No	Nazorat shakllari	Semestr	Nazorat turlari	Nazorat turlari bo'yicha baho	Nazorat turlarini o'tkazish sanasi
1.	2.	3.	4.	5.	6.
I	Joriy nazorat	2	Og'zaki	5	
			Og'zaki	5	
			Og'zaki	5	
			Og'zaki	5	
			Og'zaki	5	
			Og'zaki	5	
			Og'zaki	5	
			Og'zaki	5	
			Og'zaki	5	
			Mustaqil ish		
II	Oraliq nazorat		Yozma ish	5	
III	Yakuniy nazorat		Yozma ish	5	

VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

I. Rahbariy adabiyotlar.

1. Sh.M.Mirziyoev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent-«O'zbekiston» - 2016. 56 bet
2. Sh.M.Mirziyoev. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Toshkent: "O'zbekiston", 2017. - 104 b.
3. Sh.M.Mirziyoev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent-«O'zbekiston» - 2017. 488 bet.
4. Sh.M.Mirziyoev "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" Toshkent-«O'zbekiston»-2017.48 bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr.
- 7.I.A.Karimov Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir – T.. O'zbekiston, 2015. – 304 b.
- 7.I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". Toshkent, O'zbekiston, 2008.
- 8.Islom Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Toshkent, O'zbekiston, 1992.
- 9.Islom Karimov. Biz qurish, yaratish yo'lidan boraveramiz. Toshkent, O'zbekiston, 1995.
10. Islom Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Toshkent, O'zbekiston, 1996.
- 11.Islom Karimov. Vatan sajdagoh, kabi muqaddasdir. Toshkent, O'zbekiston, 1996.
- 12.Islom Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent, O'zbekiston, 1994.
- 13.Islom Karimov. O'zbekiston: milliy Istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Toshkent, O'zbekiston, 1996.
- 14.Islom Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent, O'zbekiston, 1995.
15. Islom Karimov. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida. Toshkent, O'zbekiston, 1994.
16. Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, Shark, 1998.
17. Islom Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent, O'zbekiston, 1999.

Asosiy adabiyotlar:

- 11.Dinshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma / Ochildiev A. va boshqalar. –Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. 2013. -320 b.
- 12.Yusupova D.D. Dinshunoslik –T. O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiya harbiy-texnik instituti, 2018 y.
- 13.Dunyo dinlari tarixi /tuzuvchilar: S.Agzamxodjaev, D.Raximjonov, N.Muxamedov va b. –Toshkent: ToshDSHI, 2011. – 262 b.
- 14.Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – T. «Toshkent islom universiteti» nashriyoti, 2014. – 625 b.
15. Bibliya / Sovremennyy perevod bibleyskix tekstov. – Moskva, 1997. – 1150 s.

16. Tora (Pyatiknijie Moiseevo). / Pod. obšč. red. prof. G.Branovera. – Ierusalim, Moskva: Shamir, 1993. – 1136 s.
17. Burxoniddin Margʻinoniy “Hidoya”. 1-jild. “Adolat”, Toshkent 2000. – 848 b.
18. “Islom ensiklopediya”, “Oʻzbekistom milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti 2004 yil
19. Isʻhoqxon Toʻra Ibrat “Fihi Kaydoniy Nazmi”. T.: “Movorounnahr”.2012. – 93b
20. Maʼnaviyat asosiy tushunchalar izohli lugʻati T-2009 yil
21. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Aqoid ilmi. T.: “Hilol”, 2013. – 352
22. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom Tarixi T.: “Hilol”, 2018 yil.
23. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Ijtimoiy odoblar” T.: “Hilol”, 2018 yil.
24. Ochiliev A. Dinshunoslik asoslari. Oʻquv qoʻllanma. T.: Toshkent Islom universiteti. 2013. – 320 b.
25. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va Oʻrta Sharqning falsafiy tafakkuri (oʻrta asrlar). Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: ToshDShI nashriyoti, 2010. - 212 b.
26. Muhammad Yaxyo Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. Toshkent, Movarounnahr, 2016. – 672 b.
27. Falsafa: ensiklopedik lugʻat. OʻzRFA, I. Moʻminov nomidagi falsafa va huquq in-ti. T.: – “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 344 b.
28. Farobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent, 1991.
29. Choriev A. Inson falsafasi. T.: Oʻzbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. 2007.

Qoʻshimcha adabiyotlar:

30. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning maʼnaviy-maʼrifiy asoslari / Masʼul muharrir Z. Husniddinov. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot matbaasi, 2005.
31. Imom al-Buxoriy. Al-Adab al-mufrad. – T.: Oʻzbekiston, 1990.
32. Imom al-Buxoriy: Al-Jomiʼ as-sahih: IV jild. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1993.
33. Otamuratov S. Globallashuv va milliy-maʼnaviy xavfsizlik. 2-nashr. T.: Oʻzbekiston. 2015 y.
34. Samarov R. Inson kamolotini taʼminlashda adabiyot // Oʻzbekistonda xorijiy tillar ilmiy metodik elektron jurnal №1. 2017. 188-195 betlar.
35. Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash masʼuliyati. T.: Oʻzbekiston. 2018. 340 b.
36. Islom va dunyoviy-maʼrifiy davlat (oʻzb. va nemis tillarida). / Z.I. Munavvarov va V. SHnayder-Detersning Umumiy tahriri ostida. – T.: Imom Buxoriy xalqaro jamgʻarmasi-Fridrix Ebert jamgʻarmasi, 2003. – 291 b.

37. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-Jomi as-sahih (ishonarli to'plam). 4 jildli. T., Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1999.
38. Ishoqov M.M. Xalq dahosining qadimgi ildizlari va ilk kurtaklari (Zardushtiylik, Zardusht va Avesto haqida) // «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, № 2 (1992), B. 3-12.
39. G'azzoliy, Muhammad Abu Xomid. Ihyo-ul-ulum / Arabchadan Alouddin Mansur tarjimasi // Kamalak. Adabiy-tanqidiy yillik to'plam. T., Yosh gvardiya, 1990.

Rus tilida

40. Basilov V.N. Shamanstvo u narodov Sredney Azii i Kazaxstana. M., 1992.
41. Bergson A. Dva istochnika morali i religii. M., 1994.
42. Boys M. Zoroastriytsy. Verovaniya i obychai. Per. s angl. I.M. Steblin-Kamenskogo. Poslesl. E.A. Grantovskogo. 2-e izdanie, ispravlennoe. M., 1988; trete izdanie, polnost'yu pererabotannoe. Sankt-Peterburg, 1994.
43. Bartold V.V. Istoriya izucheniya Vostoka v Yevrope i Rossii // Bartold V.V. Sochineniya. T. 9. M.: Vostochnaya literatura, 1977, ss. 197-482.
44. Bartold V.V. Nauchnaya poezdka v Zapadnuyu Yevropu // Tam je, ss. 564-580.
45. Veber M. Izbrannyye proizvedeniya. M., 1990.
46. Veber M. Xozyaystvennaya etika mirovyyx religiy. M., 1991.
47. Kimelev Yu.A. Sovremennaya zapadnaya filosofiya religii. M., 1989.
48. M., 1999.
49. Rudol'f U. Al-Maturidi i sunnitskaya teologiya v Samarkande. Almato', 1999.
50. Ugrinovich D.M. Vvedenie v religiovedenie. M., 1985.

G'arb tillarida

51. Bel A. La religion musulmane en Berbérie: Esquisse d'histoire et de sociologie religieuses. 1. Etablissement et développement de l'Islam en Berbérie du VIIe au XXe siècle. Paris, 1938.
52. Bibliography of Islamic Central Asia. Compiled and edited by Yuri Bregel. Parts I-III. Bloomington: Indiana University, 1995.
53. Bosworth C.E. The New Islamic Dynasties. A chronological and genealogical manual. Edinburgh: University Press, 1996.
54. Donaldson B.A. The Wild Rue: A Study of Muhammadan Magic and Folklore in Iran. London, 1938.
55. The Encyclopaedia of Islam. New Edition. Leiden-London, 1960-...

56. The Encyclopaedia of Religion and Ethics. Edinburgh, New York, 1925.
57. The Encyclopaedia of Religion. Eliade, M. editor. 15 volumes. New York, 1987.
58. The Oxford Encyclopedia of Modern Islamic World. 4 volumes. New York, Oxford, 1995.
59. Waardenburg J. Classical Approaches to the Study of Religion. 2 vol. Mouton, The Hague, Paris, 1973-1974.
60. World Religions. From Ancient History to the Present. Editor: Geoffrey Parrinder. New York, Bicester, 1983.

Elektron ta'lim resurslari:

1. www.gov.uz
 2. www.press-service.uz
 3. www.UzA.Uz
 4. www.ziyonet.uz
- www.tiu.uz

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT KIMYO – TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

“IJTIMOIY-SIYOSIY FANLAR” KAFEDRASI

« DINSHUNOSLIK »

fanidan

Ma'ruza matnlari

TOSHKENT – 2019

1-mavzu: «Dinshunoslik» faniga kirish.

Ma'ruza rejasi

5. Dinshunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
6. Dinning kelib chiqishi haqidagi qarashlar.
7. Sog'lom e'tiqod va diniy bag'rikenglikni ta'minlashda dinshunoslik fanining o'rni

Tayanch so'z va iboralar : Diniy bag'rikenglik, Sog'lom e'tiqod, din shakllari, XIX asr G'arbiy Yevropa, Myuller, Taylor, Tille, xurfiqrlilik.

1-masala bayoni: Dinshunoslik fanining ham o'z o'rganish ob'ekti, ya'ni predmeti mavjud. Dinshunoslik – din, uning kelib chiqishi, tarixiy shakllari, evolyutsiyasi, muqaddas yozuvlari, kishilar va jamiyat hayotida tutgan o'rni, hurfiqrlilik, diniy va dunyoviy dunyoqarashlarning o'zaro munosabatlari kabi masalalarni o'rganuvchi ilmiy-falsafiy o'quv predmeti sanaladi.

Dinshunoslik fani ilohiyotdan farqli ravishda, u din haqida faqat arxeologiya, etnografiya, tarix, demografiya, psixologiya kabi fanlar beradigan ilmiy dalillarga suyanib ish yuritadi va uni bayon etadi, tushuntiradi.

Dinshunoslik – kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo'lgan barcha din shakllarining ma'nosi, uning ma'naviy, ijtimoiy, gnoseologik, psixologik ildizlarini, ularning tarixi va g'oyalari, ta'limotlari mohiyatini, marosimlari, jamiyat hayotida tutgan o'rni va tamoyillarini ilmiy asosda o'rganuvchi, izohlovchi va o'rgatuvchi fandır.

Dinshunoslik XIX asr o'rtalarida G'arbiy Evropada alohida fan tarmog'i sifatida vujudga kelgan. Uning asoschilari – Myuller, Taylor, Tile, Sosse, Freyzerlardir. O'zbekistonda dinshunoslik XX asrning 30-yillarida shakllana boshlagan. Oldin esa faqat islomshunoslik bor edi, xolos.

Dinshunoslikni o'rganish g'oyat muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Bular quyidagilardan iborat:

- u dinga ob'ektiv, ya'ni xolisona, ilmiy, oqilona baho berishni o'rgatadi; uni ko'klarga ko'tarib, haddan oshirib yubormasdan va ayni vaqtda erga urmasdan baho berishni o'rgatadi;
- u din, jumladan islom haqidagi asossiz ta'limotlarni rad etishni, uni buzib, sohtalashtirib baho berishlarning zararli ekanligini isbotlaydi;
- dinni hurfiqrlilik, ya'ni u haqida erkin fikr yuritish, dinni fandan ustun qo'ymasdan, u bilan yonma-yon turadigan ta'limot deb hisoblab, dindagi real, dunyoviy qadriyatlarga ijobiy baho berib, ulardan foydalanish yo'llarini belgilab beradi;

- dindan, jumladan islomdan siyosiy maqsadlarda foydalanishga urinayotgan fundamentalist, aqidaparast, ekstremistlarning asl qiyofasini, maqsadlarini ochib berib, ularga qarshi kurash yo'llari, usullarini o'rgatadi;
- talabalarda falsafiy, ilmiy, hurfikrlilik dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi;
- mustaqillik yillari diniy, jumladan islomiy qadriyatlarning real imkoniyatlari yaratilib, din va uning qadriyatlari xalqimiz turmush tarzi va ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib borayotganligini asoslab beradi;
- xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda olijanob g'oya va niyatlar yo'lida diniy bag'rikenglik asosida hamkor va hamjihat bo'lib yashab kelganligi va kelayotganligi, uning hayot taqozosi ekanligini ko'rsatib beradi va boshqalar.

Dinshunoslik fani orqali talabalar, kishilarning diniy e'tiqodi, dinlar, ulardagi oqimlar va mazxablar, din jamiyatning ajralmas qismi ekanligi xaqida ***tasavvurga ega bo'lishi lazim.***

—Dinning umumiy ta'rifi, uning kelib chiqishi, ta'limoti muqaddas manbalari, oqimlari, jahonda mavjud bo'lgan dinlarning umumiy xususiyatlari, dunyo diniy xaritasi, dunyo xalqlarining dinga bog'liq qadriyatlari to'g'risida, din va qonun o'zaro munosabatlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar tug'risida"gi qonun haqida ***habardor bo'lishi***

— Dinning insoniyat tarixiy taraqqiyotida tutgan o'rni, uning insoniyatga o'tkazgan ijtimoiy - psixologik ta'siri, birlashtiruvchilik, qonunlashtiruvchilik, tartibga soluvchilik, tasalli beruvchilik kabi jamiyadagi vazifalari, dunyo madaniyati va san'at soxalarining shakllanishida dinning o'rnini xamda buddizm, xristianlik, islom kabi dunyo dinlari va konfutsiychilik, yaxudiylik, hinduiylik kabi millim dinlarning kelib chiqishi, ta'limoti, mukaddas manbalari va hozirgi zamonda tutgan o'rnini, diniy marosimlarni ***bilishi kerak***

— Diniy bag'rikenglik tamoyillariga amal qilish, dunyokarashlar erkinligini ta'minlash jarayonida jamiyatning boshka a'zolarini barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ko'maklashish, Vataniga va millim kadriyatlarga sadoqatli, har tomonlama yetuk komil insonlarni tarbiyalash ***tajribasiga ega bo'lishi lozim.***

2-masala bayoni: Dunyoda dini, diniy ishonchi bo'lmagan xalq, millat yo'q. Chunki muayyan xalq dinsiz, e'tiqodsiz, biron-bir narsaga ishonchsiz holda yashay olmaydi. Din qanday paydo bo'lgan degan savol hammani qiziqtiradi. Bu masalaga javob berishda avvalo, odamning kelib chiqishi, uning ongi, tafakkurining shakllanish jarayoni va u bilan birga diniy tasavvurlarning kelib chiqishi jarayoni ancha murakkab va ziddiyatlarga to'la muammo ekanligini e'tiborda tutmoq lozim. Bu kabi muammolarni echish, unga to'g'ri javob berish maqsadida ko'plab mutafakkirlar fikr yuritib, turli ta'limot va qarashlarni yaratganlar.

Keyingi bir necha asr davomida olimlar o'rtasida ilmiy ijobiy bilimlar oldin paydo bo'lganmi yoki diniy, xurofiy tasavvurlar yuzaga kelganmi, diniy qarashlar abadiymi yoki insoniyat tarixida din bo'lmagan davrlar ham bo'lganmi degan savollar atrofida jiddiy tortishuvlar bo'lib kelmoqda. CHunonchi, g'ayri ilmiy ta'limotga berilgan G'arb dinshunoslari, ayniqsa ilohiyotchilar diniy tasavvurlar inson paydo bo'lishi bilan uning qalbi va ongiga singdirilgan, ya'ni tug'ma qarashlar deb isbot qilishga harakat qilmoqdalar. Ular dinning dastlabki shakllari, umuman din butun davrlarga va barcha xalqlarga xos universal holat, din inson bilan paydo bo'lgan, u bilan abadulabad yashaydi, diniy tasavvurlar tug'madir degan g'oyalarni isbotlashga urinmoqdalar.

Dinning kelib chiqishi haqidagi bunday noto'g'ri qarashni isboti tariqasida Boburning nabirasi Akbarshoh, garchi g'ayriinsoniy bo'lsada o'tkazgan g'alati bir tajribani misol qilib keltirishni lozim topdik. U har xil dinga e'tiqod qiluvchi kishilarning endi tug'ilgan 12 ta farzandini tortib olib, ularga qarab turuvchi gung enagalari bilan birga baland devorlik ayrim qasrga qamab qo'yishni buyuradi. SHu tariqa bolalar tashqi dunyodan ajralgan holda 12 yil davomida qasr ichida yashaydilar. Bolalar 12 yoshga to'lgach, shoh huzuriga turli irqdagi va dindagi mashhur olimu ulamolar to'planishadi. Ularning deyarli hammasi diniy tasavvurlar tug'ma, inson muayyan dinga mansub bo'lib tug'iladi, degan fikrni himoya qilganlar. Akbarshoh bunday fikrga qarshi chiqib, inson kamolotida ta'lim-tarbiya, u yashaydigan muhit hal qiluvchi omil ekanligini aytadi va gunglar tarbiyasida bo'lgan bolalarni keltirishni buyuradi. 12 yil mobaynida jamiyatdan, odamlardan ajratib qo'yilgan bolalar na bir tilni, na bir dinni bilmaganlar. Ular qandaydir noaniq tovushlar chiqarib, o'z fikrlarini imo-ishoralar bilan tushuntirishga harakat qilganlar.¹

Shu bilan birga, din abadiy tug'ma, doimiy zarur hodisa bo'lmasdan, u inson va jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida vujudga kelgan degan qarash, g'oya ilmiy dinshunoslikning asosiy tamoyili ekanligini olg'a suruvchi qarashlar ham

¹ Qarang. Jabborov I., Jabborov S. Jahon dinlari tarixi. Toshkent, «O'zbekiston» 2002, 34-35-betlar.

mavjud. Bunday qarash kishilik jamiyati tarixida din bo'lmagan davrlar ham bo'lganligini ko'rsatadi. Xozirgi ilmiy dinshunoslik tarix, arxeologiya va boshqa fanlar bergan ma'lumotlarga asoslanib diniy qarashlar bundan 30-40 ming yil ilgari, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yuzaga kelgan degan xulosaga asoslanadi. Dinning kelib chiqishiga sabab esa ibtidoiy odamlarning tabiatning ko'pgina hodisalari oldida ojiz ekanliklari, ularning sabablarini bilmaganliklari, ularni qandaydir ko'zga ko'rinmas ilohiy kuchlar boshqaradi va ular kishilar hayotiga ta'sir qiladi degan tasavvurlarga asoslanganliklaridir. Bular momaqaldir gumburlashi, chaqmoq chaqishi, zilzilalar, suv toshqinlari, dahshatli dovullar, kasallik, uyqu, tush ko'rish, o'lim, quyosh tutilishi, vulqon otilishi, ochlik, qashshoqlik va boshqalar.

Xulosa shuki, din hamisha bo'lmagan; u urug'chilik-qabilachilik tuzumida, bundan taxminan 30-40 ming yillar oldin paydo bo'la boshlagan.

Din abadiy va tug'ma, doimo zarur hodisa bo'lmasdan uni muayyan davrda jamiyat yaratgandir, degan g'oya ilmiy dinshunoslikning asosiy tamoyilidir. Jahonda turli davrda paydo bo'lgan yuzlab din shakllari mavjud bo'lib, ular dunyoqarash sifatida o'z dinini haq deb biladilar.

3- masala bayoni

E'tiqod — (ishonch, iymon) — muayyan maqsad, g'oya, ta'limot yoki qadriyatning to'g'riligiga bo'lgan qat'iy ishonch hamda shu asosda shakllangan tafakkur tarzi. Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda e'tiqod tushunchasi turlicha izohlanadi. Bilim e'tiqodni vujudga kelishi uchun asos vazifasini bajaradi. Lekin, e'tiqod va bilim biri ikkinchisiga uyqash tushunchalar emas. Bilimlarning chinligi e'tiqodni mustahkam bo'lishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Ammo, e'tiqod mustahkam bo'lishida bilimni yagona asos deb bo'lmaydi. Inson ongida qayta ishlangan, ya'ni tajribadan o'tgan, qayta o'rganilgan bilimlar(g'oyalar, nazariyalar)gina e'tiqodning mustahkam bo'lishini ta'minlaydi. Insoniyat tomonidan allaqachonlar yaratilgan bilimlar insonning o'zi uchun, o'z ehtiyojlari uchun qayta kashf etilgandagina chinakam e'tiqod darajasiga ko'tariladi. Bilim e'tiqodga aylanishi uchun bir necha bosqichlarni bosib o'tadi. Chunonchi, bilim o'z rivojining dastlabki bosqichida anglash holatini bosib o'tadi. Anglab olingan bilim, o'z rivojining ikkinchi bosqichida tushunish holatiga kiradi. Inson bilimlari ma'no va mohiyatini tushunib yetgach uning to'g'riligiga (yoki noto'g'riligiga) ishonch hosil qiladi. Faqat mustahkam e'tiqodga aylangan bilim (g'oya, nazariya) inson amaliy faoliyatini takomillashtiradi. Inson e'tiqodi nafaqat turli hodisalarni o'zida aks ettirgan bilimlarga, balki o'sha bilimlarga bergan bahosiga, unga bo'lgan munosabatiga ham bog'liq bo'ladi.

E'tiqod quyidagi uch holatni bosib o'tadi:

a) bilim, g'oya, nazariya (ya'ni aqliy holat);

b) bilimlarga berilgan baho, munosabat (ya'ni baholash holati);

v) o'zlashtirilgan bilimlarni o'z faoliyatiga tatbiq etish, o'sha bilimlar asosida o'z xatti-harakatini tartibga solish (xohish-iroda bilan boshqarish holati) sanaladi.

Inson dunyoqarashining asosiy komponenti sifatida e'tiqod bilish, baholash, boshqarish kabi funktsiyalarni bajaradi. Uning bilish funktsiyasi asosida olamdagi turli hodisalar, voqealar, jarayonlar sodir bo'lishiga doir bilimlar yotsa, baholash funktsiyasi o'zlashtirib olingan bilimlarga tayanib, sodir bo'layotgan o'zgarishlar ma'nosi va mohiyatini tushunib olish bilan bog'liq bo'ladi. Boshqarish funktsiyasi esa, insonni o'z xulq-atvori, hatti-harakatiga ko'rsatayotgan ta'siri, uni aniq maqsad tomon yo'naltira olish qobiliyati, malakasi bilan aloqador bo'ladi. E'tiqod inson dunyoqarashining eng barqaror elementidir. Insonning hayotiy pozitsiyasi, turmush tarzining mazmuni xuddi shu komponentning mustahkamligiga, barqarorligiga bog'liq. Chin ob'ektiv bilimga, turmush sinovlaridan o'tgan ilmiy g'oyaga, naz-yaga asoslanmagan e'tiqod g'ayriilmiy yoki nosog'lom e'tiqoddir. G'ayriilmiy qarashlarga tayanish ko'pincha kishilarni o'zi yoki yaqinlari manfaatiga zid ishlarga qo'l urishiga ham olib kelishi mumkin. Shu nuqtai-nazardan, g'ayriilmiylik bilan nosog'lom e'tiqod orasida aloqadorlik bor.

Inson madaniyatining muhim elementi bo'lmish sog'lom e'tiqodning ahamiyati katta. Ko'plab odamlarning o'z mehnati yo'naltirilgan sohani sevishi, unga qadriyat sifatida qarashi sir emas. Shu ma'noda shaxsiy, ilmiy, diniy, siyosiy, iqtisodiy kabi e'tiqod turlari ham bor.

E'tiqod inson bilan birga tug'ilmaydi, balki uning jamiyatda voyaga yetishi jarayonida shakllanadi. E'tiqod kishi xulqini izchil, mantiqli, maqsadga intiluvchan bo'lishini ta'minlaydi, insonni bunyodkor, fidoyi bo'lishga undaydi.

Sog'lom e'tiqodning shakllanishida demokratik davlat, fuqarolik jamiyatida vijdon erkinligi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi ijtimoiy hayotda har doim muhim va murakkab masala bo'lib kelgan. Binobarin, uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar yotadi. Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, uning sog'lom va barkamolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois bu masalaning ijtimoiy hayotdagi o'rni va bajaradigan vazifalari g'oyat muhim. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustavidan tortib barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, hamma mamlakatlarning konstitutsiya va qonunlarida vijdon erkinligi o'z ifodasini topgan. Turli dunyoqarash, e'tiqodda bo'lgan kishilar o'rtasidagi, davlat bilan din, diniy tashkilotlar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarning amalda huquqiy ta'minlanishiga e'tibor qaratish zarur. Zero, odamlar doim turli dunyoqarash va e'tiqod bilan yashaganlar va yashaydilar. Har kimning o'z ichki dunyosi, o'z e'tiqodi bo'ladi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Dinshunoslik fani nimani o'rganadi?
2. Dinshunoslik qachon yuzaga kelgan?
3. Dinning kelib chiqishi haqida qanday qarashlar mavjud?
4. Dinning jamiyat va kishilar hayotidagi ahamiyatini izoxlang.
5. E'tiqod deganda nimani tushunasiz? Sog'lom e'tiqod nima uchun kerak?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajagi yo'q" T -1998 yil
2. I.A.Karimov "Yusak ma'naviyat yengilmas kuch" T -2008 yil
3. Sh. M.Mirziyoev " BMT Bosh assambleyasining 72 –sessiyasidagi nutqi 2017 yil 19 sentabr
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash muqaddas dinimizni sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi 2017 yil 15 iyun
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga 2017 yil 22 dekabrda murojaatnomasi
6. Falsafa ensiklopedik lug'at. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti T -2010 yil
7. O'zbek milliy ensiklopediyasi. II jild 2001 yil
8. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi T -2009 yil
9. Sh. I. Xaitov O'zbekiston falsafa tarixi T -2011 yil
10. I.Jabborov "Jahon dinlari tarixi" T- 2002 yil.
11. Xusanov S.X, Mirjavharova D.S. "Dinshunoslik" o'quv uslubiy qo'llanma T 2004

2–mavzu: Dinning mohiyati, tuzilishi va funksiyasi

Ma'ruza rejasi

5. Dinga berilgan ta'riflar. Din –ijtimoiy ong shakli, tafakkur tarzi, ma'naviy qadriyat sifatida.
6. Dinning inson va jamiyat hayotidagi vazifalari.
7. Dinning ildizlari va dinlar tasnifi.

Tayanch soʻz va iboralar: Ijtimoiy ong shakli, gʻayri tabiiy kuchlar, toʻldiruvchilik, birlashtiruvchilik, nazorat qilish, aloqa bogʻlovchilik, tarbiyalovchilik, psixologik, gnesologik, ijtimoiy.

1-masala bayoni: «Din» arabcha soʻz boʻlib, oʻzbek tilida «ishonch», «ishonmoq» degan maʼnolarni anglatadi. Dinning mazmun va mohiyatini ilohiy-diniy va ilmiy nuqtai nazardan tushunish mavjud.

Din ham boshqa taʼlimot, qarash, nazariyalar singari tabiat, jamiyat, insonning mohiyatini, mavjudligi va yashashi kabi muammolarga ilohiyotdan kelib chiqqan holda javob berib kelgan.

Din inson eʼtiqodi, ruhiy-maʼnaviy dunyosi, his-tuygʻulari, axloqiy va estetik tasavvurlari bilan bogʻliq murakkab dunyoqarash boʻlib, u oʻzicha Olloh nomidan hayot muammolarini echib, unga javob berib kelgan.

Agar biz barcha dinlarga nazar tashlasak ular foniy, oʻtkinchi dunyo azob-uqubatlari va yovuzliklaridan qutulish, yaxshilik va ezgulikka, yuksak axloqiylikka intilish gʻoyalari bilan sugʻorilganligini koʻramiz. Bulardan tashqari asrlar davomida din na faqat insonlar hayotida, balki jamiyat maʼnaviy, hattoki ayrim davrlarda siyosiy hayotida ham muhim rol oʻynab kelgan, ahamiyat kasb etgan. Xozirda mavjud barcha jahon dinlari umumbashariy qadriyatlarga tayanib inson va jamiyat axloqiy va ruhiy kamolotiga taʼsir oʻtkazib kelganligi tufayli asrlar osha yashab kelmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov 2000 yil sentyabrida Toshkentda boʻlib oʻtgan dindorlarning xalqaro anjumani ishtirokchilariga tabriknomasida dinga shunday baho berilgan: «Din inson ruhini poklashi, odamlar oʻrtasida mehr-oqibat tuygʻularini mustahkamlashi, milliy anʼanalarni asrashga xizmat qilishi bilan har qanday jamiyat hayotida muhim oʻrin tutadi»².

Diniy eʼtiqod xudo, paygʻambar, farishta, iblis, shayton, avliyo, arvoh va boshqa xil ins-jinslar bilan bogʻliq tushunchalargina boʻlib qolmay, balki asrlar davomida kishilar hayotida shakllanib kelgan turli urf-odatlar, ijtimoiy va oilaviy turmush normalarini belgilab beruvchi qonun-qoida, axloq kodeksi hamdir.

Jamiyat va insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida din nima degan savolga turlicha javob berib kelingan.

Diniy nuqtai nazarga koʻra din-ilohiy, gʻayri tabiiy kuchlarga, xudoga, paygʻambarlarga, farishtalarga, muqaddas kitoblardagi bayonlarga, oxiratga, butun yaxshi va yomonlik, ezgulik va yovuzlik yaratganning irodasi bilan boʻlishiga ishonmoqlik, shayton va iblislardan saqlanishdir.

² «Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati», 2000yil 15-sentyabr soni.

Qisqa qilib aytganda, din diniy nuqtai nazarga ko'ra, insonning muqaddas ilohiy kuch - Xudo mavjudligiga asoslangan ongli dunyoqarashi, hissiyoti, e'tiqod qilish va hatti-harakatlar majmuidir.

Ilmiy dinshunoslik nuqtai nazardan din – tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda tadiri insoniyatni bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan (tabiatdan) tashqarida bo'lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga birdan-bir «to'g'ri», «haqiqiy», «odil» hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta'limotidir.

Din – muayyan ta'limotlar, xis-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladigan olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida shakli, uni idrok etish usuli.

Din voqelikni, ijtimoiy hayotni, uning xodisalarini o'ziga xos tarzda in'ikos ettiruvchi ijtimoiy ong shakllaridan biridir.

Dininig umumiy tarixini faqat uni yaxlit muayyan qonun qoidalarga bo'ysungan, har xil ziddiyat qaramaqarshilik jarayonlari bilan bog'liq aslida ijtimoiy iqtisodiy tuzum bilan belgilanuvchi ijtimoiy ong shakli deb qaragan holda o'rganish mumkin. Bu degani har bir dinni uning kelib chiqishi taraqqiyoti, uni paydo qilgan konkret tarixiy sharoit va u yashayotgan jarayonni o'rganish ham demakdir.

2-masala bayoni:Din inson va jamiyat hayotida bir qator vazifalarni bajarib kelgan. Shulardan ba'zilarini aytib o'tamiz:

- har qanday din o'ziga e'tiqod qiluvchilar uchun to'ldiruvchilik, ovituvchi (kompesatorlik) lik vazifasini bajaradi;
- dinlar muayyan dinga e'tiqod qiluvchilarni ushbu ta'limot doirasida saqlashga harakat qiladi. Buni dinlarning birlashtiruvchilik (integrativlik) funksiyasi deyiladi;
- din dindorlar hayotini tartibga solish, nazorat qilish – regulyativlik funksiyasini bajaradi;
- dindorlarning birligini, jamiyat bilan shaxsning o'zaro aloqasini ta'minlovchi xususiyat, ya'ni aloqa bog'lovchi (kommunikativ) funktsiyani bajaradi;

din dindorlarni axloqli, odobli qilib tarbiyalash kabi vazifalarni bajaradi.³

Dinning nima ekanligi turlicha izohlansa-da, umuman olganda Din – ishonmoqlik tuyg'usidir. Bunday tuyg'usi bo'lmagan xalq yo'q. Chunki biron-bir xalch Dinsiz, e'tiqodsiz, biron-bir narsaga ishonchsiz yashay olmaydi. Din insoniyatning eng teran, eng go'zal ma'naviy-ruhiy ehtiyojlaridan biridir. Insoniyat tarixida Din turli shakllarda namoyon bo'lgan. Dinning dastlabki ko'rinishlari fetishizm, totemizm, animizm, sehrgarlik va boshqalardir. Shuningdek, urug'-qabila Dinlari, milliy

³ Qarang. Ortiqov A., Abdusamedov A.E. «Dinshunoslik asoslari» kursidan uslubiy maslahatlar. 2-qism. Toshkent – 2000., 2-bet.

Dinlar (iudaizm, hinduiylik, sintoizm, daosizm, konfutsiychilik), jahon Dinlari (buddizm, xristianlik, islom) vujudga kelgan. Din avvaliga ko'pxudolik (politeistik), so'ngra yakkaxudolik (monoteistik) ko'rinishida bo'lgan. Har bir Din diniy dunyoqarash, diniy marosim, diniy tuyg'u va sig'inish ob'ektlarini o'z ichiga oladi. har qanday jamiyatda Din ma'lum ijtimoiy, ma'naviy va ruhiy vazifalarni bajaradi. Uning ijtimoiy hayotga ta'siri kuchlidir. Har bir Din dindorlarini o'z ta'limoti doirasida saqlashga harakat qiladi, o'z qavmlari uchun tasalli beruvchi, ovutuvchilik vazifasini o'taydi. Dinlar o'z marosim va bayramlarinin qavmlari tomonidan qat'iy tartibga amal qilgan holda bajarilishini shart qilib qo'yadi, shuningdek, o'z qavmlarining birligini, jamiyat va shaxsning o'zaro aloqada bo'lishini ta'minlashga intiladi. Din insonga yashashdan maqsad, hayot mazmuni, bu dunyo va u dunyo masalalariga o'z munosabatini bildirib turadi. U umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib, xulq-atvor qoidasiga aylantiradi. (Q.Axloq) Madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatib, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni saqlab qolish va milliy avloddan-avlodga yetkazish ishiga yordam beradi.

Din xam boshqa ta'limot va nazariyalar singari xayot masalalari, jumladan, inson moxiyati, uning mavqei, yashashi kabi muamolarga ozicha javob beradi. Din inson etiqodi, manaviy dunyosi, xis-tuyg'ulari, axloqiy vaestetik tasavurlari bilan bog'liq murakab dunyoqarash bolib, u ozicha xayot muamolarni yechadi va javob beradi. Dini oddiy xayoliy afsona va toat-ibodatgina deb ta'riflab bo'lmaydi. Xudo tushunchasi muayan extiyoj sifatida kishilarni biriktirish, ularni qonun-qoida va tartibga o'rgatish, xis-tuyg'ular va didini qanoatlantirish vositasi sifatida yuzaga kelgan. Diniy talimot o'tmishda kishi ma'naviy extiyojlarni qondirib, tabiat olamidagi va ijtimoiy xayotdagi xilma-xil xodisalarni tushuntiribberishga intilgan. Dinshunos olim C.A. Tokaref ta'kidlagandek, barcha dinlar foni dunyo yovuzliklaridan qutilish, yahshilika intyilish g'oyalari bilan sug'arilgan. (Diniy ta'limotlar, - deb yozadi u, -nixoyatda turli tuman shakildagi e'tiqodlarga, xarxil diniy – mifalogik namunalarga qaralib qaramay, aslida, bir kata muamoni xal qiladi: Kishilar xayotidagi yomonlik, jabru jafolar qayerdan paydo bo'lgan va ulardan qanday qutilish mumkin? Javoblar xarxil bo'lsada mazmuni bir xil). Jaxon dinlarni xammasi xayot, yashash talimoti sifatida yuzaga kelgan, barcha muqaddas kitoblar Avesto, Zabur, Tavrot, Injil, Quronda maskur axloqiyb tarbiyaviyb masalalar asosiy o'rini egallaydi. Buyuk rus yozuvchisi L.N. Tolstoy xarbir inson uchun din bosh masala, uni xayot maqsadlariga berilgan javob deb ta'riflaydi. F.M. Dostoyevskiy esa xar bir xalqa xos diniyb e'tiqodni asosiy moxiyati yahshilik va yomonlikni ajratishda deb hisoblaydi. Jaxon dinlarini yashovchanligi aslida uning umum insoniy qadryatlariga tayanib, inson axloqiy va ruxiy kamolotiga zo'r tasir o'tkazib kelganligidadir. Diniy dunyoqarash orqali

inson asrlar davomida noxaqlik , adolatsizlik kabi xukumron tartiblarga qarshi noroziligini bildirgan. Ayrim kishilar borliq oldida ojizligi tufayli g`ayritabiiy kuchga itoat qilish, go`yoki abadiy yaratilgan ilohiy tartib qoidalarga bo`ysunishni zaruriyat deb hisoblagan.

3 –masala bayoni. Dinshunoslik dinning vujudga kelishi va saqlanib turishi uning uch ildizi bilan bog`liq ekanligini ta`kidlaydi. Bular ijtimoiy, gnoseologik va psixologik ildizlar.

Dinning ijtimoiy ildizlari dindorlarning kundalik hayotida, ularning ustidan o`z hukmronligini o`rnatgan, o`tkazayotgan moddiy va ma`naviy munosabatlardir. Bular orasida moddiy ya`ni iqtisodiy ildizlar hal etuvchi rol o`ynaydi.

Dinning gnoseologik ildizlari real olamni dinlar ta`limoti nuqtai nazaridan in`ikos ettiradigan diniy tasavvur, tushuncha, g`oya va hokazolarning vujudga kelishiga imkon tug`diradigan bilish jarayoniga xos jihatlardir. Bunda tabiat hodisalari sabablari mohiyatini bilmaslik oqibatida, ular jonlantiriladi, ularda qandaydir g`ayri-tabiiylik bor deb qaraladi.

Dinning psixologik ildizlari inson, ijtimoiy guruh va dinga ishonuvchi kishining psixik xolatlari, ahvoli, ruhiyati va hissiyotida yuz beradigan psixik jarayonlardir.

Dinning shaxsiy psixologik va ijtimoiy psixologik ildizlari mavjud. Shaxsiy musibat, kulfat, azob va uqubat, g`am-alam, o`lim dahshati, yolg`izlik kechinmalari va ruhan ezilish va boshqalar. Ijtimoiy psixologik ildizga ayrim guruh va jamoa psixologiyasiga xos yoppasiga qo`rquv, vahima, iztirob va sovuq xabarlar, zararli urf-odatlar ta`siri va boshqalar kiradi⁴.

Din insonning ishonchli hamrohi, odamzot hayotining bir qismi bo`lib kelgan. Unga turli davrda turlicha munosabatda bo`lingan. Dinni jamiyatning hukmron kuchlari davlat siyosati darajasiga ko`targan yoki Din hamda dindorlarni ayovsiz ta`qib ostiga olgan hollar tarixda ko`p uchraydi. Yaqin o`tmishda – sho`rolar davrida Dinni kamsitish va unga qarshi kurash siyosati olib borildi.

O`zbekiston mustaqillikka erishgach, Din madaniy-ma`naviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi teng huquqli qadriyat sifatida tan olindi va Dinga to`la erkinlik berildi. Diniy jamoalar, tashkilotlarga qonun doirasida ochiq va daxlsiz faoliyat ko`rsatish imkoniyati yaratildi. O`zbekiston aholisining asosiy qismi islom diniga, yevropalik aholi xristianlikning pravoslavie mazhabiga e`tiqod qiladi. Ular bilan bir qatorda katolik, protestant, boshqa mazhab (jami 15 dan ortiq konfessiya) vakillari yashaydi. Ular vatan mustaqilligini mustakamlash, siyosiy-ijtimoiy barqarorlash, ta`minlash yo`lida faoliyat yuritmoqdalar.

⁴ Qarang. Ortiqov A., Abdusamedov A.E. «Dinshunoslik asoslari» kursidan ma`ruzalar matni va uslubiy maslahatlar. 1-qism. Toshkent-2000. 10-bet.

O‘zbekiston dunyoviy davlat bo‘lib, Din davlatdan ajratilgan. Vijdon erkinligining kafolatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” gi qonunda (1998) bayon etilgan. O‘zbekistonda Din va diniy dunyoqarash dunyoviy turmush tarzi, dunyoviy fikr bilan yonma-yon rivojlanib kelmoqda.

Dinlar tasnifi. Kishilar turmush tarzidagi va jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar insoniyatning diniy ishonch, e‘tiqod haqida ham ma‘lum evolyusiyaning yuz berishiga sabab bo‘lgan. Ana shu asosda turli din shakllari yuzaga kelgan. Bular urug‘-qabilachilik (ibtidoiy) dinlari, milliy dinlar va jahon dinlari. Shu bilan birga dinlar mazmun va mohiyatiga ko‘ra politeistik (ko‘p xudolik) va monoteistik (yakka xudolik) dinlariga ham bo‘linishini qayd etish lozim.

Xozirda jaxon dinlari bo‘lmish Zardo‘shiylikka sayyoramiz axolisining 130 mingga yaqini, Buddaviylikka 800 million, Xristianlikka 2 milliard, Islomga 1,6 milliard e‘tiqod qilishi rasmiy ma‘lumotnomalarda qayd etilgan.

Dinshunoslik nuqtai nazaridan din shakllarini quyidagicha tasniflash va ularni shu tartib asosida o‘rganish maqsadga muvofiq.

Xozirgi kunda din tipologiyasida dinlarning quyidagi tasniflari (klassifikatsiyasi) mavjud:

- ❖ Tarixiy geografik jihatga ko‘ra turlari
- ❖ Etnik jihatga ko‘ra turlari
- ❖ E‘tiqod qiluvchilar soniga ko‘ra turlari
- ❖ Hozirgi davrda mavjudligi jihatidan (tirik va o‘lik diniy tizimlar) va h.k.

Ularning har birini izohlab chiqamiz,

Tarixiy geografik jihatga ko‘ra turlari

- O‘rta Yer dengizi havzasi dinlari
- Yunon
- Rim
- Illinistik

Qadimiy Yaqin va O‘rta Sharq dinlari.

- Misr
- Shumer
- Akkat
- G‘arbiy Somiy
- Islomgacha Arablar dinlari

Yaqin va O‘rta Sharqning payg‘ambarlik dinlari

- Zardushtiylik
- Yaxudiylik

➤ Xristianlik

➤ Islom

Hindiston dinlari

➤ Vedalar

➤ Braxmanizm

➤ Hinduizm

➤ Xind Buddizmi

➤ Jaynizm

Sharqiy va JANubiy Sharqiy Osiyo dinlari

➤ Shirilanka

➤ Tibbet

➤ Janubiy Sharqiy Osiyo havzasi Buddizmi

➤ Xitoy dinlari (daosizm, konfutsiylik, buddizm maktablari)

➤ Koreya va Yaponiya dinlari

Amerika xindulari dinlari

➤ Toltek va Astekla dinlari

➤ Inklar dinlari

➤ Mayalar dinlari

Etnik tasnifga ko'ra turlari

Urug' qabila dinlari : Totemizm, Fitishizm, Animizm, Shomanizm, Sehrgarlik.

Milliy dinlar : Ma'lum bir xalq millat, e'tiqod qiladigan boshqa xalqlar o'rtasida keng tarqalmagan dinlarga aytiladi, Yahudiylik, Vedalar, Braxmanizm, Xinduizm, Sintoizm, Daosizm, Konfutsiylik va boshqalar.

Jahon dinlari: Jahon xalqlari ichida keng tarqalgan dinlarga aytiladi, Buddaviylik, Zardushtiylik, Xristianlik , Islom. Rasmiy ma'lumotga ko'ra hozirda Buddaviylikka 80 mamlakatda 700 mln ; Xristianlikka 254 mamlakatda 2 mlrd.dan oshiq; Islom diniga 172 mamlakatda 1.6 mlard kishi e'tiqod qiladi.

Ta'limotiga ko'ra tasnif (klassifatsiyasi)

Dunyoviy dinlar – odamlar tomonidan yaratilgan ta'limotlarga asoslanadi. Vedalar, Braxmanizm, Xinduizm, Sintoizm, Daosizm, Konfutsiylik va boshqalar.

Ilohiy dinlar –Alloh tomonidan berilgan ilohiy kitoblarga asoslanadi. Iudaizm, Xristianlik, Islom.

Monoteistik dinlar – yakka xudolikka asoslangan dinlar. Iudaizm, Zardushtiylik, Xristianlik, Islom.

Politeistik dinlar – ko'p xudolikka asoslangan aytiladi. Buddaviylik, Vedalar, Braxmanizm, Xinduizm, Sintoizm, Daosizm, Konfutsiylik

Takrorlash uchun savollar

1. Din nima?
2. Din inson va jamiyat hayotida qanday vazifalarni bajarishini izohlang ?
3. Dinning jamiyat va kishilar hayotidagi ahamiyatini izoxlang ?
4. Dinlarni mazmun va mohiyatiga ko'ra qanday tasniflash mumkin ?
5. Politeistik va Monoteistik dinlarni izohlang ?

Foydalanilgan adabiyotlar

2. I.A. Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajagi yo'q" T -1998 yil
2. I.A. Karimov "Yusak ma'naviyat yengilmas kuch" T -2008 yil
3. Sh. M. Mirziyoev " BMT Bosh assambleyasining 72 –sessiyasidagi nutqi 2017 yil 19 sentabr
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash muqaddas dinimizni sofliqini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi 2017 yil 15 iyun
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Oliy Majlisga 2017 yil 22 dekabrda murojaatnomasi
6. Falsafa ensiklopedik lug'at. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti T -2010 yil
7. O'zbek milliy ensiklopediyasi. II jild 2001 yil
8. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi T -2009 yil
9. Sh. I. Xaitov O'zbekiston falsafa tarixi T -2011 yil
10. I. Jabborov "Jahon dinlari tarixi" T- 2002 yil.
11. . Xusanov S.X, Mirjavharova D.S. "Dinshunoslik" o'quv uslubiy qo'llanma T 2004

3-Mavzu. Urug‘-qabila va milliy dinlar

Ma‘ruza rejasi:

1. Dinning ibtidoiy shakllari
2. Qadimgi Misr va Yunoniston dinlari
- 3..... Ya
hudiylik dini va ta‘limoti
- 4..... Hin
distonda milliy dinlarning shakllanishi
- 5..... Uz
oq sharq dinlari: konfutsiylik, daosizm, sintoizm

Tayanch tushunchalar

Totemizm, fetishizm, animizm, shomonizm, magiya, qadimgi Misr dinlari, qadimgi Yunoniston dinlari, milliy dinlar, vedalar dini, braxmanizm, xinduizm, jaynizm, sikkizm, daosizm, kofutsiychilik, sintoizm, yaxudiylik.

1. Masala bayoni. Dinning ibtidoiy shakllari

Totemizm. «Totem» so‘zi Shimoliy Amerikada yashaydigan Ojibva qabilasi tilida «uning urug‘i» ma‘nosini anglatadi va mohiyatan «odamning hayvonot yoki o‘simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqasi bor» deb e‘tiqod qilish, ehtimol, ma‘lum bir jamoaning avvalda asosiy oziqa manbaini tashkil qilgan hayvon yoki o‘simlikka nisbatan e‘tibor keyinchalik vujudga kelgan qabila diniy tasavvurlarining asosiy shakllaridan biriga aylangan bo‘lishi mumkin. Urug‘dosh guruhlar o‘zlarini umumiy belgilari va totemlari bo‘lgan hayvon yoki o‘simlikdan kelib chiqqan deb bilar edilar.

Urug‘dosh jamiyatning shakllanish jarayonida totemizm muhim rol o‘ynadi, ayniqsa, qarindosh guruhlarning boshqalardan ajralishiga, «o‘zimizniki», ya‘ni «bir totemga tegishli» degan aniq taassurot paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Totemizm ta‘sirida paydo bo‘lgan urf-odatlar va me‘yorlar asrlar davomida qat‘iy ravishda qo‘llanildi. Ayni totemga xos bo‘lmagan begonalar bu jamoa urf-odati va me‘yorlaridan chetda hisoblangan.

Urug‘ va qabilalar o‘z totemi nomi bilan, masalan, tuyaqush urug‘i, ilon urug‘i, burgut urug‘i, qurbaqa urug‘i, baliq urug‘i kabi nomlar bilan yuritilgan. Urug‘ a‘zolari totem hisoblangan hayvon yoki o‘simlikni o‘ldirish, otish, ovlash, behurmat qilish yoki nobud qilish, taomga ishlatish taqiqlangan. Bunday odatga *Tabu* (taqiqlash) deyilgan. Keyinchalik bu taqiqlar yo‘qola borgan va totemning faqat ba‘zi qismlari – kallasi, buyragi yoki jigarini iste‘mol qilish taqiqlangan. Totem hisoblangan hayvonni so‘yish vaqtida undan uzr so‘raganlar, gunohini soqit qilishga uringanlar.

Shunday qilib ibtidoiy odam o'zini tabiatdan ajratmagan, o'zi va uni o'rab olgan borliqdagi narsa va xodisalar orasida qon-qarindoshlik mavjud deb tasavvur qilgan.

Hozirda qo'llanilib kelinayotgan muchal yillari ham tarixan totemizm bilan bog'liqdir. Chunonchi, sichqon, sigir, yo'lbars, quyon, baliq, ilon, ot, qo'y, maymun, tovuq, it, to'ng'iz yillari shu jumladandir.

Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida totemizmning asosiy vazifalari, yuqorida aytib o'tilganidek, birlashtiruvchilik, tartibga soluvchilik edi. Totemizm diniy shakllarning dastlabkisi sanalsa-da, hozirda ham ko'plab xalqlarning urf-odatlarida, e'tiqodlarida uning unsurlari saqlanib qolgan (masalan, Hindistonda sigir, Avstraliyada kenguru, qirg'izlarda oq bug'u afsonaviy baxt keltiruvchi hayvon sifatida ulug'lanadi).

Fetishizm. Fetishizm ham eng qadimgi, ya'ni ibtidoiy din shakllaridan biri. Fetishizm – portugolcha «fetisho», fransuzcha «fetish» so'zidan olingan bo'lib «sehrli narsa», «sehrli buyum» degan ma'noni bildiradi. Fetishizm – jonsiz narsalarda qandaydir g'ayritabiiy kuch bor deb ularga ishonish, sig'inish, ulardan madad kutish demakdir. Fetishizm xilma-xil shaklda namoyon bo'lib kelgan va u xozirgi barcha dinlarda ham uchraydi.

Bunday fetish tosh, tayoq, daraxt, birorta narsa, moddiy buyumlar bo'lishi mumkin. Bunday fetishlashtirilgan buyumlar keyinchalik tumor, sanam, but qabilar bo'lgan, ular xozir ham uchrab turadi. Ibtidoiy odamlar mazkur buyum-fetishlar mo'jizali, o'zlarining hayotiga ta'sir qilish qobiliyatiga ega ekanligiga ishonganlar, undan madad va yordam kutganlar.

Shunday qilib fetishizmning mohiyati ibtidoiy odamlarning dahshatli tabiat kuchlari oldida ojizliklari natijasida xurofiy qo'rqinch tuyg'ulari asosida qandaydir g'ayritabiiy kuchdan madad kutish, uning himoyasiga umid bog'lashdan iborat diniy xis-tuyg'udir, deb aytishimiz mumkin.

Ikona (xudo tasviriga), «muqaddas» daraxt va toshlar, aziz avliyolar ularning qabrlariga, har xil tumorlarga, ko'zmunchoq va boshqalarga sig'inish, ularni muqaddas deb bilish fetishizmning bizgacha yetib kelgan qoldig'idir.

Animizm. Animizm ham ibtidoiy din shakllaridan biridir. Animizm – lotincha «anima» so'zidan olingan bo'lib, jon, ruh degan ma'noni anglatadi. Bu nom ingliz etnografi E.Teylor tomonidan kiritilgan. Animizmning mohiyati kishi ruhining, jonining borligi va uning o'lmasligiga ishonishdir. Animizmدا ruhlar tabiiy xodislarni boshqaradi, unga ta'sir o'tkazadi deb hisoblanadi. Bu ruhlar yo sahiy yoki kishilar baxtiga, hayotiga tahdid soluvchi bo'lishi mumkin deb tasavvur qilingan. Ibtidoiy odamlar vafot etgan kishilarning ruhlari abadiy, o'lmas deb hisoblab, ularga sig'inganlar. Ular o'z tanalari tuzilishini, kishi o'lishi, tush ko'rishi va jasadlari bilan bog'liq xodisalarni tushuna olmay, jonni mavjud bir narsa deb bilib, kishi o'lishi bilan jon tanani tark etib ketadi, boshqa narsalarga ya'ni hayvonlarga, yosh chaqaloq bolalarga o'tadi deb tasavvur qilganlar. Uyquni jonning kishi tanasini vaqtincha tashlab ketishi, tushni esa kishi uxlab yotganda jonning boshqa o'lib ketgan kishilarning joni bilan uchrashuvi deb bilganlar.

Animizmgga e'tiqod qilganlar odam o'lgandan so'ng jon tanadan chiqib ketadi va o'lmaydi, abadiy yashaydi deb hisoblaganlar. Shu asosda ruhning o'lmasligi to'g'risidagi tasavvurlar yuzaga kelgan. Shu bilan birga ibtidoiy odamlar har bir narsaning o'z ruhi-joni bor deb tasavvur qilgan.

Qadim Turkistonda marhumning jonini, ruhini «arvoh» deb atashgan. Arvoh esa uzoqqa ketmay shu joyda aylanib yuradi, uydagi barcha ishlardan xabardor bo'lib turadi deb o'ylaganlar. Arvohlarni rozi qilish, g'azabini keltirmaslik maqsadida har xil qurbonlik marosimlarini o'tkazganlar.

O'tgan ajdodlar arvohiga sajda qilish, ularni xotirlash, tabiat va tabiat kuchlariga sig'inish natijasida muqaddas joylar, avliyolarning qabrlari vujudga kelgan.

Shomanizm. Shomonizm ham kishilik jamiyatining eng qadimgi davrlaridagi dinlaridan biridir. «Shomon» tunguscha so'z bo'lib «o'ta hayajonlangan», «jazavali kishi» degan ma'noni anglatadi. Bu dinning ruhoniysi shomon hisoblangan. Shomonizmda ayrim kishilar alohida ilohiy qudratga ega ekanligiga ishonadilar. Shomonlar o'z qavmlarini, odam yaxshi va yovuz ruhlar, arvohlar panohida, homiyligida yashaydi, odamning sog'lig'i, baxti va taqdiri shularning qo'lida, deb ishontiradilar.

Shomonlar odamlar va ruhlar o'rtasida vositachilik qila olish qudratiga ega bo'lgan kishilardir. Odamlar shomonlar kelajakni oldindan aytib berish, uzoq joylardagi voqealarni bilish, kasalliklarni daf etish, tabiat xodisalarini o'zgartirish va boshqalarga qodir deb qarab ularga ishonganlar. Shomonlar g'ayritabiiy qobiliyatiga ega bo'lib, ashula aytish, raqsga tushish, nog'ora, childirma chalish yo'li bilan jazavaga tushib, yovuz va sahiy ruhlar bilan bevosita aloqa va munosabatda bo'lish orqali kasalliklarni davolash, tabiat kuchlarini jilovlash, pol boqish amallarni bajarishgan.⁵

Shomonlar odamlar diqqatini o'ziga qaratish uchun turfa rasm-rusmlarga rioya qilishgan, turli buyumlar osilgan maxsus kiyimlarni kiyishgan, qo'ng'iroqli childirma va nog'oralardan foydalanganlar.

Xulosa shuki, shomonizmning totemizm, fetishizm, animizmdan farqi bor. Bu dinlarda odamlar hayvonlar, o'simliklar, turli buyumlar va ruhlarga sig'ingan bo'lsa, shomonizmga odamlar odamga-shomonga ishongan va sig'ingan.

Sehrgarlik (magiya). Ibtidoiy din shakllaridan yana biri sehrgarlikdir. Sehrgarlik odamga, hayvonga, tabiatga ma'lum maqsadni ko'zlagan holda g'ayritabiiy yo'l bilan ta'sir etish uchun qilinadigan hatti-harakatlar, duolar va ishlardir.

Sehrgarlik yolg'on va ko'zga ko'rinmaydigan sehrlil aloqa va ta'sirlarning tabiatda mavjudligiga ishontirish, ayrim xollarda odam bilan tabiat orasidagi munosabatlarga ham o'zaro ta'sir o'tkazish, bir odamning ikkinchi bir shaxsga ta'sir qila bilish qobiliyatiga ega ekanligini uqtirishdan iborat diniy e'tiqoddir.⁶

⁵ Qarang. Abduraxmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. Toshkent, «Movarounnahr», 2002. To'ldirilgan ikkinchi nashri, 230-bet.

⁶ Қаранг. Жабборов И., Жабборов С. Жаҳон динлари тарихи. 48-бет.

Sehrgarlik yo‘li bilan ko‘pincha havf-xatardan saqlanish yoki dushmanga zarar yetkazish maqsadida uzoq masofadan bo‘lsada, jismoniy xamda nojismoniy ta’sir o‘tkazishga harakat qilingan. Bu ish bilan jodugarlar, azoyimxonlar, folbinlar, duoxonlar, baxshilar shug‘ullanganlar.

Sehr-jodu qilishning turlari turli-tuman bo‘lib, unga asosan quyidagilar kiradi. Birovga yoki dushmanga ziyon-zahmat yetkazish, xarbiy sehrgarlik, muhabbat sehrgarligi, isitma-sovutma, kasallikdan davolash sehrgarligi, yomon yoki yovuzlikdan qo‘riqlash sehrgarligi va boshqalar.

Sehrgarlik barcha dinlarda ham muhim o‘rin olganligi bilan ajralib turadi.

Xulosa shuki, sehrgarlik odam, hayvon va tabiatga g‘ayritabiiy yo‘l bilan ta’sir o‘tkazish maqsadida ma’lum kishilar tomonidan bajariladigan hatti-xarakatlardir.

2. Masala bayoni. Qadimgi Misr va Yunoniston dinlari

Misr. Qadimgi Misr dinlari *nomlarning* rahnamo-xudolariga sig‘inishga asoslangan. Mil. av. IV asrda qabilalar *nomlar* deb atalgan. *Nom* xudolariga sig‘inish juda uzoq muddat davom etganligiga qaramasdan o‘zining qadimiy xususiyatlarini saqlab qolgan. Har bir qabila o‘z xudosiga ibodat qilish, uni e‘zozlash bilan bir qatorda o‘sha xudo bilan qandaydir jihat bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan hayvonni ham e‘zozlagan va unga sig‘ingan. Ular ikkalasi yoki alohida-alohida shaklda yoxud zooantropomorf, ya’ni odam-hayvon shaklida tasvirlangan. Masalan, Elefantinda – qo‘yga, Denderada – sigirga, Siutda – chiyabo‘riga, Germopolda – ibis (laylakka o‘xshash uzun oyoqli qush) va pavianga (ittumshuq maymun), al-Fayyum vodiysida – timsohga, Bubastida esa mushukka sig‘inganlar. Janubiy Misrning qadimiy birlashishiga asos bo‘lgan Nexenda kalxat ayol xudosiga, unga yaqin joylashgan Naxabda suv nilufariga sig‘inganlar. Shimoliy Misr birlashuvining qadimiy markazi Butoda muqaddas ilonga, qo‘shni Pe jamoasida asalariga sig‘inganlar.

Ko‘rinib turibdiki, Qadimgi Misr dinlarida ko‘proq totemistik unsurlar saqlanib qolgan. Ko‘pchilik tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, Misr totemizmi qabilaviy emas, balki mahalliy bo‘lgan. Shunga qaramay, Afrika etnografiyasi keltirgan ishonchli dalillar hayvonlarni ulug‘lash va ularga sig‘inish odatlari avval ma’lum bir qabila miqyosida bo‘lib, keyinchalik muayyan hudud doirasini qamrab olganligidan dalolat beradi.

Deyarli barcha mahalliy rahnamo-xudolarga sig‘inish udumlari muqaddas hisoblangan hayvonga odam shaklini berish bilan kelib chiqqan. Masalan, mushuk keyinchalik mushuk boshli Bastet xudosiga, lochin – Gor xudosiga aylangan. Totaning ibis boshli, Anubisning it boshli, Sobekning timsoh boshli, Soxmetning urg‘ochi sher boshli, Xator xudosining sigir boshli qilib tasvirlanishi muqaddas

hayvonlarning keyinchalik yarim odam-yarim hayvon shakliga kirganidan darak beradi.

Misr xudolari orasida Nexebt, Xator, Neyt, Soxmet, Neftida kabi ko‘p sonli ayol xudolarining mavjudligi Qadimgi Misrda matriarxal munosabatlar kuchli bo‘lganligining oqibatidir.

Misrning birlashish davridan avvalroq butun Misrning umumiy xudolari kulti vujudga kelganligini kuzatish mumkin. Agar biron-bir qabila Misrning birlashtirilishida asosiy o‘rinni egallasa, o‘sha qabilaning xudosi umumdavlat ma‘budiga aylangan.

Misrning umumiy xudolari orasida eng qadimiylaridan biri lochin Gor xudosi bo‘lib, avval unga Ierakonpol va Edfuda sig‘inganlar. Bu mintaqadan chiqqan Gorga sig‘ingan podshohlar Misrning ilk birlashtiruvchilari bo‘lganlar (1-2-sulola; mil. av. to‘rtinchi ming yillikning oxiri). Ular o‘z qabilaviy xudolarini umummisr quyosh xudosi ga aylantirdilar. Mamlakat poytaxti Memfisga ko‘chirilgan vaqtda (3-sulola; mil. av. 3000 y. atrofi) Misrning asosiy rasmiy xudosi Ptax nomli Memfis xudosi bo‘lib qoldi. Mil. av. 2700 yillar atrofida 5-sulola hokimiyat tepasiga kelgan paytda On (Geliopol) shahri bilan bog‘liq bo‘lgan Atum (Ra) xudosi Misrning oliy xudosi ga aylandi. 11-12-sulolalar davrida (mil. av. 2100-1800 y.) juda ham mashhur bo‘lmagan Amon xudosi umummisr xudolarining asosiysiga aylandi va oldingi oliy xudo Ra bilan birlashib Amon-Ra shaklini oldi.

Mamlakatning birlashtirilishi natijasida mahalliy xudolar ham ikkinchi darajali ma‘budlarga aylanganlar. Germopol xudosi Tot (Ibis) olimlar va kotiblar rahnamosiga, Siut xudosi Anut narigi dunyo hukmdoriga, Latopolning ayol xudosi urush xudosi ga, Koptos xudosi Min ajnabiylar rahnamosiga aylandi va h.k.

Qadimgi Misr dinlari guruhlaridan biri xalq dehqonchilik e‘tiqodlari va marosimlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Ular haqida ma‘lumotlar nisbatan kam, chunki qadimgi yozma yodgorliklarda xalq dinlari emas, balki davlat dinlari haqida xabar beriladi. Biroq davlat dinlariga ham xalq e‘tiqodlari o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. Bu ta‘sirni rasmiy din xudolari timsolida ko‘rish mumkin: serhosillik xudosi avvalda Koptos xudosi Min, Fiva xudosi Amon, Elefantin xudosi Xnum, Delta ayol xudosi Isida va h.k. bo‘lgan. Ammo xalqning dehqonchilik dinlari asosiy xudosi Osiris bo‘lgan.

Qadimgi Misrda podshohlar – fir‘avnlarning ilohiylashtirilish holatlarini kuzatish mumkin. Mamlakatni birlashtirgan Gor xudosi ga sig‘ingan qadimiy podshohlar o‘zlarini xudolarining panohida deb hisoblaganlar va hatto o‘zlarini uning nomi bilan ataganlar. 5-sulola davridan boshlab, fir‘avn quyosh xudosi Raning o‘g‘li deb sanaladigan bo‘ldi. Podshohlarni xudoning o‘g‘li deb bilish milodning boshlarigacha davom etgan. Podshohning o‘zi asosiy diniy

marosimlarni shaxsan ijro qilgan: ibodatxonalarga asos solgan, uning yolg'iz o'zi xudoga atalgan qurbonliklarni ado etgan. Ruhoniylar faqatgina podshoh nomidangina ish yuritganlar. Fuqarolar uning huzurida yer o'pib ta'zim qilganlar, podshoh nomini aytish taqiqlangan, diniy ramzlarda uning surati aks ettirilgan. Bularning hammasi podshoh nasabining xudoga tegishli deb e'tiqod qilinganidan darak beradi.

Qadimgi Misrda dafn marosimlari asta-sekin taraqqiy etib bordi. Avvalda o'lgan odam jasadini yonboshlatib, ba'zi ashyolar bilan birga ko'mganlar. Ba'zan jasad bo'laklarga bo'lib ko'milgan. Vaqt o'tishi bilan, ayniqsa, podshohlar dafn rasm-rusumlari o'zgarib borgan. Sag'analar bora-bora keng va murakkab uslubda qurila boshlagan. Avval yerdan ozgina yuqori ko'tarilgan piramida shaklida, keyinroq esa baland piramida shaklini olgan. Vafot etgan podshohning jasadi mumiyolanib dafn etilgan. Keyinchalik podshoh mulozimlari, so'ngroq o'rta tabaqa kishilari ham mumiyolanadigan bo'lgan. Mumiyolashning murakkab texnologiyasi tobora rivojlanib borgan. Mumiyolash ruhoniylar tomonidan bajarilgan. Ular bu ishda juda mohir bo'lganlar. Mana shuning uchun ham ular tomonidan mumiyolangan jasadlar bugungi kunga qadar saqlanib kelmoqda.

Qadimgi Misrda jasadlarning mumiyolanishi o'limdan keyingi hayotga bo'lgan ishonchdan darak beradi. Qadimgi misrliklar e'tiqodlariga ko'ra, odam o'lishi bilan uning jasadidan uning nomi (*ren*), ruhi (*ba*), joni (*ka*) chiqib ketadi. *Ka* – insonning joni jasadning taqdiri bilan bog'liq hisoblangan. *Ka* o'lmas emas, agar jasad kerakli anjomlar bilan qo'shib dafn etilmasa, *ka* ochlik va chanqoqdan o'lishi mumkin. Agar turli sehrli duolar yozib qo'yilmasa, *kani* narigi dunyodagi maxluqlar yeb qo'yishi mumkin. Jasad yaxshilab mumiyolanib, uzoq saqlansa yoki hech bo'lmasa, uning ustixononi qancha uzoq saqlansa, ruhi ham shuncha uzoq yashaydi.

Misrliklarning esxatologik tasavvurlariga ko'ra, oliy nasab, boy kishilar o'lgandan keyin narigi dunyoda farovon hayot kechiradilar. Ushbu tasavvurlar haqida 6-sulola vakillari sag'analarida aks ettirilgan suratlar xabar beradi. Bu kabi farovon hayotga, ularning fikrlaricha, bu dunyoda farovon hayot kechirganlar yetishganlar yoki bunday hayotga sehr-jodu bilan erishish mumkin bo'lgan. Misrning qadimgi e'tiqodlarida o'lganlar rahnamolari bo'lgan xudolar haqida tasavvurlar mavjud bo'lgan.

O'rta podshohlik davrida o'lganlar ruhlari ustidan hukm chiqarish haqidagi tasavvurlar paydo bo'lgan. Bu ta'limotlar piramidalar matnlarida uchramaydi. Ular Osiris xudosini ruhlari ustidan hukm qiluvchi xudo sifatida ta'riflaganlar.

Qadimgi Misr dinlari tarixida sehr-jodu katta o'rinni egallagan. Bizgacha yetib kelgan yozma va tasviriy manbalar, ashyoviy dalillar xalq hayotining turli sohalarida Misr tarixining barcha bosqichlarida sehrgarlikdan keng

foydalanilganligidan dalolat beradi. Jumladan, tibbiyot bilan bog‘liq davolash-himoyalash sehrgarligi bunga yaqqol misoldir. Misr tibbiyoti, xususan, dorishunosligi nisbatan yuqori o‘rinda turgan va ularning barchasi sehrgarlik tasavvurlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Ebers papirusi (12-sulola davri, mil. av. 2000 y.) nomini olgan tibbiyotga oid nisbatan ilmiy asarda ham dorilar tarkibi haqida yozila turib, ular orasida bir qator kasallikni ketkazuvchi sehrlilik so‘zlar ham berilgan. Boshqa tibbiy asarlarda esa sehrgarlik yanada ko‘proq uchraydi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, tibbiyot ruhoniylar qo‘lida bo‘lgan. Undan tashqari, ob-havo sehrgarligi ham amalda ko‘p qo‘llangan. Mana shunday marosimlardan biri *Raning dushmani Apopga qarshi Fiva ibodatxonasi ruhoniylari* doim quyosh porlab turishi uchun har kuni sehrgarlik marosimlarini o‘tkazar edilar. Shuningdek, dushmanga zarar yetkazish sehrgarligi mavjud edi. Bunda dushman timsoliga qarata zarar yetkazuvchi duolar o‘qilar edi. Shu bilan birga, yuqorida zikr etilganidek, o‘lganlarning ruhi narigi dunyoda rohat-farog‘atda yashashi uchun o‘tkaziladigan sehrgarlik marosimlari ham bo‘lgan.

Misr diniy hayotida, ayniqsa, keyingi davrda ruhoniylar katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Avval boshda bunday mansab bo‘lmagan. Qadimiy podshohlik davrida ruhoniylar juda kam bo‘lgan. Diniy marosimlarni asosan dunyoviy kishilar – hokimlar, oqsoqollar, markazda esa fir‘avnlarni amalga oshirgan. Ruhoniylar esa mazkur boshliqlar nomidan ish yuritganlar. Ruhoniylar orasida faqatgina Memfis xudosi Ptax, Geliopol xudosi *Ra* ibodatxonasi ruhoniylariga nufuzli mavqega ega bo‘lganlar.

Misr aholisining milliy hissiyotlari kuchaygan va podshohlikning zaiflashgan davrida (mil. av. 1700-1570 y.) ruhoniylarning obro‘si oshdi. Keyinchalik ruhoniylar avloddan-avlodga meros tarzida o‘tadigan bo‘ldi.

19-20-sulolalar davriga kelib (mil. av. XIV – XI asrlar) nufuzi pasayib qolgan fir‘avnlarni ruhoniylar yordamisiz ish yurita olmas edilar. Shuning uchun ham ruhoniylarga katta-katta yer-mulklar berar edilar.

Misr hayotining mafkuraviy sohasini o‘z qo‘liga olgan ruhoniylar mamlakat ijtimoiy hayotida sezilarli ta’sirga ega edilar.

Yunoniston. Qadimgi yunon dinlari haqida ma’lumot beruvchi manbalar ko‘p, ular ichida qadimgi yunon dostonlari hamda yunon faylasuflarining bizgacha yetib kelgan asarlari yaxshi manba bo‘lib xizmat qiladi.

Qadimgi yunonlar hayvonlar timsollarini ilohiylashtirganlar. Bunda ho‘kiz timsoli birinchi o‘rinda bo‘lib, xo‘kiz suratlari qadimgi yunon tasvirlarida tez-tez uchrab turadi. Shuningdek, yunonlar ilon timsolini, yana bir qator hayvon va qushlarni ilohiylashtirganlar. Demak, aytish mumkinki, qadimgi yunonlarda totemistik tushunchalar keng tarqalgan.

Qadimgi yunonlarda odam shaklidagi xudo timsollari ko'p uchraydi va ushbu xudolar ko'pincha ayol timsolida bo'ladi. Masalan, shunday tasvirlardan birida bir ayolning ikki qo'lini osmonga ko'tarib turgan itning oldida qo'llarini yuqori ko'targan holda turgani tasvirlangan.

G'ildiraksimon shakllar yordamida quyosh va oy timsollariga ishora qilganlar va buning bilan ularni ham ilohiylashtirganlar. Toshlarda ba'zi daraxtlarda ilohiy kuch mavjud deb hisoblaganlar, g'orlar va ungurlarga esa o'limdan keyingi hayot hamda turli marosimlarga bog'lab diniy tus berganlar.

Qadimgi yunon dinida totemizm singari ilk diniy tasavvurlarning ba'zi belgilari sezilib turadi: *mirmadanlarning* chumolidan tarqaganligi haqidagi afsona yoxud ilonoyoq Kekropning Afina asoschisi ekanligi haqidagi afsonalar shunga asos bo'la oladi.

Yana qadimgi ovchilik an'alariga oid marosimlar va sehrgarlik rasm-rusumlari ob-havo bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, Mefanax (Korinfika) shahrida jazirama issiq shamollarni haydash uchun ikki kishi bir oq xo'rozni ikkiga bo'lib, qo'lga ko'tarib tokzor atrofida har tomonga yugurganlar. Yoxud shunga o'xshash yomg'ir chaqirish ham alohida marosimni talab etgan.

Yunonlar dinining mana shu qadimgi shaklida tabiatni o'rab turgan turli-tuman mayda ruhlar: suv ruhlari, o'rmon ilohlari, *nayad, driad*, tog' ruhlariga ishonish asosiy o'rin tutgan.

Ushbu xalqlarda ildizi qadim o'tmishga borib taqaladigan yomonlik keltiruvchi sehrga ishonch mavjud bo'lgan. Bunda yer ostidagi qora kuchlar haqidagi tasavvurlar nazarda tutiladi. Ulardan qahrli Gekata birinchi o'rinda turgan. Agar odamlar biron kimsani dushman tutib yo'q qilmoqchi bo'lsalar, shu xudolar ismini tilga olib la'natlaganlar. La'nat yuborish va duoibad qilishning ham o'ziga xos rasm-rusumlari bo'lgan, biroq bunday yovuz sehrgarlik u qadar ahamiyatga ega sanalmagan. Yunonlar sehrdan keng foydalanganlar. Bemorlarni davolash, kasallikning muolajasida ham tabobat bilan bog'liq urf-odatlar uzoq saqlangan. Tarixan juda ham qadim-qadimlarga borib taqaladigan yunon e'tiqodlaridan biri – bu o'lim va undan keyingi holat haqidagi tasavvurlardir. Yunonlar odatiga ko'ra, o'lgan kishi tanasini yerga ko'mishgan yoki sag'anada saqlangan. Ularning fikricha, o'lganlar ruhi yer osti makoni – Aidada to'planadi. Inson qanday hayot kechirgan bo'lishidan qat'i nazar, xoh u qo'rqmas askar bo'lsin, xoh dehqon, barcha birdek mana shu Aida deb atalgan joyda og'ir mashaqqatlarga yo'liqadi. Shuning uchun ham yunonlar bu qiyinchiliklar girdobiga tushadigan marhumni so'nggi yo'lga kuzatish marosimini o'zlariga burch deb bilganlar va katta e'tibor bilan amalga oshirganlar. Yunonlar, garchi o'limdan unchalik qo'rqmagan bo'lsalar-da, insonning o'limidan keyingi taqdirini o'ylab dafn etilmay itlar yoki biron boshqa yirtqichlarga yem bo'lishini nihoyatda katta

fojia sanaganlar. Ular marhumlar oziq-ovqatga muhtoj bo'ladilar deb, ularga maxsus oziqalar hozirlashgan.

Yunon diniy qarashlarining yana bir o'ziga xos jihati – aslzoda qahramonlarni ilohiylashtirish. Xalq qahramonlariga ishonchning shakllanishi biroz kechroq bo'lgan. Bunday ishonchning yuzaga kelishiga xudolarga bo'lgan ishonchning pasayishi sabab qilib ko'rsatiladi. Ilk ko'rinishida alohida urug'ning madadkor ruhlari, boshlang'ich ajdodlari qahramon sifatida talqin qilingan. Aslzoda xonadonlarning alohida ajratilishi bilan ularning ilk ajdodlari ham ulug'lana boshladi. E'tiborli va kuchli xonadonlarning ajdodlari nomi boshqalarnikidan yuqori qo'yilib, uni ulug'lovchi va unga sig'inuvchilar soni ham ortib borgan. Shu tariqa Gerakl, Iffikal, Ivrimom, Borea, Erota kabi qahramonlardan iborat xudolar panteoni vujudga keldi.

Gerakl butun yunon o'lkasida mashhur qahramon timsoli bo'lib, uni quyosh xudosi deb bilganlar. Ammo ba'zi tadqiqotchilar uni tarixiy shaxs deb hisoblaydilar, ya'ni Gerakl timsoli xalq qahramoni shaxsining afsonaviylashtirib yuborilgan ko'rinishidir. U doriylar qabilasiga mansub Geraklidlar sulolasining bobokaloni hisoblanadi. Doriylar tomonidan Peloponnessaning katta qismini bosib olinishiga sabab bo'lgan «Geraklidlar yurishi» mil. av. XII – XI asrlarda bo'lgan tarixiy voqeadir. Geraklning mana shu yurishlar davomida ko'rsatgan qahramonliklari uning butun Yunoniston bo'ylab mashhur bo'lishiga va u haqda ko'plab afsonalar to'qilishiga olib keldi: uning hatto osmonga ko'tarilib ketgani va Ellada xudolaridan biriga aylangani haqida afsona tarqaldi. Geraklning o'g'li Fest sikionliklarni o'z otasini qahramon sifatida emas, xudo sifatida ulug'lashga majbur qildi.

Bundan tashqari, joylarda e'tiborli oilalar jamiyatda keng tarqalib ulgurgan marosimlarni qo'llariga ushlab qolishga harakat qildilar. Jumladan, Afinada Eretey, Buta kabi qahramonlar kulti zodagon Butadlar xonadoni qo'lida bo'lgan.

Qadimgi yunon xudolari mahalliy va umumiy xudolar toifasiga bo'linadi. Mahalliy xudolarga o'zaro urushlarda yordam beradi, deb e'tiqod qilingan bo'lsa, umumiy xudolar tashqi dushmanga qarshi kurashlarda yordam beradi deb ishonilgan. Yunonistonda alohida shaharlarning o'z xudolari bo'lganligi bu mamlakatning siyosiy tarqoqligidan xabar beradi. Gomer davrida yunonlarning madaniy jamoasi umumiyunon xudolari hisoblanmish Olimpiya xudolariga ibodat qilishi bilan ajralib turar edi. Olimpiya ulug' xudolari panteonining kelib chiqish masalasi juda murakkab. Ularning har biri o'ziga xos bo'lib, ba'zilar Ellada davridan avvalgi xudolarning yunonlar tomonidan o'zlashtirib olinganidir.

Ularning eng ulug'i Zevsning xotini shahloko'z Gera hisoblangan. U Mikenning qadimiy homiysi sigir-xudo ko'rinishidadir. Ikkinchisi Poseydon

Peloponnessada qadimiy dengiz xudosi bo'lib, unga sohildagi baliqchilar sig'inishgan.

Afina ham Olimpiya xudolaridan bo'lib, shaharlar va qo'rg'onlar homiysi hisoblangan. Uning «Afina xudosi», «Afinalik ayol», «Pallada», «Poliada» kabi ellikka yaqin sifatleri bo'lib, o'z davrida Yunonistonning eng oliy xudolaridan biri bo'lgan. «Ellada tavsifi» kitobida unga atab 73 ta ibodatxona, ziyoratgohlar qurilgani eslatiladi. Bu jihatdan Afina Artemidadan keyingi o'rinda turar edi. Qadimgi afsonalarga ko'ra Afina jangovar xudo sifatida to'la qurollangan holda tasvirlangan. Shuningdek, uning obrazida totemistik jihatlar ham saqlanib qolgan. U goho boyqush, goho ilon, gohida esa zaytun daraxti timsollarida tasavvur qilingan.

Artemida yunon xudolari orasida buyuklaridan hisoblanar edi. Eng ko'p ibodatxona va muqaddas qadamjolar unga atab qurilgan. Qadimiy afsonalar va turli tasvirlarda Artemida ovchi qiz shaklida tasvirlangan.

Eng ko'p tasvirlangan Apollon timsoli o'ta murakkab va noaniq obrazdir. U Zevs va Letoning o'g'li, Artemidaning akasi hisoblanadi. Apollon so'zining ma'nosi ba'zida «halok qiluvchi», ba'zida «chorva rahnamosi» sifatida talqin qilingan.

Zevs esa «xudolar va odamlar» otasi hisoblangan. Unda ellikka yaqin mahalliy xudolarning sifatleri jamlangan bo'lib, ular Zevsning sifatleri o'laroq saqlangan. Zevs haqidagi afsonalar ko'proq Krit va Fessaliyada tarqalgan. Zevs ismi «yog'duli osmon» ma'nosini bildiradi.

Bulardan tashqari, yunonlar Asklepiy, Pan, Afrodita, Ares, Gefest, Gestiya, Hermes kabi xudolarga sig'inganlar.

3. Masala bayoni. Yahudiylik dini va ta'limoti

Eng qadimgi milliy dinlardan biri Iudaizm (Yaxudiylik) dinidir. Iuda – Yaxudiy millatining eng qadimgi qabilalaridan birining nomidir. Bu dinning kelib chiqishi va shakllanishi yahudiylarning o'tmishdagi og'ir, mashaqqatli, jabru-jafoli hayot yo'li bilan bog'liq holda kechgan. Chunonchi, yaxudiyler eramizdan avvalgi mingyilliklarda Misrliklar, Ossuriyaliklar, Vaviloniya, Eron shahonshoxlari, Rim imperiyasi kabi mamlakatlar asirligi va zulmi ostida g'oyat ayanchli hayot kechirganlar. Shu tufayli bunday azob va uqubatlardan, quvg'inliklardan qutilish, yaxudiylarni ozod qilish uchun xaloskorning kelishi (messiya) haqidagi g'oya yuzaga kelgan. Buni messinizm deb yuritiladi. Bunga ko'ra oxirzamonda Yaxve yaxudiyler orasidan bir xaloskorni chiqaradi va u quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. dunyoni qaytadan, isloh qilgan holda qurish;
2. barcha yaxudiylarni Sinay tepaligi atrofida to'plash;
3. ularning (yaxudiylarning) barcha dushmanlarini jazolash.

Yaxudiylik dinining yuzaga kelishi va shakllanishi davri eramizdan avvalgi XIII asrga, Falastin yerlarini Isroil qabilalari tomonidan bosib olinishi davriga to'g'ri keladi. Eramizdan avvalgi X asrga kelib Yaxudiy davlati vujudga keladi. Bu davlatning vujudga kelishida Iuda qabilasi muhim rol o'ynagan. Mustaqil Yaxudiy davlati barpo bo'lgandan so'ng ana shu qabilaning xudosi Yaxvega sig'inish joriy etilgan. Solomon (Sulaymon payg'ambar) podsholigi davrida, ya'ni er.av X asrda hashamatli Yaxve ibodatxonasi qurilgan.

Yangi eraning 133 yiliga kelib rimliklar tomonidan yaxudiylar Falastin yerlaridan xaydab chiqariladi. Shu tariqa yaxudiylar turli mamlakatlarga tarqalib ketadilar.

Yahudiylar qaysi davlatga borib yashagan bo'lsalar, u yerlarda o'zlarining jamoalarini tuzganlar. Imkoni boricha o'z dinlarini saqlab qolish maqsadida, to'planib turadigan joy-sinagog (ibodat uylari) larni vujudga keltirdilar.

Tarixiy manbalarda Yahudiylar eramizdan avvalgi quvg'inlikka uchragan va O'rta Osiyo eronliklar qaramog'ida bo'lgan davrlarda bu yerlarga Eron orqali kirib kelganligi qayd etiladi.

Dastlab Iudaizm ko'pxudolik (politeistik) din bo'lgan. Er.av. X-VI asrlarda Iudaizm yakkaxudolik (monoteistik) dinga aylangan.

Yahudiylik dinining muqaddas kitoblari Tavrot, Zabur va Talmud hisoblanadi. Tavrot qadimiy yahudiy tilidagi «Tora» so'zidan olingan bo'lib «qonun» degan ma'noni bildiradi. Tavrot er.av. 1586 yillarda Muso alayxissalomga nozil qilingan bo'lib, uni «Musoning besh kitobi» deb ham yuritiladi. Tavrot er.av. 5-asrda kitobat qilinganligi manbalarda qayd etiladi.

Muso alayhissalom Tur tog'ida xudo Yaxve bilan uchrashganda unga 10 ta nasihat lavhani tushirgan bo'lib, bular Yahudiylik dinining asosini tashkil etadi. Ularning qisqa mazmuni quyidagilar:

1. Yaxvedan boshqani iloh deb ishonmaslik;
2. But, sanam va rasmlarga sig'inmaslik;
3. Bekordan bekorga xudo nomi bilan qasam ichmaslik;
4. Shanba kunini hurmat qilish va uni xudo uchun bag'ishlash;
5. Ota-onani hurmat qilish;
6. Nohaq odam o'ldirmaslik;
7. Zino qilmaslik;
8. O'g'rilik qilmaslik;
9. Yolg'on guvohlik bermaslik;
10. Yaqinlarning narsalariga ko'z olaytirmaslik.⁷

«Zabur» Dovud alayhissalomga Xudo tomonidan nozil etilgan bo'lib er.av. 1050-900 yillar orasida kitobat qilingan.

⁷ Qarang. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. 97-bet.

Zabur qadimgi diniy-musiqaviy she'riyat bo'lib, u asosan Xudoga bag'ishlangan madhiyalar, diniy alqov qo'shiqlar, duolar, shukronalar, xudoga iltijolar, nolayu fig'onlar, dushmanlar ustidan shikoyat va boshqalardan iborat.

Yahudiylik dinining muqaddas kitobi Talmud Tavrotga yozilgan tafsir ya'ni sharhlardan iborat. Talmud – yahudiycha so'z bo'lib «o'rganish» degan ma'noni bildiradi. Uni og'zaki qonun ham deb yuritiladi. Talmud Mishna va Gemara kitoblari majmuidan iborat bo'lib, Mishna ravvinlar (ruhoniylar) tomonidan Tavrotga yozilgan sharhlar, Gemara esa Mishnaga yozilgan sharhlarni o'z ichiga oladi. Talmudda yaxudiylarning g'oyaviy, diniy, huquqiy, axloqiy qonun qoidalari, urf-odatlar, an'analari bayon qilingan.

Tavrot va Zabur Bibliyaning «qadimgi ahd» qismiga kiradi. Bibliya – kitoblar degan ma'noni bildiradi. «Qadimgi ahd» yahudiylarning xudo bilan ahdlashuvini bildiradi. Iso alayxissalomga nozil bo'lgan Injil Bibliyaga «Yangi ahd» bo'lib kirgan. U xudo bilan yahudiylarning yangitdan ahdlashuvini bildiradi.

Shunday qilib, Bibliya – «Eski ahd» va «Yangi ahd» deb nomlangan ikki qismdan iborat.

Bibliyaning «Qadimgi ahd» qismi besh kitobdan iborat bo'lib, u «Musoning Besh kitobi» deb ham ataladi. 1-kitob «Borliq» deb atalib, unda Olam va insonlarning xudo tomonidan yaratilganligi bayon qilingan. 2-kitob «Chiqish» deb atalib, unda Muso alayhissalomning hayoti, yahudiylarning Misr asirligidan ozod bo'lishi bayon qilingan. 3-kitob «Sonlar» deb yuritilib, unda yahudiylarning misr asirligidan qutulib to Falastin yerlarini bosib olgunlariga qadar hayoti tasvirlangan. 4-kitob «Loviylar» bo'lib oilaviy hayot masalalari bayon qilingan. 5-kitob «Ikkinchi qonun» deyilib, diniy qonun-qoidalar bayon qilingan.

Yahudiylik dinining marosimlari nihoyatda ko'p bo'lib, ularga amal qilish qattiq nazorat qilingan. Chunonchi, har bir dindor 248 ta amri-ma'ruf - yaxshi ishlarga undovchi buyruqni va 365 ta nahiy-munkar – yomon, gunoh ishlardan tiyilish, taqiqini yoddan bilishi, ularni bekamu-ko'st bajarishi qattiq nazorat qilinadi.

Yaxudiylarning bayramlari ichida eng e'tiborlisi pesah (Pasxa) bayrami bo'lib, yahudiylarning Misrdagi qullikdan qutilib chiqqanliklarini nishonlashga bag'ishlab o'tkaziladi. Shabuot bayrami esa Sinay tog'ida Muso alayhissalomga Yaxve tomonidan Toraning berilishini nishonlab o'tkaziladigan bayram. Sentyabr oxiri Oktyabr oyining boshlarida yangi yil bayrami – Rosh – Ashona bayrami nishonlanadi. Poklanish bayrami Yom-Kipur deyiladi. Baxorda yahudiylarning Fors podshohi Homon zulmidan qutilganliklari sharafiga bag'ishlab Purim bayrami o'tkaziladi.

Yahudiylik dinida Saduqiylar, Farziylar, Yesseylar, Sionizm kabi oqimlar bor. Jumladan, Sionizm qadimgi Yahudiya poytaxti Ierusalim (Quddus) yaqinidagi Sion (Sinay) tepaliklarining biri nomidan olingan bo'lib, dastlab bu oqimning maqsadi butun dunyoga tarqalib ketgan yahudiylarni bir yerga to'plab yagona yahudiylar davlatini qayta barpo etish bo'lgan. Keyinchalik bu oqim yahudiylarning reaksiyon-millatchilik, shovinistik mafkurasiga aylantirib yuborilgan. Xozirda Sionizm «Jahon yahudiy millati» - «Oliy millat» degan reaksiyon g'oyani ilgari surib kelmoqda.

Iudaizm diniga e'tiqod qiluvchilar 18 millionga yaqin bo'lib, ularning uchdan bir qismi AShQdadir.⁸

Shunday qilib, Iudaizm (Yahudiylik) dini eng qadimgi milliy dinlardan bo'lib u Xristianlik va Islom dinining vujudga kelishiga katta ta'sir o'tkazgan. Bu dindagi ko'plab talab va taqiqlar mavjudligi, undagi Sionizm kabi oqimda millatchilik, shovinizm kabi reaksiyon g'oyalarning ilgari surilishi uning jahon dini darajasiga ko'tarilishiga to'sqinlik qildi.

4.Ma sala bayoni. Hindistonda milliy dinlarning shakllanishi

Milliy dinlar deb ma'lum bir xalq, millat vakillari e'tiqod qiladigan, boshqa xalqlar va millatlar orasida deyarli yoyilmagan dinga aytiladi.

Vedalar dini, Braxmanizm va Xinduizm qadimgi milliy dinlardan sanaladi.

Vedalar dini er.av. 1-ming yillikda Xindistonda vujudga kelgan. U braxmanizm va xinduizm dini shakllanishining dastlabki bosqichi. Veda dinida dastlab tabiat kuchlari va xodisalari inson qiyofasiga o'xshatib tasavvur etilgan. Bu dinda yaxshi va yomon xudolar, ruhlar haqidagi tasavvurlar asosiy o'ringallagan. Veda dinida ko'pxudolik – poletizm hukmron bo'lgan. Uning sig'inish marosimlari asosan xudolarga qurbonlik qilish, ovqat, hayvonlar keltirish, maxsus ichimliklar ehson qilish va boshqa rasm-rusumlarni bajarishdan iborat bo'lgan.

Dastlab alohida ruhoniylar va ibodatxonalar bo'lmagan. Keyinchalik diniy ibodatlarga boshchilik qiluvchi kohinlar, ularning yuqori tabaqalari-brahmanlar kelib chiqqan.

«Veda» so'zi sanskritcha bo'lib «bashorat», «muqaddas bilim», «oliy donishmandlik» ma'nolarini anglatadi. Bu dinining ta'limoti qadimgi xindlarning to'rt kitobdan iborat Vedalar to'plamida bayon etilgan. Vedalar to'plamlari er.av. 2-ming yillikning boshlarida yaratilgan.

⁸ Qarang. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2002, 4-jild, 295-bet.

Vedalar quyidagi to‘rt yirik to‘plamdan iborat:

1. Rigveda («Madhiyalar vedasi»);
2. Samaveda («Qo‘shiqalar vedasi»);
3. Yajurveda («Qurbonliklar vedasi»);
4. Atxarvaveda («Afsun va jodular vedasi»).

Bu kitoblar ichida eng qadimgisi «Rigveda» hisoblanadi. Unda tabiatdagi narsa va xodisalar: osmon o‘zgarishi, quyosh, yulduzlar, momaqaldiroq, shamol, yomg‘ir, tog‘lar, daryolar ilohiy kuchlar sifatida gavdalantirilib, ular sharafiga qo‘shiqalar, madhiyalar to‘qilgan, ularga qurbonliklar keltirilgan. Insoniyat hayoti, uning qanday kun kechirishi, baxt-saodati ana shu kuchlarga bog‘liq holda tasavvur qilingan. «Rigveda» 1028 she‘riy qo‘shiqdan iborat bo‘lib, unga ko‘ra Indra – momaqaldiroq; Mitra – quyosh; Varuna – osmon; Agni – olov; Yama – ajal, o‘lim keltiruvchi; Sama – oy; Rita – koinot tartibini ushlovchi xudo va mabudlar deb tasvirlangan.⁹

2-kitob «Samaveda» (qo‘shiqalar vedasi) 1549 qo‘shiqdan iborat bo‘lib, «Rigveda»ni to‘ldiradi.

3-kitob «Yajurveda» (qurbonlik vedasi) bo‘lib, unda qurbonlik qilish, olovga sig‘inish marosimlari kuylanadi.

4-kitob «Atxarvaveda» (Jodugarlik vedasi) 731 qo‘shiqdan iborat bo‘lib, unda dushmanlar, ilonlar, kasalliklar kabi insonga zarar keltiruvchi kuchlar la‘natlaniladi, sihat-salomatlik tilash bilan bog‘liq duo-afsunlar bayon qilingan.

Vedalar qiyin tilda yozilganligi sababli, keyinchalik ularga sharh va izohlar yozilgan. Vedalarga yozilgan bunday diniy-falsafiy izohlar «Upanishad» deb yuritiladi. «Upanishad» - sanskritcha so‘z bo‘lib, ustozning yonida haqiqatni bilish uchun o‘tirmoq degan ma‘noni bildiradi. Upanishadlar er.av. VII-III asrlardan boshlab melodiy XIV-XV asrlargacha tuzib borilgan va ularga 250 ga yaqin asarlar kiritilgan.

Upanishadlarda Braxma oliy ibtido, jism va xodisalar asosi va sababi, barcha borliqning boshi va oxiri deb ko‘rsatiladi. Braxma – qiyofasiz xudo, mutloq kuch deb talqin etilib, barcha narsalar o‘shandan – ya‘ni Braxmadan paydo bo‘lgan, o‘sha bilan yashaydi va o‘lgach, yana o‘shanga qaytadi. Barcha narsalar braxmadir, braxma esa atmandir deyiladi. Atman – bu umumiy jon, ruh demakdir. Moddiy dunyo, jumladan, inson ham, atman – braxmadan paydo bo‘lgan va yana o‘shanga aylanadi, insonning joni avvalgi mohiyatiga butunlay qaytib, u bilan yana qo‘shilib ketadi.

Har bir inson ilohiy kuch tomonidan belgilangan hayot kechirish qonuniga muvofiq yashashi kerak, kimki bu qonunni buzsa, uning joni kelgusida biron

⁹ Qarang. O‘zbek milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 2001. 2-jild, 410-bet.

hayvon yoki xashorat tanasida qayta dunyoga keladi. Bu qonunni buzmagani odamning joni esa kelgusida yuqori tabaqa vakillariga mansub inson tanasida qayta paydo bo'ladi, deb ta'lim beriladi. Insonning yashashdan maqsadi ham ana shunda deb tushuntiriladi.

Braxmanizm ham qadimgi xind dini bo'lib, uning nomi Vedalar kitobida keltirilgan xind oliy tabaqa vakillari – braxmanlar (ruhoniylar) nomidan olingan. Bu dinda qadimgi Xindistondagi ijtimoiy tabaqalanish himoya qilinadi. Braxmanizm ta'limotiga ko'ra xind jamiyati 4 ta kasta (tabaqa)ga bo'lingan. Bular quyidagilar: 1-kasta Braxmanlar (ruxoniylar) eng oliy tabaqa hisoblangan. 2-kasta Kshatriylar – podsholar, knyazlar, xarbiylardan iborat. 3-kasta Vayshiylar – savdogar va xunarmandlardan iborat tabaqa. 4-kasta – Shudriylar eng past tabaqa bo'lib, ular oddiy xalq, dehqonlardan iborat.

Braxmanlik Veda dini asosida miloddan avvalgi ming yillik boshlarida vujudga kelgan. U mohiyatan veda dinining rivojlangan shaklidir. Bu dinda Braxma, Shiva va Vishnu xudolari tan olinadi. Braxma – koinotni yaratuvchisi, unga jon ato etuvchi; Vishnu – tabiatni asrovchi; Shiva – tabiatni vayron etuvchi xudo deb tasvirlanadi, e'tirof etiladi. Braxmanlikda sigir, maymun, ayrim o'simliklar muqaddaslashtiriladi.

Bu dinda jonli narsalar, shu jumladan insonlar ham o'lgandan so'ng qayta tirilish, tug'ilish xususiyatiga ega deyiladi. Shu asosda jonning ko'chib yurishi to'g'risidagi qarashlar diniy jihatdan asoslab berilgan.

Er.av. VI-V asrlarda buddizm vujudga keldi va braxmanizmga qarshi kurash olib bordi. Bu ikki din o'rtasidagi kurash jarayonidagi Braxmanizm asta-sekin xinduizmga aylanib ketdi. **Xinduizm** vedalar va braxmanlik dinlari zaminida vujudga kelgan ko'p xudolik dinidir. Braxmanlikdagi uch xudo- Braxma, Vishnu va Shiva tan olinadi.

Xinduizmda ajdodlar ruhiga, tog'lar, daryolar (xususan Gang), nilufar o'simligi, sigir, fil, maymun, ilon va boshqalarni muqaddas hisoblab, ularga sig'inishadi. Har bir xindu Gang daryosi bo'yida o'lim topishini, shu daryo bo'yida jasadini kuydirishini va kulini (hokini) shu daryoga sochilishini o'zi uchun baxt hisoblaydi.

Ruh (jon)ning ko'chib yurishi to'g'risidagi qarash barcha dindorlar uchun umumiy ta'limotdir. Unga ko'ra, kishi o'lgandan so'ng uning joni yangi o'simlik, hayvon yoki inson tanasiga kirib olish yo'li bilan qayta tug'iladi. Xinduizmning asosiy maqsadi insonni mana shu qayta tug'ilishdan, azob-uqubatlardan xalos etishdir. Bunga esa Braxmaga erishish, jonning unga qo'shib ketish bilan erishiladi, deyiladi. Bu maqsadga erishish uchun Braxmaning ilohiy mohiyatini to'la bilib olish, unga mehr qo'yish, sevish, u ko'rsatgan yo'ldan borish orqali erishiladi deb talqin etiladi.

Xindistonda hech bo'lmasa onasi yoki otasi xind bo'lgan va boshqa biror dinga e'tiqod qilmaydigan har bir kimsa xinduist hisoblanadi.

VIII asrda Xindistonda Islom tarqalishi bilan, uni qabul qilmaganlarni «xindu» lar deb atash rasm bo'lgan. Bugungi kunda Xindiston aholisining 83 foizi shu dinga e'tiqod qiladi.¹⁰

Hindistonda tarqalgan milliy dinlardan biri **Jaynizm** bo'lib, xozirgi kunda bu dinga qariyb 3 mln kishi e'tiqod qiladi.¹¹ Jaynizm er.av. VI asrda vujudga kelgan. Rivoyatlarga ko'ra, jaynizm asrlar osha 24 ustoz-payg'ambar orqali yetib kelgan. Bularning so'nggisi Jinna bo'lib shu din asoschisi hisoblanadi. Vedalarning muqaddasligini, qurbonliklar qilishni, ruhoniylar va xudolarning inson taqdiriga hal qiluvchi ta'sirini inkor etadi.

Jaynizmda markaziy o'rinni turli moddiy jismlarga muntazam joylasha oladigan abadiy jon haqidagi ta'limot egallaydi. Bunga ko'ra, inson joni barcha qilmishlari uchun javobgar, chunki bu qilmishlar karma qonuni asosida ro'y beradi. Karma qonuni tanni jon bilan bog'laydi, insonni yerdagi ishlar bilan zanjirband etadi va uning keyingi tug'ilishlarini bergilab beradi. Kishilar «o'z jonini o'zi xalos qilishi», «qayta tug'ilishdan ozod bo'lishi» mumkin. Buning uchun taqvodor bo'lishi, Jinnaga e'tiqod qilishi, Jinna ta'limotiga ishonishi, Jinna belgilagan axloq me'yorlariga amal qilishi kerak.

Jaynizmda ikki asosiy oqim mavjud. Ulardan biri – digambarlar bo'lib, ular hayotning barcha lazzatlaridan voz kechganlar, zohidlik yo'lini tutganlar. Hech nimani, hatto oddiy tirik jonivorlarni o'ldirmaslik to'g'risidagi ta'limotga amal qiladilar. Kichkina bo'lsa hamki, jonivorni o'ldirib qo'yamaylik deb xatto suv ichganlarida ham og'izlarini latta bilan berkitadilar.

Xindistonda XVI asrda shakllangan milliy dinlardan yana biri **Sikhizm**dir. Sikhizm – sanskrit tilida «shogird» degan ma'noni bildiradi. Bu dinning asoschisi siklar qabilasi ichidan chiqqan guruh (ustoz) Nanak degan kishi bo'lgan.

Bu dinda yagona, qiyofasiz Xudoga e'tiqod qilinadi. Ular Borliq va olamdagi barcha xodisalar yaratuvchining oliy qudratining natijasidir, barcha odamlar esa Xudo oldida tengdirlar deb bilib, xinduizmdan yuz o'girganlar. Xindiston jamiyatidagi diniy bo'linishga qarshi bo'lganlar.

Shunday qilib umumbashariyat madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan Xindistonda asrlar osha vedaizm, braxmanizm, xinduizm, jaynizm, sikhizm kabi milliy dinlar shakllanganligini ko'rishimiz mumkin.

5. Uzoq sharq dinlari: daosizm, konfutsiylik, sintoizm

¹⁰ Qarang. Jo'raev U., Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. «Sharq», Toshkent-1998, 44-bet.

¹¹ O'zbek milliy ensiklopediyasi. Toshkent –2002. 3-jild, 530-bet.

Daosizm qadimgi xitoy falsafasidagi yo‘nalishlardan biri. Er.av. VI-V asrlarda vujudga kelgan. Asoschisi Lao-szi hisoblanadi. Uning g‘oyalari «Dao de szin» kitobida bayon etilgan. Daosizmga ko‘ra tabiat va inson hayoti «ilohiy samoviy qonun» ga bog‘liq emas, balki narsalarning tabiiy yo‘li, qonuni – «dao» ga asoslanadi. «Dao» - «yo‘l» degan ma‘noni bildiradi.

Daosizm falsafiy ta‘limoti asosida I-III asrlarda daosizm diniy ta‘limoti vujudga kelgan. Bu dinga Chjan Dao – lin asos solgan. Daosizm dini urf-odatlarini animizm va sehrgarlikka ishonishga asoslangan. Bu dinda uch xudo – Shan di, Lao-szi hamda dunyoning yaratuvchisi Pan gu g‘oyalari ilgari suriladi. V asrdan Daosizm diniy ta‘limoti, marosimlari rasmiylashib davlat dini bo‘lib qolgan. Daosizm koinlari shaxsning axloqiy o‘z-o‘zini takomillashtirish g‘oyasini targ‘ib qilib, dindorlarga uzoq umr ko‘rishning muayyan usullarini taklif qilganlar. Keyinchalik Daosizm Xitoyda o‘z mavqeini yo‘qotib o‘rnini boshqa dinlarga bo‘shatib bergan. Xozir uning tarafdorlari nisbatan ozchilikni tashkil etadi.

Qadimgi Xitoyda Lao-Szi falsafiy ta‘limoti bilan deyarli bir davrda Kun-Szi (**Konfutsiy** – er.av. 551-479) ning falsafiy ta‘limoti ham yuzaga kelgan.

Konfutsiyning fikricha, har bir inson jamiyatda o‘zining o‘rnini bilishi kerak. Ya‘ni «podsho-podsholik qilishi, xizmatkor-xizmatkorlik, ota-otalik, o‘g‘il-o‘g‘illik qilishi» zarur. Inson taqdirini «osmon» belgilaydi, odamlarning boy yoki kambag‘al, yaxshi yoki yomon kishilarga bo‘linishini o‘zgartirib bo‘lmaydi. Shuning uchun kichik kattaga, pastda turuvchi yuqorida turuvchiga so‘zsiz itoat qilishi lozim. Konfutsiychilik qadimgi Xitoy dinlarida tabiatga, qahramonlarga, ajdodlar ruhiga, arvohiga sig‘inishni qabul qilgan. Bu dinda Osmon oliy xudo deb ta‘riflanadi. Inson butun faoliyatini «Osmon» bilan kelishgan holda olib borishi zarur, deyiladi. Konfutsiy aytganidek, «o‘lim va tug‘ilish osmonning hukmi, boylik va farovonlik uning irodasiga bog‘liq». Yangi eraning III asriga kelib konfutsiychilik davlat dini deb e‘lon qilinadi, imperator «Osmon o‘g‘li» va bosh kohin deb taniladi. Bu dinda diniy-axloqiy masalalarga, insonparvarlikka alohida ahamiyat berilgan. Ammo bularning hammasi imperator hokimiyatini, zodogonlar hukmronligini mustahkamlashga qaratilgan. Unda «osmon o‘g‘li – imperatorni ota-onadek hurmat qilish, unga itoat qilish oliy burch» deb aytiladi. Kishining hayot maqsadi amaldorga, podshohga xizmat qilishdir deb ko‘rsatiladi.

Konfutsiychilik IX asrda buddizm, XI asrda daosizm ustidan to‘la g‘alaba qozondi.¹²

¹² Qarang. O‘zbek milliy ensiklopediyasi. Toshkent – 2003. 5-jild,

Sintoizm. Sintoizm Yaponlar e'tiqod qiladigan milliy dindir. Bu din VI-VII asrlarda shakllangan. Sintoizmning tarjimasida «Xudo yo'li» demakdir. Bu dinga buddaviylik dinining ta'siri kuchli bo'lgan. Sintoiylik ta'limotining asosini imperator hokimiyatining ilohiyligi to'g'risidagi aqida tashkil etadi.

Sintoiylikda ham Konfutsiychilikdagi kabi ajdodlarning oila-urug'iga extiromi katta rol o'ynaydi. Bu din ta'limotiga ko'ra, vafot etgan har bir odam Kami (barcha ruh va xudolarning umumiy nomi) ga aylanadi. har bir Yaponning uyida oilaviy mehrob bo'lib undagi kichkina shkafchaga vafot etgan oila a'zolarining nomlari yozilgan taxtacha qo'yib boriladi.

Sintoizm marosimlarining bajarilishi juda oson va soddaligi bilan ajralib turadi. Chunonchi bu duo so'zlarini o'qish va guruch, sabzavot, baliq kabilarni qurbonlik qilishdan iborat, xalos. Sintoizmida ozodalik va tozalik masalasiga alohida e'tibor beriladi. Toza bo'lmagan ishga qo'l urgan odam albatta poklanish marosimini bajarishi lozim. har yili Yaponiyada 30 iyun va 31 dekabrda umumxalq poklanish tadbiri o'tkaziladi. Bu dinning axloqiy tamoyili ham juda oddiy. Undagi eng muhim axloqiy burch – imperatorga so'zsiz itoat etmolik. Imperator saroyi va ularning qabrlari muqaddas joy sanaladi.

Sintoiylikda aqidaviy muqaddas kitoblar yo'q, ammo har xil afsonalar, rivoyatlar maxsus mifologik solnoma «Kadziki» nomli to'plamda jamlangan.

Xozirda yaponlarning 49,4 foizi sintoizm, 44,7 foizi esa buddaviylik, qolgan aholi xristianlik va boshqa dinlariga e'tiqod qiladilar. hayotiy marosimlar – chaqaloqlarga duo o'qish, nikoh o'qish sintoistlar ibodatxonasida, dafn marosimlari buddistlar ibodatxonasida o'tkaziladi.¹³

Sintoizm 1868-1945 yillarda davlat dini bo'lgan.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Dinning qanday ibtidoiy shakllarini bilasiz?
2. Fetishizm nima?
3. Animizm qanday e'tiqodga asoslanadi?
4. Shamanizm deganda nimani tushunasiz?
5. Qadimgi Misr diniga xos qaysi xususiyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin?
6. Qadimgi yunon panteonini tavsiflab bering.
7. Qadimgi Misr va Yunoniston dinlari o'rtasida qanday aloqadorlik bor?
8. Qaysi Vedalarni bilasiz?
9. Braxmanlik jamiyatni qanday tabaqalarga bo'ladi?
10. Hinduizm qanday dinlar qatoriga kiradi?
11. Hinduizm ta'limoti nimalardan iborat?
12. Jaynizmning asoschisi kim?
13. Jaynizm ta'limotining xususiyatlari nimalardan iborat?

¹³ Jo'raev U., Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. 54-58-betlar.

14. Sikxizm qachon vujudga keldi?
15. Konfutsiychilik ta'limoti nimalardan iborat?
16. Daosizm qanday din?
17. Sintoizm ta'limoti nimalardan iborat?
18. Yahudiylik dinining muqaddas kitobi qaysi?
19. Yahudiylik dinining asosiy ta'limoti nimalardan iborat?
20. Mustaqil O'zbekistonda yahudiy jamoalarining diniy hayoti qanday?

Adabiyotlar

1. Yo'ldoshev X., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik (Ma'ruzalar matni) T., 2000y.
2. Jabborov I., Jabborov S. Jahon dinlari tarixi. T., «O'zbekiston», 2002y.
3. Xusanov S. Mirjavharova D. Dinshunoslik (o'quv-uslubiy qo'llanma). T.: -2005
4. A. Mo'minov, H. Yo'ldoshxo'jaev, D. Rahimjonov, M. Komilov, A. Abdusattorov, A. Oripov Dinshunoslik (*oliy ta'lim muassasalari bakalavriat va magistratura talabalari uchun darslik*) Toshkent – 2003
5. Yovqochev Sh. "Markaziy Osiyo xalqlari dinlari tarixi" (*O'quv qo'llanma*) Toshkent – 2005
6. Основы религиоведения. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. Под общ. ред. I.N. Yablokova. M., 1995.
7. Религиозные традиции мира. V 2-томax. M., 1996.
8. Vinnichuk L. Lyudi, pravyy, obychai Drevney Gresii i Rima. M., 1988.
9. Korostovsev M.A. Religiya Drevnego Yegipta. M., 1976.
10. Tokarev S.A. Religiya v istorii narodov mira. 4-ye izd. M., 1986.

4- Mavzu: Jahon dinlari. Buddizm va xristianlik

Ma'ruza rejasi:

1. Buddaviylik diniy ta'limoti.
2. Buddaviylik O'rta Osiyoda.
3. Xristianlik diniy ta'limoti va muqaddas kitobi.
4. Xristianlikning O'rta Osiyoga kirib kelishi

Tayanch tushunchalar

Buddizm, to'rt oliy haqiqat, nirvana, pancha shila, hinayana, maxayana, lamaizm, Dalvarzintepa, Ayritom, Qoratepa, xristian ilohiyoti, Bibliya, Injil, eski ahd, yangi ahd, ilohiy habar, Nikey sobora, provaslav, katolik, protestantizm, cherkov, avliyo ota, Turkiston yeparxiyasi ;

1. Masala bayoni. Buddaviylik diniy ta'limoti

Buddaviylik (buddizm) jahonda keng tarqalgan qadimgi jahon dinlaridan biri bo'lib, uning asoschisi Budda nomidan olingan. Buddizm (Budda nomidan olingan), Buddaviylik – diniy-falsafiy ta'limot, jahonda keng tarqalgan dinlardan biri (xristianlik va islom dini bilan birga). Unga e'tiqod qiluvchilar taxm. 500 mln.dan

ortiq. Mil.av. 6-5 asrlarda Hindistonda paydo bo'lgan. Markaziy Osiyo, Jan.-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida va Uzoq Sharqda tarqalgan. Hozirgi kunda Buddaviylik Shri Lanka, Myanma (Birma), Tailand, Laos, Kambodja, Vetnam, Butan va Yaponiya kabi davlatlar, Tibetning asosiy dinidir. Bu muayyan tarixiy davrlarda Xitoy, Hindiston, Koreya va Indoneziyada, derli butun Osiyo xalqlari, ya'ni jahonning salkam 2/3 qismi aholisi ma'naviy qadriyatlariga juda katta ta'sir ko'rsatgan.

Budda so'zining ma'nosi «hotirjam», «nurlangan», «oliy haqiqatga erishgan», «ziyolangan» demakdir. Buddaning asl ismi Siddhartha Gautama bo'lib, laqabi Siddhartha «dili ravshan» degan ma'noni anglatadi.

Budda tarixiy shaxs. Ammo uning qachon yashaganligi to'g'risida adabiyotlarda turli ma'lumotlar keltiriladi. Masalan, adabiyotlarda Budda milod.avval 623-544 yoki 567-488 yillarda yashaganligi qayd etilgan¹⁴. Budda shohning o'g'li bo'lgan. Uni to'q, farovon turmush qoniqtirmaydi.

Bir kuni Siddhartha sayr etgani ko'chaga chiqqanida butun tanasiga yara toshib azoblanayotgan bir qari cholni, tag'in bir kasal yotgan odamni, yana bir o'layotgan kishini ko'radi. Bulardan u barcha jonli mavjudlik, hayot azob-uqubatdan iborat degan xulosaga keladi. Budda kishilar boshiga tushadigan kulfat va azob-uqubatlarni sababini o'rganish va ularni bundan qutqarish maqsadida saroy hayotini tark etib, tarki dunyo qilib, o'rmonga borib yashaydi. U yerda diniy, falsafiy kitoblarni o'qib o'rganib, braxmanlikdan yuz o'girib, yangi ta'limot yaratishga urinadi.

Nihoyat 35 yoshida unga haqiqat ayon bo'ladi va u xalqqa «Haqiqiy bilim» topganini butun Xindiston bo'ylab targ'ib qilib 80 yoshida vafot etadi.

Budda insoniyat boshiga tushadigan azob-uqubatlarni sabablarini o'rganish va insoniyatni ulardan xalos qilish uchun harakat qildi.

Budda o'z ta'limotining asosiy mazmunini Banorasda qilingan targ'ibotida «to'rt oliy haqiqat» shaklida bayon etgan. Buddaning shogirdlari yer yuzda birinchi rohiblar jamoasi Sanghani tashkil etganlar. 1956 yili Budda vafotining 2500 yilligi nishonlandi. Budda va uning ta'limotlari bir necha asr davomida og'izdan-og'izga o'tib kelgan va miloddan avvalgi 1 asrda yozib olingan. Bu yozib olingan matn – «Tripitaka» deb nomlanadi. U «uch savat donolik» deb yuritilib, buddaviylik dinining muqaddas kitobi sanaladi.

Bu din miloddan avvalgi 273-232 yillarda podshoh Ashoka davrida Xindistonning rasmiy diniga aylanadi va boshqa Sharq mamlakatlariga tarqaladi. 9-asrga kelib

¹⁴ Qarang. O'zbek milliy ensiklopediyasi. 2-jild. Toshkent, 2001, 232-bet; Falsafa. Qomusiy lug'at. «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti». «Sharq», Toshkent -2004, 62-bet.

Buddizm Xindistonda inqirozga yuz tuta boshladi va pirovardida bu yerda uning o‘rnini xinduizm to‘liq egallagan.

Buddizm ta‘limotiga ko‘ra, inson doimo azob-uqubatga mahkum va bunga uning o‘zi sabab bo‘ladi. Zero u, garchand befoyda bo‘lsa-da, o‘z hayoti va farovon turmushini saqlab qolishga harakat qiladi. Azob-uqubattan qutilish uchun ko‘ngil xush ko‘rgan barcha narsalardan o‘zini tiyishi, nafsini qaytarishi lozim. Mantazam ravishda bunga amal qilishi, yolg‘ondan, o‘g‘rilikdan, boshqa narsalarga zarar yetkazishdan, zinodan o‘zini tiyishi, ongini oliy haqiqatga yetishishga qaratishi, xotirjamlikka va oxir-oqibatda azob-uqubatning tugashiga- nirvanaga olib keladi. Nirvanaga yetishish uchun talab qilinadigan axloqiy barkamollik bir emas, bir necha hayotni, ya‘ni qayta tug‘ilishni taqozo etishi mumkin. Buddizm zaminida 3 narsa – Buddha, Dxarma va Sangxaga e‘tiqod qilish yotadi. Buddha – Siddxarta Gautama – oliy haqiqatga yetishishning yorqin timsoli. Dxarma – Gautama (Budda) qoldirgan ta‘limot – «to‘rt oliy haqiqat» dan iborat. Sangha – Buddha asos solgan va hozirgacha faoliyat ko‘rsatib kelayotgan rohiblar jamoasi.

Budda o‘z ta‘limotining asosiy qoidalarini Banorasdagi targ‘ibotida «to‘rt oliy haqiqat» shaklida bayon etgan:

1. Azob-uqubat haqidagi ta‘limot. Unga ko‘ra, azob-uqubatning mutloq ekanligi tan olindi, ya‘ni tug‘ilmoq, yashamoq, kasallik, ochlik, o‘lim, yaqin odamlaridan ajralish va hokazo azob-uqubatlarni chekmoqlik.
2. Azob-uqubatlarning sabablari haqidagi ta‘limot. Unga ko‘ra, mavjudlik yovuzlikka tengdir. Azob-uqubatlarning sababi – kishilarning istak, nafs-hirsga (ya‘ni yashashga, baxtga) intilishlaridir, hayotga tashnalikdir.
3. Azob-uqubatlardan ozod bo‘lish haqidagi ta‘limot. Unga ko‘ra, har qanday borliq, barcha ko‘rinish va shakllardagi har qanday hayot – bu, barcha mavjudotga azob beruvchi yomonlikdir. Yomonlik va azob-uqubatlarning sababi-insonning va barcha tirik mavjudotlarning bu dunyoga – ya‘ni qayta tug‘ilish dunyosiga bog‘langanligi, ko‘ngil qo‘yganligidir. Har qanday insoniy tuyg‘u, hissiyot, istak azob-uqubatni chuqurlashtiradi, yana dahshatliroq tarzda qayta tug‘ilishga olib keladi. Borliq girdobidan, uning azob-uqubatlardan chiqib olish uchun g‘aflatdan uyg‘onish, dunyo mohiyatini anglash, hayotga, yashashga chanqoqlikdan, turmush lazzatlaridan, hokimiyatga, boylikka intilishlardan batamom voz kechish, yerdagi barcha hodisalarning beqaror va o‘tkinchi ekanligini anglamoq, fahmlamoq darkor. Shuning uchun ham buddaviylik tarafdorlari «yurmoqdan ko‘ra o‘tirmoq», «uyg‘oq bo‘lgandan ko‘ra uxlamoq afzal», «yashamoqdan ko‘ra o‘lmoq yaxshi» degan naqlga amal qiladilar.
4. Azob-uqubatlardan qutqarishning najot yo‘llarini topish, uning tugashiga olib keladigan yo‘l mavjudligiga ishonmoq. Uning yechimi «najotning olijanob sakkizlik yo‘li» da o‘z ifodasini topgan. Bular taqvodorlik e‘tiqodi, qat‘iyati, so‘zi,

ishi, turmush tarzi, taqvodorlikka intilish, taqvodorlikni orzu qilish, taqvodorlik fikri – hayoli bilan yashash. Bu yo‘lga amal qilgan odam oqibatda yuksak kamolatga erishadi, ya’ni chin haqiqatni anglab yetgan avliyoga aylanadi va narvanaga o‘tadi. Buddaviylikda najot yo‘li bu har bir kishining bu dunyodan ya’ni sansaradan nirvanaga o‘tishdan iborat deb qaraladi. Nirvana – mutloq osoyishtalik hukm suradigan olam. U yerda inson barcha turmush tashvishlaridan xalos bo‘ladi, uning hayotiy istaklari ham, tuyg‘ulari ham, ehtirolari ham bo‘lmaydi. Nirvana qayta tug‘ilishlar silsilasining olis qismi, insonning boshqa qiyofalarga kirishining to‘xtashi, azob-uqubatlardan abadiy halos bo‘lishi.

Buddizmda olam uch bosqichli deb ta’riflanadi. Uning birinchisi eng yuqori nirvana sanaladi. Ikkinchi olam ruhiy mavjudotlar bilan to‘lgan jannat bo‘lib, unda ruhi gunohlaridan xalos bo‘lgan, lekin eng oliy olamga – nirvanaga ko‘tarilmagan avliyolar yashaydilar. Olamning shu qismidan insonlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish uchun Buddha ta’limoti yuboriladi, deb hisoblanadi. Uchinchi olam bu eng quyi olam bo‘lib, unda odamlar va hayvonlar yashaydilar. Olamning bu qismida ruh qafasda yashaydi. U qafas changalidan qutilish va yuqori olamga ko‘tarilishga harakat qiladi. Ruh yuqori olamga o‘z-o‘zidan emas, balki odamlarning savobli ishlari orqaligina ko‘tarilishi mumkin. Agar odamlar buddaga e’tiqod qilsalar, ularning joni bir necha qayta tug‘ilishlardan so‘ng jannatga va undan so‘ng nirvanaga ko‘tariladi. Yomon odamlarning ruhlari esa, quyi dunyoda azoblanib qafas ichida yuraveradi, yuqori olamga ko‘tarila olmaydi. Agar inson nafsoniy va xirsiy aldanishlarga berilib ketsa, undan qutila olmasa, uning ruhi bir necha qayta tug‘ilishlardan so‘ng do‘zohga tushadi. Buddizm ta’limotiga ko‘ra, o‘lim insonni hayot azob-uqubatlaridan xalos eta olmaydi. Sansarning og‘ir azob-uqubatlaridan faqat uzoq qayta tug‘ilishlardan so‘ng chin haqiqatni anglab yetgan avliyolargina halos bo‘lishlari mumkin.

Buddizmda tirik mavjudot – ya’ni ruh qayta tug‘ilishi natijasida nafaqat insoniy, ayni paytda, boshqacha qiyofada, chunonchi hayvon, o‘simlik, parranda va boshqa jonzoqlar shaklida namoyon bo‘lishi mumkin, deb uqtiriladi.

Buddaviylik ta’limoti mohiyatan barcha jonli narsalarga muhabbat bilan qarashni targ‘ib qiladi. Xozirda ham biron kishi buddaviy oldida biron bir hayvonni o‘ldirsa yoki biror daraxtni kesib tashlasa qattiq g‘azablanadi.

Buddaviylik ta’limoticha, har bir kishini xulq-atvor qonuni – karma qonuni ta’qib etadi. Ya’ni har bir kishi o‘zining savob va gunoh, yaxshi va yomon ishlarining ajrini albatta oladi. Bu ajrni bu dunyoda olmasa keyingi, qayta dunyoga kelishida oladi yoki bu ajr uning kelgusi to‘rt avlodidan birining zimmasiga yuklanadi, deb ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, Buddaviylikda oddiy odamlar faqat yaxshiroq bo‘lib qayta tug‘ilishlariga umid qilishlari mumkin. Buning uchun ular 5 ta axloqiy qoidaga amal qilishlari lozimligi aytiladi. 1. Yomonlik qilmaslik; 2. His-

tuyg'ularga ortiqcha berilmaslik; 3. Ichkilikdan o'zini saqlash; 4. Yolg'on so'zlamaslik; 5. O'g'rilik qilmaslik.

Azob-uqubatdagi har bir kishi ilgari tug'ilgan aka-ukalari, ota-onalarining gunohlari uchun ham shunday karmaga duchor bo'lishlari mumkin.

Buddaviylik ta'limotiga ko'ra, har bir kishida bir umr tugagandan so'ng ikkinchi umr boshlanadi. Inson o'lar ekan uning tanasi, vujudi o'ladi, lekin hayoti yangi vujudlarda davom etaveradi, deb ta'lim beradi.

Buddaning o'z shogirdlariga aytgan so'nggi vasiyatida, uning ta'limotining mohiyati aks etgan: «Xirsu havas jamiyki baxtsizliklarning sababchisidir. Vaqt o'tishi bilan hamma narsa o'zgaradi. Shuning uchun hech narsaga ortiqcha ko'ngil bog'lamanglar. Buning o'rniga ko'ngilni toza tutinglar, haqiqat va abadiy baxt izlanglar!»

Budda va uning izdoshlari yer yuzida birinchi monaxlik jamoasi Sanghaga asos solganlar va u xozirgacha faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Mazkur rohiblar jamoasi tor ma'noda o'tgan asrlarda «oliy haqiqat» ga yetishgan ko'plab avliyolardir. Sangha jamoasiga qabul qilingan shaxs quyidagi 10 farzni ado etishga qasamyod qiladi: 1. hech kim yoki hech narsani hayotdan judo qilmaslik; 2. yolg'on so'zlamaslik; 3. o'g'rilik qilmaslik; 4. jinsiy aloqaga kirmaslik; 5. mast qiluvchi ichimlik ichmaslik; 6. kunning ikkinchi yarmidan to ertangi sahargacha ovqat tanovul qilmaslik; 7. uch kiyimdan ortiq hech narsa bilan tanani bezamaslik; 8. ommaviy ko'ngilxushliklarda ishtirok etmaslik va tomoshabin sifatida qatnashmaslik; 9. baland va yumshoq o'rinda yotmaslik; 10. pul ishlatmaslik.

Shuni ta'kidlash lozimki Buddaviylikda Siddxartha Gautama yagona Budda emas. Bunday Buddalar buddaviylikda 1000 nafarni tashkil etadi. Ularning eng mashxuri mazkur dinning asoschisi Siddxartha Gautamadir.

Shunday qilib, Buddaviylik – Buddaga ergashib, u qoldirgan ta'limot talablarini bajarish va Sangha jamoasining a'zosi bo'lib qolishdan iborat diniy ta'limotdir.

Manbalari. Buddaviylik ta'limoti bir qator kitoblar shakliga keltirilgan to'plamlarda bayon qilingan. Ulardan eng asosiysi –Tripitaka (yoki Tipitaka – “ uch savat” ma'nosini anglatadi.) U uch qismdan iborat bo'lgani uchun shunday deb atalgan. Bu manbaning qo'lyozma nusxasi Shri Lankada saqlanib qolgan. U milodning boshlarida kitob shakliga keltirilgan. Unda Budda targ'ibotining haqiqiy bayoni hisoblangan sutra matnlari –Sutra –pitaka, rohiblik ahloqi, xonaqohlar nizomlariga bag'ishlangan vinaya matnlari Vinaya –pitaka, buddaviylikning falsafiy va psixologik muammolarini bayon qilib berishga bag'ishlangan abxidxarma matnlari – Abxidxarma pitaka o'rin olgan. Keyinchalik shakllangan sanskrit, xitoy, Tibet, kxmer, va yapon tillaridagi buddaviylikka oid adabiyotlar ancha keng tarqalgan, ammo ularning ilk buddaviylik tarixi uchun ahamiyati ozroq. Budda hayotiga tegishli rivoyatlarning asosiysi “Tripitaka” da jamlangan.

Oqimlari. Xinayana buddaviylikning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. “Xinayana” so‘zi “kichik arava” ma‘nosini anglatib, u diniy yo‘nalish sifatida mil. av. I asrda shakllangan. Biroq uning asosiy qoidalari ancha avval, jumladan, “Tripitaka” da bayon qilingan.

Xinayana ta‘limotiga ko‘ra, dharmalar tabiatini o‘rganishga va nirvanaga ma‘naviy yo‘l bilan erishiladi. Bu yo‘l juda og‘ir, shu sababli monaxlargina nirvana holatiga yetishi mumkin. Keyinchalik Xinayanada murakkab va dabdabali ibodatlar (masalan, “Budda tishiga sig‘inish”), buddaviylikning muqaddas joylariga ommaviy ziyoratlar joriy qilingan. Bu yo‘nalish Sharqiy Hindiston, Shri Lanka, Hindixitoy davlatlarida tarqalgan.

Maxayana Xinayana bilan bir qator buddaviylikda ikkinchi asosiy yo‘nalish bo‘lib, u ruhiy kamolot ahdiga rioya etuvchi, xudoga iltijo qiluvchi rohiblarga in‘omlar berib yordam ko‘rsatuvchi har qanday oddiy dindor najot topishi mumkin, degan ta‘limotga asoslanadi. Unga ko‘ra, Budda tanasi jonzotlarni azobdan qutqarish uchun turli maxluqotlar shakliga kirishi va hayot zanjirining barcha vakillari uni o‘rganishi, anglashi mumkin. Bu narsa cheksiz Budda ramzlarining, xudolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Xudolarga ishonishning bu yo‘li barcha uchun mumkin bo‘lgan sababli u “katta arava” nomini olgan.

Lamaizm – buddaviylikning asosiy yo‘nalishlardan biri. U Tibet tilida “lama” – “eng ulug‘” degan ma‘noni anglatadi. Mazkur diniy yo‘nalish rahbari Lama deb ataladi.

Lamaizm Tibetda VII – XIV asrlarda tibetliklarning qadimiy dini Bon –po (shomanizmning bir turi) unsurlarini qabul qilgan Maxayana va Tantrizm asosida vujudga kelib, hozirgi vaqtda tibetliklarning asosiy dini hisoblanadi. U bir necha firqa va mazhablarga bo‘linadi. Lamaizm XVI asrlar oxirlaridan mo‘g‘ullar, XVI asr boshlaridan Rossiya hududida yashovchi buryatlar, tualiklar va qalmiqlar orasida ham tarqaladi. Buddaviylikning barcha aqidalarini qabul qilgan lamaizmda inson faqat lamalar yordamiada najot topadi. Lamalarsiz nirvanaga yetishish u yoqda tursin, kishi bu dunyoga qaytib kelishda ham hech narsaga erisha olmaydi, deb ta‘kidlanadi.

2. Masala bayoni. Buddaviylik O‘rta Osiyoda.

Buddizm tarixi 2500 yildan ortiq davrni o‘z ichiga oladi. U eramizdan avvalgi birinchi mingyillik oxirlarida O‘rta Osiyo hamda old Osiyoni o‘z ichiga olgan Kushon imperiyasiga kirib kelgan. O‘ratepa, Dalvarzintepa, Quva, Zartepa, Qorovultepa, Ayritom mavzellarida olib borilgan arxeologik qazilma ishlari natijasida topilgan Budda haykallari va boshqa topdilar Kushon imperiyasida buddaviylikka katta e‘tibor berilganligini ko‘rsatadi.

Buddaviylik O‘zbekiston janubining qadimgi va ilk o‘rta asrlari tarixida chuqur iz qoldirdi. Bu yerda buddaviylik madaniyatiga oid yodgorliklarini ochish va

o'rganish, yuqori ko'rinishdagi badiiy asarlar va buyumlarning topilgani ham bundan yorqin dalolat beradi. Hozir O'zbekiston janubida noyob buddaviylik yodgorliklari Qoratepa, Fayoztepadagi yer osti va yer usti ibodatxonalari, Zurmala stupasi, Ayritom, Dalvarzintepa, Zartepadagi buddaviylik ibodatxonalari yaxshi o'rganib chiqilgan. Ushbu yodgorliklarni o'rganish Markaziy Osiyoda Buddaviylik tarixiga oydinlik kiritish bilan bir qatorda Xitoy va Uzoq Sharq hududida mazkur dinning tarqalishida uning o'rnini to'liqroq tushunish imkonini beradi. Janubiy O'zbekistondagi buddaviylik yodgorliklarini arxeologik o'rganish shuni ko'rsatadiki, Baqtriyada buddaviylik va buddaviylik madaniyatining rivojlanishi buyuk Kushonlar boshqaruvi davriga, milodning I–III asrlarga to'g'ri keladi.

Markaziy Osiyoda buddaviylik va buddaviylik madaniyatini o'rganish 1932 – yilda, Termizdan 7 km yuqorida joylashgan Ayirtom hududida Amudaryo tubidan akant barglari orasida arfa, do'mbra va ud chalayotgan belbog'li uchta haykal tasvirlangan tosh relief topilgandan so'ng boshlangan.

O'zbekiston janubidagi arxeologik topilmalar Tartima, ya'ni Termiz shaxri Kushon Baqtriysining eng muhim va yirik buddaviylik markazlaridan biri bo'lgan, deyish imkonini beradi. Bu shahar geografik jihatdan Amudaryo –Oks orqali o'tadigan muhim kechuv joyida joylashgani tufayli qisqa vaqt ichida Baqtriyadagi eng yirik shahar markazlaridan biriga aylangan. Bu yerda Shimol va Janub, Sharq va G'arbni bog'lab turgan Buyuk ipak yo'lining savdo yo'llari kesishgan. Termiz xalqlarning ma'naviyati va madaniyat bilan o'zaro almashinish markazi bo'lgan va bu yerda yunon –rum dunyosi, Hindistonning o'ziga xos madaniyati uyg'unligini namoyish qiladigan me'morchilik, haykaltaroshlik, rassomchilik, koroplastika, zargarlik yuqori darajada rivojlangan. Bu yerda topilgan ko'plab yozuvlar – Baqtriya yozuvi, kxaroshti, braxma va boshqa yozuvlar shahar aholisining ma'naviy hayoti mukammal rivojlangani, savodxonligi yuqori darajada bo'lganligidan dalolat beradi. Kushon podshoxligining bag'rikenglik an'alariga muvofiq shahar aholisi Zardushtiylik, buddaviylik va boshqa dinlarga sig'ingan. Bu yerda topilgan ko'plab yirik arxeologik yodgorliklar –o'ttizdan ortiq ibodatxona va monastirlar Kushon davrida Termizning Baqtriyadagi buddaviylik va buddaviylik badiiy ma'daniyati markazi sifatida o'rni oshganidan darak beradi.

Ular orasida Qoratepa alohida o'rin egallaydi ayni paytda bu yerda o'n ta yer osti va ustiga qurilgan ibodatxona majmualari va mahobatli monastir binolari qazib ochildi. Bu yerda topilgan moddiy ma'naviy va badiiy artefaktlar Termiz, Baqtriya va Markaziy Osiyoda buddaviylik tarixi uchun katta ahamiyat kasb etishi bilan birga umumjahon budda madaniyatiga qo'shilgan ulkan hissa hisoblanadi.

Kushon davridagi g'oyat muhim bo'lgan buddaviylik markazi Surxondaryoning o'ng sohilida Sho'rchi shahrining Shimoli Sharqidan 10 km masofada joylashgan Dalvarzintepa yodgorligidir. Bu yerda ikkita buddaviylik yodgorligi – shahar

tashqarisidagi va shahar markazida joylashgan ibodatxonalar topilgan va qazib o'rganilgan. Ibodatxonani qazish davomida Budda va buddaviylik xudolari tasvirlangan katta gips haykallar guruhi topildi. Ko'pchilik haykallar loydan yasilib ularning usti ganch bilan qoplangan. O'zbekiston Janubidagi buddaviylik haykallarini tadqiq qilish, o'rganish milodning birinchi asrida buddaviylik ta'limotining mahalliy ta'limoti tarafdorlari orasida yangi ta'limotning barcha qoidalaridan to'liq xabardor bo'lgan va qo'shni tarixiy madaniy mintaqalar hamda Xitoyda missionerlik qilishga zamin hozirlab qo'ygan bilimdonlar yetishib chiqqan deb tahmin qilishga asos bor. Baqtriya sekin asta Marg'iyona, Sug'dga buddaviylikni singdirishning o'ziga xos markaziga aylandi. Fayoztepa ibodatxonasi ham alohidaligi bilan ajralib turadi. Bu arxeologik yodgorlik hozirgi vaqtda Markaziy Osiyodagi eng yaxshi tadqiq etilgan buddaviylik inshootlaridan hisoblanadi. O'zbekiston janubidagi buddaviy yodgorliklarida topilgan badiiy madaniyat namunalari qadimiy Baqtriyaning rivojlangan o'ziga xos badiiy va ma'naviy madaniyatidan darak beradi. O'zbekiston janubidan tashqari, buddaviy yodgorliklar Farg'ona vodiysida ham ma'lum bo'lgan. Mutaxassislarning tadqiqotlariga ko'ra, Quvada buddaviy ibodatxonaning bunyod etilishi buddaviylikning yangi yo'nalishi –Vajrayana bilan bog'liq bo'lib, uning shakllanishi I ming yillik o'rtalariga borib taqaladi. Quva ibodatxonaidagi haykallar Baqtriyada keng tarqalgan loy ganch plastikasi texnikasi asosida ishlangan, o'ziga xos jihati ko'zlar o'rniga qora va oq toshlar qadalishadir.

O'zbekiston hududida ko'plab buddaviy yodgorliklarni kashf etilishi va o'rganilishi hudud madaniy va ma'naviy hayotida bu diniy ta'limot qanchalik katta ahamiyat kasb etganligidan dalolat beradi. Buddaviy san'atning tarqaloishi O'zbekiston san'ati tarixiga munosib hissa qo'shgan. Bu esa shu muqaddas yurtda doim turli din vakillari va ularning badiiy timsollari do'stona umr guzaronlik qilganligini yaqqol namoyon etadi.

Buddaviylik Xitoy, Koreya, Yaponiya va boshqa sharq mamlakatlariga O'rta Osiyo orqali kirib borganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Buning yaqqol tasdig'i xozirda ham Xitoyda Samarqand, Buxoro, Shoshdan borgan budda olimlarining maqbaralarining muqaddas sanalishidir.

Xozirda O'zbekistonda bitta Buddaviylik jamoasi rasmiy ravishda faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

3. Masala bayoni. Xristianlik diniy ta'limoti va muqaddas kitobi

Xristianlik ya'ni Nasroniylik Yaxudiylik dinidan mustaqil din sifatida ajralib chiqqan va jahon dinlaridan biriga aylangan. Xozirgi kunda Xristian cherkovi ma'lumotlariga ko'ra, jahonda bu dinga 2 milliarddan ortiq kishi e'tiqod qiladi¹⁵.

¹⁵ Qarang. Islom ensiklopediya. 260-bet.

Yevropa Amerika mamlakatlarida, Avstraliyada, faol missionerlik harakati natijasida Afrika, yaqin Sharqda va Uzoq Sharqning bir necha mintaqalarida keng yoyilgan.

Xristianlik nomi, uning asoschisi Iyso Masix, yunoncha Iisus Xristos nomidan olingan. Uning aqidalari, diniy ta'limotlari Bibliya tarkibiga kiruvchi Injil – Yevangeliya (Xushhabar)da, ya'ni «Yangi ahd» qismida bayon etilgan.

Masix ya'ni Xristos so'zining ma'nosi «xudo tanlagan», «Xudo siylagan», «Xaloskor» ma'nolarini anglatadi. Xristian so'zi yunoncha bo'lib mazmuni Iyso Masix yo'lidan yuruvchi kishi demakdir. Mazkur dinining nomi ham ana shu – Xristian, masihchi so'zidan olingan.

Iso alayxissalom yaxudiy millatiga mansub bo'lib, taxminan milodiy 1-33 yillarda Falastinda, xozirgi Isroilda yashab o'tgan. Milodiy yil hisobini ham Iso Masih tug'ilgan sanadan boshlab hisoblash qabul qilingan.

Diniy adabiyotlarda Iso onasi Bibi Maryamdan otasiz ilohiy xomiladorlik asosida tug'ilgan deb rivoyat qilinadi. Unga o'ttiz yoshida Tavrot va Zaburdan keyingi uchinchi ilohiy kitob – Injil nozil qilingan. «Injid» yunoncha «Evangeleon» so'zidan iborat bo'lib, nasroniylikda «Evangeli» deb yuritiladi. Ma'nosi «ilohiy xabar», «xushxabar», «ezgu xabar» demakdir.

Bu dinni Islomda nasroniylik deyilishi Iso Masihning tug'ilgan yeri Nosira nomi bilan bog'liq. Bu shahar ahli Iso Masixni Nosiriy deb atar edilar. Unga ergashgan kishini esa, nasroniy deb yuritganlar. Iso Masih 30 yoshidan boshlab 3 yil davomida payg'ambarlik faoliyatini olib borgan. Isoning yangi dinni targ'ib qilishdagi muvaffaqiyatlaridan darg'azab bo'lgan Quddus kohinlari va ruhoniylari uni sudga berishga qaror qiladilar. Ushlab olingan Iso o'lim jazosiga hukm etiladi. Quddus ahli Isoni xudoning o'g'li va odamzotning xaloskori deb e'tirof etmay, uni toshbo'ron qiladilar. Iso Galgofa tog'ida qiynab o'ldiriladi. Uni juda katta yog'och xoch (sanam)ga tiriklayin mixlab tashlaydilar.

Rivoyat qilishicha o'limining uchinchi kuni Iso tirilib, birmuncha vaqt davomida o'z shogirdlari bilan birga bo'ladi. Shundan so'ng u ularning ko'z o'ngida osmonga chiqib ketadi. U kelajakda ya'ni oxirat kuni tiriklar va o'liklar ustidan xukm chiqarish uchun yerga qaytib kelishiga xristian diniga e'tiqod qiluvchilar ishonadilar.

Xristian dinining kelib chiqishi va tarqalishi milodning I-III asrlarida Rim imperiyasida yoyilgan umumiy tushkinlik, inqiroz, qullarning shafqatsizlarcha ezilishi, yahudiylar jamoasida esa oddiy yaxudiylarning uch tomonlama ezilishi, og'ir hayoti sababchi bo'lgan. Chunonchi, Rim imperiyasi tarkibiga kirgan yaxudiylar bir tomondan Rim xukumdorlari, ikkinchi tomondan yaxudiy podsholigi, uchinchi tomondan yaxudiy ruhoniylaridan jabr ko'rar edilar. Azob-uqubat chekayotgan va ezilayotganlarning bunday ijtimoiy kuchlar oldidagi ojizligi

ularni diniy tasalli axtarishga olib keldi. Shu tariqa insonlarni cheksiz jabr-zulm, azob va uqubatlardan ozod qilish haqidagi «xaloskorlik» g'oyalari paydo bo'ldi. Bunday «xaloskorlik» g'oyalari millonlab qullar, ezilganlar, jabr-diydalar maxliyo bo'ldilar. Shunday qilib xristianlik dastavval qullarning, ezilganlarning, jabr-diydalarning orzu-umidlarini ifodalovchi, xaloskorlik dini sifatida paydo bo'lgan. Bu dindagi mazlumlarni shukur qilib yashashga, itoatgo'ylik, oxiratda tenglik va'da qilinishi kabi g'oyalari hukmron tabaqalarga qo'l kelgan. Shu sababli xristian dini uch-to'rt asrdan so'ng davlat diniga aylangan. Chunonchi Rim imperatori Konstantin bu dinni qabul qilib, 324 yilda xristianlikni davlat dini deb e'lon qildi. 325 yilda Konstantinning ko'rsatmasi bilan jahon xristianlarining birinchi yig'ini – Nikey sobori chaqirildi. Bu sobor (yig'in)da yepiskop va ilohiyotchilar xristianlikning asosiy aqidalarini tasdiqladilar, cherkov qonun-qoidalari yozilgan kitoblarni qabul qildilar va cherkov tashkiloti tugal holga keltirildi. Diniy tashkilotda – pop, d'yakon, yepiskop, kardinal kabi quyi va oliy mansablar joriy etildi. Ular xristianlikni targ'ib etish, mustahkamlash, diniy talablarni bajarilishini nazorat qilish ishlari bilan shug'ullanganlar. Din ishlari markazlashtirilib, unga yakka rahbar-dastlab yepiskop, keyinroq esa papa lavozimlari ta'sis etildi. Xristianlik xukmron mafkuraga aylanib har qanday ish, ta'lim-tarbiya, hatto davlat ishlari ham ular nazorati ostiga olindi. Xristian davlatlarida yepiskop va papalar cheklanmagan xuquqqa ega bo'ldilar.

Xristianlikda zohidlik, tarkidunyochilik kuchayib monastirlar paydo bo'ldi. Rim yepiskoplari, V-asrdan esa papalar xristian olamiga tanxo xukumronlik qila boshladilar. XIII asrga kelib butun Ovro'po xristianlashtirildi. Rossiyada bu dinga cho'qintirish marosimi 988 yilda Kiev knyazi Vladimir tomonidan amalga oshirildi.

Shunday qilib xristianlik yaxudiylik dini zaminida Falastinda paydo bo'lib so'ng jahon dinlaridan biriga aylandi.

Xristianlikning muqaddas kitobi.

Xristianlik dinining ta'limoti «Bibliya» da bayon etilgan. «Bibliya» kitoblar demakdir. U yaxudiylik va xristianlikda muqaddas hisoblangan diniy kitoblar va risolalar majmuasi. Bibliya o'z ichiga Tavrot, Zabur va Injilni olgan, Eski axd (Eski vasiyat) va Yangi ahd (Yangi vasiyat) deb nomlanuvchi ikki qismdan iborat ilohiy kitobdir. Tavrot va Zabur Bibliyaning Eski ahd qismiga kiritilgan bo'lib, u yaxudiylik va nasroniylik uchun birday ilohiy muqaddas kitob sanaladi. Bibliyaning xristianlik bilan bog'liq ikkinchi qismi Yangi ahd deb yuritilib, unga Injil kiritilgan. Yaxudiylik Injilni tan olmaydilar va muqaddas hisoblamaydilar. «Ahd» so'zi Xudoning insonlar bilan maxsus aloqasini, ahdlashuvini ifodalaydi. Mazkur dinlarning aqidalariga binoan, Bibliya – Xudoning kalomi, barcha insonlarga yo'llangan, dunyo va odamzodning paydo bo'lishi va «oxirat» sirini

ochib beruvchi muqaddas kitobidir. Uning asosiy mavzusi – yagona Xudoning fazilatlari va insoniyat bilan munosabati haqidadir. Bibliya miloddan avvalgi 8-asr va milodiy 2-asrlar oralig‘ida oromiy va yunon tillarida yozilgan. Bibliya matnlari tadqiq etilganda shu narsa tasdiqlandiki, ular qariyb ming yil davomida xilma-xil joylarda yaratilgan.

Bibliya eng qadimiy adabiy yodgorliklardan biri bo‘lib, diniy pand-nasihatlar, aqidalar, bashoralar, duolar, solnomalar, masallar, hikoyat, rivoyat va maktublardan iborat. Bibliyada, bir yoqdan, odamzotning gunohkor bo‘lib tug‘ilishi, abadiy halokatga mahkum qilinishi, Xudo tomonidan rad etilishi to‘g‘risida gap ketsa, ikkinchi yoqdan, Xudoning gunohkor insonni qutqarish uchun qanday rejalar tuzgani haqida hikoya qilinadi. Ayniqsa, odamlarga najot yo‘lini ochgan Iso Masix to‘g‘risida to‘laqonli xabar beriladi.

Ja‘mi qadimiy yaxudiy tilida 66, lotin tilida 70 kitob (bo‘lim)ni o‘z ichiga olgan Bibliya XIII asrda kardinal Stefan Lengton tomonidan hozirgi ko‘rinishga keltirilgan.

Bibliyaning Yangi ahd deb ataluvchi qismi Injil 27 kitob (bo‘lim) chadan iborat bo‘lib, unda Iso Masixning dunyoga kelishi, yashashi, o‘lib keyin tirilishi va ta‘limoti bayon qilingan. Injilni Iso Masixning 12 shogirdi va safdoshi apostollar ya‘ni xavoriylar payg‘ambar o‘limidan keyin 1-2 asrlarda yozib kitob holiga keltirganlar. Matto, Luka, Mark va Yuxanno kabi aposto(xavoriy)lar yozgan 4ta Injil kitobi: Yevangeliya (xushxabar), havoriylarning amallari, 21 risolasi va Ioann «Vahiynoma» si milodiy 313 yilda Papa Buyuk Konstantinning buyrug‘iga muvofiq qabul qilingan.

Xristianlikning diniy ta‘limoti.

Xristianlikning diniy ta‘limoti mazmunini asosan quyidagilar tashkil etadi: Xudo muqaddas uchlikda namoyon bo‘ladi. Ya‘ni Xudo uch qiyofali, lekin mohiyatan yagonadir. Ammo Xudo Xudo – ota, Xudo – o‘g‘il, Xudo – muqaddas ruh ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bu holat esa yakkayu-yagona xudoga shirk keltirish edi. Mana shunday yanglish, hato aqidalari tufayli nasroniylar musulmonlar tomonidan «kofir» - kufirga ketgan deb ataladilar.

Bu uch qiyofali xudolar ayni paytda shaxslariga ko‘ra farq qiladilar. Xristianlik ta‘limotiga ko‘ra Xudo-ota tug‘ilish yo‘li bilan paydo bo‘lmagan, hech kim yaratmagan, u o‘zi abadiy mavjud. Xudo – o‘g‘il esa, tug‘ilgan. Xudo – muqaddas Ruh esa, Xudo – Otadan paydo bo‘lgan. Nasroniylar Iso Masixni Xudo-O‘g‘il darajasiga ko‘targanlar.

Xristianlikning asosiy aqidalari quyidagilardir: Xudo – O‘g‘il (Iso) Masix – Xudo yarlaqagan vakil. U ilohiy xaloskor. Iso – Xristianlikning asoschisi; Iso o‘ldirilgandan keyin osmonga ko‘tarilib ketgan. U kelajakda tiriklar va o‘liklar ustidan hukm chiqarish uchun oxirat kuni yerga qaytib keladi; Iso ham ilohiy, ham

insoniy tabiatga ega; Bibi Maryam Xudo (Iso)ning onasi, u qizlik iffati saqlangan holda ilohiy xomilador bo'lgan va Isoni tuqqan; ikonalariga sig'inish; Xudo hamma narsadan ustun turadi va abadiydir. Uni hech kim yaratgan emas. Xudo dunyoni yaratuvchisidir; odamzot tug'ilgan paytidan boshlaboq gunohkordir. Xudo yaratgan mavjudotlarning gultoji inson bo'lgan, chunki u insonni o'ziga o'xshash qilib yaratgan edi. Bu o'xshashlikning asosiy qirralari – bu insonga berilgan aql-idrok, iroda, abadiy o'lmasliklarida edi. Xudo butun kosmik tartibni insonga bog'lab qo'ydi. Biroq inson o'zining irodasini, erkini Xudo irodasiga, erkiga qarama-qarshi qilib qo'yganligi uchun uni abadiy gunohkorlikka mahkum etgan. Cho'qintirish yo'li bilan Xudo odamlarga najot yo'lini ochib bergan. Odam Ato va Momo Havo qilgan ish shunday gunohi azim ediki, odamlar qiladigan har qanday qurbonlik Xudoni qanoatlantira olmaydi. Shuning uchun Xudo odamlarga rahm qilib, o'z o'g'li Isoni o'linga mahkum etgan. Bu qurbonlik Xudoni Isoga ergashganlar bilan yarashtirgan va ularga cho'qintirish marosimi orqali najot yo'lini ochib bergan. Faqat xristian cherkovi bag'ridagina odamlar Xudoning marhamatiga, uning himoyasida bo'lishlariga umid bog'lashlari mumkin. Iso o'gitlariga, vasiyatlariga amal qilish, hayot mashaqqatlariga Iso kabi bardosh berish, buning evaziga narigi dunyoda ajr (mukofat)ga erishajaklikning muqarrarligiga ishonish. Jannat va do'zohning mavjudligi va jonning o'lmasligi kabilar xristianlik diniy ta'limotining mohiyatini tashkil etadi¹⁶.

Shunday qilib Xristianlik diniy ta'limotining bosh g'oyasi yakkaxudolik, gunohga botish va undan xalos bo'lish aqidalaridir. Odamlar xudo oldida gunohkor, yahudiy mi yo yunon, rimlik mi yo varvar, qulmi yo erkin fuqaro, boymi yo kambag'al – barchasi «xudoning bandasi», barchasi gunohga botgan. Bandasi o'z gunohini xudoga, buyuk xaloskori (Iso) ga chuqur e'tiqod qilish orqali yuvadi. Iso Masix butun odamzotning gunohini yuvish uchun qancha azoblar chekib, bandalariga o'rnak bo'lsin deb o'zini qurbon etadi. Muqaddas uchlik – Ota – Xudo, O'g'il-xudo (Iso) va Muqaddas ruhga ishongan, tavba qilgan, oxiratdagi yaxshi hayotga umid bog'lagan taqvodor kim bo'lishidan qat'i nazar to'g'ri jannatga borishi mumkin. Aksincha, betavfiq gunohkor va ta'magir do'zoh olovida qovuriladi. Xristianlikning Muqaddas uchligi va Isoning dunyoviy odamlardan xudo darajasiga ko'tarilishi uni iudaizm va Islomdan farqlaydigan asosiy aqidalaridir¹⁷.

Xristianlikdagi oqim va yo'nalishlar.

Tarixdan ma'lumki milodiy 395 yilda qudratli Rim imperiyasi parchalanib – G'arbiy (Rim) va Sharqiy (Vizantiya) qismlarga bo'linib ketdi. 476 yilga kelib esa G'arbiy Rim saltanati butunlay quladi. Natijada Rim cherkovi va uning

¹⁶ Qarang. Falsafa qomusiy lug'at. 444-bet.

¹⁷ Qarang. IJabborov, S.Jabborov. Jahon dinlari tarixi. 128-bet.

boshlig'ining nufuzi mislsiz oshib ketdi. Cherkov boshlig'i Rim papasi deb atalib, cheksiz xuquqqa ega bo'ldi.

Sharqiy Vizantiyada esa imperatorlik hokimiyati kuchli bo'lganligi sababli cherkov xokimiyatga bo'ysundirilgandi. 1054 yilga kelib Rim va Konstantinopol cherkovlari o'rtasida diniy ta'limotlarni talqin etish, yangi vujudga kelgan cherkovlarni nazorat qilish, daromadlarni taqsimlash yuzasidan kelib chiqqan ixtilof keskinlashdi. Oqibatda Rim papasi Lev IX va Konstantinopol cherkov boshlig'i Kirudariy bir-birlarini la'natladilar. Xristianlik ana shu sanadan boshlab ikkiga ajralib ketdi. Ulardan biri Rim papasiga bo'ysunuvchi katolik (butun dunyo) cherkovi, ikkinchisi esa Konstantinopol patriarxiga bo'ysunuvchi Pravoslavie (chin e'tiqod) cherkovi degan nom oldi. Buni qisqa qilib Xristianlik G'arbiy va Sharqiy cherkovlarga ajralib ketdi deb izohlasa bo'ladi.

Katolik – yunoncha so'z bo'lib, ma'nosi «umumjahon», «umumiy», «asosiy» demakdir.

Katolik cherkovi qat'iy markazlashtirilganligi bilan ajralib turadi. Uning yagona jahon markazi – Vatikan davlatida joylashgan. Mazkur cherkovning bosh ruhoniysi, yepiskopi, birdan bir boshlig'i – Rim papasi sanaladi.

Rim papasiga Isoning yerdagi noibi, u din va axloq masalalarida mutloq gunohsiz, uning hokimiyati jahon soborlari hokimiyatidan ham yuqori turadi deb qaraladi.

Katolik cherkovini papa va uning joylardagi kardinal (o'rinbosar) lari boshqaradilar. Kardinallar yig'ilishi Rim papasini saylaydilar.

Katoliylik, xristian dinining asosiy aqida va marosimlarini e'tirof etadi. Jannat va do'zox bilan birga oxirzamonda hisob-kitob mashxar kunini bor deb hisoblaydi. Muqaddas Ruh faqat Ota-Xudodan emas, balki O'g'il-Xudodan ham kelib chiqqan deb qaraydi. Ruhoniylarga uylanish – nikohni ta'qiqalaydi. Injilni faqat ruhoniylar sharhlashi mumkin deb hisoblaydi. Ruhoniylar odamlar bilan xudo o'rtasida vositachi deb qaraladi.

Katoliylik marosimiga ko'ra chaqaloqni cho'qintirayotganda suvga botirib olmaydilar, balki uning ustidan suv quyadilar. Cho'qintirilgandan so'ng suritiladigan xushbo'y moy go'daklikda emas, keyinchalik balog'at yoshida suritilishi tayin etilgan. Diniy ibodat asosan lotin tilida olib borilishi, bu oqimga xos xususiyat sanaladi.

Katolik cherkovi bid'atga va Papa hokimiyati dushmanlariga qarshi kurashish uchun XIII asrdan Inkvizatsiya (cherkov sudi, jazolash tashkiloti) ni tashkil qilgan. U yuz yillar mobaynida katolik mamlakatlarida faoliyat ko'rsatgan. Sud qilinuvchilarga nisbatan o'ta shafqatsiz qiynoq usullari qo'llanilgan. Aybdorlarga nisbatan jamoa oldida aytganlaridan voz kechish, jarima solish, qamash, tiriklayin o'tda kuydirish kabi jazo choralari qo'llanilgan. Buning misoli tariqasida fan namoyondalari Nikolay Kopernik, Galileo Galiley, Jardano Bruno, fransuz

xalqining milliy qahramoni Janna D'Ark va boshqalarning boshlariga solingan kulfat, qiynoq, dorga osish va tiriklayin o'tda kuydirish kabi jazo choralarini qo'llanilganligini eslash kifoya.

Cherkov statistikasiga ko'ra, xozir Yer yuzida katoliklar 900 milliondan ortiq. Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Fransiya, Belgiya, Avstraliya, Lotin Amerikasi mamlakatlarida katoliylik hukmron diniy tashkilot sanaladi. Polsha, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Boltiq bo'yi mamlakatlari va Kubada aholining ko'pchiligi katoliylikka e'tiqod qiladilar.

Provaslavie – ma'nosi chin e'tiqod demakdir. Provaslavie – oqimining katoliylikdan farqlaridan biri shuki, bu oqimda yagona diniy markaz, cherkovlarning yagona rahbari yo'qligidir. Xozirgi vaqtda pravoslavieda 15 ta avtokafel (mustaqil) cherkov mavjud. Bular – Konstantinopol, Aleksandriya, Quddus, Rus, Gruziya, Serb, Rumin, Bolgar, Alban, Polyak, Chexiya, Amerika va boshqa cherkovlardir.

Yuqorida qayd etilganidek Pravoslavie 1054 yilda Xristianlikning Sharqiy Rim imperiyasi o'rnida rasmiylashgan va uning davlat dini bo'lgan.

Pravoslavie – olamning yaratuvchisi va boshqaruvchisi muqaddas uchlikdan iborat yagona Xudo ekanligi, narigi dunyo, ajr to'g'risidagi, dastlabki gunoh tufayli azob-uqubatlarga duchor qilingan insoniyat najot topishga imkon beruvchi Iso Masihning xaloskorlik faoliyati (missiyasi) haqidagi aqidalarni tan oladi. Bu oqimda 7 sirli marosim asosiy o'rinni egallaydi. Bular cho'qintirish, non va vino tortish, ruhoniylilik unvonini berish, tavba-tazarru, miro surtish, muqaddas zaytun moyi surtish, nikoh marosimlaridir.

Provaslaviening katoliylikdan farqlari shundaki, muqaddas ruh faqat Ota – Xudodan kelib chiqqanligi, cherkov boshliqlari emas, balki cherkovning o'zi gunohsizligi va aqidalarning o'zgarmasligi e'tirof etiladi. Ruhoniylarning uylanishlari va nikohdan o'tishlari majburiy qilib belgilangan. Provaslavieda bayramlar nihoyatda ko'p bo'lib, ular – ulug', o'rta va kichik bayramlarga bo'linadi. Jumladan, Pasxa bayrami Xochga tortilgan Isoning mo'jizaviy qayta tirilishi xotirasiga bag'ishlangan bo'lib, bahorgi tengkunliklarda nishonlanadi.

Rajdestvo Xristovo – Iso Masixning tug'ilish bayrami, katoliylikda har yili 25 dekabrda, Pravoslavieda 7-yanvarda nishonlanadi va boshqalar.

Xristianlikdagi uchinchi oqim – Protestanizm bo'lib, norozilik bildiruvchi, kelishmaslik degan ma'noni bildiradi.

1526 yilda Shpeyer reyxstagi nemis lyuteranchi knyazlari talabi bilan har bir nemis knyazi o'zi va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to'g'risida qaror qabul qildi. Ammo, 1529 yilda 2 –Shpeyer reyxetagi bu qarorni bekor qildi. Bunga qarshi Germaniyaning bir qancha shaharlari va 5 knyazi

norozilik – protest bildirdi. «Protestanizm» atamasi shu soʻzdan kelib chiqqan. Uning cherkovi esa protestanizm cherkovi deb yuritiladi.

Protestanizm ham xudoning borligini, uning uch qiyofada namoyon boʻlishini, jonning oʻlmasligi, jannat va doʻzoh haqidagi umumxristian taʼlimotini eʼtirof etadi. Shu bilan birga protestanizm 3 ta yangi qoidani joriy etdi:

1. Shaxsiy eʼtiqod bilan najot topish mumkinligi;
2. Dinga ishonuvchi barcha kishilarning ruhoniyligi boʻlishi mumkinligi;
3. Injilning oliy nufuzi.

Protestanizm katolik cherkovi gunohdan holi, Rim papasi birlamchi, degan taʼlimotlarni rad etadi.

Xristianlikning bu oqimida insonning xudoga va cherkovga munosabati soddalashtirilgan. But va sanamlarga sigʻinish yoʻk. Monaxlik va ruhoniylarning uylanmasligi qoralanadi.

Protestanizm sirli marosimlarning koʻpchiligini bekor qildi, faqat choʻqintirish hamda non va vino tortish marosimini qoldirdi.

Protestantlar soni hozirgi davrda butun dunyoda 250 milliondan ortiq. Bu oqim Skandinaviya mamlakatlari, Germaniya, Britaniya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, AQSh va boshqa mamlakatlarda keng tarqalgan.

Protestanizmdagi asosiy oqimlarga – babtizm, staroverlar, duxoborlar, molokonlar, mormonlar, adventistlar, Iegova shoxidlari va boshqalar kiradi.

Baptizm – yunoncha soʻz boʻlib, «suv bilan choʻqintirish» degan maʼnoni bildiradi. Bu taʼlimot boʻyicha bolalar yoshligida emas, balki voyaga yetganda, dinga nisbatan ongli boʻlgandagina choʻqintirilishi lozimligi uqdiriladi. Xristianlikda muqaddas hisoblanadigan avliyolar, monaxlik, ikona, but va boshqalar rad etiladi.

Baptizm ruxoniylarning dindorlar bilan insonlar oʻrtasidagi vositachiligini rad etadi. Insonning yashashdan maqsadi, oʻzini narigi dunyoga tayyorlashdir deyiladi. Baptistlar har hil yigʻinlarga, teatrlarga, xursandchilik maskanlariga bormaydilar. Begonalarga qarshi qurol koʻtarmaydilar. Hatto armiyaga berganlarida ham qurolga qoʻl tegizmaydilar, boshqa ishlar bilan shugʻullanadilar. Kamdan-kam xursand boʻlib yuradilar, koʻpincha xomush yuradilar. Oʻz yaqinlari va dushmanlarini ham birdek sevishlari, hammani kechirishlari, yomonlikka qarshilik koʻrsatmasliklari muttasil tashviqot qilinadi. Jahonda baptistlar soni 35 milliondan ortiq. 1905 yilda jahon baptistlar ittifoqi tuzilgan, uning markazi AQShda. Oʻzbekistonda baptistlarning roʻyhatga olingan 14 jamoasi mavjud.

Duxoborlar – ruhga eʼtiqod qiluvchi xristianlar, ruh uchun kurashuvchilar – eski rus sektantchiligi yoʻnalishlaridan biri. Ular ruxoniylarni, monaxlikni, butxonalarni, provaslav qoida va marosimlarini, xoch va ikonalariga topinishni rad

etganlar. Iso Masih oddiy inson, xudoning o'g'li emas, ammo unda ilohiy aql mujassam bo'lgan deyiladi.

Adventistlar – lotincha so'z bo'lib, voqe bo'lish ma'nosini bildiradi. Adventistlar jonning o'lmasligini inkor etadilar. Jon tana bilan birga o'ladi va Iso qayta tirilib kelgan kun yana tiriladi. Bu dunyo ana shunga tayyorgarlik ko'rish uchun berilgan deyidilar. Shanba kunini dam olish kuni deb biladilar. O'z daromadlarining o'ndan bir qismini cherkovga berish talab etiladi. Adventistlar Iso qayta tirilib kelib oxiratdan avval ming yil hukmronlik qiladi va bu kun yaqin deb ishonishadi.

Staroverlar, staroobryadchestvo (eski udumlar, eski diniy udum, marosim va urf-odatlariga amal qiluvchilar) – Rus pravoslav cherkovining 17-asrning ikkinchi yarmida patriarx Nikon o'tkazgan cherkov islohotini qabul qilishdan bosh tortgan diniy oqim vakillari.

4. Masala bayoni. Xristianlikning O'rta Osiyoga kirib kelishi

Milodning boshlaridayoq xristianlik Markaziy Osiyo, ayniqsa, Marv va Baqtriyada keng tarqalgan edi. Ana shu davrda xristianlarning Markaziy Osiyoda mavjud bo'lganini cherkov, manastiya, xristianlikka oid buyum qabrtosh hamda tanga kabi tarixiy ashyoviy dalillar isbotlaydi. Arablar bu hududni egallaridan so'ng xristianlik jamoalarining faoliyati to'xtagan. Xristianlikning Turkiston o'lkasida keyingi paydo bo'lishi XIX asrning 40 –yillariga to'g'ri keladi.

XIX asrning 70-yillari O'rta Osiyo mintaqasiga, pravoslavie bilan bir qatorda, boshqa oqimlarning tarafdorlari ham kirib kela boshladi. Ular ortidan turli sektalarga mansub dindorlar, masalan, baptistlar, adventistlarga, katoliklar va boshqalar ham paydo bo'ldi. 1879 yil 27 martda Rossiya imperatorining maxsus qonuni e'lon qilingach, bu jarayon yanada faollashadi. Rossiya armiyasi tomonidan Birinchi jahon urushida asir olingan nemis, polyak, eston, shved, litvalik, latish va boshqa g'arbiy yevropalik askarlarning Turkiston o'lkasiga surgun qilinishi ular e'tiqod qiladigan din yoki oqimning kirib kelishiga sabab bo'ldi. Bu, o'z navbatida, yevropalik asirlar orasida diniy jamoalar tuzish hamda cherkovlar paydo bo'lishiga olib keldi. Xorijliklarning bunday faoliyati asrimizning taxminan 20-30-yillariga qadar davom etdi. XX asr boshlariga kelib Turkiston general-gubernatorligida 6,03 million musulmonga 391 ming pravoslav yoki 5340 masjidga 306 cherkov to'g'ri kelgan. Bundan tashqari, e'tiqod jihatidan 10,0 ming pravoslav oqimiga mansub staroobryadchilar, 8,2 ming lyuteranlar, 7,8 ming katoliklar, 26 ming yahudiy diniga va 17,1 mingga yaqin boshqa oqimlarga mansub dindorlar bo'lgan. Pravoslav yo'nalishi O'zbekiston hududiga Rossiya orqali kirib kelgan. 1871 yil 4 mayda Rossiya imperatori tomonidan Toshkentda Turkiston (hozirgi vaqtda O'rta Osiyo va Toshkent) yeparxiyasini ochish to'g'risida qaror qabul qilingan. Xristianlikning O'zbekistonda tarqalgan oqimlaridan biri katolitsizmdir. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr oxirlarida

Toshkentda 2300 ga yaqin katolik istiqomat qilgan. O'sha vaqtda rim katoliklari jamoalariga Yustin Pranaytis rahbarlik qilgan. Toshkentda birinchi katolik cherkovi 1917 yilda qurib bitkazilgan. Hozirgi vaqtda bu bino tarixiy obida sifatida qayta ta'mirlandi.

Keyingi o'n yillikda mahalliy koreys millatiga mansub shaxslar orasida protestantizm yo'nalishiga qiziqish ortdi. Bunga, bir tomondan koreyslarning o'z qarindosh-urug'lari bilan diydor ko'rishish va boshqa maqsadlarda Janubiy Koreya, AQSh va boshqa rivojlangan davlatlarga borib kelishi omil bo'ldi. Xorijda ular ma'lum bir diniy oqim ta'siriga tushib, O'zbekistondagi yaqinlariga ham mazkur oqim ta'limotlarini targ'ib qila boshladi. Shuningdek, Janubiy Koreya va AQSh lik koreys millatiga mansub kishilar ham katta moddiy mablag'ga ega bo'lgan protestantizm yo'nalishi markazlari hisobig mahalliy koreys millati vakillari orasida missionerlik faoliyatini olib bormoqda.

O'zbekistondagi koreys protestant cherkovlarining deyarli barchasini pyatidesyaniklik yo'nalishidagilar tashkil etadi. Ibodat tarzlari protestantizmdagi yo'nalishlarda bajariladigan amallar kabidir. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan To'liq Injil xristianlarining (pyatidesyatniklik) ilk jamoalari XX asr 20-yillari oxirida Toshkent shahrida tuzildi. Yevangelchi-lyuteranlar O'zbekiston hududida 1877 yilda buyon faoliyat yuritib, 1884 yildan ibodatlarini rasman amalga oshirib kelgan. 1890 yilda me'mor A.L.Benua rahbarligida boshlangan cherkov qurilishi 1896 yilning dekabr oyiga kelib nihoyalandi.

O'zbekistonda yana bir cherkov – Novoapostollik cherkovi bo'lib, u xristian dinining protestantlik yo'nalishiga mansub oqimdir. Novoapostol cherkovi O'zbekistondagi faoliyatini 1992 yildan boshlab, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Navoiy shaharlarida ro'yhatdan o'tgan. O'zbekistondagi Novoapostol cherkovlari Berlin Brandenburg okrugi tasarrufidadir. Uning apostol-prezidenti – Fris Shreder. O'zbekistonda "Iegova shohidlari" protestant yo'nalishidagi diniy tashkilot ham faoliyat yuritmoqda. Mazkur diniy sektaga 1870 yilda amerikalik ishbilarmon Ch.T.Rassel asos solgan. Sektaning markazi Bruklin shahrida joylashgan va 15 a'zodan iborat bo'lgan "Rahbar korporatsiya" ga bo'ysunadi.

Ayrim manbalar O'rta Osiyoda Iegova shohidlarining XX asrning 40-yillarida paydo bo'lgani haqida ma'lumot beradi. O'sha davrda ular o'zlarini "*kanalistlar*" deb atab kelgan.

Iegova shohidlari – xristianlikning protestant yo'nalishidagi diniy tashkilot a'zolari. 1931 yildan unga "Iegova shohidlari tashkiloti" degan rasmiy nom berilgan. Tashkilotga Bruklin markazi rahbarlik qiladi.

Shu tariqa, turli din va mazhablarga e'tiqod qiluvchi, turli millatga mansub aholi O'zbekistonda birgalikda yashab, Vatan ozodligi, taraqqiyoti va obodligi uchun ijod va yaratuvchi mehnat bilan bandlar. Ular orasida chuqur nizolarga olib kelishi



mumkin bo'lgan tortishuvlar, tarafkashlik hollarini ko'rmaymiz. Aksincha, turli din arboblarning o'zaro muloqoti, uchrashuvlari, hammasi uchun umumiy bo'lgan masalalarni muhokama etishda ishtirok etish dinlararo hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu, bir jihatdan, davlatimizning odilona, tinchliksevar siyosatining natijasi bo'lsa, ikkinchi tarafdin, xalqimizning olijanoblighi, tabiatan bag'rikeng tufayli yuzaga kelgan ijobiy hodisadir.


O'zbekiston ko'pmillatli, ko'p konfessiyani davlatdir. Xozirgi kunda O'zbekistonda 130 dan ziyod millat va elat vakillari yashaydi. Ular turli dinlarga e'tiqod qiladilar. Shuning uchun diniy bag'rikenglik mamlakatimizda qurilayotgan demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Respublikamizda 16 diniy konfessiya birlashmalari o'zaro totuvlikda faoliyat ko'rsatmoqda. Bular orasida Islomdan so'ng, ikkinchi o'rinni xristianlarning pravoslavie oqimi egallaydi. O'zbekiston Konstitutsiyasi va unga asoslanib ishlab chiqilgan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida (yangi taxrirda) qonun» ga asosan respublikamizdagi barcha diniy uyushmalar erkin, oshkora, teng huquqli asosda faoliyat ko'rsatmoqdalar. Bu xuquq va erkinliklar qonun bo'yicha kafolatlangan. Bu qonunlarga binoan biror konfessiyaga imtiyoz berilmagan. Qonunlar doirasidagi faoliyatlari cheklanmagan.

Respublikamizdagi barcha konfessiyalar totuv, hamkor, hamjihat yashash, davlat va siyosat masalalariga aralashmasdan, hokimiyat talashmasdan, o'z funksiyalarini xotirjam bajarayotirlar. Davlatimiz bilan ular orasida hech qanday ziddiyat va tushunmovchilik muammolari yo'q. Dinlararo bag'rikenglik g'oyalarini yurtimizda to'la amalga oshirilayotganligiga quyidagilar misol bo'la oladi. 1995 yilda musulmon va xristian ilohiyotchilari ishtirokida «Bir samo ostida» xalqaro xristian-musulmon konferensiyasi; 1998 yildan faoliyat ko'rsata boshlagan Toshkent Pravoslav diniy seminariya va Samarqand Protestant seminariyalarini keltirish mumkin. Shuningdek, Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasining 125 yilligi hamda Yevangel-Lyuteran jamoasining 100 yilligi nishonlandi.

Xulosa shuki Respublikamizdagi barcha konfessiyalar orasida totuvlik, hamjihatlik mavjud bo'lib, xalqimizni tarbiyalashga, tinchlik va havfsizlikni saqlashga salmoqli xissa qo'shmoqdalar.


Mavzuga oid chizmalar







Meditatsiya

- ↓
- То‘g‘ri tushunish (to‘g‘ri e‘tiqod qilish)
 - То‘g‘ri niyat qilish
 - O‘zini to‘g‘ri tutish
 - То‘g‘ri xarakat qilish
 - То‘g‘ri hayot kechirish
 - То‘g‘ri fikr yuritish
 - То‘g‘ri gapirish



O'zbekistondagi buddaviylik yodgorliklari

-
- Qoratepa
 - Fayoztepa
 - Zurmala stupasi
 - Ayritom
 - Dalvarzintepa
 - Zartepa



Takrorlash uchun savollar

1. Buddaviylik dinining asoschisi kim bo'lgan ?
2. «To'rt oliy haqiqat» deganda nimani tushunasiz ?
3. Sansara va Nirvana so'zlari qanday mohiyatga ega ?
4. Karma qonuni nima ?
5. Pancha Shila nima ?

6. Sangha qanday jamoa va uning qoidalari nimalardan iborat ?
7. Buddaviylik diniy ta'limotining mohiyatini izohlang.
8. Buddaviylikning qanday yo'nalishlari bor ?
9. Buddaviylikning asosiy manbalari ?
10. Buddaviylikning O'rta Osiyoga tarqalishi haqida nimalarni bilasiz ?
11. O'zbekiston hududidagi buddizm yodgorliklari va ularning tadqiq etilishi haqida nimalarni bilasiz ?
12. Iso Masix haqida nimalarni bilasiz?
13. Xristianlik dinining paydo bo'lish sabablari?
14. Xristianlikning davlat diniga aylanishi.
15. Xristianlikning muqaddas kitobi haqida nimalarni bilasiz? Bibliya qanday kitob?
16. Xristianlik aqidalariga nimalar kiradi?
17. Xristianlik diniy ta'limotining bosh g'oyasiga nimalar kiradi?
18. Xristianlikda qanday oqimlar mavjud, ular nima sababdan yuzaga kelgan. Ular o'rtasidagi farqlar nimalarda ko'rinadi?
19. Xristianlikda qanday bayramlar nishonlanadi?
20. Protestanizm da qanday oqimlar mavjud?
21. Xristian jamoalarining O'zbekistonda milliy istiqloлга qo'shayotgan xissalari?

Foydalanigan adabiyotlar

1. I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" T -1998 yil
2. I.A.Karimov "Yusak ma'naviyat yengilmas kuch" T -2008 yil
3. Sh. M.Mirziyoev " BMT Bosh assambleyasining 72 –sessiyasidagi nutqi 2017 yil 19 sentabr
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga 2017 yil 22 dekabrda murojaatnomasi
5. Falsafa ensiklopedik lug'at. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti T -2010 yil
6. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi T -2009 yil
7. Sh. I. Xaitov O'zbekiston falsafa tarixi T -2011 yil
8. Qadimgi O'zbekistonda buddaviylik va buddaviy merosi T – O'zbekiston 2011 yil
9. Injil, Tavrotdan "Ibtido" va Zabur. Ikkinchi nashr 1993 yil
10. Rahmatulloh qori Obidov "Qur'oni Karimda Iso payg'ambar siymosi" T -2002 yil.
11. I.Jabborov "Jahon dinlari tarixi" T- 2002 yil.

5- Mavzu : Islom dini.

Ma'ruza rejasi

1. Islomning kelib chiqishi va shakllanishi va boshqa o'lkalarga tarqalishi
2. Islom dinidagi asosiy yo'nalishlar va mazhablar.
3. Islom dinining asosiy manbalari.
4. Islom dini manbalarining tarbiyaviy ahamiyati.

Tayanch tushunchalar

Johiliya, qonunsizlik, yakkaxudolik, vahdoniyat, vahiy, hijrat , xalifalik, mazhab, Qur'on, hadis, sunniylik, shialar, ahloqiy komolot, halollik, poklik, iymon, vijdon, oila muqaddasligi, islomda ayollarga munosabat.

Biz islom dini ota-bobolarimiz dini ekanini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham ma'rifat ekanini doimo yuksak qadrlaymiz. Xalqimizning ming yillik tarixini, bugungi ma'naviy hayotini, dinu diyonatimizni muxtasar ifodalab, aytish mumkinki, Alloh bizning qalbimizda, yuragimizda. Dinga hurmat va e'tiqod – biz uchun o'lmas qadriyatdir. Islom Karimov.

1. Masala bayoni. Islomning kelib chiqishi va shakllanishi va boshqa o'lkalarga tarqalishi

Arabiston yarim orolida islom vujudga kelgan davrdagi shart –sharoit va ma'naviy hayot.

Islom dini jahon dinlari ichida eng yosh dindir. E'tiqod qiluvchilari soni jihatidan esa xristianlikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Xozirda Islom diniga e'tiqod qiluvchilar soni qariyb milliard 600 million kishini tashkil etadi¹⁸. Yil sayin bu dinga e'tiqod qiluvchilar soni ortib bormoqda.

Islom dini VII asrning boshlarida Arabiston yarim orolida (hozirgi Saudiya Arabistonida) paydo bo'lgan.

Islom – arabcha so'z bo'lib, mazmuni bo'ysunish, itoat etish, o'zini Alloh irodasiga topshirishni bildiradi. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar arabcha «muslim» - «islomni qabul qilgan», «itoatli», «sadoqatli» demakdir. Ko'pligi «muslimun» deb ataladi. Bu so'z hozir o'zbeklarda – musulmon, qirg'iz va qozoqlarda – musulmon, Ukraina va Rossiyada – basurman nomi bilan ataladi.

Umumiy tarzda, Islom – Alloh yagona degan e'tiqod bilan unga bo'ysunimoqlik, itoat etmoqlik va butun qalb bilan ixlos qilmoqlik va Alloh buyurgan dinga iymon (ishonch) keltirmoqlik demakdir. Jahonda qariyb 1,6 mlrd. kishi islomga e'tiqod

¹⁸ Qarang. Islom ensiklopediya. 113-bet.

qiladi. Musulmonlarning 2/3 qismidan ko‘prog‘i Osiyoda yashaydi va bu qit‘a aholisining 20 % dan ortiqrog‘ini tashkil etadi. Qariyb 30% musulmonlar Afrikaga to‘g‘ri keladi. Dunyoda musulmon jamoalari mavjud bo‘lgan 120 dan ortiq mamlakatdan 40 dan ziyodida musulmonlar aholining ko‘pchiligini tashkil qiladi. Shimoliy Afrika, G‘arbiy Osiyoning barcha mamlakatlarida (Kipr, Livan, Isroil mustasno), Senegal, Gambia, Niger, Somali, Avg‘oniston, Pokiston, Bangladesh, Indoneziya kabi mamlakatlarida aholining 80% dan ortig‘i musulmonlardir. Bir qancha mamlakatlarda musulmonlar aholining yarmidan 80 % gacha tashkil qiladi. (Gvineya, Mali, Livan, Chad, Sudan). Malayziya va Nigeriyada qariyb yarmi, ba‘zi bir mamlakatlar (Gvineya-Bisau, Kamerun, Burkina-Faso, Serra-Leone) da musulmonlar ozchilikni tashkil etsada, ta‘sir doirasi kuchli. Musulmonlarning soni jihatdan eng yirik davlatlar – Indoneziya, Hindiston, Pokiston va Bangladesh; Musulmonlarning anchasi Markaziy Osiyo mamlakatlari, Xitoy, Tailand, Efioppeya, Tanzaniya, Kipr, Yevropaning ayrim mamlakatlari (Albaniya, Bosnya va Gersegovina, Makedoniya, Serbiya, Chernogoriya, Buyuk Britaniya, GFR, Fransiya va boshqalar), Shimoliy va Janubiy Amerika qit‘asi mamlakatlari (AQSh, Kanada, Argentina, Brazilya, Gayana, Surinam, Trinidad, Tabago) da, Avstraliyada, Fiji orollarida yashaydi.

Islomning paydo bo‘lishi VI asr oxiri – VII asr boshlarida Arabiston yarim orolida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy ahvol va ma‘naviy hayot bilan bog‘liq holda ro‘y bergan.

Bu davrda arablar katta-kichik qabila va urug‘larga bo‘linib ketgan bo‘lib, ular o‘rtasida doimiy kelishmovchilik, urush va janjallar ro‘y berib turardi.

Ikkinchidan, bu davrda Arabistonda ko‘p xudolilik dinlari mavjud bo‘lgan. Asosan fetishizm – turli sanamlarga sig‘inish xukmronlik qilardi. Har bir qabilaning o‘z dini, sanami bo‘lib, 360 dan ortiq sanam Makkada saqlanardi. Ularni arablar vaqti-vaqti bilan ziyorat qilib turganlar.

Uchinchidan, bu davrda arab qabilalari o‘rtasida joxiliya – bilimsizlik holati, jaholat xukmronlik qilardi. Ya‘ni, arablar hayotida tubanlik, ichkilikbozlik, qimor, buzuqlik avj olgan edi. Binobarin, insonlarning ruhlari ham, e‘tiqodlari ham, hatti-harakatlari ham buzilgan edi. Odamlarda uyat tuyg‘usi yo‘qolgan edi. Fohishalik bir kasbga aylangandi. Ayollarga hayvondek muomila qilinardi. Go‘dak qizlarni tiriklayin ko‘mish odati bo‘lgan va boshqalar.

Shunday qilib, Islomdan ilgari Arabistonda qonunsizlik, axloqsizlik, zo‘ravonlik hukm surgani uchun ham keyingi avlod o‘sha davrni haqli ravishda Joxiliya deb atagan va undan qutilishning najot yo‘li kerak edi.

Bunday xolatlarga, ayniqsa bo‘linib ketgan arab qabilalari o‘rtasidagi o‘zaro nizo va urushlarga barxam berish uchun siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy jihatdan birlashgan

yagona Arab davlatini vujudga keltirishni davr taqazo etmoqda edi. Bunga esa yagona xudoga e'tiqod qilish orqali erishish mumkin bo'lardi.

Bu davrda Islomning paydo bo'lishi uchun g'oyaviy muhit ham yetilib borayotgan edi. Chunonchi, xaniflar – chinakam e'tiqod qiluvchilar, haqiqat izlovchilar diniy harakati bunga yaqqol misol bo'la oladi. Xaniflar arab qabilalarini birlashtirish jarayonining g'oyaviy ifodachisi edilar. Ular yakka xudoga ishonishni va ko'pxudolikka e'tiqod qilishdan voz kechishni targ'ib qildilar. Xaniflar o'z targ'ibotlarida arablarni og'ir ahvoldan qutqarish uchun xaloskorning kelishi yaqinlashib qolganligi haqida xabar tarqatib, uni sabr bilan kutib turish lozimligini uqtirardilar.

Shunday qilib, bu davrda arablarni har jihatdan birlashtirish, kuchli saltanatni vujudga keltirish, yakkaxudochilikka o'tishga xijoz arablari ma'lum ma'noda tayyor edilar. Bunday harakatni boshqargan kishilar o'z faoliyatlarini ilohiy ilhom bilan asoslay olgan holdagina muvaffaqiyatga erisha olardi. Islomning asoschisi Muhammadning diniy va siyosiy faoliyatlari yuqoridagi jarayonlarning xususiy ko'rinishi bo'lgan. Muhammad har tomonlama barkamol inson bo'lganlari, u zotning shaxsiy fazilatlari tufayli xijozliklarning harakati o'ziga xos xususiyatlar kasb etib, diniy va siyosiy kuchga aylandi; bu kuch islomning vujudga kelishini eng muhim tarixiy voqealardan biriga aylantirdi.

Islomning kelib chiqishi, shakllanishi va boshqa o'lkalarga tarqalishi

Islomning vujudga kelishi, arablar orasida vaxdoniyatga asoslangan dinning qaror topishi, arab qabilalarining yakkaxudo – Alloh g'oyasi atrofida birlashishi Abdullohning o'g'li Muhammad nomi bilan chambarchas bog'liq.

Qur'oni karimda 25 nafar payg'ambarning nomi zikr etilgan. Muhammad Alloh tomonidan odamlar orasidan tanlagan so'nggi payg'ambar sanaladi. Muhammad ibn Abdulloh (570-632) Makkada Quraysh qabilasiga mansub Xoshimiylar xonadonida tug'ilgan. Otasi Abdulloh Muhammad tug'ilmasdan ikki oy oldin 25 yoshida vafot etgan. Muhammad 6 yoshli bo'lganida onasi Amina ham vafot etadi. Muhammadni bobosi Abd al-Mutallib o'z tarbiyasiga oladi. Ikki yildan so'ng bobosi ham vafot etadi. Sakkiz yoshli Muhammadni amakisi Abu Tolib o'z qaramog'i va tarbiyasiga oladi. Abu Tolib tijorat ishlari bilan shug'ullanardi. Muhammad ham amakisi bilan tijorat ishlari bilan shug'ullangan. 25 yoshida Yamanga o'sha davrning badavlat ayoli Hadicha bilan uning mollarini sotishda ko'maklashish uchun boradi. Bu hamkorlik Muhammad bilan Hadichaning oila qurishiga sabab bo'ladi. Ular 6 nafar farzand – ikki o'g'il va to'rt qiz ko'rganlar. Farzandlaridan faqat Fotima o'sib ulg'aydi, qolgan farzandlari bevaqt vafot etgan. Muhammad amakisi Abu Tolibga yordam bo'lsin deb uning kichik o'g'li Alini o'z yoniga olgan va keyinchalik qizi Fotimani unga turmushga bergan.

Muhammad 40 yoshga borganida uning hayotida payg‘ambarlik davri boshlangan. Ya‘ni unga ilk vahiy kela boshlagan. Ana shu davrdan Muhammad Allohning rasuliga – elchisiga aylandi. Bu faoliyat 23 yil davom etdi. Uning bir qismi Makkada (610-622), ikkinchi qismi Madinada (622-632) o‘tgan.

Adabiyotlarda qayd etilishicha dastlabki vahiy ramazon oyining 26-sidan 27-siga o‘tar kechasi kelgan. Shuning uchun bu kunni musulmonlar qadr ya‘ni ilohiy qudrat kechasi sifatida nishonlaydilar. Ramazon oyini esa muborak deb biladilar. Kelgan vahiy Muhammad Payg‘ambarni insonlarni johiliyadan qutqarish va Alloh ko‘rsatgan to‘g‘ri yo‘lga chaqirishga da‘vat etadi.

Muhammad Makkaliklarni but va sanamlarga sig‘inishdan qutqarish va yagona Alloh e‘tiqodiga olib kirish uchun 3 yil yashirin ravishda harakat qildi. Bu davrda Islom diniga kirganlar 30 kishini tashkil etdi xalos. Birinchi bo‘lib Bibi Xadicha, keyin amakivachchasining o‘g‘li Haydar ya‘ni Ali, asrandi o‘g‘li Zayd ibn Xoris islomga kirdi. So‘ng Abu Bakr, az-Zubayr, Talha, Sa‘d ibn Abu Vaqqos, Abd ar Rahmon ibn Avf, Usmon ibn Affon va boshqalar islomni qabul qildilar. Shu tariqa Makkaliklar ikkiga ajralishdi. Bular Allohning yakkaligiga ishonganlar – mo‘min-musulmonlar va ishonmaganlar – mushriklar edi. Mushriklar Allohni yakka deb e‘tirof etmay, uning sheriklari bor, ya‘ni xudolar ko‘p deb, turli sanam, tosh va hakoazolarga, ko‘plab xudolarga sig‘inardilar. Mushriklar 23 yil davomida Muhammad targ‘ibolariga tish-tirnoqlari bilan qarshi chiqdilar. Ular hatto Muhammad Payg‘ambarni jismonan yo‘q qilmoq payiga ham tushganlar.

619 yilda avval amakisi Abu Tolib, keyin xotini Xadicha vafot etdi. Bu ikki ulug‘, oro‘li zotning vafotidan so‘ng mushriklar Payg‘ambarga qarshi kurashni yanada kuchaytirdilar. U zot o‘zga yerlardan tarafdorlar izlashga majbur bo‘ldilar. Dastlab bir guruh musulmonlar Habashistonga ko‘chdi. 622 yilda Makka zodagonlari bilan raqobatlashib kelayotgan Yasrib (Madina) dagi Avs va Xazraj qabilalarining vakillari musulmon jamoasini o‘ziga qabul qilish, Muhammadni umumiy rahnamo sifatida tan olishga rozi bo‘lishdi. Shu tariqa 622 yilda musulmonlar jamoasi Makkadan Madinaga ko‘chadi. Buni tarixda xijrat – ko‘chish deb yuritiladi. Musulmon yili Xijriy yil hisobi shu yildan boshlanishi rasmiy tan olingan. Ko‘chib kelgan kishilar muxojirlar (ko‘chib kelganlar), Madinada Islomni qabul qilganlar ansorlar (tarafdorlar) deb ataldilar. Bu yerda Muhammad qisqa vaqt ichida tarqoq arab qabilalarini muxojirlar bilan birlashtirib bir jamoa – ummani tashkil etdi. Bu jamoa qisqa vaqt ichida kichik, lekin kuchli davlatga aylandi. Diniy, ma‘muriy va xarbiy hokimiyat butunlay Muhammad Payg‘ambar qo‘liga o‘tdi. Madina atrofidagi barcha arab qabilalari bo‘ysundirildi. Ayni vaqtda Madina va Makka o‘rtasida boshlangan kurash 8 yil davom etdi va Badr, Uxud, Handoq kabi janglar bo‘lib o‘tdi. Nihoyat Makka zodagonlari 628 yilda Muhammad bilan kelishishga majbur bo‘ldilar. 630 yilda musulmonlar qo‘shini hech qanday qarshiliksiz

Makkaga kirib bordi. Makka aholisi yoppasiga Islom dinini qabul qildi va Muhammadni Allohning elchisi deb e'tirof etdi. Ana shundan boshlab Makka Islom dini markaziga, Ka'ba musulmonlarning muqaddas ziyoratgohiga aylangan. 632 yilda Muhammad oila a'zolari bilan birga Ka'bagaga birinchi marta haj ziyoratiga keldi. Mazkur Haj tarixda «vidolashuv xaji» deb yuritilib, Muhammad hajga to'plangan 124 ming musulmonga qarata tuya ustida o'tirib nutq so'zlagan. Bu nutq tarixda – «vidolashuv xutbasi» deb yuritilib, u na faqat yig'ilgan musulmonlarga, balki butun insoniyatga qaratilganligi va insoniyat tarixida eng buyuk inqilib yasaganligi bilan ajralib turadi. Vidolashuv xutbasi joxiliyat davrining butun xurofatlarini, butun yomonliklarini, qon da'volarini, sudxo'rlikni, qimor, fohishalikni, ayollarga nisbatan past nazar bilan qarashni o'rtadan barham toptirishda muhim rol o'ynadi.

Muhammad Payg'ambar aytgan va'zlarining qisqacha mazmuni quydagicha:

«Ey insonlar! So'zlarimni diqqat bilan eshitingiz. Bilmayman, balki bu sanadan keyin Siz bilan bu yerda yana bir bor birga bo'lolmasman.

Ey insonlar!... Bu kuningiz (qurbon kuni) qanday muqaddas bo'lsa, bu oyingiz qanday muqaddas bo'lsa, bu shahrimiz (Makka) qanday muqaddas bir shahar bo'lsa, bilingizki, jonlaringiz, mollaringiz ham shu kabi muqaddasdir. Bularga qilingan har qanday tajovuz haromdir.

As'hobim! Hushingizni yig'ib oling! Bilingizki, zinhor-bezinhor mendan keyin eski adashuvga qaytib bir-biringizning bo'yiningizni kesmang!

As'hobim! Eski johiliyat davridan qolgan hamma qon da'volari batamom bekor qilindi.

As'hobim! Kimning yonida bir omonat bo'lsa, uni egasiga qaytarib bersin.

Ey insonlar! Xotinlarning haqlariga rioya etingiz. Ular bilan shafqat, mehr ila muomalada bo'lingiz. Ularning haqlari xususida Allohdan qo'rqingiz! Xotinlar Sizga Tangrining omonatidir. Ularni Alloh nomiga so'z berib oldingiz. Sizning xotinlar ustida haqlaringiz bo'lgani kabi, ularning ham Sizda haqlari bor. Sizning xotinlardagi haqlaringiz – xotinlarning oila sharafini Siz yoqtirmaydigan hech bir kimsaga oyoqosti qildirmasliklaridir. Xotinlaringizning har turli yeyish va kiyish ehtiyojlarini ta'minlashingiz esa, ularning Sizning ustingizdagi haqlaridir... Bir xotin erining ruhsatisiz uning molidan biror narsani birovga berishi halol emas.

Ey mo'minlar! So'zlarimni yaxshi eshitingiz:...Hech kimning boshqalardan ustunligi yo'qdir. Sharaf va ustunlik faqat fazilat iladir. Har bir musulmon musulmonning birodaridir. Haqsizlik qilmang! Haqsizlikka bo'yin ham egmang! Odanning haqlarini yemang. Bir-biringiz bilan bo'g'ishmang!...

Ey insonlar! Har bir jinoyatchi o'z aybiga faqat o'zi javobgardir. Hech bir jinoyatchining gunohi uchun avlodi jazo tortmaydi.

Ey mo‘minlar! Sizga bir omonat qoldiryapman. Unga mahkam bog‘langaningiz sari yo‘lingizda hech adashmagaysiz. Bu omonat Allohning kitobi – Qur’ondir.

Ey insonlar! Haddan oshishlikdan saqlaning...»¹⁹

Muhammad Rasulluloh hajdan qaytgach 632 yil 8 iyunda kasallanib vafot etdi. Bu davrga kelib Arabiston yarim oroli to‘la birlashtirilgan, uning aksariyat aholisi Islom dinini qabul qilgan edi. Arabistonning siyosiy, iqtisodiy, etnik va madaniy jihatlardan birlashishida Islom dini muhim omil bo‘dib xizmat qildi va kelajakda vujudga kelgan musulmon olamining mafkurasiga aylandi.

Muhammad Rasululloh vafot etgach u barpo etgan davlatni uning o‘rinbosarlari – xalifalar boshqargan. Shu munosabat bilan musulmonlar davlati tarixda «Arab xalifaligi» deb nom olgan.

632-661 yillarda to‘rt nafar xalifa – Abu Bakr, Umar, Usmon va Alilar xalifalikni boshqarib yer yuzining katta qismini xalifalikka bo‘ysundirganlar.

661-750 yillarda qariyb yuz yil Islom tarixida Ummaviylar sulolasi xukmronlik qilgan. Bu davrda arablar istilosi va Islomning boshqa xalqlar orasida tarqalishining ikkinchi davri boshlanib Shimoliy Afrika, Ispaniya yerlari bosib olindi.

Arablar VIII asrda O‘rta Osiyoni – Movaraunnahrni bosib oldilar va qattiqqo‘llik bilan islomlashtirish siyosatini olib bordilar. Bu jarayon o‘ta qiyin kechgan. Chunonchi ular raqiblarni o‘ldirdilar, Islomni qabul etmaganlarni boshiga turli-tuman kulfatlarni tug‘dirdilar, har xil yo‘llar bilan mahalliy xalqlarga zulm va xo‘rliklarni o‘tkazdilar, katta soliqlar soldilar. Ayni paytda arab hukmdorlari islomni qabul qilganlari uchun turli imtiyozlar yaratdilar, jumladan, ularni juzyadan, ya’ni jon solig‘idan ozod qildilar²⁰.

Shunday qilib bir asrdan kamroq vaqt davomida Shimoliy Xitoydan Ispaniyagacha, Kavkaz ortidan Hind okeanigacha bo‘lgan katta hudud zabt etildi va Islom dini keng xududda tarqaldi.

O‘rta Osiyo aholisining arablarga qarshi olib borgan erk va ozodlik kurashi bir yarim asr uzluksiz davom etdi. Ularning bu intilishlari, harakatlari nihoyat IX asrning oxirlariga kelib mintaqada arab halifaligi hokimiyatining qulashi bilan yakunlandi. O‘rta Osiyoda IX-XI asrlar davomida markazlashgan mustaqil davlatlar vujudga keldi.

Bu – Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlatidir.

¹⁹ Qarang. Alixonro‘ra Sog‘uniy. Tarixi Muhammadiy. Ikkinchi kitob. Toshkent-1991. 185-186-betlar. Z.Kunrapa. Alvido, dunyo! Assalom, oxirat! 3-kitob. Toshkent, 1996. 15-18-betlar.

²⁰ Qarang. Q.Bo‘ronov. Xalqimiz ma’naviyati va ma’rifatining teran ildizlari. Toshkent, «FAN», 2003. 28-bet.

Arab xalifaligi 632-yildan to 1258-yilgacha, ya'ni 627 yil davom etdi. Undan keyin Misr Abbosiy xalifaligi 1261-yildan 1517-yilgacha, Usmonlilar xalifaligi esa 1517 yildan 1924-yilga qadar hukm surdi.

Shunday qilib islom xalifaligi jami 1293 yil amal qilib, 1924-yilda Turkiya jumhuriyatining rahbari Mustafa Kamol boshchiligidagi Milliy majlis Usmonlilar xalifaligini bekor qilinishi bilan nihoyasiga yetdi²¹.

2. Masala bayoni. Islom dinidagi asosiy yo'nalishlar va mazhablar.

Islom dinida ilk davrdan paydo bo'lgan eng birinchi yirik muammo – oliy hokimiyatni egallashga payg'ambardan keyin kim xaqliroq, degan muammo bo'ldi. Xalifa Ali bilan ummaviylar o'rtasidagi taxt uchun kurashda VII asrning ikkinchi yarmi boshlarida xorijiylar (arabcha – ajralib chiqqan, isyonchi) oqimi ajralib chiqqan. Ali Muoviya tarafdorlari bilan oliy xokimiyatga vorislik masalasida muzokara olib borishga ko'ngan. Bu hol Ali haqiqiy vorislik huquqiga ega, deb hisoblagan tarafdorlarning o'rtasida norozilik tug'dirgan. Qo'shinning bir qismi (12 ming kishi) xalifa Alini kelishuvchilikda ayblab, undan ajralib ketdi. Ajralib chiqqan qo'shin Aliga ham, ummaviylarga (muoviya tarafdorlari) ham bab-barobar qarshi kurashganlar. Xorijiylar harakati arablar tomonidan bo'ysundirilgan Iroq va Eron aholisi, oddiy arab musulmonlar manfaatini ifodalagan. Ular o'zlarini haqiqiy musulmon hisoblab, «dindan qaytgan» deb e'lon qilingan siyosiy va g'oyaviy raqilarga nisbatan murosasiz bo'lganlar.

Xorijiylik yo'nalishi ta'limoti: xalifa diniy jamoa tomonidan saylanadi va unga bo'ysunadi; har qanday taqvodor musulmon (hatto qul yoki habash bo'lsa ham) xalifa bo'lib saylanishi mumkin; agar xalifa jamoa manfaatlarini himoya qilmasa vazifasidan bo'shatiladi va hatto qatl qilinadi.

Xorijiylar e'tiqod amaliy faoliyat bilan mustahkamlanishi lozim deb hisoblaganlar. Ular e'tiqodsiz va gunohkor kishilarni jazolash muddatini kechiktirishga qarshi turganlar. Diniy masalalarda islom «musaffoligi» tarafdori bo'lib, shariat ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilishlari bilan ajralib turganlar²².

Ummaviy va abbosiy xalifalar VII-IX asrlarda Xorijiylarga qarshi keskin kurash olib bordi. Buning natijasida ular qirib tashlandi. Xorijiylarning qolganlari Shimoliy Afrikada o'z davlatini vujudga keltirdi. Xozirgi davrda Xorijiylarning ibodiy firqasi Jazoir, Tunis, Ummon va Tanzaniyada uchraydi.

Bugungi kunda Islom dinida sunniylik va shialik yo'nalishlari amal qilib kelmoqda. “Ahli Sunna” degani Muhammad (A.S.) sunnatlarga ergashuvchilar va “Val Jamoa” so'zi esa musulmonlarning ko'pchiligi ortidan yuruvchilarni anglatadi. Demak “Ahli Sunna val Jamoa” – sunnatga va jamoaga

²¹ Qarang. A.Abdurahmonov. Saodatga eltuvchi bilim 295-bet.

²² Qarang. З.Хусниддинов. Ислам: йўналишлар, мазхаблар, оқимлар. «ЎМЭ», Тошкент-2000. 56-59 бетлар. Ислам энциклопедия 260-бет.

ergashuvchilardir. Sunniylik yoʻnalishida aqida borasida motrudiya yoki ashʼariya taʼlimotiga, fiqhda esa toʻrt mazhab: Xanafiy, Molikiy, Shofiʼiy, Xanbaliy mazhablariga mansub boʻlgan musulmonlardan tashkil topgan jamoa Sunniylik yoʻnalishini tashkil etadi.

Sunniylik deb, diniy qonun-qoida va tartibotlarga amal qilishda Qurʼoni karim va paygʻambarimiz xadislari – «Sunna» ga birdek amal qiluvchilarga aytiladi. Sunniylik yoʻnalishi «Ahli sunna val jamoa» deb ataladi. Bu nomda Paygambarning sunnatiga amal qilish va musulmonlarning asosiy koʻpchilik jamoasi maʼnolari aks etgan.

Jahondagi jaʼmi 1,6 milliarddan koʻproq musulmonlarning 92,5 foizini sunniylik yoʻnalishidagilar tashkil etadi. Shialik yoʻnalishi yaʼni jaʼfariya mazhabidagi musulmonlar 7,5 foizdan iborat xalos.

Sunniylikka mansublikni bildiruvchi asosiy belgilar quyidagilardir: dastlabki toʻrt xalifa (Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali) hokimiyati qonuniy ekanligi tan olish, oltita hadis toʻplami (al-Buxoriy, Muslim, at-Termiziy, Abu Dovud, an-Nasoʻiy, Ibn Moja toʻplamlari)ni sahih (ishonchli)deb bilish, sunniylikdagi toʻrt diniy-xuquqiy mazhab – hanafiylik, molikiylik, shofiʼiylik, xanbaliylikdan biriga mansub boʻlishdan iborat.

Sunniylikdagi eng yirik mazhab Hanafiya boʻlib, unga ergashganlar jahondagi musulmonlarning 47 foizini tashkil etadi. Bu mazhabning asoschisi Abu Xanifa Nuʼmon ibn Sobit (699-767) dir. U Iroqning Kufa shahrida tugʻilgan, kelib chiqishi jihatdan forslardan. Abu Xanifa Shariat xuquqlarini tizimga solgan. Shariat qonunlarini musulmonlar hayotiga qoʻllashda, hukm chiqarishda, xulosaga kelishda avvalo Qurʼoni karim, soʻngra paygʻambar sunnatlari – xadislarni, undan keyin ijmoʻni, oxirida qiyosni qoʻllagan. U mahalliy xuquq, meʼyor, odatlarni shariat bilan kelishtirib qoʻllashni joriy etgan. Islom xuquqshunosligiga aql-idrok, mulohazkorlik bilan ish koʻrish tadbirlarini kiritgan. Bu yoʻlni Imom Aʼzam yoʻli deb ham yuritiladi.

Sunniylikdagi ikkinchi mazhab molikiylikdir. Uning asoschisi Molik ibn Anas Abu Abdulloh (713-795) dir. Islom xuquqini puxta egallab, «Madina imomi» unvoniga sazovor boʻlgan. Molik ibn Anas biror siyosiy oqimga ergashmagan, hokimiyatning saylab qoʻyilishi qoidasini afzal bilgan, lavozimlarga maʼmuriy tayinlanishlarga qarshi boʻlgan. Molikiylik mazhabidagilar Qurʼon va Xadis xuquq asoslari sanaladi deb hisoblaganlar. Ular paygʻambarga oid xadislarnigina sahih deb tan oladilar. Madinaning savodli aholisi yakdillik bilan maʼqullagan qoidalarnigina ijmoʻ deb hisoblaydilar. Xozirda jahondagi musulmonlarning 17 foizi molikiylik mazhabidadir.

Sunniylikdagi uchinchi diniy-xuquqiy mazhab – shofiʼiylik boʻlib, uning asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ibn Abbos ash-Shofiʼiy (767-820) dir.

Shofi'iylik Qur'on va sunnaga yagona manba sifatida qaraydi. Shofi'iylikka ko'ra, sunna Qur'onni to'ldiradi, xalos, sunnaning o'zi qiyoslab o'rtacha hukm chiqarish uchun asos bo'lolmaydi. Ular ijmo'dan foydalanishga katta e'tibor beradilar. Hozirda 27 foiz musulmonlar shofi'iy mazhabi yo'lidan bormoqdalar.

Sunniylikdagi to'rtinchi mazhab Xanbaliyadir. Uning asoschisi Abu Abdulloh Ahmad ibn Xanbal (780-855) dir. Bu mazhab xuquq tizimining o'ta torligi, har qanday ko'rinishdagi «yangilik»ka diniy masalalarda erkin fikr yuritishga qarshiligi, shariat me'yorlariga qat'iy, hech qanday o'zgarishsiz amal qilishi bilan ajralib turadi. Mazkur mazhabda Qur'oni karim va xadislarni erkin talqin etishdagi har qanday urinishlar qoralanadi. Xozirda barcha musulmonlarning 1,5 foizi Xanbaliya mazhabidadir.

Sunniylikdagi yuqorida qayd etilgan to'rttala mazhab teng hisoblanadi. Bu mazhablar diniy xuquq doirasidan chiqmagan holda shariat masalalarida yengilroq yoki qattiqroq xukm chiqarishi bilan bir-biridan farq qiladi.

Bizning yurtimizda azaldan fiqhda xanafiylik, aqidada esa motrudiylik ta'limotlariga amal qilib kelinadi.

Islom dinidagi yo'nalishlardan yana biri Shialikdir. Shi'a – arabcha so'z bo'lib, ma'nosi «guruh», «tarafdor» demakdir. Shialikdagi «ja'fariya» mazhabi Islomdagi beshinchi diniy-xuquqiy mazhab sanaladi.

Shialik aslida guruhlar o'rtasida hokimiyat uchun kurash oqibatida vujudga kelgan bo'lsa ham, keyinchalik diniy ta'limotidagi tafovut shaklida barqarorlashgan. Istilohiy ma'noda shia – Ali ibn Abu Tolib va uning avlodlarini barchadan ustun qo'yish oqibatida musulmonlaridan ajralib chiqqan yo'nalish hisoblanadi. Ilk davrida sunniylikdan faqat rahbarlik masalasidagina farq qilgan shialik, bora-bora aqidaviy va fiqhiiy masalalarida ham undan ajralib alohida yo'nalishga aylandi.

Shialar sunniylar kabi Qur'oni karimni ilohiy deb e'tirof etadilar, ammo dastlabki uch xalifa davrida uning ayrim qismlari tushirib qoldirilgan, deb hisoblaydilar. Ular yana Payg'ambar hadislarining hammasini e'tirof etmaydilar, balki faqat Hazrat Ali va uning tarafdorlari tomonidan rivoyat qilingan xadislarnigina tan oladilar. Ular shunday xadislardan iborat to'plam tuzganlar. Bu to'plam umumiy nom bilan «Axbor» deb ataladi.

Shialar Ali va uning avlodlaridan iborat 12 imom hokimiyatini tan oladi. Alidan boshqa xalifalarni, xususan dastlabki xalifalar Abu Bakr, Umar, Usmonni hokimiyatni zo'ravonlik bilan egallab olgan deb qoralaydilar.

Sunniylikda e'tirof etilgan 7 ta diniy aqidalardan farq qilib, shialikda 5 ta aqidaga e'tiqod qilinadi. Bulardan 4 aqida – Allohning yagonaligi, taqdirga, payg'ambarlarga, qiyomat-oxirat kunining kelishiga ishonish asosan sunniylik ta'limoti bilan mos tushadi. 5- aqida Imomat esa (imomlar hokimiyatini e'tirof etish) sunniylikka va sunniy halifalar hokimiyatiga zidligi bilan farq qiladi.

Sunniylar uchun Makka va Madina shaharlari ziyorat va xajga boradigan muqaddas shahar hisoblanadi. Shialar esa Makka va Madinani muqaddas hisoblash bilan birga imomlar dafn etilgan shaharlarni ham muqaddas hisoblaydilar va ziyorat qiladilar.

Shialar oxirgi 12 – imom – Muhammad al-Mahdiyni yashiringan deb hisoblab, uning qaytib kelishini kutish ular orasida saqlanib kelmoqda. Go‘yo imom Mahdiy oxirzamonda kelib, Iso bilan birga Dajjol, ya’juj-ma’juj va boshqa kofirlar bilan urushib, ularni yengib, qiyomat-qoyim bo‘lishdan avval yerda adolat o‘rnatadilar deb ishonadilar. Shialar Imom Xusaynga motam tutadilar. «Shaxsey-vaxsey» («Shoh Xusayn, voh Xusayn») deb qichqirib, o‘zlariga ozor berib ko‘chalarga chiqadilar.

3. Masala bayoni. Islom dinining asosiy manbalari

Qur'on, uning tuzilishi, jamlanishi va ahamiyati.

Mustaqillik tufayli o‘tmish tarixga, xususan ma’naviy merosimiz Islom diniga va diniy kitoblarga munosabat o‘zgarib, ularga insoniyatni yuksak ma’naviylikka yo‘llovchi bebaho boylik sifatida qarash qaror topdi.

Qur'on Alloh tomonidan vahiy qilingan 4-ilohiy kitobdir. Qur'on so‘zining lug‘aviy ma’nosi o‘qimoq, qiroat qilmoq demakdir. U musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi. Qur'onda o‘zidan oldin nozil bo‘lgan sahifalar, Tavrot, Zabur, Injil kabi barcha ilohiy kitoblarning ma’no, hikmat va ahkomlarini o‘zida jamlanganiga ishorat bor.

Ilmi ulamolari Qur'onni quyidagicha tariflaydilar: «Qur'on – Alloh taoloning Muhammad (sav) ga vahiy orqali nozil qilgan... ibodatda o‘qiladigan, o‘jiz qoldiruvchi kalomidir»²³.

Qur'on Allohning yer yuzidagi butun bashariyatga yuborgan oxirgi diniy shar‘iy ko‘rsatmalar to‘plamidir. Uning har bir kalomi so‘zma-so‘z nozil etilgan va Jabroil alayxissalom orqali Muhammad alayxissalomga yetkazilgan.

Qur'onning nozil qilinishi muqaddas ramazon oyining 27-kuni kechasi boshlangan. Shu sababli bu oy muqaddas hisoblanib, ro‘za tutilgan kunning 27-kechasi «Laylat ul Qadr», ya’ni qudrat kechasi, ilohiy qudrat namoyon bo‘lgan tabarruk kecha deb ulug‘lanadi.

Qur'oni karimning asosiy mavzusi va maqsadi bashariyat tafakkurida ko‘pxudolikka barham berish, yakkaxudolikka targ‘ib qilish va Islom dinini o‘rnatishdir.

Muhammad (sav) 40 yoshga yetganlarida Makka atrofidagi tog‘lardan biridagi Hiro nomli g‘orda Qur'onning birinchi oyatlari nozil bo‘la boshlagan. Bu jarayon

²³ Qarang. Islom ensiklopediya. 295-bet.

Makkada o'n uch yil, Madinada o'n yil, hammasi bo'lib yigirma uch yil davom etgan. Muhammad (sav) ning amrlariga muvofiq Qur'on har xil xajmdagi 30 pora (bo'lak, qism); 114 suraga bo'lindi. U 6236 oyatdan iborat. Qur'onning oxirgi oyati payg'ambar vafotlaridan 18 kun avval nozil bo'ldi. Qur'on har bir surasining o'z nomi bor. Ba'zi suralarning nomi suraning avvalidagi so'zdan olingan. Ba'zilariniki esa, o'sha surada zikri ko'proq kelgan narsalarning nomiga qo'yilgan. «Sura» so'zi lug'atda qo'rg'on, manzil va sharaf ma'nolarini anglatadi. Ulamolar esa, sura – Qur'on oyatlarining boshlanishi va tugashi belgilangan mustaqil toifasi ekanligini ta'kidlaydilar. Boshqacha aytganda, Qur'on oyatlarining qo'rg'on ila o'ralgandek, bir toifasiga sura deyiladi. Qur'oni karimdagi eng qisqa sura Kavsar surasi bo'lib, uch oyatdan, eng uzun sura Baqara surasi bo'lib, 286 oyatdan iboratdir²⁴.

Qur'on suralari ikki qismga bo'linadi: 1. Hijratdan avval tushgan suralar – «Maka suralari» deyiladi. 2. Hijratdan keyin tushgan suralar – «Madina suralari» deyiladi. 86 sura 4780 oyat Makkada 610-622 yillarda, 28 sura 1456 oyat Madinada 622-632 yillarda nozil bo'lgan²⁵.

Muhammad (sav) Qur'on oyatlarini farishta Jabroildan eshitib, yod olar edilar. Keyin boshqa musulmonlar u kishidan eshitib, yodlab olishardi. Shu bilan birga yozishni biladigan sahobalar, shu jumladan, Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali, Zayd ibn Sobit, Ubay ibn Ka'b va boshqlar xurmoning po'stlog'iga, yapaloq toshlarga, katta suyaklarga, teriga, qog'ozga va shunga o'xshash narsalarga Qur'onni yozib borganlar.

Muhammad (sav) ularga yangi tushgan oyat qaysi suradan ekanini va qaerda turishi lozimligini ko'rsatib berganlar.

Payg'ambar hayotlik vaqtlarida, yana vahiy tushib qolar, degan umidda Qur'onni jamlab kitob shakliga keltirmagan.

Muhammad (sav) dan so'ng musulmonlarga Abu Bakr boshliq (xalifa) qilib saylandi. Bu davrda dindan qaytganlar bilan musulmonlar orasida qattiq janglar bo'ldi. O'sha janglarda Qur'onni to'liq yod olgan ko'plab qorilar shahid bo'ldilar. Shunda Umar Abu Bakrga qorilar o'lib ketaversa, Qur'onga zarar yetishi mumkin, shuning uchun uni kitob shakliga keltirib jamlab qo'yish kerak, degan maslahatni berdi.

Abu Bakr bu ishni bajarishni payg'ambarning eng yaqin sahobalaridan biri bo'lmish Zayd ibn Sobitga topshirdi. Bir yildan ortiq vaqtda mashaqqatli mehnat natijasida Qur'on jamlanib kiyik terisiga uning sahifalari yozib tugatildi. Jamlanib kitob xoliga keltirilgan Qur'on sahifalari Abu Bakrning uyida saqlandi. U kishi vafotidan so'ng esa qizlari va payg'ambarning xotinlari Hafsa xuzurida qoldi.

²⁴ Qarang. O'sha yerda. 296-bet.

²⁵ Qarang. A.Abduraxmonov. Saodatga eltuvchi bilim. 193-bet.

Vaqt o'tishi bilan Islom davlatining chegarasi kengayib, ko'plab xalqlar ham musulmonlikni qabul qilib, musulmonlarning soni ko'paygandan so'ng Qur'onni o'qishda turlicha kelishmovchiliklar chiqq boshladi. Bu xolatni ko'rgan xalifa Usmon Xafsdan Abu Bakr davridagi sahifalarni so'rab olib, undan olti nus'ha ko'chirishga buyruq berdi.

Nus'halar tayyor bo'lgandan so'ng xalifalikning markaziy shaharlari Makka, Shom, Kufa, Basraga bittadan nus'haga Qur'on tilovatini yaxshi biladigan bittadan qori qo'shib jo'natdi. Hammaga faqat shu nus'hadan Qur'onni ko'chirish va shu qoridan qiroat o'rganishga buyruq berdi. Halifa ko'chirilgan sahifalardan yana birini odamlarga qiroat ta'limi berishni Zayd ibn Sobitga topshirib Madinada qoldirdi. Usmon o'ziga ko'chirilgan nus'hadan bir dona qoldirdi. Keyinchalik nus'ha ko'chirish yo'lga qo'yilishi bilan ko'chirilgan har bir nus'haning ishonchli ekanini tasdiqlash maqsadida, bu nus'ha Mus'habi Usmonga muvofiqdir, deb yozib qo'yiladigan bo'ldi. Shu tariqa Qur'onning xarflarini yozish uslubi bir xilligi saqlab qolindi.

Shunday qilib Qur'on tarixan uch marotaba jam qilingan. Birinchi marotaba Payg'ambar zamonida; ikkinchi marotaba xalifa Abu Bakr davrida va nihoyat uchinchi marotaba xalifa Usmon vaqtida jamlangan.

Qur'on tilovati vaqtida xalifa Usmon dushmanlari tomonidan o'ldirildi. Shahid qilingan qoni Qur'onni karimga to'kilgan.

Ana shu Qur'onni Amir Temur Basradan Samarqandga keltirilgan. 1869 yilda Turkiston general-gubernatori fon Kaufman buyrug'i bilan Petrburgga olib ketildi. 1917 yildagi davlat to'ntarilishidan keyin Peterburgda tuzilgan Islom sho'rosi tashkilotining talabi bilan Qur'on Rossiya musulmonlariga qaytarib berildi va Ufa diniy nazorati qarorgohida 1924-yilgacha saqlandi. Shundan so'ng Turkistondagi tarixiy muzeylar va qadimiy ososri atiqalar ishi bo'yicha tuzilgan qo'mitaning talabnomasi va Rossiya hukumatining qaroriga asosan Usmon Qur'onni 1924 yil 18-avgustda Toshkentga olib kelindi. Xozir esa Movoraunnahr musulmonlar idorasida saqlanmoqda.

Qur'on jumlalalriga biron-bir o'zgartirish, bironta harfini, hatto harflar belgisini – zeb-zabarini ham o'zgartirish mumkin emas, qat'iy tan taqiqlangan.

Qur'on Islom dinining asosiy hujjati. Islom diniga oid barcha hukmlarning asosiy va birinchi manbaidir. U musulmonlarning diniy, ijtimoiy va siyosiy hayotida yagona qo'llanma, doimiy yo'l boshchisi bo'lib xizmat qilib keldi. Musulmon xuquqshunos (fiqhshunos)lari biror narsaning shariatdagi hukmini bilmoqchi bo'lsalar, albatta, oldin Qur'onga murojaat qiladilar. O'sha o'zlari izlayotgan hukm haqida Qur'onda biror hukm bo'lsa, uni darhol qabul qiladilar. O'sha narsa Qur'onda bo'lmagan taqdirdagina sunnat (xadis), ijmo', qiyosga murojat qilishga o'tadilar.

Qur'on ta'limotining markaziy g'oyasi yakkayu yagona Alloh to'g'risidagi ta'limotdir. Unda iymon, Allohga ishonch, olamning yaratilishi, farishtalar, payg'ambarlar, oxirat-qiyomat, qayta tirilish, qazoi qadar, Islomning asoslari va boshqa diniy ko'rsatmalar belgilab berilgan. Qur'ondagi axloqiy, xuquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy me'yorlar Islom dinining qonunlar majmuasi – shariatga asos qilib olingan.

Qur'on musulmon xalqlar hayotida va tarixida asosiy o'rin tutgan kitobdir. Bu kitob mazkur xalqlarning ilm-ma'rifat, adabiyot, turmush tarzi, qonun-qoidalari, urf-odatlar, dunyoqarashlari va boshqa narsalarda o'zining salmoqli izini qoldirganligi bilan ham ahamiyatlidir. Mustaqillik yillari Qur'oni karimni mazmuni o'zbek tiliga tarjima qilinib chop etildi.

Hadislar Islom dinining Qur'ondan keyingi ikkinchi manbaidir.

Hadis – arabcha so'z bo'lib, ma'nosi «xabar», «yangilik», «hikoya» demakdir. «Hadis» va «sunnat» so'zlari muxaddislar o'rtasida bir ma'noda qo'llanilib, payg'ambar Muhammad (sav)ning aytgan so'zlari, qilgan ishlari, ko'rsatmalari, fe'l-atvorlari, axloqlari, hayot yo'llari to'g'risidagi rivoyatlarni anglatadi.

Hadis Islom dinida Qur'ondan keyingi ikkinchi manba sanaladi. Hadis ilmi esa islom olamida eng ulug' va mo'tabar sanaladi. Hadis ikki turga bo'linadi: 1. Hadisi Qudisiy – ya'ni aytilgan hadisni ma'nosi Allohnik bo'lib, aytilishi Muxammad (sav) dan bo'lgan. Uni Alloh o'z nabiyisiga ilhom berish, tushida ko'rsatib bildirish orqali habar beradi. Payg'ambar esa buning ma'nosi Alloh nomidan, Alloh aytdi, deb sahobalariga yetkazganlar.

Hadisi qudisiyning martabasi, o'rni Qur'on bilan xadisi Nabaviy o'rtasidadir. 2. Hadisi Nabaviy – bu Muhammad (sav) ning Qur'onga tayangan holda aytgan so'zlari, qilgan ishlari, ko'rsatmalari to'g'risidagi rivoyatlardir.

Hadislar e'tiborga olinishi jihatidan yana uch qismga bo'linadi: 1. Sahih – eng to'g'ri, ishonchli xadislar. Ular Islomda taniqli va nufuzli hisoblangan kishilar tomonidan yetkazilganligi bilan qimmatli va e'tiborga loyiqdir. 2. Hasan – «go'zal» hadislar, ya'ni hadisni yetkazgan kishilar o'rtasida qqqandaydir uzilish ro'y bergan holda yetkazilgan hadislardan iborat. 3. Zaif ya'ni ishonchsiz hadislar. Agar hadisni yetkazganlar orasida hurmatga va ishonchga loyiq bo'lmagan odamlar kirib qolgan bo'lsa, bunday hadislar «zaif», «ishonchsiz» deb hisoblangan. Shuning uchun ham har bir hadis ikki qismdan iborat. Uning birinchi qismida ushbu hadisni yetkazgan kishilarning nomlari, bunda Muhammad (sav) ning hikmatli so'zlari, ko'rsatmalari va boshqalarni shaxsan eshitgan, ko'rgan odamlarning nomigacha sanab ko'rsatilgan. Ikkinchi qismda esa, hadisning umumiy mazmuni keltirilgan.

Qur'onda barcha xuquqiy va axloqiy masalalar umumiy tarzda bayon etilgan. Ularga aniqlik kiritish va izohlab tushuntirish uchun Muhammad (sav) o'z

Xadislarni aytardi. Bu hadislarni payg‘ambarning safdoshlari, quvvai-xafizasi kuchli sahobalar yodda saqlashga harakat qilardi. Payg‘ambar hayotlik chog‘larida hadislarni jamlashga ruhsat bermagan, chunki sahobalarning Qur‘onga xadislarni aralashtirib yuborishlaridan qo‘rqib, ularni yozishdan qaytargan. Ul zot sahobalarga: «Mendan Qur‘oni karimdan bo‘lak hech narsani yozib olmanglar, agar kimki biror narsa yozib olgan bo‘lsa, uni yo‘q qilsin!», - der edi.

Muhammad (sav) vafotidan so‘ng Qur‘on va xadislarni yod olgan o‘tkir xofiza egasi bo‘lgan sahobalar soni tobora kamayib borayotganini, Payg‘ambar (sav) Xadislarga begona so‘z aralashib qolishi va unitilib ketishidan qo‘rqib va kelgusi avlodlar uchun qoldirish niyatida uni yozma shaklda to‘play boshladilar. Boz ustiga xadislarni bilgan kishilar turli yurtlarga tarqalib ketgan edilar. VII asr o‘rtalaridan boshlab ularni topib, Xadislarni og‘izlaridan yozib olishga harakat qilingan.

VIII asr boshlarida Umaviy xalifalardan Umar ibn Abdulaziz noiblariga Muhammad (sav) hadislarini jamlash haqida farmon berdi. Natijada ko‘plab ulamolar Hadislarni jamlab yozishga kirishib ketdilar. Abdumalik ibn Abdulaziz Jurayx, Ar-Rabi‘ ibn Subayx kabi allomalar Birinchi Xadis kitoblarini yaratdilar. Ulardan so‘ng hadis ilmi yanada rivojlanib birin-ketin ko‘plab hadis to‘plamlari yuzaga keldi. O‘lkamizda quyida nomlari zikr etilgan zotlar: Imom ibn Muborak al-Marvaziy, Imom Isxoq al-Marvaziy, Imom ibn Kulayb ash-Shoshiy va boshqalar birinchi bo‘lib hadis to‘plamlarini tuzganlar. Biroq bu to‘plamlarda hadislar muayyan tartibga solinmagan, boblarga ajratilmagan bo‘lib, ularda payg‘ambar hadislari sahobalar va tobeinlarning fatvolari bilan chalkashtirib yuborilgan edi.

Keyingi xijriy III asr melodiy IX asr hadis ilmining «oltin asri» deb shuhrat qozongan. Chunki bu davrda hadislarni to‘plash davri o‘tib, endi ularni manbashunoslik va matnshunoslik ilmi qoidalariga muvofiq tahlil va tadqiq etish, ma‘lum mazmun asosida tartib berishga kirishildi. Hadis to‘plash soxasida «Musnad», «Sahih» va «Sunan» deb nomlangan yo‘nalishlar vujudga keldi. Bu davrda keyingi asrlar, keyingi avlodlar uchun namuna bo‘ladigan ishonchlik hadis to‘plamlari yaratildi²⁶.

«Musnad» arabcha so‘z bo‘lib, ma‘nosi asoslangan, dalillangan demakdir. U hadis to‘plamlarining ilk turi. «Musnad» to‘plamlarida hadislar ularni bir-biridan eshitgan shaxslar silsilasiga asoslangan holda, ya‘ni har bir hadis uni habar qilgan shaxsning ismi bilan bog‘langan tarzda joylashtirilgan. Bundan tashqari bunday to‘plamlar turli mavzudagi hadislar bir joyda keltirilishi bilan ham ajralib turadi.

²⁶ Qarang. M.Imomnazarov, M.Eshmuamedova. Milliy ma‘naviyatimiz asoslari. Toshkent islom universiteti, Toshkent – 2001. 134-bet.

«Musnad» yoʻnalishidagi hadis toʻplamlariga Abdulloh ibn Muso va Imom Ahmad ibn Xanbalning hadis toʻplamlarini misol qilib koʻrsatishimiz mumkin.

«Sahih» - arabcha soʻz boʻlib ishonchli, toʻgʻri demakdir. Eng ishonchli deb hisoblangan hadis nomi. Sahih yoʻnalishiga buyuk muhaddis Imom al-Buxoriy asos solgan.

Sahix xadis deb: uni birinchi rivoyat qiluvchisidan toʻ oxirgi muxaddisga qadar oʻrtada uzilib qolmagan, rivoyat qiluvchilarning biror tabaqasida (zanjirida) roviyning maʼnaviy va jismoniy nuqsoni boʻlmagan (kar, soqov, duduq, aqli zaiflik, yolgʻon gapirib qoʻyishlik kabi illatlar boʻlmagan), barcha xadis rivoyat qiluvchilarning ishonchliligi elga mashxur boʻlgan kishilarning rivoyatiga aytiladi²⁷. Imom al-Buxoriy va Imom ibn Muslimning hadis toʻplamlari sahix – ishonarli deb sanaladi.

«Sunan» yoʻnalishidagi hadis toʻplamlaridagi hadislarining hammasi ham sahix- ishonchli, toʻgʻri boʻlmay, ularda zaif hadislar ham mavjud. Bu yoʻnalishdagi hadislariga Abu Dovud, Iso at-Termiziy, an-Nasoiy va ibn Mojaning hadis toʻplamlari kiradi.

Shunday qilib, Islom tarixida hadislarining tan olingan 6 ta toʻplami vujudga kelgan. Bulardan, ayniqsa 2 tasi – «Sahihi Buxoriy» va «Sahihi Muslim» koʻp eʼzozlanadi. Imom ibn Moja, Imom Abu Dovud, Imom at-Termiziy, Imom an-Nasoylarning hadislar toʻplami qolgan 4 hadis toʻplamini tashkil etadi. Islom dunyosida tan olingan va hurmatga sazovor 6 ta muhaddisdan 2 tasi bizning yurtimizdan chiqqandir.

Yuqorida nomlari zikr etilgan 6ta muhaddis oʻzlarining barakali ijod va xizmatlari bilan paygʻambar va sahobalar nomidan turli maqsadlarni koʻzlagan holda sohta hadislar toʻqishga uringan va urinmoqchi boʻlgan kishilar yoʻlini toʻsgan va bunday hatti-harakatlarga gʻov soldilar. Shu boisdan ham keyingi davr ulamolari mazkur ustoz va shogirdlar asri – xijriy III asr, milodiy IX asrni hadislarini toʻplash va tadqiq etish borasida «oltin asr» deb hisoblaydilar.

Ulardan keyin yashagan va xadis ilmi bilan shugʻullangan ulamolarning hammasi yuqorida qayd etilgan ulugʻ va moʻtabar muhaddislar qizigan ariqdan suv ichgan va qozonidan taom yeganlar.

Movarounnahrlik buyuk muhaddislar (hadisshunoslar).

Islom dini rivoji va xadis ilmining yuksak pogʻanaga koʻtarilishiga Movaraunnahrlik allomalar oʻzlarining beminnat zahmatli mehnatlari bilan katta hissa qoʻshganlar. Ana shulardan biri Imomlar imomi, muhaddislar peshvosi Imom al-Buxoriydir. Unga qadar bu oʻlkada hadis toʻplagan muhaddislar – Imom

²⁷ Qarang. Islom ensiklorediya. 209-bet.

Abdulloh Marvaziy, Imom Ahmad ibn Xanbal, Imom ash-Shoshiy, Abu Bakr al-Barakotiy, Imom Abulxasan as-Samarqandiy va boshqalar bo'lgan.

Imom al-Buxoriy xijriy 194, milodiy 810 yili Buxoroda tavallud topgan. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi volidasi zimmasiga tushgan. U 5-6 yoshidan islomiy ilmlarni, Muhammad (sav) ning hadislarini o'rganishga va yodlashga kirishgan. 16 yoshliklarida onasi va akasi Axmad bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etdi. Onasi va akasini Buxoroga qaytarib, o'zi Makkada qoladi. Makka va Madinada mashhur ulamolardan hadislar bo'yicha saboq oladi. Bu vaqtda payg'ambarning sahoblari, sahobalarning izdoshlari turli shahar va mamlakatlarga tarqab ketgan edilar. Buxoriy payg'ambarimiz hadislarini to'plab, tartibga solmoq niyatida ana shu shahar va mamlakatlarga roviylarni izlab boradi. U Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jidda, Basra, Kufa, Bag'dodga safar qiladi. Shom va Misrga boradi. Xuroson, Marv, Balx, Xirot, Nishopur, Ray kabi shaharlarda bo'lib hadislar to'plash bilan birga shu ilm sirlarini o'rganadi. Bu haqda Imom al-Buxoriy «Men bir ming saksonta muhaddisdan hadis eshitdim», deb qayd etgan. Ul zot o'zining noyob qobiliyati, iqtidori, quvvai-hofiza (xotira) sining o'ta kuchliligi bilan ilm ahllarini lol qoldirgan. Buxoriy ja'mi 600 ming hadis to'plab, shulardan 100 ming «sahih» va 200 ming «g'ayri sahih» hadislarini yod bilar edi. Imom Ahmad ibn Xanbalning aytishicha: «Butun Xurosondan Muhammad ibn Ismoil kabi olim chiqqan emas». Buxoriy bilan Basrada hadis darsiga qatnashgan Xolid ibn Ismoil shunday yozadi: «Imom Buxoriy bilan bizlar ustozning darsini eshitardik. Ustoz rivoyat qilgan hadislarini bizlar yozib olardik, ammo Buxoriy faqat quloq solibgina o'tirardi. Bir necha kunlar o'tib, shu orada ustoz 15 ming hadis rivoyat qildi. Shunda biz Buxoriyga – Sen nega hadislarini yozmaysan? – deb aytganimizda, - Sizlar yozib borayotgan hadislarini men ustoz og'zidan yodlab olayotirman, - deb, ustoz rivoyat qilgan hadislarini bir chekkadan yoddan o'qib berdi».

Buyuk muhaddis Imom Muslim ibn al-Hajjoj ham Buxoriyning hadis ilmi borasidagi buyukliklariga tan bergan va shunday degan edi: «Hasad qiluvchilardan bo'lak hech kim sizga ta'na qilolmaydi. Dunyoda Sizga yetadigan muhaddis yo'qligiga men guvohlik beraman». Yana bir rivoyatda shunday deyilgan: Siz hamma muhaddislar imomi va hadislarining illati, zaifligini yaxshi biladigan mohir tabibi ekansiz. Muborak oyog'ingizni bersangiz, men bir bo'sa olay.

Imom Buxoriy safardalik chog'larida qaysi shaharga borsalar hadis ilmidan, dinu-shariatdan madrasalarda saboq berar edi. Uning shogirdlaridan biri Abu Ali Solih al-Bag'dodiyning aytishicha Imom Buxoriyning Bag'doddalik vaqtlarida olib borgan saboqlarida 20 mingdan ortiq talaba xozir bo'lardi. Shayh Muhammad Yusuf al-Firabiyning aytishicha, Imom Buxoriyning «al-Jome' as-Sahih» larini o'zlaridan 90 ming kishi eshitgan ekan.

Imom Buxoriy o‘z vatanlari Buxoroga qaytgach tolibi ilmlarga hadisdan dars bergan. Arab xalifaligining Buxorodagi noibi Xolid ibn Ahmad az-Zuhayliy Imom Buxoriyga: «Bundan buyon saroyga kelib turing va bolalarimga (ikkinchi rivoyatda saroy ahliga) «al-Jome’ as-Sahih» dan saboq bering», - deb maktub yuboradi. Imom Buxoriy bu taklifni qabul qilmay, quyidagi javobni bergan: «Men ilmni xorlab sultonu amirlar eshigiga olib bormayman. Agar amirga ilm kerak bo‘lsa, bolalarini (ikkinchi rivoyatda saroy ahlini) uyimga yoki masjidimga yuborsin». Buxoriyning fazlini ko‘rolmagan hasadgo‘y kimsalarning fitna va ig‘volari tufayli amir az-Zuhayliy Imom Buxoriyni o‘z ona shahri Buxoroni tark etish haqida farmon beradi. Buxoriy Samarqandga yo‘l oladi. Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘idagi qarindoshlaridan birining uyiga tushib, shu yerda bir necha kun betob bo‘lib yotib qoladi va xijriy 256, milodiy 870 yili ramazon oyining oxirgi kuni vafot etadi. Ertasi hayit kuni janoza o‘qilib, shu Xartangda dafn qilinadi. Bu yer xozirda xalqimizning ziyoratgohiga aylangan.

O‘z R Vazirlar Mahkamasining «Buyuk muhaddis imom al-buxoriy tavalludining 1225 yilligini nishonlash haqida»gi 1997 yil 29 apreldagi qarori asosida Samarqandda yubiley to‘y-tantanalari bo‘lib o‘tdi. Xartang qishlog‘ida ulkan yodgorlik majmui ochildi. «Imom al-Buxoriy va uning dunyo madaniyatida tutgan o‘rni» mavzuida xalqaro konferensiya o‘tkazildi.

Buxoriy butun faoliyati davomida ilm kishilarini ma‘naviy va moddiy jihatdan qo‘llab quvatlagan. Tijorat qilganda topgan oylik daromadidan besh yuz dirxamdan faqiru miskin va talabalarga sarflagan. Shaxsiy hayotida ortiqcha dabdaba va sarf-harajatlarga yo‘l qo‘ymagan.

Imom Buxoriy umr bo‘yi o‘ta fidoyilik ila butun aql-zakovatini ishga solib xadislarni to‘plash va tizimga solish bilan shug‘ullangan, ularni sahih va g‘ayri sahihga ajratgan. Bu mashaqqatli ish Buxoriyga shon-sharaf keltirdi, uni islom dunyosining eng buyuk allomalarimizdan biri sifatida tanitdi. Undan kelgusi vlodlarga boy va qimmatli ilmiy-ma‘naviy meros – 20 dan ortiq asar qolgan. Ulardan ayrimlari bizgacha yetib kelgan. Bular «Al-Jome’ as-sahih» («Ishonchli to‘plam»), «Al-Adab al-Mufrad» («Adab durdonalari»), «At-Tarix al kabir» («Katta tarix»), «At-Tarix as-sag‘ir» («Kichik tarix»), «At-Tafsir al-kabir» («Katta tafsir»), «Al-Jome’ al-kabir» («Katta to‘plam») va boshqalar. “Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo‘shgan betakror hissasi to‘g‘risida so‘z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida “Muhaddislar sultoni” deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo‘tabar zot merosining gultoji bo‘lmish eng ishonchli hadislar to‘plami – “Al Jome’ as-sahih” kitobi islom dinida Qur’oni Karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo‘lib, ahli islom e‘tiqodiga ko‘ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug‘i

hisoblanadi. Mana, o'n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haqi va diyonat yo'liga chorlab kelmoqda", - Prezidentimiz ushbu ta'rifi bilan Imom Buxoriyning islom madaniyatidagi buyuk hizmatiga munosib bahosini berdi²⁸.

Imom Buxoriyning «Al-Jome' as-sahih» deb nomlangan 4 jildlik hadislar to'plami Islom olamida Qur'ondan keyingi ikkinchi muqaddas kitob va islom manbasi sanaladi. To'plam Payg'ambar hadislaridan tashqari, fiqh, islom marosimchiligi, axloq-odob, ta'lim-tarbiya, o'sha davr tarixi, etnografiyasiga oid ma'lumotlar mavjudligi bilan ham qimmatlidir. Imom Buxoriy o'zi to'plagan 600 ming hadisdan 7275 ta eng ishonarli «sahih»larini mazmuniga ko'ra tasniflab, butkul yangicha tartibdagi hadislar to'plamini yaratdi²⁹.

Imom Buxoriy axloq va odobga oid hadislarni jamlab «Al-Adab al-Mufrad» hadislar to'plamini yaratdi. Unga 1322 ta hadis jam qilingan.

Ul buyuk zot ko'plab shogirdlar tarbiyalagan. Ular orasida eng mashxurlari-Muslim ibn Hattot, Iso at-Termiziy, an-Naso'iy, Abu Zur'a, Abu Bakr ibn Xuzayma va boshqalardir.

Movorounahrlilik mashxur muhaddislardan yana biri Abu Iso at-Termiziy (824/825-892)dir. Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'ida tug'ilgan. Samarqand, Buxoro, Marv va boshqa shaharlardagi mashhur ulamo va muhaddislar asarlarini o'rgangan. At-Termiziy hadis o'rganish va ularni yig'ish uchun 20 yil o'zga yurtlarda bo'ldi. Nishopurda Imom Buxoriy bilan uchrashib, ko'plab hadislar xususida fikr almashdi. At-Termiziyning buyuk alloma bilan besh yil birgalikda yashashi va muloqotda bo'lishi uning hayotida muhim o'rin tutdi, xususan «Sahihi Termiziy» asarining yaratilishida muhim omil bo'lib xizmat qildi. Agar Imom Buxoriy har bir hadisning ishonchliligini belgilashda barchadan ustun bo'lsa, Termiziy hadislarning darajasini aniqlashda «sahih»dan keyin «xasan» bosqichini kiritdi.

Hasan-zaif bo'lmasada, sahihdan darajasi pasroq hadislarga nisbatan berilgan bahodir.

At-Termiziy hadisining fiqhga qanday taalluqli ekanini ham ko'rsatib berdi. U «Sahihi Termiziy»dan tashqari «Shamoili Nabaviya» («Payg'ambar alayxissalomning shakl va sifatleri»), «Kitob uz-zuhd» («Zohidlik kitobi»), «Asmo' us-sahoba» («Sahobalarning ismlari»), «Kitobul-ilal» («Illatlar kitobi») va boshqa asarlar yozgan. At-Termiziy yozgan «Al-jome' as-sahih» («Ishonarli to'plam»)-«Sahihi Termiziy», «Sunani Termiziy» nomi bilan ham yuritiladi. Mazkur to'plam Imom Termiziyning 20 yil davomida o'zga yurtlarda hadislarni o'rganib, yig'ib, so'ng ustozlari va zamondoshi Imom Buxoriy bilan maslahatlashib

²⁸ I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent, 2008. 38 b.

²⁹ Qarang. M. Imomnazarov, M.Eshmuhamedova. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. 135-bet.

yig‘gan to‘plamidir. U tartibi ixchamligi, takrori ozligi bilan ajralib turadi. Unda boshqa hadis kitoblarida uchramaydigan xususiyatlar bor. Chunonchi, har bir bobning hadisi keltirilgandan so‘ng, xuddi shu bobga tegishli hadis rivoyat qilgan roviylarning ismlari sanab o‘tilgan. Har bir hadisning ishonarlilik va zaiflik darajasi aniqlab berilgan. Har bir «sahih» ustiga «xasan» belgisi, ya‘ni «juda sahih», «beshak sahih» qo‘yilganligi bilan ajralib turadi. Imom at-Termiziyning ma‘naviy merosiga Prezidentimiz o‘zining shunday yuksak bahosini beradi: “Yana bir ulug‘ vatandoshimiz – Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziyning ma‘naviy merosi, jumladan, “Sunani Termiziy” asari ham musulmon olamida yuksak qadrlanadi. Allomaning asrlar davomida olimu fuzalolarga dastur bo‘lib kelgan insof va adolat, insonparvarlikni targ‘ib etuvchi g‘oyalari hozirgi murakkab davrimizning ko‘plab ahloqiy ma‘naviy masalalarini hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etishi bilan e‘tiborga molikdir”³⁰.

1990 yilda at-Termiziy tavalludining 1200 yilligi mamlakatimizda keng nishonlandi.

4. Masala bayoni. Islom dini manbalarning tarbiyaviy ahamiyati.

Islom dinining manbalari «Qur‘on» va «Hadis» larda «... ilohiyot, diniy masalalar bilan birga o‘z davrining axloqiy va siyosiy an‘analari, insonparvarligi, insonlarni qovushtiruvchi, ular o‘rtasida ziddiyat, nizolarning oldini oluvchi, adolat o‘rnatishga qaratilgan axloqiy fikrlar ham keng o‘rin olgan»³¹. Darhaqiqat Islom dini ma‘rifatparvarlik va yuksak axloqiylik g‘oyalarini ilgari surish bilan ajralib turadi. «Qur‘on» va «Hadis» larda ilgari surilgan axloqiy qarashlar inson ma‘naviy-axloqiy tarbiyasida eng ta‘sirchan, eng baquvvat xalqa, usiz jamiyat, xalq, inson ma‘naviyatini tasavvur qilish mumkin emas. Aytish joizki «Qur‘on» ning har bir oyati, «Hadis»larning har bir naqli mo‘min-musulmonlarning axloq-odob sifatlarini yoritishga, ularning o‘ziga xos go‘zal qirralarini ochib berishga va shu ruhda tarbiya topishga yo‘naltirilgan. Ularda har bir insonni insonparvar, vatanparvar, adolatli, ma‘rifatli, ma‘naviyatli, yuksak axloq-odob sohibi, bunyodkor, yaqinlarga g‘amxo‘r bo‘lishi takror va takror uqtiriladi. «Qur‘oni karim, hadislar va shariat ko‘rsatmalari inson ma‘naviy-ma‘rifiy kamolotining asosi bo‘lgan axloq-odob tarbiyasining barcha qirralarini o‘z ichiga olgan. Sirasini aytganda, hadislar ma‘naviy-axloqiy tarbiyaga oid bo‘lgan fikrlarning mukammal to‘plamidir. Qur‘oni karim, hadislarini, shariat ko‘rsatmalarini o‘rganar ekanmiz, ularda axloqiy kamolot, halollik va poklik, imon va vijdon bilan bog‘liq bo‘lgan

³⁰ I.A.Karimov “Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch” Toshkent, 2008. 39 b.

³¹ Hayrullaev M.M. O‘rta Osiyoda ilk uyg‘onish davri madaniyati. Toshkent. FAN, 1994, 17-18-betlar.

birorta ham muhim masala e'tibordan chetda qolmaganini ko'ramiz. Ayniqsa, Islom harom va halol masalasiga musulmonlar e'tiborini qaratadi»³².

Islomda, xususan Qur'oni Karim va hadislarda ota-onaga mehr-muhabbat, g'amxo'rlik, farzand tarbiyasi va oilaga sadoqat masalalariga alohida e'tibor berilgan. Islom ta'limotiga ko'ra, oila yaratganning roziligini topish, payg'ambarimiz (s.a.v.) ahloqlari, islomiy odob bilan ziynatlanish va pok yo'l bilan insoniyat naslini davom ettirish maqsadida quriladi. Shuning uchun dinimiz oilani nikoh asosida qurishga alohida ahamiyat beradi va nikohni insoniy aloqalarning eng muhimi sifatida yuksak qadrlaydi. Oila kichik bir jamiyatdir. Oilaning tinchlik hotirjamligi va saodatini ta'minlash oiladagi har bir shaxsning o'z ma'suliyatini his qilishi va bajarishi bilan barqaror bo'ladi. Jamiyatning kelajagi porloq, katta imkoniyatlarga ega bo'lishi uchun, avvalo, uning ajralmas negizi oilalarning ma'nan sog'lomligi talab qilinadi. Bu esa quyidagi shartlarga rioya qilinishiga bog'liq:

- ❖ Oilaning bir biriga munosib odamlardan tashkil topishi;
- ❖ Er –xotin orasidagi o'zaro hurmat va totuvlik;
- ❖ Erkak kishi o'zining oila ustuni ekani hamda rahbarlik mas'uliyatini his etishi va bunga amal qilib yashashi;
- ❖ Ayol kishining oila ichki holatlarga mas'ulligi;
- ❖ Ota –ona farzandlarining rioyasini qilib, ularga adolatli bo'lishlari;
- ❖ Farzandlarning ota –onalarga yaxshilik qilishlari;

Ana shu shartlarga rioya qilinsa, oilada sog'lom muhit vujudga kelib, tarbiya topayotgan farzandlar odob –ahloqli, el –yurtga xizmat qiladigan insonlar bo'lib voyaga yetadilar.

Kishilarni yaxshilik qilish, savob ishlarga qo'l urish, insofli-diyonatli, vijdonli bo'lish, mehr-shafqatlilik, to'g'rilik, rostgo'ylik, sofdil bo'lish, birodarga yordam berish, kamtarlikka chaqirish g'oyalari ilgari surilgan.

Hadislarda axloqiy kamolot haqida aytilgan ba'zi fikrlar buning yaqqol tasdig'idir:

- ❖ Munofiqlik belgisi uchta: yolg'on so'zlash, va'dasining ustidan chiqmaslik va omonatga hiyonat qilishdir;
- ❖ Haqqingizga xiyonat qilgan kishiga siz xiyonat qilmang;
- ❖ O'zimdand keyin qoladigan ummatlarim uchun uch narsadan qo'rqaman:
 - Nafsu havoga berilib, yo'ldan ozishdan;
 - Nafsoniy va shahvoniy hissiyotga berilib ketishdan;
 - Ilmu ma'rifatga ega bo'la turib, g'ofillarning ishini tutishdan;
- ❖ Beshta narsadan oldin beshta narsani g'animat biling;

³² Otamuratov S., Husanov S., Ramatov J. Ma'naviyat asoslari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent -2002. 94-bet.

O'limdan avval tiriklikni, betoblikdan avval salomatlikni, bo'sh vaqtdan avval bandlikni, keksalikdan avval yoshlikni, faqirlikdan avval boylikni;

❖ Pora beruvchi ham, uni oluvchi ham do'zohga mahkumdur.

Sharqda, xususan, bizning milliy ma'naviyatimizda ota-onani behurmat qilish u yoqda tursin, hatto yuziga tik qarash, gap qaytarish ham gunoh hisoblanadi. Bu haqda biz uchun ibrat bo'larli hadislar mavjud: «Kimki ota-onasining roziligini olgan bo'lsa, tangri uning umrini uzaytiradi»; «Otaga itoat qilish – tangriga itoat qilishdir. Uning oldida gunoh qilish tangri oldida gunohkor bo'lish bilan barobardir»; «Ota-onalarning keksalik vaqtida har ikkisini yoki biri bo'lmaganda boshqasini rozi qilib, jannatiy bo'lib olmagan farzand xor bo'lsin, xor bo'lsin va yana xor bo'lsin»;

Musulmon sharqda ayollarga hurmat va e'tibor ham muqaddas kitoblarda o'z ifodasini topgan. «Jannat onaning oyoq ostitadir» hadisi juda teran mazmunga ega bo'lib, ayol zoti jannat tushunchasidan ham yuqori qo'yilgan.

Islom axloqiy qarashlarida har bir kishining o'z mehnati, kasb-hunari bilan yashashga ham qonun qilib qo'yilgan. Payg'ambarimiz: «Mehnat qilishdan uyalmang, mehnat qilish – ibodat qilishga barobar», deydilar.

Qur'oni karim va hadislar odamzot aql-idrokini muhofaza qilishi bilan ham katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Chunonchi odamzot bolasiga aroq, nasha, opiy kabi zararli giyohvand moddalarni iste'mol qilmaslikka undab turadi. Payg'ambarimiz hadislaridan birida, «Kayf qildiruvchi narsa – hamr. Har qanday hamr haromdir», - degan ekan.

Islom xozirgi davrning global muommasiga aylanib borayotgan insonlarning naslini sog'lom saqlashga chorlaydi, zinokorlikka va u orqali spidga muhtalo bo'lishini qoralaydi. Zinokorlik katta gunohlardan biri ekanligini qayta-qayta uqtiradi. Chunki bunday ko'ngilsiz hatti-harakatlar inson farzandlari irsiyatida jiddiy nuqsonlar paydo bo'lishi, hatto zurriyotni bahtiqaro qilishi mumkin.

Qur'oni karim va hadislarining tarbiyaviy ahamiyati insonlarni ilm-fanni egallash, ma'rifatli bo'lishga chaqirishida ham namoyon bo'ladi. Beshikdan to qabrgacha ilm izlash lozimligini qayd etilishining o'zi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Hadislardagi «Sadaqaning afzali mo'min kishi ilm o'rganib, so'ng boshqa mo'minlarga ham o'rgatishdir»; «Ilm ibodatdan afzaldir»; «Ilmu hunarni Xitoydan bo'lsa ham borib o'rganinglar» kabi har bir kishini ma'rifatga chordlovchi so'zlarning ahamiyati beqiyosdir.


Islom kishilarni faqat diniy bilimlarnigina emas, balki shu bilan birga dunyoviy ilmlarni ham chuqur egallashga chaqirishi bilan ham ahamiyatlidir. Din ruhiyatimiz tarbiyachisi, ilm-dunyoni va oxiratni bilish quroli, inson unisini ham, bunisini ham egallamog'i kerak. Har ikki ilmni egallagan kishi ikki dunyosini obod qiladi.



Mustaqillik tufayli farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom Buxoriy to'plagan hadislar, Naqshbandiy ta'limoti, Termiziy o'g'itlari, Yassaviy hikmatlari asosida tarbiya qilish imkoniga ega bo'ldik.

Islom tomonidan asrlar davomida ishlab chiqilgan axloqiy-ma'rifiy qadriyatlar yangilanish jarayoniga xizmat qilmoqda. Zero, bu qadriyatlar doimiy ravishda odamlarda, jumladan yoshlarimizda yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlardan xalos bo'lishga chorlaydi. Diniy va dunyoviy ilmlarni chuqur va puxta egallash o'z navbatida kishilar, xalqlar, mamlakatlar hayotiga katta havf solayotgan islom niqobidagi turli ekstremistik oqimlarga nisbatan mafkuraviy-ilmiy immunitet xosil qilish, xalqaro terorizmga qarshi kurashishga yordam beradi.


Yurtboshimizning izchil sa'y-harakatlari bilan mamlakatimizda bu dolzarb masala muvafaqqiyatli hal etilmoqda.

Mavzu bo'yicha chizmalar.





5-chizma



Takrorlash uchun savollar

1. Islom yuzaga kelishidan avval Arabiston yarim orolidagi shart-sharoit qanday bo'lgan?
2. Joxiliya nima?

3. Islom so‘zi nimani anglatadi?
4. Islom asoschisi Muhammadning hayoti haqida nimalarni bilasiz?
5. Muhammadning payg‘ambarlik faoliyatini izohlang.
6. «Vidolashuv xutbasi» nima?
7. Arab xalifaligi haqida nimalarni bilasiz?
8. Islom dinining boshqa xalqlar o‘rtasida tarqalishi.
9. Islom aqidalari nima?
10. Islom arkonlari (ustunlari) ga nimalar kiradi?
11. Islom dinidagi yo‘nalish va mazhablar haqida nimalarni bilasiz?
12. Sunniylik va Shialik o‘rtasidagi farq nimalardan iborat?
13. Qur‘oni karim qanday muqaddas kitob?
14. Qur‘oni karimni nozil bo‘lishi haqida nimalarni bilasiz?
15. Qur‘oni karimni tuzilishi qanday?
16. Qur‘oni karim necha marta mus‘hab qilingan?
17. Usmon mus‘hafi haqida nimalarni bilasiz?
18. Hadislar nima?
19. Xijriy III, milodiy IX asrni nima uchun hadisshunoslikning «oltin davri» deyiladi?
20. Hadislar nechaga bo‘linadi?
21. Buyuk hadisshunoslardan kimlarni bilasiz?
22. Imom al-Buxoriy kim bo‘lgan, uning qanday asarlarini bilasiz?
23. Vatanimizdan yana qanday hadisshunoslar yetishib chiqqan?
24. Islom manbalarining tarixiy tarbiyaviy axamiyatini izohlang.
25. O‘zbek oilasining ma‘naviy ahloqiy jihatlari haqida nimalarni bilasiz ?
26. Yaxshi fe‘llar, yaxshi a‘monlar –halol luqmadandir –iborasining mazmunini izohlang ?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” T -1998 yil
2. I.A.Karimov “Yusak ma‘naviyat yengilmas kuch” T -2008 yil
3. Sh. M.Mirziyoev “ BMT Bosh assambleyasining 72 –sessiyasidagi nutqi 2017 yil 19 sentabr
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash muqaddas dinimizni sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi 2017 yil 15 iyun
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga 2017 yil 22 dekabrda murojaatnomasi
6. Falsafa ensiklopedik lug‘at. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti T -2010 yil

7. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi T -2009 yil
 8. Sh. I. Xaitov O'zbekiston falsafa tarixi T -2011 yil
 9. I.Jabborov “Jahon dinlari tarixi” T- 2002 yil.
 10. A. Tulepov “Islom va aqidaparast oqimlar” T -2013 yil
 11. Xusniddinova Z. “Islom : yo‘nalish, mazxablar, oqimlar” T- 2000 yil
 12. Imom Ismoil al –Buxoriy Hadis I-IV jildlar T _ 1997 yil
 13. Alixonto‘ra Sog‘uniy Tarixiy Muhammadiy T -2007 yil
 14. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Islom Tarixi” birinchi, ikkinchi kitob T -2008 yil
 15. Xoliq Nurboqiy Qur’oni Karimning ilmiy mo‘jizalari T- 2018 yil
 16. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Iymon” T -2006
 17. Ahmad Lutfiy Qozonchi “ Saodat asri qissalari” T -2019 yil
 - 18.
-
12. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. To‘ldirilgan ikkinchi nashr. T-2002 yil
 13. Islom esiklopediya (A –H). O‘zbek milliy esiklopediyasi davlat nashriyoti, T.,2004 yil.
 14. Abdurauf Fitrat. Muxtasar islom tarixi T – 1992 yil

6-mavzu. Islom ta’limoti

Ma’ruza rejasi:

5. Islom ilohiyoti va uning asosiy aqidalari
6. Kalom ilmi.
7. Moturidiylik va ash’ariylik.
8. Tasavvuf ta’limoti va fiqh ilmi

Tayanch tushunchalar

Ilohiyot, nubuvvat, kavniyot, sam’iyot, aqida, kalom, imon, Alloh, farishta, payg‘ambar, taqdir, qiyomat, jannat, do‘zax, moturidiylik, ash’ariylik, tasavvuf, tariqat.

1. **Masala bayoni. Islom ilohiyoti va uning asosiy aqidalari.**

Aqida mavzusi to‘rt qismga bo‘linadi: ilohiyot, nubuvvat, kavniyot va sam’iyot.

Ilohiyot iloh va unga oid masalalar haqida bahs yuritadi. Nubuvvatda vahiy, payg‘ambarlik va ularga tegishli masalalar haqida bahs yuritiladi. Kavniyotda esa, borliqdagi mavjudotlar – inson, farishta, jin va sababiyat qonunlari haqida bahs yuritiladi. Sam‘iyot eshitish bilangina sobit bo‘ladigan aqidalar haqida bahs yuritadi. Bular asosan g‘ayb olamiga tegishli masalalar bo‘lgani uchun bu turni «g‘aybiyot» ham deyiladi.

Islom besh asosga qurilgan. Ular: imon, namoz, zakot, ro‘za va haj. Bular islomning sharti – rukni hisoblanadi.

Imon so‘zi ishonmoq, tasdiqlamoq ma‘nolarini bildirib, istilohda, kalimai shahodatni aytish, ya‘ni «La ilaha illallohu Muhammadun Rasululloh» («Allohdan boshqa iloh yo‘q, Muhammad uning rasuli»)ni til bilan aytish va dil bilan tasdiqlashdir. Buni chin dildan aytgan kishi musulmon hisoblanadi.

Hadislarda imonning yetti sharti bor ekani qayd etilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Allohning borligi va birligi, Qur‘on va hadislarda bayon qilingan barcha ism va sifatlariga ishonish, uning barcha buyruqlarini qabul qilish va barcha qaytariqlaridan tiyilish.

Tarixda ulamolar Allohning borligi haqida alohida to‘xtalib, dalil keltirmaganlar. Zero u davrlarda Xudoning borligiga barcha ishongan (xudo yo‘q degan tasavvur bo‘lmagan). Ammo zamonamizga kelib Xudoning borligiga ishonmaydiganlar chiqqandan keyin olimlar bu mavzuni ham aqida kitoblariga kiritganlar va u aqidaning bosh mavzusiga aylangan.

Aqida ilmida Allohning yagonaligi masalasi ham alohida ahamiyatga molik sifatida o‘rganiladi. Bu «tavhid» deyiladi. Tavhid lug‘atda biror narsaga birlik va yagonalikni nisbat berishdir. Istilohiy ma‘noda Allohga shirk keltirishning turli ko‘rinishlaridan voz kechish, Allohning zotida, sifatida, ishlarida, ismlarida, hukmlarida ham sherigi yo‘q deb, e‘tiqod qilishga aytiladi.

Islom dinida Allohga ishongan kishi uning ismi va sifatlariga ham imon keltirish lozim. Quronda «**Allohning chiroyli ismlari bordir. Uni o‘sha (ism)lar bilan atangiz!**» (Aorof, 180), «**Uning go‘zal ismlari bordir**» (Hashr, 24)

deyilgan. Bu ism va sifatlar orqali Alloh haqida bilimlarga ega bo‘linadi. Shuningdek, «Allohning to‘qson to‘qqizta ismi bor» ekani haqidagi hadisni muhaddislar rivoyat qilganlar.

Imom Abu Hanifa o‘zining «al-Fiqh al-akbar» asarida Alloh haqida shunday degan: «U o‘zi yaratgan narsalardan birortasiga o‘xshamas. Unga ham biror narsa o‘xshash emas. O‘zining zotiy va fe‘liy sifatlari bilan azaldan bor bo‘lgan va abadiy bor bo‘lur. Zotiy sifatlari – hayot, qudrat, ilm, kalom, eshitish, ko‘rish, iroda. Fe‘liy sifatlari – xalq etish, yasash va boshqa shu mazmunga dalolat qiluvchi sifatlar. U o‘zining barcha ism va sifatlari bilan birgalikda doim bo‘lgan va abadiy bo‘lajak. Unga biror ism yoki sifat keyin qo‘shilib qolgan emas».

Islom ta’limotiga ko‘ra, Allohning ismi va sifatlarini boshqa biror maxluqotga o‘xshatish mumkin emas. Uning holati, kayfiyati, surati haqida bahs qilinmaydi, ya’ni Alloh ko‘radi, eshitadi, biroq biz insonlar va boshqa maxluqotlar kabi emas, balki u haqda bahs qilish bidoat hisoblanadi.

Allohning buyrug‘ini bajarish va qaytariqlaridan qaytish ham imonning bir bo‘lagi. Chunonchi islom ta’limotida Allohning buyruqlarini bajarish insonga oxiratda jannatga tushishiga olib keladi. Aksincha, uning qaytargan narsalaridan qaytmasa do‘zaxda azoblaydi deb bilinadi.

2. Musulmon odam *farishtalarga* ham ishonishi lozim. Farishtani arab tilida malak, ko‘pligi maloika deyiladi. Ularga ishonmagan musulmon hisoblanmaydi. Qur’onda, **«(Ularning) har biri Allohga, farishtalariga, kitoblariga va payg‘ambarlariga birortasini ajratmasdan (hammasiga) imon keltirdi»** (Baqara, 285) deyilganidan farishtalarga ishonish imonning asoslaridan hisoblanadi.

Farishtalar nurdan yaratilgan, nurning tezligi o‘ta kuchli bo‘lganidan ham farishtalar ko‘zga ko‘rinmaydi. Farishtalarning sonini Allohdan boshqa hech kim bilmaydi, ular Allohning buyrug‘idan chiqmay doimo uning aytganini bajaradigan xos bandalar hisoblanadi. Ular Allohning barcha maxluqotlaridagi elchilar deyish mumkin. Xudoning xuzuridan ishni olamga olib tushib, o‘shaning tadbirini qiladilar. Ularning jinsi yo‘q. Xohlagan qiyofaga kira oladilar.

Qur'on va sunnatda farishtalar muayyan vazifalari borligi haqida ham ma'lumot berilgan. Masalan, tog'larga, yomg'irga, bulutga, quyoshga, oyga, ekinga va hatto ona qornidagi bachadonga vakil qilingan farishtalar sinfi bor. Shu bilan birga insonga vakil qilingan farishtalar odamning ishlarini yozib boradilar. Oxirat ishlariga ham vakil qilingan farishtalar mavjud: o'limga, qabrdagi savol-javobga, jannatga, do'zaxga va hokazo.

Farishtalardan 4 tasi: Jabroil, Mikoil, Isrofil va Azroil bosh hisoblanadi.

2. Ilohiy kitoblarga imon keltirish. Alloh tarafidan payg'ambarlariga kitoblar tushurilganiga imon keltirish.

Shu bilan birga bu kitoblarga umumiy imon keltiriladi. Ammo ularning adadi va ismlari haqida aniq ma'lumot yo'q. Muhammad payg'ambarga (a.s.) Qur'on nozil qilinganidek, boshqa payg'ambarlarga ham kitob tushurilgan. Ulardan manbalarda zikr qilib o'tilganlari quyidagilardir: Ibrohim payg'ambarga «Sahifalar», keyingisi «Tavrot» bo'lib, u Muso payg'ambarga, «Zabur» Dovud payg'ambarga berilgan. Iso payg'ambarga esa «Injil», Muhammad payg'ambarga (a.s.) «Qur'on» nozil qilingan. Shuningdek, biror payg'ambarga biror kitob nozil qilinsa, u o'zidan avvalgi shariatni o'zgartirgan yoki butunlay yangi qarashlarni olib kelgan deb hisoblangan.

3. Payg'ambarlarga imon keltirish. Islom dini ta'limotiga ko'ra Alloh insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatish uchun payg'ambarlarni yuborgan va bu payg'ambarlarga imon keltirish vojib hisoblanadi. Ularning barchasiga birdek ishonish shart. Ulardan birini inkor qilish barchasini inkor qilish bilan barobar.

Alloh Odam (a.s.)dan boshlab. Muhammad payg'ambar (a.s.)gacha bo'lgan oraliqda payg'ambarlar yuborgan. Ularning soni, hadis asosida 124 000 nafar deyiladi. Barchasining ismi Qur'onda kelmagan, faqat 25 nafar payg'ambarning nomi zikr qilingan.

Payg'ambarlar ikki qismga bo'linadi: nabiy va rasul.

Nabiy va rasul orasidagi farq:

1. Alloh kimga vahiy yuborib, o'sha xabarni boshqalarga yetkazishni buyursa, o'sha odam nabiy va rasuldir. Ammo xabarni boshqalarga yetkazishni tayinlamasa, nabiy hisoblanadi, rasul emas;

2. Rasul yangi shariatni olib keladi. Nabiy esa, yangi shariat bilan kelmaydi. Balki, o'zi oldingi shariatga amal qiladi va boshqalarni shunga amal qilishga da'vat qiladi;

3. Rasul umumiy bo'lib, farishtalarga ham, insonga ham ishlatilgan. Umuman olganda payg'ambarlar ham oddiy ison bo'lib, ular boshqa insonlarni Allohning ko'rsatmasiga amal qilishga chaqirish uchun kelganlar. Ular orasida rasullar 313 nafarni tashkil etadi.

Alloh Payg'ambarlarni oddiy odamlardan tanlagan. Payg'ambarlar o'zlarida Allohning buyruq va qaytariqlarini aks ettirib, boshqa odamlarga namuna bo'lganlar.

Payg'ambarlarning oddiy kishilardan ajrab turadigan birgina sifatleri ma'siyat qilish, shahvatlarga berilish, muruvvatga zarar yetkazadigan va insonlik qadrini ketkazadigan narsalardan saqlanganliklaridir. Ular mo'jiza ko'rsatib, payg'ambarliklarini tasdiqlaganlar. Payg'ambarlarning mo'jizalari turlicha bo'lgan. Iso payg'ambar kasal odamni davolagan, Muso payg'ambar dengizni ikkiga bo'lgan, Muhammad payg'ambar (a.s.) suv solingan meshga qo'llairini tiqqanlaridan keyin o'sha idishdagi suvdan juda ko'pchilik ichgani va boshqa mo'jizalarini misol qilib keltirish mumkin.

Payg'ambarlarning ko'rsatgani mo'jiza bo'lsa, avliyolarning ko'rsatgani karomat bo'ladi.

4. Oxirat kuniga ishonish ham imonning bir bo'lagi hisoblanadi. Islom ta'limoti bo'yicha bu dunyo sinov-imtihon maydoni hisoblanadi. Alloh bu dunyoni bir kun tugatadi va insonlar qilgan ishlariga javob beradilar. Alloh qiyomatda barcha yaratgan narsalarini jonini oladi va qayta tiriltiradi. Insonlar qilgan ishlariga javob beradilar.

Yaxshi ishlarni qilgan bo'lsa mukofotini, yomon ishlar qilgan bo'lsa jazosini oladilar va ularning qilgan barcha ishlari insonga ko'rsatiladi. Ularning qilgan ishlari tarozuda tortiladi.

5. Insonning boshiga tushadigan yaxshilik yoki yomonlik Alloh tarafidan bo'lishiga – *taqdirga imon keltirish*. Batafsil qilib aytganda, taqdir – insonga keladigan barcha yaxshilik va yomonlik, borliqdagi har bir hodisa va voqealar yoki oxiratda bo'ladigan hamma ish Allohning taqdiri, ilmi, irodasi va beligilab qo'ygani bo'yicha sodir bo'lishiga imon keltirish hisoblanadi. Xursandchilik va xafalik, hayot va o'lim, boylik va kambag'allik, kasallik va sog'lomlik va boshqa barchasi Allohdan deb bilishdir. Taqdir masalasini Allohdan boshqa hech kim bilmaydi, hatto payg'ambarlar ham va farishtalar ham bu sirdan voqif emas.

Qadar masalasida chuqur ketib bahs qilish xato deb bilinadi. Alloh qiyomatgacha nima bo'lishini biladi. Agar ularni bilmasa, Uning komil sifati nuqsonli bo'lib qoladi. Mazkur ilohiy ilm «qazoi-qadar» deb ataladi.

Qazo – Allohning hamma narsalarning kelajakda qandoq bo'lishini azaldan bilishi. Qadar esa, o'sha narsalarning Allohning azaliy ilmiga muvofiq ravishda vujudga kelishiga aytiladi.

6. O'lgandan keyin *qayta tirilishga ishonish* ham imon shartlaridan biridir. Qiyomat kuni bo'lganda, barcha insonlar qayta tirilib, mahshargohga yig'iladilar. U kunda yaxshi ishlarning mukofoti (jannat), yomon ishlarning jazosi (do'zax) beriladi. Barcha ishlar Xudoning huzurida ko'riladi. Banda amallari hisob-kitob qilinadi. Har bir kishining qilgan ishlari kitobi – nomai a'moli o'qiladi. Yaxshi amallar va yomon ishlar hammasi o'lchanadi.

Qiyomat tik turish ma'nosini bildiradi. O'sha kunda hamma qabridan tik turib tirilishiga shu nom berilgan. Qiyomat – hisob kuni, oxirat kuni, mahshar kuni kabi bir qancha nomlar bilan ham yuritiladi. Qiyomatning qachon bo'lishini Allohdan boshqa hech kim bilmaydi. Hatto payg'ambar va farishtalar ham. Faqat uning alomatlari bildirilgan.

Islom ta'limotiga ko'ra qiyomatda insonlar savol-javobdan o'tadigan joy – mahsharga yig'iladilar. Mahsharda savol-javobdan keyin insonlarga do'zax

ustidagi sirot nomli ko‘prikdan o‘tishlari aytiladi. Qiyomatdan o‘tgan inson jannat (bog‘, bo‘ston) yoki do‘zaxdagi joyiga boradi. Alloh jannatni ham, do‘zaxni ham yaratib qo‘ygan. Ular inson yetib boradigan so‘ngi manzil hisoblanadi.

Diniy aqida bo‘yicha, jannat imon keltirgan, taqvodor, yaxshi insonlar uchun tayyorlab qo‘yilgan. Ular u yerda rohat va farog‘atda yashaydilar. Qiyinchilik, kasal, qarilik va o‘lim yo‘q. Istagan narslari muhayyo bo‘ladi. Bularning barchasi bu dunyoda qilib o‘tgan amallari tufayli beriladi. U yerdagi narsalar tugamaydi, insonlarga man qilib qo‘yilmaydi. Jannatdagi eng oliy ne‘mat, bu Allohning diydorini ko‘rishlik hisoblanadi.

Do‘zax esa, jannatning aksi kofir, munofiq va gunohkor – diniy talablarni bajarmaganlar uchun tayyorlab qo‘yilgan va ularga turli azob-uqubat beriladigan jazolash joyi. U yerda azob uchun olov, qaynab turgan buloq bo‘ladi. Yeydigan va ichadigan narsalari ham ularni azoblash uchun bo‘ladi. Do‘zax ham abadiy qoluvchi hisoblanadi. Ulardagi azoblar yengillatilmaz va vaqtinchalik bo‘lmaydi. U bir necha tabaqa chuqurlikdan iborat, gunohlari darajasiga qarab jazolanadilar.

Jannatdagi rohatlar va do‘zaxdagi uqubatlarni ham jasad va ham ruh uchun bo‘ladi. Qiyomat, jannat va do‘zaxning vasfi haqida Qur‘onning ko‘p oyatlarida ma‘lumotlar berilgan.

2.Masala bayoni Kalom ilmi. Musulmonlar islom ta‘limotini Muhammad payg‘ambar (a.s.)dan o‘rganganlar. Vaqt o‘tishi bilan islom ta‘limotini faqat shu dinni yaxshi bilgan olimlar tushuntira boshladilar. Bu ta‘limotni tushuntiruvchi fan paydo bo‘ldi. Mazkur fan turli davrlarda o‘ziga xos «al-fiqh al-akbar», «tavhid», «aqida», «kalom», «usul ad-din» kabi nomlar bilan ataldi. Uning nomlari turlicha bo‘lsada, bir mavzuni, ya‘ni aqidani o‘rganishga qaratilgan.

«Al-Fiqh al-akbar» atamasini birinchi bo‘lib imom Abu Hanifa ishlatgan va shu nom bilan risola yozgan. Fiqh so‘zi biror narsani o‘ta yaxshi, har tomonlama tushunib, fahmlash ma‘nosini bildiradi. Shuningdek, namoz, ro‘za, haj, nikoh va boshqa amaliy hukmlarni o‘rganuvchi ilmga ham fiqh deyiladi. Aqidaviy masalalarni o‘rganuvchi ilmni esa, «Al-Fiqh al-akbar», ya‘ni «katta fiqh», amaliy fiqh esa, kichik fiqh hisoblanadi.

«Kalom ilmi» aqida ilmining eng mashhur nomlaridan biri hisoblanadi. «Aqida» bir narsani ikkinchisiga «mahkam bog‘lash» ma’nosini bildiradi. Islom aqidasi musulmon insonni muayyan tushunchalar bilan mustahkam bog‘lab turadigan e’tiqodlar yig‘indisi. Ya’ni, biror narsaga e’tiqod qilish uchun uni hech qanday shubha qoldirmaydigan darajada juda yaxshi bilishdir. Ma’lum bir fikr insonning fikriga aylanib, his-tuyg‘ularini yo‘llaydigan va harakatlarini boshqaradigan holga yetganda, aqidaga aylangan bo‘ladi.

Dindagi ayrim shar’iy hukmlar o‘zgarishi mumkin. Ammo sof e’tiqod o‘zgarmaydi, hukmi ham o‘chmaydi. Chunonchi Allohning yagonaligi, farishtalar, jannat va do‘zaxga imon keltirish kabi e’tiqodga oid qarashlar o‘zgarmaydi.

«Kalom» so‘zi arabcha bo‘lib, lug‘atda gap, suhbat, til, so‘zlashuv, nutq, bayon ma’nolarini anglatadi. Istilohiy ma’noda esa, musulmonning e’tiqodi, aqidasi, dunyoqarashini ko‘rsatib beruvchi ta’limotga aytiladi. Boshqacha aytganda balog‘atga yetgan musulmon kishining e’tiqod qilishi, imon keltirishi, islom dinining zarurlari shaklida tasdiq qilishi, qalbiga mahkam bog‘lab olib undan ajralishi mumkin bo‘lmagan sharoiy e’tiqodiy hukmlardir.

Islom ta’limotiga ko‘ra insonning ikki dunyodagi saodati aynan aqidasi bog‘liq. Agar musulmonning aqidasi pok bo‘lsa, yo‘li to‘g‘ri bo‘ladi, qilgan barcha amallari qabul bo‘ladi va bandalik bilan sodir etgan ba’zi gunohlari afv etiladi. Biroq kishi aqidasi sof bo‘lmasa, buzuk bo‘lsa, yo‘li noto‘g‘ri bo‘ladi, qilgan amallari behuda ketadi va oxiratda jahannam ahlidan bo‘ladi deb hisoblanadi.

Aqida masalasi o‘ta muhim bo‘lganidan eng birinchi payg‘ambardan boshlab, oxirgi Muhammad payg‘ambar (a.s.)gacha bu masalani Allohning o‘zi ko‘rsatib bergan. Shuning uchun aqidaviy qarashlarning asosi Qur’onda berilgan va hadislardagi ko‘rsatmalar negizida ishlab chiqilib, tartibga solingan.

Sahobalar tiriklik paytidayoq aqidaviy qarama-qarshilik paydo bo‘lgan. Islomda aqidaviy ixtiloflar to‘rtinchi xalifa sahoba Alining qo‘shinidagi askarlari ichidan ajrab chiqqan, aqiyda masalasida bir necha shubhali savollar chiqargan xorijiyalar toifasi bilan Ali va u kishining yaqin safdoshlari orasida bo‘lib o‘tdi.

Sahobalar davri tugab tobeinlar vaqtida vaziyat yanada o'zgardi. Chunki bu davrga kelib din ilmlarini, ayniqsa aqidani biluvchi kishilar kamaydi va ular alohida shaxs sifatida ajralib chiqdilar. Bu davrda sof aqidaviy qarashlarga qarshi turli g'oyalarni ilgari surgan firqa va toifalarning tarqalishi kengayib ketgan edi. Ular o'zlarining buzuq, islomga oid bo'lmagan fikr va qarashlarini, e'tiqodlarini tarqatib, islomning aqidasi buzishga harakat qilganlar. Shuningdek, fath etilgan yerlardagi xalqlarning eski qarashlari, falsafalari, dinlari haqidagi o'z tushuncha va tafakkurlari mavjud bo'lgan. Shuning sababidan ular islom ta'limotini tushunib olishlari qiyin kechgan. Qur'on oyatlari va hadislarini o'zlarining eski qarashlari asosida tushunishlari ham bo'lgan.

Bunga bir necha sabablar bor: fath ishlari sababli islom yerlari kengaydi. Islom dushmanlari esa, islom nomidan turli g'oyalarni tarqatishga uringanlar; fath etilgan yerlardagi aholi o'zining eski dinlari aqidasi mos tarzda oyat va hadislarini tushunishi natijasida turli g'oyalar yuzaga keldi va boshqa sabablar orqali musulmonlar orasida noto'g'ri, islomga mos bo'lmagan qarashlar paydo bo'ldi.

Islom ta'limotini buzib talqin qilish natijasida ularga raddiya sifatida olimlar kalom, ya'ni aqida ilmiga asos qo'ydilar. Bu musulmonlar uchun zarur sohaga aylandi. Har bir musulmon kishi buni bilishi shart bo'lgan majburiy ilmga aylandi. Chunonchi Saoduddin Taftazoniy «Maqosid at-tolibin» asarida: «Kalom ilmi diniy aqid usullarini ishonchli dalillar asosida anglashni o'rgatadigan ilmdir. U bilan shar'iy, nazariy, aqidaviy masalalar hal qilinadi. Uning natijasi imonga komil ishonch bilan ziynat berish, foydasi esa bu dunyoda intizomli hayot kechirish va oxiratda azob-uqubatdan xalos bo'lishdir. Shunday ekan kalom ilmi eng sharafli ilmdir».

Abu Homid G'azzoliy o'zining «Ihyo ulum ad-din» nomli asarida: «...Chuqur bilimga ega bo'lmagan oddiy musulmonlarning diniy e'tiqodlarini turli bid'at va noto'g'ri g'oyalardan qo'riqlash uchun kalom ilmini o'rganish vojibdir», degan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, aqid yoki kalom ilmining vazifasi: a) diniy e'tiqodlarni qat'iy dalillar bilan isbotlash va ular haqidagi shubha hamda gumonlarni rad qilish; b) insonni aqidada oddiy taqlidchi bo'lishdan har bir e'tiqodga hujjat keltira olish darajasiga ko'tarish; v) islomning sof e'tiqodlarini adashgan zalolat ahlining shubha va gumonlaridan himoya qilish.

3.Masala bayoni. Moturidiylik va ash'ariylik. Islom tarixini o'rganish jarayonida ko'plab olimlar kalom ilmida faoliyat olib borib o'zlarining aqidaga oid asarlar yozganlarini ko'rish mumkin. Ulardan hanafiy mazhabi olimlaridan Abu Hafs Nasafiy «Aqida an-Nasafiyya», Abul Muin Nasafiy «Tafsirat al-adilla», Abu Ja'far Tahoviy «Aqida at-Tahoviyya»larni alohida sanab o'tish o'rinli. Bulardan boshqa olimlar ham, shuningdek, molikiy, shofey, hanbaliy mazhabi ulamolari ham bu borada qalam tebratib o'zlaridan muhim asarlar qoldirganlar.

Ularning barchalari Qur'on oyatlari va hadislar asosida hamda sahobalarning uslubi asosida aqida masalalarini bayon etib berganlar. Aqida borasida faoliyat olib borgan olimlarning orasida imom Abu Mansur Moturidiy va imom Abul Hasan Ash'ariylar alohida ajralib chiqqanlar. Bu olimlar Ahli sunna val jamoa aqidasi bo'yicha imom deb tan olindilar.

«Ahli sunna val jamoa» to'rt fiqhiy mazhabdan biriga amal qilib kelayotgan bo'lsalar, aqidaviy masalada ikkiga – moturidiylik va ash'ariylikka e'tiqod qiladilar. Bunda hanafiy mazhabi moturidiylik, molikiy, shofey va hanbaliy mazhabi ash'ariylik ta'limotida deb hisoblanadi.

Moturidiylik aqidaviy maktab asoschisi buyuk kalom imomi va faqih Abu Mansur Moturidiydir (853-944). Uning hayoti haqida ma'lumotlar kam. Asli Samarqandning Moturid qishlog'idan (hozirgi Jonboy tumnida joylashgan) bo'lib, uning taxallusi shu qishloqqa nisbatan olingan. Abu Mansur Moturidiy dastlabki ta'limni shu qishloqda olib, keyinchalik Movarounnahrning o'sha davrdagi diniy va ma'rifiy markazi bo'lgan Samarqandda davom ettiradi.

Moturidiy fiqh va kalom masalalari bilan qiziqib, zamonasining ko'zga ko'ringan hanafiy mazhabi olimlaridan dars olib o'z bilimini oshiradi. Shu vaqt davomida ko'plab mashhur faqihlar va muhaddislar bilan muloqatda bo'lgan va

munozaralar qilib, shu sohaga oid asarlar yozib qoldirgan. Ulardan quyidagi «Kitabut Tavhid», «Kitabul maqomat», «Kitab rad avoilil adila lil Kaobiy», «Kitabul usul», «ar-Rad ala usulil Qaromita», «Kitab ta'vilot ahli sunna» va boshqalarni keltirish mumkin.

Abu Mansur Moturidiyning ko'p asarlari bizgacha yetib kelmagan, yetib kelganlari ham asosan xorijiy mamlakatlar kutubxona va qo'lyozma fondlarida saqlanadi.

Moturidiy islom olamida juda nozik hisoblangan «Kitabut tavhid» asari bizning davrimizga yetib kelgan. Olimning yana bir asari «Kitab ta'vilot ahli sunna» yoki boshqa bir nomi «Ta'vilot al-Qur'on» deb nomlanadi. Moturidiy bu asarida sunniy aqidaga zid qarashlarni rad qilishga harakat qiladi va Abu Hanifaning qarashlariga suyangan holda ish ko'radi. Moturidiyning bu birgina asari tarix jarayonida ko'p allomalar asarlariga asos solgan, ular ijodiga turtki bo'lgan.

Moturidiy ko'p shogirdlar yetishtirdi, ular o'z ustozlarining ta'limotini davom ettirishganligi tufayli hanafiy mazhabida kalom ilmi bo'yicha moturidiya maktabi vujudga kelgan.

Moturidiy «Imom al-huda» (hidoyat yo'li imomi) va «Imom al-mutakallimin» (mutakallimlar imomi) kabi nomlar bilan ham mashhur bo'lgan.

Ash'ariy ta'limotining asoschisi Abul Hasan Ash'ariy (873-941) bo'lib, u boshlang'ich saboqlarni o'z otasidan olgan, keyinchalik o'z zamonasining taniqli olimlaridan Abu Ishoq Marvaziy va Ibn Surayjdan fiqh ilmini, Zakariyo ibn Yahyo Sojjiydan hadis ilmini o'rganadi.

Abul Hasan Ash'ariy taxminan 40 yoshlaridan keyin Bog'dodga ko'chib keladi va umrining oxirigacha ushbu shaharda qoladi.

Olim yuzga yaqin asarlar yozgan bo'lib, ulardan baazilari quyidagilardir: «al-Fusul fiy ar-radd oala al-mulhidin», «ar-Rad ala al-mujassama», «Iyzohul burhon fiy ar-rad ala ahluz zayg' vat tug'yon», «an-Naqs alal Juboiy», «Maqolotul mulhidin», «Tafsiru Abul Hasan», «Imomatu Abu Bakr Siddiq».

Abul Hasan Ash'ariy ahli sunnat va jamoaning ash'ariya e'tiqodiy ta'limotini yaratayotgan vaqtda Samarqandda Abu Mansur Moturidiy ham moturidiya ta'limotiga asos solayotgan edi. Bu ikki imom bir vaqtda yashagan bo'lsalar ham bir-birlari bilan uchrashmagan, shunday bo'lsada, ularning aqidaviy qarashlari deyarli bir xil. Ayrim juz'iy masalalarda lafziy ixtiloflar bo'lsada, ularning asl maqsadi bir hisoblanadi. Boshqacha aytganda ikki ta'limot orasidagi ba'zi ixtiloflar lafziy bo'lib, mohiyatan bir-birini qo'llab-quvvatlab keladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda ular o'zaro bir-birini adashganlikda yoki bid'atchilikda ayblamaydi. Ular o'zaro bir-birlarini «ahli sunna val jamoa» deb e'tirof etadilar.

Ash'ariy va moturidiylik orasidagi asosiy farq imon masalasidadir. Moturidiy ta'limotiga ko'ra imon til bilan iqror qilib, dil bilan tasdiqlashga aytiladi. Amal imonning tarkibiga kiritilmaydi. Ash'ariylikda esa, imonga amalni ham qo'shadilar. Shu sababdan moturidiylik tarqalgan hududlarda imon keltirgan kishi musulmon hisoblanadi, ammo amal qilmagani uchun gunohkor bo'ladi, deb yuritiladi.

Mazkur ikki olimning ta'limotlari islom olamida keng tarqaldi va asrlar davomida musulmonlarni sof e'tiqodda bardavom bo'lishiga, oyat va hadislarining ma'nolarini to'g'ri anglab, hayotga tatbiq etib kelishlariga, turli e'tiqodi noto'g'ri oqimlar ta'siriga tushib qolmaslikka sababchi bo'ldi.

4. Tasavvuf ta'limoti va fiqh ilm.

Tasavvuf, sufiy yoki mutasavvif so'zlarining kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar mavjud. Bu so'zning «suf» (jun chopon) so'zidan kelib chiqqanligi haqidagi o'rta asr musulmon olimlari ta'kidlagan fikr umumqabul qilingan fikr hisoblanadi. Chunki sufiylarning asosiy belgilari ularning dag'al jundan kiyim kiyishlari edi.

Tasavvufga asos bo'lgan tarkidunyochilik kayfiyati deyarli islom bilan bir davrda yuzaga keldi. Sufiylikning ilk namoyandalari deb Payg'ambarning Abu-d-Dardo, Abu Zarr, Huzayfa (vafotlari VII asrning ikkinchi yarmi) kabi sahobalari hisoblanadi. Ammo islomdagi mistik-asketik oqimning shakllanishi VIII asrning o'rtalari – IX asrning boshlariga tegishli. Bu davrda sufiylar qatoriga muhaddislar,

qorilar, Vizantiya bilan chegara urushlarida qatnashgan jangchilar, kosiblar, tijoratchilar, jumladan, islomni qabul qilgan xristianlar kirganlar. Bu davrda *sufiy* yoki *at-tasavvuf* terminlari hali keng tarqalmagan edi: uning o'rniga *zuhd* (tarkidunyochilik) yoki *zohid*, *obid* so'zlari ishlatilar edi. Islomdagi bu mistik-asketik oqimning paydo bo'lishi va taraqqiy etishiga musulmon jamiyatidagi ilk ikki asr davomidagi siyosiy-ijtimoiy beqarorlik, diniy hayotning murakkabligi, uning natijasida kelib chiqqan ma'naviy-g'oyaviy izlanishlar va boshqa dinlarning, xususan, xristianlikning ta'sirini ko'rsatish mumkin.

Ilk davr sufiylari, aniqrog'i, *zohid* va *obid*lariga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat edi: Qur'oni karim oyatlari ustida chuqur fikr yuritish, Qur'on va Payg'ambar sunnatlariga qat'iy amal qilish, kechalarini nafl ibodatlar bilan bedor o'tkazish, kunduzlari ro'za tutish, hayot lazzatlaridan voz kechish, gunohdan saqlanish, hokim va harbiylardan o'zini yiroq tutish, halol va harom orasini juda uzoq tutish (*vara'*), o'zini Alloh ixtiyoriga topshirish (*tavakkul*) va h.k.

Sufiylik ta'limoti *mu'taziliylar*dagi mavhum ilohiyotga oid fikrlar, obro'li shaxslarga ko'r-ko'rona taqlid qilish, muqaddas matnlarga so'zma-so'z itoat etishdan farqli o'laroq, insonga asosiy ob'ekt sifatida qaraydi: inson amallarini boshqaradigan ruhiyatning mayda qirralarini ham chuqur tahlil qilish, shaxsiy kechinmalarga e'tibor bilan qarash va diniy haqiqatlarni chuqur his qilish ularga xos xususiyatlardan edi. Shu bois ham ziyrak ruhshunos, *ilm al-qulub va-l-xavotir* (*qalblar va fikrlar ilmi*)ga asos solgan al-Hasan al-Basriy (vaf. 728 y.) sufiylikning asoschilaridan hisoblanadi.

Al-Hasan al-Basriyning as'hoblari, basralik zohidlar – Raboh ibn Amr, Rabi'a al-Adaviya (vaf. 752-53 y.), Molik ibn Dinor (131/748-49), Shaqiq al-Balxiy (vaf. 770 y.) va Fuzayl ibn Iyod (vaf. 778 y.), Sulaymon ad-Doroniylarning (VIII-IX asrlar) va'z va ma'ruzalarida Allohga bo'lgan sof muhabbat, unga yaqinlashishga bo'lgan intilish haqidagi fikrlar paydo bo'ldi. O'sha davrdan boshlab ular sufiylikka aniq mistik xarakter bag'ishladilar va bu ta'limotlar sufiylik mafkurasining o'ziga xos xususiyatiga aylandi.

IX asr davomida tasavvuf nazariyoti va amaliyotini ishlab chiqish uchun qizg'in harakatlar davom etdi. Basra bilan bir qatorda Bag'dod va Xuroson sufiylik maktablari ham eng nufuzli maktablar sirasiga kirdi. Ularning namoyandalari avvalgidek sufiyning ichki dunyosiga asosiy e'tiborni qaratar edilar. Ularning *ahvol*, *maqom*lariga batafsil tavsiflar berdilar. Boshqa mistik ta'limotlar kabi sufiylikka «dunyo gunohkorligidan» poklanib, ilohiyotga yaqinlashishga olib boradigan yo'l (*tariq*) sifatida qaradilar. O'z-o'zini nazorat (*muroqaba*, *muhosaba*) qilishga erishish uchun ibodatning «ixlos» va «sadoqat» bilan bo'lishiga asosiy urg'u beriladi.

Tasavvufda Allohga yetishish (*vasl*) unga qo'shilib ketish (*baqo*) bilan bo'lishi mumkin, degan fikr ilgari surildi. Bu masala keng omma orasida tushunarli bo'lmaganligi va mazkur g'oya tarafdorlari al-Husayn ibn Mansur al-Halloj (qatli 922 y.), Ibn Ato, Ayn al-Qudot al-Hamadoniylar kabilarning qatl etilishi boshqa sufiylarni hushyorlikka chaqirdi.

Tasavvufning manbalardagi talqini quyidagi yo'sinda: bunga ko'ra, ba'zi musulmonlar kalom va mantiq ilmlaridagi turli ko'rinishdagi tortishuvlardan, quruq bahslardan o'z qalblarini saqlab, Alloh taoloning muhabbati yo'lida *zuhd* va *taqvoni* o'zlariga kasb qilib oldilar. Ularga «sufiy» deb nom berildi. Islom dinida birinchi sufiy nomini olganlardan Abu Hoshim ash-Shomiy (vaf. 776-77 y.), tasavvuf usuliga birinchi marta sharh bergan kishi Imom Molikning shogirdi Zunnun al-Misriy (vaf. 869-70 y.), minbardan turib birinchi marotaba tasavvufga chaqirgan kishi Abu Bakr ash-Shibliy (vaf. 945-46 y.), tasavvuf usulini kengaytirib tartibga solgan kishi Junayd al-Bag'dodiy (vaf. 1007-08 y.) edilar. Ayollardan birinchi sufiy bo'lgan kishi Robi'a al-Adaviyadir (vaf. 752-53 y.). Umuman olganda, tasavvufning rivojlanish yo'li islom tarixining ajralmas bir bo'lagidir.

Movarounnahrda sufiylik Xuroson orqali kirib keldi. Keyingi davr sufiylarining talqiniga ko'ra, Movarounnahrda sufiylik oqimi aqoid olimi shayx Abu Ya'qub Yusuf al-Hamadoniylar (vaf. 1140-41 y.) shaxsidan boshlanadi. Unga ko'ra Yusuf al-Hamadoniylar maktabi ikki tarmoqqa ajratiladi:

Naqshbandiya tariqati. Uning ikkinchi nomi Xo‘jagon yo‘nalishi bo‘lib, u shahar va shahar atroflarida rivojlangan va xalq orasida keng tarqalgan. Bu oqimga Xo‘ja Yusuf al-Hamadoniyning mashhur shogirdi Xo‘ja Abdulxoliq al-G‘ijduvoniyy (vaf. 1179 yoki 1220 y.) murshidlik qilgan. Keyinchalik bu oqimga Xo‘ja Bahouddin Naqshband (1318-1389) murshidlik qilgan va shu davrdan e‘tiboran Naqshbandiya tariqati butun islom olamiga tarqala boshlagan.

Osiyo zaminida eng keng tarqalgan tasavvuf tariqatlaridan biri – Naqshbandiyadir. Uning haqiqiy asoschisi Bahouddin Naqshband bo‘lib, u Buxoro yaqinidagi Qasri Orifon qishlog‘ida dunyoga keldi. Bahouddin Naqshbandni yoshligida *Xojagon* tariqati shayxlaridan Muhammad Bobo-yi Samosiy ma‘naviy farzandlikka qabul qildi. Bir muddatdan keyin Samosiy uning tarbiyasini Amir Kulolga topshirdi. Shu bilan birga Bahouddin Naqshbandning haqiqiy shayxi – *uvaysiya* yo‘lida tarbiyalagan Abdulxoliq G‘ijduvoniyy hisoblanadi. Ma‘lum muddat Samarqandda yashab, u yerdagi shayxlarning *suhbat* va *tavajjuh*lariga musharraf bo‘ldi. Amir Kuloldan xalifalikni olgach, Qosim shayx, Xalil ota va Mavlono Orif kabi Yassaviya shayxlarining huzurida ko‘p yillar qolib, ulardan ilmu fayz olishga muyassar bo‘ldi. Ikki marotaba hajga borib kelgan Bahouddin Naqshband hayotining oxirgi yillarini Buxoroda o‘tkazdi. Islom olamida juda katta obro‘-e‘tiborga ega bo‘lgan Naqshbandning hayoti *manoqib*larga to‘la bo‘lib, bugungacha uning hayoti va tariqatini ifodalovchi juda ko‘plab asarlar bitilgan. Shulardan, Faxruddin Ali ibn Husayn Vo‘iz Koshifiyning «Rashahot ayn al-hayot» risolasi Naqshbandiya tariqati shayxlari haqida keng ma‘lumot beradi. Naqshbandiyaning silsilasi ikki boshqa-boshqa shahobchalar orqali hazrat Ali va hazrat Abu Bakrga borib yetadi. Mashoyix silsilasiga qaraganda, bu tariqat boshqa ba‘zi tariqatlar bilan aloqador ekanligi va shunga ko‘ra o‘sha davrda farqli nomlar bilan atalgani ma‘lum bo‘ladi. Chunonchi, hazrati Abu Bakrdan Boyazid Bistomiya qadar Siddiqiya, Bistomiydan Abdulxoliq al-G‘ijduvoniya qadar *tayfuriya*, G‘ijduvoniyaning Bahouddin Naqshbandga qadar *xo‘jagoniya*, Naqshbanddan Xo‘ja Ubaydulloh Ahrorga qadar *Naqshbandiya*, Xo‘ja Ubaydulloh Ahrordan Ahmad as-Sirhindiya qadar *Naqshbandiya-ahroriya*, «Mujaddidi alfi

soni» nomi bilan mashhur Ahmad as-Sirhindiydan Shamsiddin Mazharga qadar *Naqshbandiya-mujaddidiya*, Shamsiddin Mazhardan Mavlono Xolidiy Bag‘dodiyga qadar *Naqshbandiya-mazhariya*, Xolidiy Bag‘dodiydan keyin esa *Naqshbandiya-xolidiya* deya tilga olingan.

Naqshbandiya ahli sunna e’tiqodiga amal qiluvchi tariqat bo‘lib, *xafiy zikrga* asoslangan. Zohiran ko‘zga tashlanadigan xatti-harakatlardan yiroq suhbat va robitaga kuchli e’tibor beradi. Ko‘pchilik bilan qilinadigan naqshbandiy zikrga «Xatmi xo‘jagon» deyiladi. Bu zikrda tariqatga kirmaganlar qatnashishlari taqiqlanadi. Naqshbandiyada tariqatga kirgan darvish ushbu shartlarga amal qilishi shart: doimo tavbada bo‘lish, sunnatga qat’iy amal qilish, bid’atlardan qochish, hayotiy qulayliklardan voz kechib, taqvoni kuchaytirish, zulm va nohaqlik qilmaslik, qarzdor bo‘lmaslik, birovni norozi qilmaslik, qazo namozlarini ado etish, Allohni har lahzada zikr qilish.

Naqshbandiya tariqati quyidagi to‘rt tamoyil asosiga qurilgan:

- 1) shariat bilan *zohirni* poklash;
- 2) tariqat bilan *botinni* poklash;
- 3) haqiqat bilan *qurbi ilohiyga* erishmoq;
- 4) *ma’rifat* bilan Allohga erishmoq.

Bundan tashqari yana o‘n bir asos-tamoyil ham bor, Naqshbandiya tariqatiga kirgan har bir darvish unga rioya qilishi talab qilinadi. Abdulxoliq al-G‘ijduvoni ishlab chiqqan bu tamoyillarning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. *Hush dar dam* (har nafasda hushyor bo‘lish) – g‘aflatga tushmaslik, har lahza Allohni eslash, har nafas olish-chiqarish chog‘ida Allohni zikr qilish, agar g‘aflatga tushsa, istig‘for aytish.

2. *Nazar bar qadam* (qadamga nazar solish) – solik qaerda bo‘lishidan qat’i nazar, yurayotganida oyoq uchiga qarab yurishi lozim, toki qalb ko‘zi va nazari bo‘lmag‘ur manzaralarga qarashdan xalos bo‘lsin. Shunda ma’naviy safarda ro‘para keladigan tahlikalar tezda oshib o‘tiladi. U tamoyil kamtar bo‘lish va mavjud holatga shukur qilishni o‘zida mujassam etadi.

3. *Safar dar vatan* (vatanda, o'z yerida turib safar qilish) – solikning yomon axloqdan yaxshi xulqqa, bashariy sifatlardan ilohiy sifatlarga yo'nalishi. Darvish bir murshidi komil topgunga qadar jismonan sayohat qilishini bildiradi. Naqshbandiylar fikricha, sayru suluk chog'ida solikni umidsizlikka tushirib, qiyinchilik keltirib chiqargani uchun murid murshidi komil topgach sayohat qilmasligi maqsadga muvofiqdir. Bu tamoyil sayru suluk martabalarini bosib o'tishni o'zida mujassam etadi.

4. *Xilvat dar anjuman* (jamoat ichida turib yakkalanish) – zohirda xalq bilan, botinan Haq bilan birga bo'lish. Solik moddiy borlig'i bilan xalqqa aralashib, turli bashariy va ijtimoiy faoliyatlarda qatnashib, hayot talab qilayotgan amallarni ijro etayotib, qalban doimo Allohning huzurida ekanini bir lahza bo'lsa-da, esdan chiqarmasligidir. Bu hol doimiy zikr ma'nosini ham bildirib, zikrda erishiladigan eng oxirgi bosqich – maqomdir. Bahouddin Naqshband Naqshbandiyaning tamalini «xilvat dar anjuman» tashkil etishini ta'kidlagan. «Xilvatda shuhrat bor, shuhratda esa ofat bor» deya Naqshbandiyada xilvatga ko'p rag'bat ko'rsatilmaydi. Shu bois bu tariqatda suhbat va xalq bilan aralashib, ularning dardlariga sherik bo'lib, Haq roziligi yo'lida xalqqa xizmat qilish muhim o'rin tutadi. Naqshbandiyada Qur'ondagi «Shunday kishilar bordirlarki, ularni na tijorat va na oldi-sotdi Allohni zikr qilishdan, namozni to'kis ado etishdan va zakotni (haqdorlarga) ato etishdan mashg'ul qila olmas» (Nur; 24-37) oyati ushbu holga ishora qiladi deb ta'kidlanadi.

5. *Yodkard* (eslash, zikr etish) – Allohni yod etib, boshqa narsalardan ko'ngilni uzish. Naqshbandiyada bu zikrning usuli quyidagichadir: murid o'zini *huzur* ichra shayxining ko'ngli ro'parasida tasavvur qilib, ko'zi – og'zini yopadi, tilini tanglayiga yopishtirib, tishlarini bir-biriga jipslab, nafas olmay, xokisorlik bilan qalban «kalimai tavhid»ni zikr qiladi. Bir nafas olib chiqarishda uch daf'a zikr etishga urinadi va hokazo.

Yassaviya tariqati. Shayx Ahmad Yassaviy (vaf. 1166-67 y.) va uning shogirdlari nomi bilan bog'liqdir. Ahmad Yassaviy sufiylik tariqatining targ'ibotchisi bo'lish bilan birga shoir ham edi. Yassaviy g'oyalari bir necha

marotaba turli tahrirda nashr etilgan «Devoni hikmat»da jamlangan. Ammo tadqiqotchilar orasida uning Yassaviyga taalluqliligi ilmiy muammo sifatida bahs etilayapti. Uning fikricha, dunyoning noz-ne'matlarini so'ragan kishi sufiy emas, balki *zuhd* va *taqvoni* ixtiyor etib, umrini toat-ibodatda hamda yig'i bilan o'tkazgan kishi asl sufiydir. Uning «hikmatlar»i xalq orasida keng tarqalgan.

By tariqat asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy bugungi Qozog'istonning janubidagi Chimkent viloyati Sayram qishlog'ida dunyoga kelgan. Ba'zi manbalarga qaraganda, u Yasida (hozirgi Turkiston) tavallud topgan. Rivoyatlarga ko'ra, bu yerda u Arslon-bob ismli mashhur shayxning xayrli duosiga erishgan. Oddiy xalq ommasi anglaydigan uslubda sufiyona hikmatlari, she'rlari bilan atrofdagi odamlarni xaq yo'lga chaqiradi, ularning ma'naviyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ahmad Yassaviy hayotligidayoq uzoq o'lkalarga muridlarini jo'natib, o'z tariqatini keng tarqatishga harakat qildi. Yassaviy *riyozat*, *chilla*, *zikr* va *mujohadaga* kuchli ahamiyat berib, hayotining aksari qismini *chillaxonada* o'tkazdi. Uning hayoti va karomatlarini haqida ko'plab manonqiblar saqlanib qolgan.

Yassaviy tariqatida *jahriy zikr* ijro etiladi. Zikr chog'ida darvishning tomog'idan arraning tovushi kabi ovoz chiqqani uchun Yassaviyga zikriga «*zikri arra*», «*zikri minshoriy*» deyiladi. Bu zikr quyidagicha ijro etiladi: darvish ikki qo'lini tizzasi ustiga qo'yib, nafasini qorniga chiqarib «*ha*» deb, yana qorni tomonidan nafas olib bosh, bel, yelka qimirlamagan holda «*hayy*» deydi va zikr shu tarzda davom etadi. Zikrning 12 zarb turi ma'lumdir. Yassaviylikda *xilvatga* ham katta ahamiyat beriladi.

Bu tariqatda muhim o'rin tutgan asoslar quyidagilardan iborat: Allohni tanish (*ma'rifatulloh*), mutlaq jo'mardlik, rostgo'ylik, o'zini Allohga topshirish (*tavakkul*) va teran tafakkur.

Yassaviy tariqati, asosan, sunniy e'tiqodiga amal qilish bilan birga Xuroson *malomatiya* maktabidan biroz ta'sirlangani sababli, terma madaniyat asosiga ega. Uning xususiyatlari keyinchalik yuzaga kelgan ko'plab tariqatlarda aks etgan. Hatto *Naqshbandiyani* Yassaviyaning bir shahobchasi deb biluvchilar ham bor.

Ahmad Yassaviyning eng mashhur xalifalaridan Sulaymon Hakim ota Boqirg‘oniy (vaf. 1186 y.), Sufiy Muhammad Donishmand az-Zarnuqiy va boshqalar ma‘lum.

Kubraviya tariqati. Bu tariqatning asoschisi – shayx Najmiddin Kubro al-Xivaqiy (vaf. 1221 y.) bo‘lib, tasavvuf tarixidagi eng yorqin siymolardan biridir. Xivada tug‘ilgan. Yoshligida diniy ilmlarni egallagan. Ayniqsa, hadis ilmida tengi yo‘q edi. Turli o‘lkalarni kezgan. Misrda shayx Ruzbihon al-Misriy bilan tanishib, unga murid bo‘lgan. Qattiq riyozatlar natijasida murshidining tavajjuhiga erishib, uning qiziga uylangan. Bundan keyin u Ammor Yosirga murid bo‘lgan, uning tavsiyasi bilan esa Ismoil Kasriy dargohiga kirgan va u yerdan «*xirqai tabarruk*» kiygan. Yana Misrga – shayxining yoniga qaytgan Kubro shayxi tomonidan o‘z vatani Xorazmga *irshod* vazifasi bilan jo‘natiladi. Kubro Xorazmga ko‘chib borib, kubraviya-zahabiya tariqatiga asos solgan. Qisqa vaqt ichida atrofda gilarining muhabbatini qozondi, shogirdlar tarbiyalab, voyaga yetkazdi. Chunonchi, Fariddin Attorning ustozi – shayx Najmuddin al-Bag‘dodiy bilan «Mirsod al-ibod» asari muallifi mashhur Najmuddin Doya Kubro shogirdlari jumlasidandir. Najmiddin Kubro mo‘g‘ullar bilan bo‘lgan jangda halok bo‘lgan.

Yozgan asarlari orasida eng mashhuri «Usuli ashara» risolasi bo‘lib, bu asar barcha tariqatlarga o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. Ismoil Xaqqiy Bursaviy tomonidan sharh etilgan. «Favoihul jamol» asari esa tasavvuf ruhshunosligi mavzusidadir. Kubroning asarlari Eron, Kichik Osiyo va Hindistondagi tariqat muhitlariga kuchli ta‘sir qilgan. Chunonchi, bu tariqat naqshbandiya va mavlaviya tariqatlariga ham ta‘sir ko‘rsatgan.

Kubraviya ko‘proq O‘rta Osiyo, Rossiya va Eron mamlakatlarida keng tarqalgan. Kubraviyaning o‘ziga xos jihatlari chordona qurib, jahriy zikr qilish. Uning tariqat silsilasi Ali ibn Abi Tolibga borib ulanadi. Tariqat asoslari «Usuli ashara» asarida tavsif etilgan. Kubraviyaning mashhur shahobchalari quyidagilar: baho‘iya xilvatiya, firdavsiya, nuriya, rukniya, hamadoniya, nurbaxshiya, barzanjiya.

Islom huquqshunosligining shakllanishi va shariatning mohiyati. Payg‘ambarimiz Muhammad (sav) vafotlaridan bor necha kun oldin o‘z

as'hoblariga vasiyat qilib: «Ey odamlar! Men sizlarga shunday narsalarni qoldirmoqdanmanki, agar ularni mahkam ushlab amal qilsangizlar, hech qachon adashmaysiz. Bu narsa – Allohning kitobi va rasulullohning sunnatidir», - deb aytgan edi.

Bundan ko'rinadiki Islom huquqi-fiqhning ya'ni shariatning asosiy qonun va yo'l-yo'riqlari Qur'oni karim va payg'ambarimiz sunnatlarida bayon etilgan. Chunonchi Payg'ambar Muhammad (sav) rahnamoligida birinchi Islom davlati tashkil topganda Shariat normalari o'sha davlatning asosiy qonunlari bo'lgan va jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan.

Payg'ambar vafotlaridan so'ng ulug' imomlar bu asosiy qonunlardan barcha musulmonlarning foydalanishi oson bo'lishi uchun Qur'on va sunnatning hukm va ko'rsatmalariga asoslanib islomning hamma uchun tushunarli shariat qonun-qoidalarini ishlab chiqqanlar. Qur'on va sunnatning hukmlaridan olingan qonun va qoidalar «fiqh» dir. «Fiqh» so'zining lug'aviy ma'nosi «chuqur tushunish», «bilish» demakdir. Imom Hanifa fiqh – «kishining o'z huquq va majburiyatlarini bilishdir», - deb ta'rif bergan.

Shariatda «fiqh», «Alloh taolo o'z payg'ambari Muhammad orqali nozil qilgan shariatni teran fahmlamoq» ma'nosini bildiradi. «Fiqh» ning shariat bo'yicha boshqa ta'rifida: «Fiqh» - shar'iy dalillardan far'iy hukmlar chiqarishdir deyiladi. Bu ta'rifdagi «shar'iy dalil» Qur'on va xadislarning ayrim qoidalariga asoslangan va ijmo'da tasdiqlangan odamlar xulq atvorini tartibga soladigan «amaliy» me'yorlar majmuini bildiradi. «Far'iy hukm» esa umumiy hukmdan kelib chiqadigan mujtahidlarning xususiy fikrlaridir³³.

Shariat arabcha so'z bo'lib ma'nosi «to'g'ri yo'l», «ilohiy yo'l», «qonunchilik» demakdir. Shariat – Alloh joriy qilgan va barcha mo'minlar amal qilishi shart bo'lgan amaliy hukmlar majmuasidir. Shariat (fiqh) manbalari to'rttadir. Har bir faqih olim biror narsa to'g'risida hukm chiqarishda ana shu manbalarga tayanmog'i shart hisoblanadi. **Birinchisi** – Qur'oni karim. Faqih islomda biror narsaning hukmi qanday ekanligini bilmoqchi bo'lsa, avvalo Qur'onga murojaat qiladi. Unda faqih bilmoqchi bo'lgan narsa haqida nima hukm bo'lsa, hech ikkilanmasdan uni qabul qiladi. **Ikkinchisi** – Payg'ambarimizning sunnatlari bo'lib, hal etmoqchi, hukmi aniqlanmoqchi bo'lgan narsa haqidagi hadislar nihoyatda ehtiyotkorlik bilan tanlab olinishi zarur hisoblanadi. **Uchinchisi** – ijmo' sanalib, Qur'on va hadislarda aniq ko'rsatma berilmagan, hukmi bo'lmagan xuquqiy masalalarni hal etishda diniy manbalardan mustaqil hukm chiqarish darajasiga yetgan ulamolarning – mujtahidlarning to'planishib o'sha huquqiy masalada Qur'on va sunnatga asoslangan holda yagona fikrga kelib azmu qaror

³³ Qarang. Zuxriddin Husnitdinov. Islom: yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar. «UzME» davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent – 2000. 10-bet.

qilishlari, hukm chiqarishlari ya'ni fatvo berishlaridir. Bu borada payg'ambarimizning quyidagi hadislarini asos bo'ladi: «Hazrati Ali Rasulullohdan «Qur'oni karim va hadisi sharifda hukmi bo'lmagan biron ish sodir bo'lsa nima qilamiz?» – deb so'raganlarida Rasululloh aytdilar: «Mo'minlardan bo'lgan olimlarni to'palab, o'zaro maslahat qilinglar, bunday ishda bir kishining fikri bilan hukm chiqarmanglar»³⁴.

To'rtinchisi – Qiyos. Qiyos arabcha so'z bo'lib ma'nosi taqqoslash demakdir. Qiyos – Qur'on va hadisda biror xuquqiy masalaga aniq javob topilmaganda, hukmi bo'lmasa Qur'on va hadisda shu masalaga o'xshash bo'lgan ko'rsatma, yo'l-yo'riqqa qiyoslash yo'li bilan hukm chiqarilishi, izohlanishi. Masalan, aroqning shayton ishi ekanligi, urush – janjal, adovat chiqarishga sababchi bo'lganligi uchun Qur'oni karimda man etilgan, harom qilingan oyat bor. Aroqdan boshqa mast qiluvchi ichimliklar haqida hech narsa aytilmagan. Lekin mujtahid ulamolar mast qiluvchi ichimliklarning hammasida ham aroq kabi salbiy natijalar bo'lishini hisobga olib, unga (aroqqa) qiyos qilganlar va boshqa mast qiluvchi, kayf beruvchi narsalarni ham harom deb hukm chiqarganlar.

Fiqh – Qur'on va sunnaga asoslanadi. Shariat esa Qur'on, sunna bilan birga ijmo' va qiyosga ham asoslanadi. Ana shu tarzda Islomda fiqhiy xulosalar ishlab chiqarish uslublari shakllana va takomillasha bordi. Ijmo' va qiyos qilish asosida 10-asrlarga kelib kishilar hayot tarzini tartibga solib turuvchi islom xuquqshunosligi – fiqh ilmi mustaqil va sifatida uzil-kesil tarkib topdi. Fiqh (xuquq) shunoslik fani mo'min musulmonlar hayot tarzini tartibga solib turuvchi me'yorlarni ikkiga bo'ladi.

1. Musulmonlarning Alloh bilan munosabatini belgilovchi ibodat me'yorlari; 2. Odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabat, shuningdek musulmon hokimiyati (davlat)ning o'z fuqarolari, boshqa dinlar va davlatlar bilan munosabatini belgilovchi me'yorlar. Faqih ulamolari asosiy kuch g'ayratlarini me'yorlarning ikkinchi toifasini ishlab chiqishga qaratganlar.

Sunniylikda fiqhiy masalalarda hanafiylik, molikiylik, shofi'iylik, hanbaliylik mazhablari mavjud.

Islom xuquqshunosligi – shariatning mohiyati. Shariat musulmonchilikda qonunchilik ma'nosida ishlatiladi. Shariat avvalo Alloh joriy qilgan amaliy hukmlar majmuasini o'z ichiga oladi, ana shu ma'noda Shariat fiqh ma'nosida tushuniladi. Kundalik hayotimizda shariat deganda mo'min musulmonlarning hatti-harakatlarini tartibga solib turuvchi amaliy me'yorlar majmuasini tushunamiz. Shariat hukmlari Qur'on, sunnat, ijmo' va qiyosdan olinadi. Shariat XI-XII asrlarda tugal shakllanib bo'lgan.

³⁴ Qarang. O'sha kitob. 11-bet.

Shariatning maqsadlari dinni, jonni, aqlni, naslni, molni va boshqalarni asrash va muhofaza qilishga qaratilgan. Shariat hukmlari zaruriy, hojatlik va yaxshilash qismlarga bo'linadi. Din va dunyo uchun zarur bo'lgan maqsadlar zaruriy maqsadlar deyilib, ular yo'q bo'lsa, ularga amal qilinmasa dunyoning ishlari buziladi va oxiratda azobga qolinadi. Shariatning hojatlik hukmlari, kishilarga osonlik tug'dirishga qaratilgan. Bunga musofir va bemorlarga diniy ibodatlarni bajarishda yengillik berish, chunonchi namozni qasr qilib o'qish, ro'zani o'z vaqtida tutmaslik yoki ochib yuborishga berilgan ruhsatlar va boshqa shar'iy hukmlar kiradi. Shariatning yaxshilash hukmlari jamiyatda kishilarning bir-biriga mehr-muruvvat ko'rsatishi, yaxshi odat va odobli bo'lishi, ozodalik, pokizalik, yeb-ichish odoblari va boshqalar haqidagi shar'iy hukmlar kiradi.

Shunday qilib shariatda davlat xuquqi me'yorlari, majburiyat, meros, jinoyat, jazo, oila-nikoh xuquqlari, sud yuritish, vasiylik ko'rsatmalari, tahorat, namoz, dafn, zakot, ro'za, haj, kiyinish, ovqatlanish kabi inson hayoti va xatti-harakatining barcha qirralari shar'iy hukmlar orqali belgilab qo'yilgan va mo'minlardan ularga og'ishmay amal qilishlari talab etiladi.

Xozirda musulmon dunyosida to'rtta fiqhiy mazhab mavjud. Bular Xanafiy, Molikiy, Shof'iy va Xanbaliy fiqhlaridir. Mazkur mazhab fiqhlari islomning asoslarini, mohiyatini tushunishda birdir. Ba'zi ikkinchi darajali masalalarni tushunishda ular o'rtasida har xillik mavjud. Masalan, Imom A'zam – ya'ni Xanafiylik mazhabida musulmon kishi hoh katta, hoh kichik gunoh ish qilib qo'ysa gunohkor bo'ladi, lekin kofir bo'lib qolmaydi deyiladi.

Ammo, boshqa mazhablarning ulamolari, buning aksi o'laroq musulmon odam gunoh ish qilib qo'ysa, imondan chiqib, kofir bo'ladi, deydilar.

Ayolning jamiyatdagi o'rni va turmushga chiqishi masalalarini hal etishda ham shunday har xillikni ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, Molikiylikda ayol faqat uning xomiy yoki vasiysi roziligi va ishtirokida turmush qurishi mumkin deb qaraydi. Hanafiy mazhabiga ko'ra esa xomiy faqat voyaga yetmagan bokira qiz uchun zarur. Voyaga yetgach esa, u o'z xohishiga qarshi turmushga chiqishni rad etishi mumkin bo'lgan. Shuningdek, molikiylik mazhabida ota yoki otaning otasi (buvasi) ga o'z bokira qizi yoki nevarasini, uning rozilgisiz, ayrim hollarda esa uning xohishiga qarshi ravishda ham erga berish huquqi berilgan. Xanafiy mazhabi esa bunday holatga yo'l bermagan va boshqalar.

Shariatda namoz o'qish, ro'za tutish, zakot, haj va boshqalar haqida batafsil ko'rsatmalar berilgan. Unda mo'minlarning barcha hatti-harakatlari ikki turga – halol va haromga ajratilgan. Bular farz – bajarilishi majburiy hisoblangan hatti-harakatlardir; yana sunnat – mandub – bajarilishi majburiy emas, lekin ma'qul, lozim hisoblangan amallar; muboh – ixtiyoriy amal va me'yorlar; makruh –

noma'lum amal va me'yorlar; harom – shariatda hech qanday shak shubhasiz, ochiq-oydin ravishda man qilingan, taqiqlangan narsa, amal va me'yorlardir.

Shariatga muvofiq Alloh tomonidan ruhsat etilgan yemishlar va amallar halol deyiladi.

Haloldan uzoqroq, haromga yaqinroq narsalarni, ovqatlarni va amallarni makruh deyiladi.

Bu o'rinda halol va harom qilingan narsa va amallarni bilib qo'yish hammamiz uchun foydalidir. Shariatda suv, sut, meva suvlari kabi ichimliklar, non, meva, poliz ekinlari, Allohning ismi aytib so'yilgan hayvonlar go'shtlari kabi taomlar, ruhsat berilgan kiyimlar va nikohga olingan shaxslar va boshqalar halol deb ko'rsatilgan. Ushbu narsalarga ega bo'lish ishonchli, shariatda ruhsat berilgan yo'l bilan bo'lishi kerak. Halol narsaga halol yo'l bilan ega bo'lish lozim. Halol mehnat, meros, hadya, ikki taraf roziligi bilan bo'lgan tijorat tufayli qo'lga kiritilgan mulk halol bo'ladi. Musulmon odam uchun halol narsani talab qilish, halol yo'l bilan molu-mulk topish shariat bo'yicha farz qilib belgilangan. Shariatda halol hisoblangan narsani harom deb e'tiqod qilgan odam kofir bo'ladi.

Harom – shariat bo'yicha man qilingan va ta'qiqlangan narsa va amallardir. Bular – cho'chqa, qon, o'laksa (harom o'lgan hayvon), Allohdan o'zgaga atab qurbonlik uchun so'yilgan hayvon go'shti, it, eshak, vahshiy hayvonlar, qarg'a, yirtqich qushlarning go'shti, mast qiluvchi ichimlik va giyohlar, zinokorlik, ota-onaga oq bo'lish, sudho'rlik, o'g'rilik, qotillik, poraxo'rlik, g'iybat, tuxmat, bo'xton, josuslik, chaqimchilik, yolg'onchilik, birovning haqi va omonatiga hiyonat qilish, savdoda g'irromlik, tarozi va o'lchovdan urish, sehru-jodu, sog' bo'laturib mehnat qilmaslik va boshqalar shar'an harom hisoblanadi. Haromning turlari ko'p. Ba'zi zarur hollarda harom narsalar vaqtincha halol sifatida qabul qilinadi. Bunga shariatda izn beriladi. Masalan, hayotni saqlab qolish uchun yegulik bo'lmagan vaqtda va bemorga dorilik, shifo beruvchilik uchun xarom qilingan narsalardan foydalanishga ruhsat beriladi. Chunki, tanamiz, jonimiz Allohnikidir. Uning omonatini saqlashga majburmiz.

Shu bilan birga halol bo'lgan narsalarga shariatda man qilingan harom yo'l bilan ega bo'lsa, ular ham haromga aylanib qoladi. Masalan, zulm, o'g'rilik, aldamchilik, poraxo'rlik yo'li bilan topilgan har bir narsa, o'zi qancha pok, halol bo'lsa ham, uni topuvchiga haromdir. Musulmon odam uchun haromdan hazar qilish farzdir. Shariatda bir luqma harom taom yegan odamning necha kunlab duosi va ibodati qabul bo'lmasligi ta'kidlangan. Musulmon inson harom yo'l bilan molu dunyo topishdan, xuddi cho'chqaning go'shtini yeyishdan hazar qilgandek, hazar qilishi kerak. Harom yo'l bilan molu dunyo topgan odam ikki dunyoda sharmanda bo'ladi. Bunday kishilar yorug' dunyoda azob-uqubat, turli ofatlarga yo'liqib, u dunyoda jahannam azobiga duchor bo'ladi. Shariatda harom

hisoblangan narsani halol deb e'tiqod qilgan odam kofir bo'ladi. Mast qiluvchi ichimlik va giyohlarning hammasi islom shariatida harom qilingan. Bulardan tashqari erkaklarga tilla narsa taqish, ayollarga erkakcha kiyinish, xozirda avj olib borayotgan kindikni, avrat joylarni ochib yurish ham harom amallardan hisoblanadi. Foydalanishi harom etilgan va iste'mol qilgan kishiga faqat zarar beradigan o'simliklarni – nasha, ko'knori, tamaki va boshqalarni ekish, parvarish qilish ham shariatda harom hisoblanadi. Musulmon kishi g'ayridindagi kishilarga sotish niyatida xarom narsani ekishi va undan moddiy foyda ko'rishi ham harom hisoblanadi va boshqalar³⁵.

Xullas, Bahouddin Naqshband aytganlaridek, insondagi yaxshi fe'llar va amallar halol luqmondandir. Hammamiz shunga amal qilishimiz hayotimiz mazmuni bo'lib qolishi islom shiati talabidir.

Shu o'rinda islom xuquqshunosligida musulmonlarning san'atga munosabati qanday bo'lganligini bilib olish ham muhimdir. Avvalo shuni qayd etish joizki, islom dini musulmon mamlakatlari san'ati rivojida o'z izini qoldirdi. Ayniqsa, me'morchilik sohasida yangi imorat turlari-masjid, minora, xonaqoh, madrasa va boshqalarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib keldi. Ammo islom dini paydo bo'lgan davrida avj olgan butparastlik, suratparastlikni oldini olish maqsadida Muhammad (sav) suratkashlikni qattiq taqiqlab qo'ygan edi. Shu asosda Islomning yirik xuquqshunoslari ham tasviriy san'atning bu turini taqiqlangan ishlar qatoriga qo'shganlar. Bu shariatda ham o'z ifodasini topgan. Bundan ular amaliy san'at turlari, naqsh, bezak, insondan boshqa hayvon va o'simliklar suratini istisno qilishgan. Islomda inson suratini chizish yoki uning haykalini yasashning taqiqlanishiga asosiy sabab-payg'ambar va aziz-avliyolarning rasmlarini chizib yoki hakallarini yasab, ularga sig'inib ketish xavfini oldini olish bo'lgan. 15-asrga kelib Alisher Navoiy kabi taraqqiyparvar mutafakkirlar musulmonlar qalbida Allohga bo'lgan imon va e'tiqod mustahkamlanib, suratparastlikka mutlaqo moyillik qolmaganini e'tiborga olib, endilikda inson suratini chizishga ruhsat berishlikni lozim topganlar. Bu esa Xirof va Buxoro miniatyura maktablarining yuzaga kelishi va rivojiga olib kelgan. Endilikda ulamolarning bergan fatvolariga binoan, musulmonlarga faxsh va uyat narsalarni ifoda etuvchi rasmlar, but, sanam, tasviridan boshqa tasviriy san'at turlari taqiqlanmaydi.

Shunday qilib shariatni – barcha mo'min-musulmonlar to'la rioya qilishi lozim bo'lgan qonunchilik desak bo'ladi.

Shariat Muhammad (sav) vafotlaridan so'ng to'rt halifa davrida, ummaviylar, abbosiylar va usmoniylar davlatlari vaqtida ham davlatning qonuni bo'lib kelgan. Vaqt o'tishi va dunyo xalqlari hayotida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar

³⁵ Қаранг. Ислом: энциклопедия. 306-308-309-бетлар.

natijasida musulmonlar shariat xukmlaridan uzoqlashib borganlar. 20 asrning boshlariga kelib Shariatga amal qilish ba'zi Islom davlatlarida rasman bekor qilingan. Xozirga kelib bir qator musulmon davlatlari jumladan Arabiston davlati shariatga amal qilgan holda o'z siyosatini yurgizayotganini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga boshqa islom davlatlarida faqat oilaviy – nikoh, taloq, nafaqa, meros kabi masalalarda shariatga to'liq yoki qisman amal qilinib kelinayotir.

O'zbekiston xududida ham qadimda barcha musulmon o'lkalari bilan bir qatorda shariat tatbiq qilingan. Bolsheviklarning 1917 yilgi oktyabr to'ntarishidan so'ng yurtimizda shariat umuman man qilingan.

Mustaqillik tufayli fuqarolarimiz namoz, ro'za, haj kabi shar'iy amallarni erkin bajarish imkoniga ega bo'ldilar.

Al-Marg'inoniy – mashhur fiqhshunos.

Islomning shu jumladan Islom xuquqshunosligining rivojlanishiga Movarounnahrda yetishib chiqqan allomalar ham katta hissa qo'shgan. 9-12 asrlarda bu o'lka fiqh maktabi yuksak cho'qqiga ko'tarilgan. O'ndan ortiq fiqh ilmi olimlari yetishib chiqib o'zlarining chuqur bilimlari, mashxur asarlari bilan butun musulmon dunyosida shuhrat qozonganlar. Jumladan, Burhoniddin Marg'inoniyning «Hidoya», Farg'onalik Faxriddin Hasanning «Muxtasar» kabi kitoblari musulmon davlatlarida mashhur bo'lgan. Ular o'z asarlarida ayrim huquqiy me'yorlarni mahalliy sharoitga moslashtirishga harakat qilganlar.

Movarounnahr fiqh ilmining eng ko'zga ko'ringan namoyondasi Imom Burxoniddin al-Marg'inoniydir. U 1118 yili tavallud topib 1197 yili Samarqandda vafot etgan. O'z hayotini dinu diyonat pokligi, iymon-e'tiqod ustivorligi, ilm va adolat tantanasi yo'lida safarbar etganliklari, Islom dini asoslari Qur'on va Xadislarni chuqur bilganliklari uchun bu mo'tabar alloma Sharq olamida «Burxoniddin va milla», ya'ni «Din va millatning hujjati» degan yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan. Imom Marg'inoniyning islom madaniyatidagi buyuk hizmatiga Prezident shunday ta'rif beradi: “O'zining beqiyos salohiyati bilan buyuk ilmiy maktab yaratib, go'zal Farg'ona diyorini jahonga tarannum etgan islom huquqshunosligining yana bir ulkan namoyandasi Burxoniddin Marg'inoniyning tabarruk nomini butun musulmon dunyosi yuz yillar davomida e'zozlab keladi. Bu mo'tabar allomaning Sharq olamida “Burhoniddin va milla”, ya'ni “Din va millatning hujjati” degan yuksak unvonga sazovor bo'lgani ham buni yaqqol isbotlaydi”³⁶.

Alloma al-Marg'inoniy o'zidan «Qonunni o'rganishga kirish», «Yakunlovchilar uchun tugal ta'limot», «Mazhabning tarqalishi», «Fuqarolik xuquqini taqdim etish», «Meros haqida kitob», «Hidoya» kabi o'ndan ortiq boy ilmiy meros

³⁶ И.А.Каримов “Юксак маънавият энгилмас куч” Тошкент, 2008. 40 б.

qoldirgan. O‘z asarlarida biror marta ham «men» degan so‘zni ishlatmagan, balki «Bu zaif banda aytadi», deya kamtorona izoh berishi har qanday odamni bugun ham hayratga soladi.

Al-marg‘inoniy islom dini xuquqshunosligini mukammal o‘rganar ekan, uning insonparvarlik, yuksak axloqiy va ma‘naviy g‘oyalarni jamiyat hayotiga, musulmonlarning turmush tarziga singdirish va amaliy tatbiq etish yo‘lida jonbozlik ko‘rsatgan.

Bu buyuk zot o‘z asarlarida o‘sha zamonlarda mo‘min musulmonlar duch keladigan dolzarb hayotiy masalalar, jumladan, oilaviy va ijtimoiy munosabatlar, mulkchilik, savdo-sotiq, jinoyat va jazo, insonning burchi va mas‘uliyatlarigacha taalluqli ko‘pdan-ko‘p murakkab muammolarni islomiy huquq nuqtai nazaridan hal qilib bergan.

Burxoniddin Marg‘inoniy Islom huquqshunosligi sohasida yaratgan buyuk asarlari va maktabi bilan islomiy huquq asoslarini belgilab bergani va shu ilmning har tomonlama rivoj topishiga qo‘shgan hissasi bilan shu zaminda yetishib chiqqan bizning buyuk vatandoshimizga teng keladigan boshqa alloma kamdan-kam topiladi³⁷.

Burxoniddin Marg‘inoniyning nomini butun islom olamiga mashxur qilgan shoh asar «al-Hidoya» dir. Bu asarni 1178-1191 yillar, ya‘ni o‘n uch yil davomida yozib tugatgan. Rivoyat qilinishicha mazkur asarni yozish davomida doimo ro‘zador bo‘lganlar. “Marg‘inoniyning o‘lmas merosi, xususan, ellik yetti kitobdan iborat ”Hidoya” – “To‘g‘ri yo‘l” deb atalgan asari, mana, sakkiz asrdirki, musulmon mamlakatlarida eng nufuzli va mukammal huquqiy manba sifatida e‘tirof etib kelinayotgani albatta bejiz emas”,³⁸ deb ta‘kidlaydi Prezidentimiz.

«Al-Hidoya» asari musulmon kishining shaxsiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan deyarli barcha xuquqiy xolatlarini o‘z ichiga olgan keng qamrovli asardir. Bu asarni yaratishda Burxoniddin Marg‘inoniy Qur‘oni karim oyatlari, xadislar, dastlabki 4 halifa, sahobalar va tobeinlarning rivoyatlari, sunniylik oqimidagi to‘rt mazhab asoschilari: Nu‘mon ibn Sobit Abu Hanifa, Molik ibn Anas, Muhammad ibn Idris ash-Shofi‘iy va Ahmad ibn Hanballarning asarlariga tayangan.

«Hidoya» - arabcha qo‘llanma ma‘nosini bildiradi. Marg‘inoniyning ana shu mashhur asari to‘rt jild 57 kitobdan iborat. Ular 165 bob, 152 fasldan tarkib topgan. «Hidoya» ning birinchi jildi 5 kitobdan iborat bo‘lib, tahorat va amaliy ibodatlar: namoz, ro‘za, zakot va hajga bag‘ishlangan. Ikkinchi jild nikoh, emizish, taloq, qul ozod qilish, topib olingan bolalarning nasabini aniqlash, bedarak yo‘qolganlar, sherikchilik, vaqf xuquqi kabi masalalarni o‘z ichiga olgan. Uchinchi

³⁷ Қаранг. И.Каримов. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Тошкент, «Ўзбекистон», 2001, 9-том, 114-115-бетлар.


³⁸ I.A.Karimov “Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch” Toshkent, 2008. 40 b.

jilddan oldi-sotdi, pul muomalalari, kafolat, qozilarning vazifalari, guvohlik, vakolat, da'vo, sulh, qarz berish, sovg'a, ijara, xomiylik kabi masalalar o'rin olgan. To'rtinchi jildda shafolat, merosni taqsimlash, vasiyat, dehqonchilik va bog'dorchilik xususida shartnoma, qurbonlik qilish, ovchilik, garovga berish, jinoyatlar hususida, xun haqi to'lash kabi masalalar yoritilgan.

Marg'inoniyning «Al-Hidoya» asarining eng muhim jihati shundaki, unda har bir xuquqiy masala albatta Qur'on oyati, xadis bilan asoslanadi. Bundan tashqari mavzular mantiqiy izchillikda bayon etilishi bilan ham ajralib turadi.

Bu asar uni bilgan, o'rgangan va uni mahkam tutgan kishilarning yumuq ko'zlarini ochadi, to'g'ri yo'lga, hidoyat yo'lga eltadi. Kitob yaratilgan davrdan boshlab faqihlar, tarixchilar, xukmdorlar diqqatini tortib keladi. «Al-Hidoya» bir necha asrlar davomida ko'p musulmon mamlakatlari, jumladan Osiyoda ham xuquqshunoslik bo'yicha betakror, asosiy qo'llanma sifatida e'tirof etib kelinayotir.

O'zbekistonda 20-asrning 30-yillarigacha – shariat qozilari bekor qilinib, sho'rolar sud tizimi joriy qilinguncha amalda qo'llanib kelindi. U musulmon mamlakatlari oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlariga kiritilgan. Kitob jahonning bir necha tillariga tarjima qilingan. 2000 yilda Al-Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi yurtimizda keng nishonlandi. «Al-Hidoya» ning birinchi jildi o'zbek tilida chop etildi.



Mavzu bo'yicha savollar

Takrorlash uchun savollar

1. Islom aqida nima?
2. Sunniylikdagi iymon talablarini izohlang?
3. Islom arkonlariga nimalar kiradi ?
4. Islom dinida aqidaviy masalalarni izohlashda qanday maktablar shakllandi?
5. “ Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi” degan yuksak sharaf kimga nisbatan berilgan ?
6. So'fiylik qachon paydo bo'lgan, uning asosiy maqsadi nimaga qaratilgan?
7. Mashhur so'fiylar tasavvufga qanday ta'rif berganlar?
8. O'rta Osiyoda qanday tasavvuf tariqatlari bo'lgan va qachon shakllangan?
9. Ahmad Yassaviy hikmatlarining mazmuni nimaga yo'naltirilgan?

10. Kubroviya tariqatining qanday qoida va talablarini bilasiz?
11. Naqshbandiya tariqatining asoschilari haqida nimalarni bilasiz?
12. «Dil ba yoru dast ba kor» ning mazmunini izohlang.
13. Mustaqillik va tasavvuf va uning vakillariga munosabatning o'zgarganligini izohlang.
14. Islom xuquq (fiqh) shunosligi nimaga asoslanadi?
15. Ijmo' va qiyos nima?
16. Shariat nima? U qanday xuquqiy masalalarni o'z ichiga oladi?
17. Qanday fiqhiy mazhablarni bilasiz?
18. Shariat bo'yicha halol va harom qilingan narsa va amallarga nimalar kiradi?
19. Shariat bo'yicha harom qilingan narsalar halol bo'lishi mumkinmi?
20. Al-Marg'inoniy kim bo'lgan? Uning qanday asarlarini bilasiz?
21. «Al-Hidoya» asari necha jilddan iborat va ularda qanday xuquqiy masalalar bayon qilingan?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" T -1998 yil
2. I.A.Karimov "Yusak ma'naviyat yengilmas kuch" T -2008 yil
3. Sh. M.Mirziyoev " BMT Bosh assambleyasining 72 –sessiyasidagi nutqi 2017 yil 19 sentabr
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash muqaddas dinimizni sofliqini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi 2017 yil 15 iyun
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga 2017 yil 22 dekabrda murojaatnomasi
6. Falsafa ensiklopedik lug'at. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti T -2010 yil
7. I.Jabborov "Jahon dinlari tarixi" T- 2002 yil.
8. A. Tulepov "Islom va aqidaparast oqimlar" T -2013 yil
9. Xusniddinova Z. "Islom : yo'nalish, mazxablar, oqimlar" T- 2000 yil
10. Alixonto'ra Sog'unliy Tarixiy Muhammadiy T -2007 yil
11. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Islom Tarixi" birinchi, ikkinchi kitob T -2008 yil
12. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Iymon" T -2006
13. Ahmad Lutfiy Qozonchi " Saodat asri qissalari" T -2019 yil
14. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Sunniy aqiydalar – Toshkent: Hilol-Nashr, 2015. – 544 b.

15. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To'ldirilgan nashr. Mas'ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sharq, 2014. – 536 b.
16. Oqilov S. Kalom ilmi. – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – 160 b.
17. Muhammad Anvar Badaxshoniy. Aqidatut-tahoviya sharhining talxiysi. – Toshkent: 2015. – 448 b.
18. Ochildiev O., Rahimjonov D., Muhamedov N. Va boshq. Dinshunoslik asoslari (o'quv qo'llanma). – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 320 b.
19. Mo'minov A., Yo'ldoshxo'jaev H., Rahimjonov D., va boshq. Dinshunoslik. – Toshkent: Mehnat, 2004. – 296 b.

7 –Mavzu Xalqimiz ma'naviy yuksalishida dinlarning o'rni .

Ma'ruza rejasi:

6. Turkiy xalqlarning islomgacha bo'lgan diniy e'tiqodi. Zardushtiylik diniy ta'limoti
7. Musulmon Renessansi –Sharq uyg'onish davri ma'naviyatining xususiyatlari
8. Mustamlaka va mustabid tuzim sharoitida o'zbek xalqini milliy va diniy qadriyatlardan mahrum etilishi va toptalishi
9. Mustaqillik yillrida O'zbekistonda ma'naviyatning davlat siyosatida ustuvor sohaga aylanishi.

Tayanch tushunchalar. *Tangriga e'tiqod, zardusht, payg'ambar, avesto, qonun – qoidalar, qadimgi Xorazm, Axuramazda, ezgulik, yovuzlik, Musulmon Renessansi, milliy va diniy qadriyatlar, mustaqillik, diniy ma'naviy me'ros, hadisshunoslik, fiqh, tasavvuf maktablari.*

1-masala bayoni: Turkiy xalqlarning islomgacha bo'lgan diniy e'tiqodi. Zardushtiylik diniy ta'limoti

Markaziy Osiyo mintaqasida diniy e'tiqod ildizlari qadim-qadimga borib taqalishini qayd etish lozim. O'rta Osiyodagi madaniy yodgorliklar ushbu mintaqa xalqlari hayotida diniy tasavvurlarning boy va xilma-xil bo'lganligidan dalolat beradi. Bunday rang-barang holatning vujudga kelishiga asrlar davomida mahalliy aholining dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib kelganligi, davr o'zgarishlari, halqlarning ko'chib yurishlari, boshqa xalqlar e'tiqodlarining va mintaqa uchun yangi bo'lgan diniy tizimlarning kelib tarqalishi sabab bo'ldi. Dastlabki diniy tasavvurlarning paydo bo'lish va rivojlanish jarayonlarini bevosita

turli-tuman birlamchi manbalar – petrogliflar, arxeologik topilmalar, yozma va og‘zaki rivoyatlar misolida ko‘rishimiz mumkin.

Eng qadimiy diniy tasavvurlar O‘rta Osiyo xalqlarining hozirgi kundagi diniy tajribalarining asosini tashkil etadi. Masalan, ular qatoriga tog‘ echkisi va tog‘ qo‘yi bilan bog‘liq tasavvurlarni kiritisa bo‘ladi. Tog‘ echkisiga sig‘inish O‘rta Osiyo xalqlari diniy tajribasida hozirgi kunga qadar saqlanib kelmoqda. Masalan, O‘zbekistondagi Teshiktosh mavzeidan topilgan neandertalg‘ bola murda-skeleti tog‘ echkisi shoxi bilan yonma-yon qo‘yilgan; shunday shoxlar shu kunlarimizda ham Tojikiston va Qirg‘izistonning chekka joylaridagi musulmon masjidlarini bezab kelmoqda. Ziyoratgoh joylarga tog‘ echkisi va qo‘chqor shoxlarini osib qo‘yish nisbatan tog‘li mintaqalarda ko‘proq tarqalgan. Turkmanistonda shu kunlarga yaqin kishisi qabriga marhumning u dunyosi obod bo‘lishi uchun tog‘ echkisi shoxini qo‘yadilar. Tojikistonning tog‘li hududlaridagi uylarning devorlarida muvaffaqiyat va omad ramzi sifatida qizil va sariq rangda ishlangan tog‘ echkilarining rasmlari uchraydi. Qo‘y-toshlarga sajda qilish qozoq, qirg‘iz, tog‘li hududlarda yashovchi tojiklar, turkmanlar ijtimoiy hayoti va sanoatiga chuqur singgan, chunki xonakilashtirilgan qo‘y va echkilar chorvadorlar xo‘jaligida asosiy tirikchilik manbai bo‘lib kelgan. Hattoki, chorvadorlar tog‘ echkisining go‘shini mo‘jizakor kuchga ega deb hisoblaydilar. Ular yilda bir marotaba tog‘ echkisining go‘shini tanovul qilgan odamning yil davomida bilib-bilmay qilgan barcha gunohlari yuvilib ketadi, deb hisoblaganlar.

Boshqa hollarda ham qo‘chqorning muqaddas ahamiyatga ega ekanligi haqidagi tasavvurlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, avvalgi o‘g‘li vafot etgan oilada yangi tug‘ilgan chaqaloqqa yomon ta‘sir o‘tkazishi mumkin bo‘lgan ruhlarni qo‘rqitish maqsadida Qo‘chqor deb ism qo‘yishgan. Yaqin kunlarimizgacha Xorazmda aholining ko‘pchilik qismi ko‘z tegishdan saqlanish maqsadida hovlilarida qo‘chqor boqqanlar. Ularning tasavvuricha, yomon nazar qo‘chqorning shoxiga tegib o‘z kuchini yo‘qotadi.

Jonivorlar va qushlarga sig‘inish

Bo‘ri. Qadimgi turk afsonalariga qaraganda, Ashina qabilasidan bo‘lgan yosh go‘dakni bo‘ri emizib katta qilgan. Shuning uchun ham turklarning ko‘k bayrog‘ini bo‘rining oltindan yasalgan boshi bezab turgan. Bo‘rining mo‘jizaviy ilohiy kuchiga ishonch shu kunlarga saqlanib qolgan. Yaqin-yaqingacha ayrim tog‘da yashovchi xalqlar orasida o‘ldirilgan bo‘rining aozosidan tumor yasab, bo‘yinga osib yurilsa, erkak kishining ayollar orasida obro‘-yeotibori baland bo‘ladi degan tasavvur yoyilgan. Andijon viloyatida yashovchi qipchoklar orasida ayollar ko‘zi yorishini yengillatish maqsadida unga quritilgan bo‘ri yuragidan berishgan.

Ot. Otga sig‘inish turkiy xalqlar orasida qadimdan mavjud bo‘lgan. Buni Janubiy Qirg‘iziston tog‘laridagi qoyalarga bitilgan otlar tasvirida ko‘rishimiz mumkin. Tasvirlar tagida hayvonlarni qurbonlikka keltirib, sham yoqish uchun tokchalar yasalgan. Otning muqaddasligi haqidagi tushuncha nafaqat dashtlarda yashovchi qabila va elatlarda, balki dexqonchilik bilan shug‘ullanuvchi o‘troq aholi orasida ham keng tarqalgan. Bronza davrida yasalgan hanjarlarning dastaklarida otlarning tasvirlari tushirilgan. Ilk tosh davrida mayyitlarni otlar bilan birga dafn etish odatlari keng tus olgan. Bu ayniqsa O‘rta Osiyo hududlarida keng tarqalgan. Otni muqaddaslashtirish islomiy asotirlarga ham kirib kelgan. O‘ratepa (Tojikiston), Aravon (Janubiy Qirg‘iziston)da xalifa Alining afsonaviy oti Duldulning toshdagi tuyoq izlari muqaddas sanaladi. XIX asrda qozoq qabilalari orasida vafot qilgan kishining maorakalaridan keyin marhumning qurbon keltirilgan sevikli otining bosh suyagi qabr yodgorligi yoniga qo‘yilgan. Hozir ham ushbu xalqlar orasida marhumning maorakasiga so‘yilgan otning bosh suyagi qabr tepasiga tashlab ketiladi.

Qora mol. Qadimgi Avesto matnlarida muqaddas ho‘kiz timsoli tasvirlanib, uning tanasidan har xil boshoqli ekinlar va shifobaxsh giyohlar, urug‘idan esa foydali jonivorlarning barcha turlari tarqalganligi haqida so‘z yuritiladi. G‘arbiy Turkmaniston hududlarida qadimgi zamonlarda yasalgan qora mol haykalchalari uchraydi. Qozog‘iston va Qirg‘iziston hududlarida bronza va ilk temir davrlarida qoyatoshlarga bitilgan ho‘kiz tasvirlari saqlanib qolgan.

Oushlar. Rivoyatlarga ko‘ra, o‘zlarini O‘g‘izxon avlodlari deb hisoblagan o‘g‘iz-g‘uzlar yoki turkiy o‘g‘izlar yomonliklardan asrovchi bobolar timsolini qushlarda ko‘rishgan. Qirg‘iy, burgut, lochin, qarchig‘ay kabi qushlar qabila a‘zolariga baraka va baxt olib keluvchi muqaddas jonzod hisoblanib, ularni otish qat‘iyan man etilgan.

Turklarda suv qushlari koinotning turli qismlari – osmon, yer va suv orasidagi vositachi hisoblangan. Qarg‘alidan topilgan shaman ayolning bosh kiyimini g‘oz va oqqush patlari bezab turgan. Qirg‘izistonda So‘n-ko‘l atrofidagi qoyatoshlarga o‘yib ishlangan suvda suzuvchi qushlar (balkim g‘ozlar) galasi tasviri tushirilgan. Qozoq va qirg‘iz xalqlari asotirlarida muqaddas Umay qush qiyofasida tasvirlanadi.

O‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman xalqlari qadimdan shu paytgacha ukki, boyo‘g‘li, burgut va lochin patlarining muqaddas kuchiga ishonadilar. Shu sababli kichik yoshdagi o‘g‘il bolalar va qizchalarning bosh kiyimlari, beshik va belanchaklarini qushlar pati bilan bezaydilar. O‘rta Osiyo o‘troq xalqlari orasida qirg‘ovul, tovus, xo‘roz muqaddas qushlar deb sanalgan.

Daraxtlar. Mahalliy anoanaviy arxitekturadagi gunbaz, qubba, ark kabi o‘z-o‘zini ushlab turuvchi inshootlarning keng tarqalishiga O‘rta Osiyoda daraxtlarning

kamchilligi sabab bo'lgan. Archa, chinor daraxtlari qadimdan muqaddas deb sanab kelingan. Ba'zan har bir g'ayri tabiiy ko'rinishga ega bo'lgan daraxtga sajda qilish hollari uchraydi.

Archa va chinor daraxtlari juda qadimdan muqaddas kuchga ega ob'ekt sifatida e'zozlangan. Ana shu daraxtlar islom davrida avliyolar mazoriga aylangan. Ularga qizlar o'z qalb sirlarini aytib, daraxt shoxlariga alam bog'lab, armonlarining ushalishiga umid qilganlar. Janubiy Turkmaniston, O'zbekiston va Tojikistonda chinor daraxti g'oyat eozozlanadi. Turkmanlar chinorning qurigan shoxlarini o'tin sifatida yoqib, istifoda etishga ham qo'rqadilar.

Turkmanistondagi Feruza vohasi uzunligi qirq metr keladigan «Etti aka-uka» chinori bilan mashhur. Sayrob qishlog'idagi bahaybat chinorning to'rt metrli kavagida bir vaqtlar hatto madrasa joylashgan. Toshkent yaqinidagi Buruchmulla qishlog'ida odatdan tashqari katta chinorni ziyoratga keluvchilarning keti uzilmaydi.

Anor daraxtining ramzi baraka, hosildorlikni ifoda etadi. Qadimgi sopol buyumlarda Anaxita ma'budasi ko'pincha anor mevasi timsolida tasvirlangan. VI-VIII asrlarda yaratilgan Afrosiyob naqshlarida ana shu daraxt tasvirlari ko'plab uchraydi. O'rta Osiyoning janubiy qismidagi ayrim qishloqlar ahli anor bolaning tug'ilishida ko'mak beradi deb hisoblaydi. Popopchi chevar ayollar anor daraxti tasvirini matoga to'qish jarayonida uning baraka va mo'l hosil ramzi ekanligini ifoda etmoqchi bo'ladilar.

Na'matakni qadrlash keyingi yillarda Tojikistonning bir qancha tumanlarida qayd qilindi: yangi yil arafasida uy egasi naomatakning bir bog'ini shipga osib qo'yadi. Bu orqali ular naomatak kelasi yil don ekinlaridan mo'l-ko'l hosil olish imkonini beradi, deb ishonadilar. Shunday qilib, jonivorlar va o'simliklarga sajda qilishning ildizi ming yilliklarga borib taqaladi.

Tangrichilik. Qadimgi turklar dini asosini **Tangriga** (Samo) va Zaminga (Er-Suv) sig'inish tashkil etadi. Bunda Samoga sig'inishga asosiy eotibor berilgan. Tangrining xohishi bilan xoqonlar elni idora qilgan. Shuningdek, Tangri xohishi bilan zafar quchganlar yoki mag'lub bo'lganlar.

Ahamiyat jihatidan undan keyingi o'rinni maobuda **Umay** – oila va bolalar himoyachisi egallagan. Shuningdek, turkiy tillarda so'zlashuvchi qabilalarning eotiqodlari ichida salmoqli o'rinni muqaddas *tog'lar* va *g'orlarga* ziyorat qilish tashkil etadi. Turkiy asotirlarga ko'ra, Ona bo'ri turklar ajdodini g'orda tuqqan. Shu sababli buyuk xoqon bir yilda bir marotaba tog'dagi g'orlarga kelib, qurbonlik qilgan. Turkiy xalqlar tasavvurlarida yer-suv, o'rmon va tog'larni ko'pdan-ko'p arvohtar egallab turadi. Vaqti-vaqti bilan qurbonliklar keltirib, ularni tinchitib turish lozim bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, yer osti saltanati mavjud bo'lib, o'lgan kishining ruhi u yerga ko'chib o'tadi va uni o'lim xudosi va yer osti hukmdori

Erklig boshqaradi. Ko'pgina yozma manbalar olovning muqaddasligi, olov bilan poklanish to'g'risida, ilohiy kuchga ega bo'lgan *Yada* toshi vositasida go'yo yomg'ir yog'dira oladigan turk afsungarlari haqida Ma'lumotlar beradi.

Maolul davrlardan boshlab O'rta Osiyo aholisi orasida eski diniy tasavvurlar bilan bir qatorda boshqa sivilizatsiyalar doirasida shakllangan buddizm, yahudiylik, xristianlik, manixeizm va islom diniy tizimlari ham tarqala boshladi.

Zardushtiylik. Ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib borishi bilan diniy qarashlar ham o'zgara bordi. Diniy afsonalar mazmuni, diniy-yeotiqod amaliyoti ham o'zgardi.

Miloddan avvalgi II-I ming yilliklarda paydo bo'lgan din - zardushtiylik - o'tga sig'inish, Markaziy Osiyoda eng keng tarqalgan diniy tizimlardan biri edi.

Zardushtiylik dini asosida foniy dunyoni yaratuvchi xudoning yagonaligi g'oyasi yotadi. U o'zining haqiqatini yetqazish uchun odamlar orasidan unga samimiy eotiqod qilgan Zardushtni tanladi. Zardusht- Mazda Yasna dini payg'ambarining nomi. Zardushtiylik bu diniy taolimotning shartli nomi bo'lib, birinchi targ'ibotchisi nomi bilan atalgan.

O'tmishda Zardo'shtning va «Avesto» ning vatani qaerda bo'lganligi to'g'risida bahs-munozaralar bo'lib ikki xil fikr ilgari surilgan. Birinchisi «G'arb nazariyasi» bo'lib, bu nazariya tarafdorlari hozirgi Eron xududida joylashgan Media Zardo'sht vatani, Zardo'shtiylik dini ana shu erda yuzaga kelgan va boshqa o'lka xalqlari o'rtasida tarqalgan, degan fikrni ilgari surib kelmoqdalar.

Ikkinchi fikr «Sharq nazariyasi» deb yuritilib, bu nazariya tarafdorlari Zardo'shtning vatani va zardo'shtiylik dinining yuzaga kelgan, ilk tarqalgan joyi qadim Xorazm bo'lgan deb eotirof etadilar.

Ko'p yillik bahs-munozaralardan so'ng pirovardida o'ttizdan ortiq xorijiy avestoshunos olimlar va o'zimizning tadqiqotchi olimlarimiz Zardo'shtning va «Avesto» ning vatani O'zbekiston, qadim Xorazm bo'lgan degan qatoiy bir fikrga kelganlar. Tadqiqotchi olimlarning bunday yakdillik bilan chiqargan xulosalarini YuNESKO ham tasdiqlagan.

Shunday qilib, zardo'shtiylik Markaziy Osiyoda shakllanib, keyinchalik Eron va boshqa o'lkalarga tarqalgan.¹⁵

Zardo'sht so'zining lug'aviy maonosi turlicha izohlanib kelinadi. Bir taobirga ko'ra «Sariq, tilla rang sohibi (egasi)»; boshqa bir taobirga ko'ra «Zarrin yorug'lik egasi»; yana bir taobir bo'yicha «Oq tuyalik, tuya boquvchi» demakdir. Baozi tarixiy manbalarda bu nomning maonosi – «yulduz o'g'loni» deb taoriflangan.

Zardo'sht insoniyat xaloskori sifatida maydonga chiqib, taraqqiyot uchun g'oyat zararli bo'lgan ko'pxudolik eotiqodlarini g'ayriinsoniy mohiyatini anglab,

¹⁵ Қаранг. Фозила Сулаймонова. Шарқ ва Ғарб. Тошкент, «Ўзбекистон», 1997. 24-бет; Ўзбек миллий энциклопедияси. 3-жилд, Тошкент -2002. 683-бет; Ислom энциклопедия. А. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», Давлат нашриёти. Тошкент – 2004. 18-бет.

kishilarni yakkayu yagona Oliy Tangri – Axura Mazdaga eotiqod qilish g‘oyasini ilgari surdi. Zardo‘st va xdoniyat – yakka xudoga eotiqod qilish g‘oyasini ilgari surgan payg‘ambar sifatida insoniyat tarixi sahnidan o‘rin oldi.

Barcha payg‘ambarlar singari Zardo‘st ham o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtda qadr-qiyamat topmaydi. Uzliksiz taoqib, tazyiq, tahdidlardan bezib, o‘z muxlislari va tarafdorlari bilan Eronga – axmoniylar shohi Gushtasi (Vishtasp) xuzuriga ketadi. Shoh va malika Xutaosa butun saroy ayonlari bilan birgalikda Zardo‘stning yangi dinini qabul qiladilar va uning keng yoyilishiga yordam beradilar. Natijada Zardo‘stiylik uzil-kesil qaror topadi.

«Avesto» uzoq davrlar mobaynida – miloddan oldingi 3 ming yillikning oxirlaridan boshlab og‘zaki tarzda shakllanib, avloddan-avlodga o‘tib kelgan. «Avesto» ni Zardo‘st diniy asar sifatida bir tizimga solgan, hamda o‘zi ham uning «Gohlar» (Gotlar) qismini yozib kitobat qilgan. «Avesto» so‘zining lug‘aviy maonosi «o‘rnatilgan, qat’iy qilib tayin etilgan qonun-qoidalar» demakdir.

«Avesto» - «Yasna», «Gohlar», «Visparad», «Yashtlar», «Vandidad» va «Kichik Avesto» dan iborat.

- «Yasna» - toat, taozim, salovatga loyiq, munosib maonolarini ifodalaydi. U «Avesto» ning eng qadimgi muhim qismi bo‘lib, 72 bobdan iborat bo‘lgan hamdu sano, qurbonlik duolaridan tashkil topgan.

- «Gohlar» - maonosi qo‘shiq-gimn demakdir. U ham «Yasna» ning 72 bobi sirasiga kiradi. «Gohlar» Zardo‘st tomonidan ijod qilingan beshlik qo‘shiq-gimnlaridir. Ularda yakka xudolik taolimoti, ikki qarama-qarshi kuchlar – ziyo va zulmat, ezgulik va yovuzlik, hayot va o‘lim o‘rtasidagi kurashda har bir inson yakkayu-yagona oliy Tangri – Axura Mazda amriga ko‘ra ezgulik kuchlari tomonida bo‘lishi kuylanadi.

- «Visparad» 24 bobdan iborat ibodatga doir qo‘shiqlar, xukmdorlarga qaratilgan munojaatlar va jamiyki radlar madhidir.

- «Yashtlar» - maqtovlar, qutlovlar, eozozlar kabi maonolarni bildirib, u zardo‘stiytlarning o‘qib yuradigan duolari va alohida ilohlarni madh etuvchi qo‘shiq-oyatlardan iborat.

- «Vandidad» ning maonosi yovuz kuchlarga, devlarga qarshi qonun maonosini bildiradi. U 22 bobdan iborat.

- «Kichik Avesto» (Xurda Avesto – deb ham yuritiladi.) «Avesto» hajmi katta kitob, ya’ni bo‘yi 120 sm, eni 70 sm dan iborat bo‘lganligi sababli undan dindorlar kundalik faoliyatida foydalanishga qiyinchilik tug‘dirgan. «Avesto» dan dindorlarning kundalik hayoti uchun zarur va ahamiyatli bo‘lgan duolar, olqishlar, qo‘shiqlar tanlab olinib, shu asosda «Kichik Avesto» to‘plami yaratilgan.

«Avesto»da koinotning dastlabki unsuri – er, suv, havo, olov ulug‘lanadi. Tabiatni bulg‘ash katta gunoh ekanligi ta’kidlanadi. Olov – gunohlarni poklovchi, yovuz

ruhlarni daf etuvchi sehrli kuch, deb taokidlanadi. Hatto erni, suvni ifloslantirmaslik maqsadida mayit (o'lgan kishining jasadi) ni erga ko'mish, suvga tashlash gunoh deb hisoblangan. Mayitni go'shtini qushlarga edirib, suyaklarini etdan tozalab uni maxsus sopol quti (ossuariy) larga solib, ayrim binolarda saqlaganlar yoki maxsus quduqqa sohib yuborganlar.

Bu din behuda qon to'kuvchi, qurbonliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik hujumlarini qoralab, o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga daovat etadi. Moddiy hayotni yaxshilashga urinishni yovuzlikka qarshi kurash deb hisoblab, hayrli ishni, axloqli, odobli bo'lishni targ'ib etgan. Zarbo'shtiylik dinida qo'riq er ochib uni bog'u-roq'ga aylantirgan odam ilohiyat rahmatiga sazovor bo'ladi, aksincha, bog'lar, ekinzorlar, sug'orish inshootlarini buzganlar kata gunohga qoladilar, deb uqdiriladi.

Insoniyat tarixida birinchi bo'lib Zardo'sht yaratgan dinda insonlarning bu dunyodagi hayotiga yarasha narigi dunyodagi taqdiri hal bo'lajagi haqidagi g'oya ilgari surilgan. Zardo'shtiylik ta'limotining asosi olam qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilgan, degan g'oyadan iborat. Bu qarama-qarshilik tabiatda hayot va o'lim, yorug'lik, ziyo va zulmat, ijtimoiy hayotda adolat va adolatsizlik, axloqiy hayotda yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi abadiy kurashda namoyon bo'ladi, ko'rinadi.

Ezgulik, yaxshilikning ifodachisi Axura Mazda doim yovuzlik, yomonlik xomiysi Axrimanga qarshi kurash olib boradi. Ahura Mazda – «Ahura» va «Mazda» so'zlaridan iborat. Mazda so'zi oldiga «ulug'lash» so'zi –Axura qo'shib Axura Mazda nomi paydo bo'lgan. Mazda so'zi esa butun borliqni yaratgan mutloq aql, dono, qudratli rahnamo demakdir. Shunday qilib Axura Mazda so'zini «Xudo Mazda», «Dono Xudo», «Ulug', qudratli xudo» deb tushunsak bo'ladi.

Axriman so'zining maonosi esa – yomonlik, yovuzlik, olami demakdir. U yovuzlik timsoli bo'lib, barcha shaytoniy kuchlar: yovuz devlar, jodular, al-vasti, tamomila yomon kuchlar sardori deb qaraladi.

«Avesto» da mehnat nihoyatda ulug'lanadi. Mehnat yaxshilik, moddiy noz-neomatlar manbai ekanligi uqdiriladi. Inson sahovatli bo'lishi uchun avvalo mehnat qilishi, o'z qo'li bilan noz-neomatlar yaratishi zarurligi aytiladi. Unda: «Don ekan kishi taqvodorlik urug'ini ekadi, u Mazdaga ixlosmandlik eotiqodini olg'a suradi, imonni oziqlantirib turadi...», deyiladi. Bunga amal qilish o'n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik qilishga teng. Ekin ekish, mehnat qilish – erdagi yovuzlikni yo'qotishdir, deb qaraladi. «G'alla erdan unib chiqqanda», - deyiladi «Avesto» da, devlar larzaga keladi, g'alla o'rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g'alla yanchib un qilinayotganda ular mahv (engiladi) bo'ladi...» deb mehnat ulug'lanadi.

«Avesto» da inson axloq – odobi, maonaviyati quyidagi uchlikda: *Gumata* – yaxshi, ezgu fikr, *Gugta* – yaxshi, ezgu so‘z, *Gvarshata* – yaxshi, ezgu ishda ifodalanadi.

«Avesto» da tozalik, poklikka alohida eotibor qaratilgan. Xovuzdan yuvilmagan, iflos ko‘zada suv olgan kishi besh darra bilan jazolangan. Inson yashaydigan xonada yuvinish, poklanish qoralangan.

Zardo‘shiylikda naslning pokligi, tozaligiga ham alohida eotibor berilgan, qattiq nazorat qilingan, qarindosh-urug‘, aka-uka, opa-singilning quda-anda bo‘lishi qoralangan. «Avesto» da Navro‘z – Yangi kun, Yangi yilning boshlanishi, tabiatning uyg‘onishi, hayotning boshlanishi, deb tasvirlanadi.

Ma‘lumotlarga qaraganda bugungi kunda Zardo‘shiylik dini va taolimotiga eotiqod qiluvchilar asosan Xindiston va Eronda mavjud. Chunonchi Eronning Yazd va Gilon viloyatlarida ularning soni 100 ming, Xindistonning Maxarashtra va Gujarot shtatlarida 115 mingdan ziyodni tashkil etadi.¹⁸

2-masala bayoni. Musulmon Renessansi –Sharq uyg‘onish davri ma‘naviyatining xususiyatlari

O‘rta Osiyo tarixiy voqealarga g‘oyat boy o‘lka bo‘lishi bilan birga azaldan ilm – fan, madaniyat va ma‘naviyatning markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Bu o‘lka dunyoga ma‘naviyat va ma‘rifatning barcha sohalarida yuzlab, minglab jahonmushul ulug‘ zotlar, davlat arboblari tarbiyalab bergan. Umumbashariyat ma‘rifatparvarligini yaratishda buyuk ajdodlarimiz bevosita ishtirok etganlar, uning taraqqiyoti va boyishiga ulkan hissa qo‘shganlar. O‘rta Osiyo madaniy merosi jahon madaniyati va ma‘rifatining uzviy ajralmas tarkibiy qismidir.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma‘naviyat –engilmas kuch” kitobida ta‘kidlaganidek: “Bu tabarruk zamindan ne –ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog‘liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichda ko‘tarilishida ona yurtimizda tug‘ilib kamolga yetgan ulug‘ allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi³⁹”.

Mustaqillik tufayli o‘rganish, tahlil etish imkoniyatiga ega bo‘ldik, ona zaminimiz ma‘naviy merosini chuqurroq o‘rganish bizning muqaddas vazifamizdir.

IX –XV asrlarni Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida shartli tarzda “Renessans” (uyg‘onish) davri deb ataladi. Ma‘naviyat va ma‘rifatning g‘oyat gullab –yashnashi bu davr uchun harakterli bo‘lgan. Bu davrda qomusiy ilm egalari, ajoyib shoirlar, buyuk davlat arboblari yetishib chiqqan. Dunyoviy fanlarning tez sur‘atlarda

¹⁸ Қаранг. Ўзбек миллий энциклопедияси. 3-жилд, 683-бет.

³⁹ Ислон Каримов “Юксак маънавият –енгилмас куч” Т – “Маънавият” 2008 -30 бет

taraqqiy etishi keng tarjimonlik faoliyatiga ta'sir etadi. Bu jarayon, ayniqsa, halifa Ma'mun davrida (813 -833). Bag'dodda "Bayt -ul hikma"(donolar uyi) tashkil etilgan paytda tezlashdi. Yunon falsafasi va taboati, hind hisobi, al -himiya va ilmi nujumga asarlar arab tiliga o'girildi. Bunda Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan mutafakkirlar al -Xorizmiy, al -Farg'oniy, al -Farobiy, Ibn Sino, al -Beruniy, kabi mutafakkirlar ham katta rol o'ynaydilar.

Renessans -uyg'onish davri madaniyati, ma'naviyati va ma'rifati mohiyati - e'tibori bilan dunyoviy, gumanistik dunyoqarashi, antik davr madaniy merosiga murojaat qilish, bamisoli uning "qayta uyg'onishi" (nomi ham shundan) ni anglatadi. Uyg'onish davri namoyondalari qarashlari insonning cheksiz imkoniyatlariga, uning irodasiga, aql -idrokiqiga ishonib qarashi bilan ajralib turadi. Sharq va G'arb uyg'onishi uchun umumiy xususiyatlar antik davrga murojaat qilish, uni " qayta tirilish" , tabiiy fanlar rivoji, fanda unversallik (qomusiylik)ni gumanizmni targ'ib etish va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Sharq renessansi davri quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

- Madaniyat, dunyoviy fanlar va islom aqidashunosligining taraqqiyoti;
- yunon, rum, fors, hind va boshqa madaniyatlar yutuqlariga suyanish;
- Astronomiya, matematika, minerologiya, jo'g'rofiya, kimyo va boshqa tabiiy fanlar rivoji;
- Uslub (metodologiya)da -ratsionalizm, mantiqning ustunligi;
- Insoniy do'stlik,yuksak ahloqiylikning targ'ibot etilishi ;
- Falsafaning keng darajada rivoj topishi;
- Adabiyot, she'riyat, ritorikaning keng miqyosda rivojlanishi;
- Bilimdonlikning qomusiy harakterda ekanligi;

Bu davrga kelib, avvalo O'rta Osiyo, Eron, Iroq va Suriya ilmu fan va madaniyatning yirik o'chog'iga aylandi. Xorazm, Buxoro, Xirotda yirik ilmiy markazlar tashkil topgan edi. Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sino, Farg'oniy, Beruniy, Imom al -Buxoriy, Imom Iso at - Termiziy, Hakim at -Termiziy kabi O'rta Osiyolik olimlar va ulamolarning dong'i yetti iqlimga tarqalgan edi. O'rta Osiyoning qadimiy, ko'hna va hamisha navqiron Buxoro, Xiva , Samarqand kabi shaharlari qadimdan fan, madaniyat va ma'naviyatning markazi bo'lib kelganligi bilan ajralib turadi.

O'rta Osiyo tabiiiy -ilmiy tafakkuri rivojining boshlanishi buyuk alloma Ahmad al -Farg'oniy va Muso Muhammad al -Xorazmiylarning nomi bilan bog'liqdir. Ularning har ikkisi ham Bag'doddagi "Bayt ul -hukma" ning yetakchi ilm sohiblaridan sanalgan. 1998 yilda Ahmad al -Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi yurtimizda keng nishonlandi. Uning vafoti 861 yildir. U mashhur falakiyotshunos olim. Uning asosiy asarlari "Astronomiya va astrolyabiyaga kirish", " Falakdan bo'ladigan sabablar" , "Astrolyabiya fani usullari", "Osmon harakatlari va

yulduzlar ilmi” va boshqalar sanaladi. Ahmad al –Farg‘oniyning “Astronomiya asoslari “ kitobi o‘sha davrdagi astronomiya sohasidagi bilimlarning qomusi bo‘lgan. Unda qadimgi falakiyotshunoslik bilimlari, uning qoidalari, usullari bayon qilingan. Asar XII asrdayoq lotin tiliga tarjima etilib, ko‘p asrlar davomida Yevropada astronomiya bo‘yicha qo‘llanma, darslik, sifatida hizmat qilib kelgan. “ Yevropada Al – Fraganus nomi bilan mashxur bo‘lgan bu allomaning ilm fan rivojidadagi nufuzi shu qadar yuksak ediki, uning ismi sharifi yer kurrasidagina emas, balki samoda xam shuxrat topdi. O‘n oltinchi asrda oydagi kraterlardan biriga uning nomi berilgani bu fikrni isbotlaydi”⁴⁰.

Muhammad Muso al –Xorazmiy (780 -850) Sharqning buyuk mutafakkiri qomusiy olimidir. Uning ilmi hujum, geodeziya ju‘g‘rofiya, ayniqsa, riyoziyot sohasidagi xizmatlari beqiyosdir. U arab, hind, lotin, yunon, fors tillarini bilgan . Xorazmiy bir qancha kitob va risolalarnig muallifidir. Bulardan eng mashhuri aljabr faniga oid “Kitob al jabr va al –muqobala” asaridir. Bu asar riyoziyotda yangi mustaqil fan – algebraning vujudga kelishiga zamin bo‘ldi. U tenglamalarni yechishming ikki usulini – al jabr, ya’ni qarama – qarshi ishoralarni yagon amusbat ishorga keltitish va al –muqobala, ya’ni bir xil xadlarni qarama - qarshi qo‘yishni kashf etadi.

Xorazmiy “Sind hind” , “ Ziji Xorazmiy “ Astrologiya bo‘yicha risola” , “Quyosh saoti haqida risola” , Yerning shakli haqida kitob”, “Trigometrik jadvallar”, “Musiqqa bo‘yicha xulosa”, “Tarix haqida” va boshq asarlarning muallifi. Uning buyuk hizmatlaridan biri Yevropa va Yaqin Sharq ilmini qadimgi hindlarning o‘nlik tizimi bilan tanishtirdi. Uchi Yevropada “Algaritmus” deb yuritganlar. Algoritm esa uning lotinlashtirilgan nomidir.

Sharq falsafiy, ijtimoiy, ahloqiy fikri rivojini Abu Nasr Farobiy (873 950)siz tasavvur etish qiyin. U “Sharq Aristoteli” , “Ikkinchi muallim” degan unvonga sazovor bo‘lgan mashhur mutafakkirdir. Sharqda qadim Yunonistonning eng mashxur faylasufi Aristotel “Birinchii muallim” deb yuritilgan. Farobiy ko‘p tillarni bilgan qomusiy olim. U yaratgan narsalarni umumiy soni 160 ta bo‘lib, uni 20ta guruhga ajratish mumkin :

a) Qadimgi yunon faylasuflari va tabiatshunoslari –Aristotel, Platon, Yevklid, Galen va boshqalarning ilmiy meroslarini tarjima qilish, sharxlash, targ‘ib qilish va o‘rganishga bag‘ishlangan asarlar;

b) O‘rta asr fanining tabiiy, ijtimoiy –falsafiy sohalariga oid risolalar;

Jumladan, “Aristotelning “Osmon sistemasi” kitobiga izoh” , “Aristotelning “Etika” kitobiga sharx” , “Sunstansiya haqida so‘z” , “Masalalar manbai” , “Qonunlar haqida kitob”, “Bo‘shliq haqida kitob” , “Musiqqa haqida so‘z” , “Fozil

⁴⁰ Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat –engilmas kuch” T – “ Ma’naviyat” 2008 -42 bet

shahar aholisining qarashlari” va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Farobiyning fikricha, insonning va jamoatning g‘alabaga erishuvchi, yaxshilikni qo‘lga kiritishi, ahloqiy va aqliy mukammallikka ko‘tarilishi inson va jamoatning o‘z qo‘lidadir.

U davlatni fozil va johil davlatlarga bo‘ladi. Fazilatli shaharlarda ilm, falsafa, ahloq -ma‘rifat birinchi o‘rinda bo‘lmog‘i lozim, deb biladi. Shunda jamiyat yetuklikka erishadi, deydi. Fozil shahar boshlig‘i bilimni, haqiqatni sevuvchi, yolg‘on va yolg‘onchilarga nafrat bilan qarashi, adolatni yaxwi ko‘ruvchi va adolat uchun kurashuvchi bo‘lishi kerakdeb aytadi. Farobiy insonning kamoloti uchun hizmat qilgan, hayr –ehsonli ishlar, go‘zal insoniy fazilatlarni yaxshilik deb hisoblaydi. Insonning kamolotiga to‘sqinlik qiluvchi dangasalik, bekorchilik kabi yomon odatlar, bilimsizlik, ongsizlik, kasb –hunarga ega bo‘lmaslik kabi nuqsonlarni yomonlik, deb kishilarni undan ogohlantiradi.

Farobiy hayotining oliy maqsadi baxt –saodatga erishuvdan iborat, kishilar bunga olamni o‘rganish, kasb –hunar va ilmlarni o‘zlashtirish –ma‘rifatli bo‘lish orqali erishadi deb qaraydi.

Xorazmlik buyuk olim Abu Rayhon Beruniy (973 1048) jahon fani tarixida eng mashhur siymolar qatoridan joy olgan, o‘z davridagi deyarli hamma fanlarga katta hissa qo‘shgan, mashhur qomusiy ilm sohibi, yirik tabiatshunos va faylasufdir. U o‘z umri davomida 150 dan ortiq asarlar yaratgan. Shulardan eng mashhurlari “ Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar” , “Ma’sud qonuni” , “Hindiston” , “Geoddiya” , “Mineralogiya” , “Saydana” va boshqalardir. Garchi Beruniy falsafiy –ahloqiy masalalarga oid maxsus asar yozmagan bo‘lsada, ammo ko‘pgina asarlarida bu masala haqida fikrlar bayon etgan.

Beruniy xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni va ilmiy hamkorlikni yuksak qadrlaydi. Ularni eng insoniy ahloqiy sifat deb maqtab, amalda o‘zi ko‘rsatdi. Bir necha yil Hindistonda yashagan 45 yoshli olim qadimgi hind –sanskrit tilini o‘rganib, bu tilga Evklidning “Elementlar” , Ptolomeyning “Almajistiy” asarlarini tarjma qildi va hind olimlarini yunon ilmi va falsafasi bilan tanishtirdi. O‘zi esa hindlarning ilmi, adabiyoti, falsafasi va ahloqini o‘rgandi. Bu haqda Beruniyning o‘zi shunday deb yozadi: “ O‘zimni Ularning munajjimlari huzurida , ustoz huzurida turgan shogirddek ta’zim bilan tutar edim....So‘ng hisob ilmining haqiqiy yo‘llarini ularga ravshanlantiradigan bo‘ldim.... Ularning kattalari meni o‘z tillari bilan “ Daryo” deb maqtar edilar”.

Beruniy fikricha, kishilar uchun dunyoda turli hollar bor. Bu maqtaluvchi yaxshilik va qoralanuvchi –yomonlikdir. Maqtaluvchi yaxshi hollar bo‘lib, ularning tayanchi poklik va to‘g‘rilik deb ko‘rsatadi.

Beruniy o‘z davrining eng ko‘zga ko‘ringan ilm –fan homiysi edi. U mamlakat ravnaqini fan, ma‘rifat rivojida ko‘rgan. Ilm –fan , ma‘rifat sahovatli hizmatni o‘tashi deb hisobladi. U shunday yozadi: “Mening butun fikri –yodim, qalbim –

bilimlarni targ'ib qilishga qaratilgan, chunki men bilim orttirish lazzatidan bahramand bo'ldim. Buni men o'zim uchun katta baxt deb hisoblayman”.

Insonning oliy fazilati boshqalar haqida, ayniqsa, kambag'allar haqida g'amxorlik qilishdani iboratdir. Beruniy doimo xalqlarning do'st, inoq, ittifoq bo'lib yashashi uchun kurashib keldi. U insoniyatga, u yaratgan madaniyatga qirg'in kelturuvchi urushlarni qoraladi. Beruniy madaniy hamkorlik va ilm – ma'rifatning keng tarqalishiga katta e'tibor bergan allomadir. Beruniy o'rta asr sharoitida haqiqiy tajribaga, kuzatish, eksperimentga asoslanuvchi aniq ilmiy tafakkurni boshlab beruvchilardandir, haqli ravishda “Amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrning “Beruniy asri” deb ta'riflaydi”⁴¹.

Jahon madaniyati va ma'rifatiga katta hissa, Sharq va yevropada “Shayx –ur rais olimlar boshlig'i” unvoniga ega bo'lgan alloma Abu Ali ibn Sino (980 – 1037)ning ilmiy merosi biz uchun bebaho hazinadir. U o'z umri davomida 450 dan ortiq asarlar yaratgan. Uning” Tib qonunlari” nomli 5 jilddan iborat kitobi asrlar davomida Sharq va Yevropada meditsina bo'yicha asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilib kelmoqda. “ Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari necha asrlar davomida Yevropaning eng nufuzli oliy o'quv yurtlarida asosiy tibbiyot darsliklaridan biri sifatida o'qitib kelindi”⁴².

Ibn Sino yoshligida zo'r mehnat, izlanish, g'ayrat bilan ilmlarni o'rganishga kirishgan. U bu haqda shunday yozadi: “Uyquga ketgan vaqtimda ham o'ngimdagi masalalarni ko'rardim. Shu holatda ko'p masalalar tushimda menga ayyon bo'lardi... shu zaylda hamma ilmlarni mustahkam egallay oldim. Insonning imkoniyat darajasida egallaydigan darajada bilimni egallab oldim. Aristotelning “Metafizika”sini “qirq bir marta qayta o'qidim”. U menga hatto yod bo'lib ham qoldi. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, men uning maqsadlarini tushuna olmasdim”, -deb yozadi u tarjimai holidi. Ibn Sino bu muammoni Farobiyning Aristotel “Metafizika” siga yozgan sharhini o'qib hal etadi.

Ibn Sino umrining ko'p qismini sarsonlikda o'tkazishga qaramay – matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, farmokologiya, psixologiya, filologiya, falsafa va tabobat sohasida barakali ijod qilgan mutafakkirdir. Uning asarlaridan 100 tachasi bizgacha yetib kelgan, xolos. Ularning qatoriga o'rta asr ilmining barcha muhim sohalarini o'z ichiga olgan, xususan – mantiq, fizika, matematika, metafizikani to'liq qamrab olgan “Kitob ash –shifo”, 20 tomndan iborat “ Kitob ul –insof “, “Donishnoma”, “Lisonut –tayr(Qushlar tili)”, “Solomon va Ibsol”, “Hayy ibn Yaqzon” kabi asarlari kiradi. U o'zining falsafiy – ahloqiy asarlarida hukmdorlarni qonunsizliklarga qarshi kurashishga, xalqning talablariga quloq solishga, adolat yuzasidan ish yuritishga chaqiradi. Adolatni

⁴¹ Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch” T – “ Ma'naviyat” 2008 -42 bet

⁴² Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch” T – “ Ma'naviyat” 2008 -43 bet

inson hatti –harakatining eng yaxshi bezagi deb ko‘rsatadi. Uning fikricha, yaxshili donolikda, donolik esa hodisalarni bilish orqali qo‘lga kiritiladi. Bilim , ma‘rifat inson hayotining ajralmas tomonidir. U shunday yozadi:

Jon agar bir shish bo‘lsa, ilm huddi lampadir,
Hikmati insonni bilgil, ul chirog‘da lampayog‘.

Ibn Sino”Solomon va Ibsol” qissasida rostgo‘ylik, sadoqat, pok muhabbat, irodaning makr ustidan g‘alabasini tasvirlaydi.

Mutafakkir kishilarni do‘stlik va haqiqatga, do‘stlikning qadriga yetishga chaqiradi. Insonni esa olamdagi mavjudotlar ichida eng buyuk zot, deb qaraydi. Shunday qilib ,Ibn Sino O‘rta asr Sharq va Yevropa madaniyati va ma‘rifati taraqqiyotiga juda katta ta‘sir ko‘rsatdi.

IX –XII asrlar ma‘naviyati va ma‘rifati rivojida XI asrning ko‘zga ko‘ringan shoiri Yusuf Xos Xojib ham katta o‘rin tutadi. Yusuf Xos Xojib o‘zining yagona dostoni bo‘lmish “Qutadg‘u bilig” (“Baxtga elutuvchi bilim”) bilan mashhurdir. Bu asar 1069 yilda yozilgan bo‘lib, uni shoir Qashqar hokimi Sulaymon Arslon Qoraxonga bag‘ishlangan. Shu asari uchun unga Xos Xojib, ya‘ni buyuk xonning maxsus maslahatchisi unvoni berilgan. Doston qahromonlari –hokim Kuntug‘di adolat ramzi, vazir Oyto‘ldi baxt ramzi sifatida, vazirning o‘g‘li O‘gdulmish aql ramzi sifatida tasvirlanadi.

Mutaffakir inson faqat jamiyatda, boshqa kishilar bilan muloqotda va foydali mehnatda chinakam kamolga yetadi, degan g‘oyani ilgari suradi. Insonga foyda keltirmaydigan inson –o‘likdir, deb ta‘kidlaydi. Jamiyatda mehnat ahli –dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar hal qiluvchi ro‘l o‘ynaydi, deb uqtiradi. Shuning uchun, Yusuf Xos Xojib hokimga adolatli bo‘lish, o‘zboshimchalik va qonunsizlikka yo‘l qo‘ymaslikni maslahat beradi.

Mutafakkir fikricha, odam kimligidan qat‘iy nazar inson bo‘lishi lozim, chunki dunyoda faqat insoniylikkina abadul –abad qoladi. Shu sababli o‘z nomini hamisha yaxshilik bilan eslashni istagan kishi faqat yaxshilik qilishi lozim. U shunday yozadi: “Kimning odobi yaxshi va ahloqi to‘g‘ri bo‘lsa, u kishi maqsadiga yetadi va baxt unga kulib boqadi” , chunki “ yaxshi ahloq jamiki yaxshiliklarning zaminidir”

Yusuf Xos Xojib ilm va ma‘rifatni jamiyatning taraqqiyotiga, gullab – yashnashiga olib keluvchi kuch deb bilib, ularni egallashga da‘vat etadi. U kishini zulmat ichidagi uyga, bilimni esa ana shu uyni nurafshon etuvchi mash‘alaga o‘xshatadi. Shoir kishilarni so‘zlaganda o‘ylab gapirishga chaqiradi. So‘zingga ehtiyot bo‘l, boshing ketmasin. Tilinga ehtiyot bo‘l, tishing sinmasin. Ma‘nodor so‘z donolik alomatidir. Shu boisdan odam ko‘proq quloq solib, kam gapirishi kerak, deb aytadi.

Yusuf Xos Xojib shuningdek, insonning tashqi qiyofasi uning ichki ma'naviy dunyosiga mos bo'lishiga katta ahamiyat beradi. Mutafakkir yolg'onchi, munofiq kishilar jamiyat uchun zararli, bunday kishilardan uzoq bo'lish kerak, deydi.

Shunday qilib, XI asrda yashab ijod qilgan Yusuf Xos Xojib " Qutadg'u bilig" asarida ma'rifatparvarlik, yuksak ahloqiylik g'oyalarini ilgari suradi. Bu asar katta ma'naviy –ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyat ega.

Biz o'rganayotgan davrda ahloqiy –didaktik mavzuda asar yaratgan va shuxrat qozongan shoir Ahmad Yugnakiydir. U XII asr oxiri va XIII asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan. Undan bizgacha " Hibbatul –haqoyiq" dostoni yetib kelgan. U o'z dostonida dunyoning bevafoqligi, o'tkinchiligi haqida gapirib : dunyo go'yo karvon faqat ozgina fursat to'xtab o'tiladigan rabot (karvonsaroy). Shu sababli, deb ta'kidlaydi u, bu dunyodagi rohat –farog'atga intilish befoyda, uni deb azob –uqubat chekishga arzimaydi, chunki " sen bugun ko'rib turgan boyluk ertaga g'oyib bo'ladi, sen o'zimizniki deb bilgan buyumlar boshqalarga qolib ketadi. Shuning uchun faqat yashilik urug'ini sepish uchungina yashash kerak deb uqtiradi. U bilimli, ma'rifatli kishilarni yetuk kishilar deb hisoblaydi. Inson bilan bilimni ajratib bo'lmaydi, faqat bilimli kishigina kamol topishi mumkinligini ta'kidlaydi:

Olim odam –qimmatbaho dinordir,

Nodon, johil odam –qimmatsiz soxta puldir.

Uning fikricha, inson olim bo'lgandan keyingina ulug'lik darajasiga ko'tariladi va yaxshi nom qoldiradi. Bilimsiz kishi sog'lom bo'lsa ham, u o'likdir deb ko'rsatadi. Bilim inson uchun bitmas – tunganmas mulkdir, deb t'kidlaydi. Shoir ahloq – odobdagi asosiy narsa tildir. Til baxtiyorlik va baxtsizlikning sababidir, deb uqtiradi. Shu bilan birga, olim halollik va haqgo'ylik, saxiylik inson uchun fazilat, unga intilish kerak deya, xasislik va badfe'llikni qoralaydi. Kamsuqumlik va kamtarinlik insonni ulug'laydi, deb ko'rsatadi.

Kishilarga faqat yaxshi kishilardan do'st orttirishni maslahat beradi. Faqat yaxshi ishlar kutibgina yaxshi natijalar kutish mumkin, chunki "..... tikan ekib, hosiliga uzum olmaysan" , deb aytadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, IX –XII asrlar davomida Markaziy Osiyoda ilm, fan va ma'rifat yuqori darajada rivojlangan. Ularning zaminida avlod, ajdodlarimizning yuksak darajadagi ma'naviyatga ega ekanligi turadi. Chunki ma'naviy qashshoq inson hech qachon ilm , fan, ma'rifat va madaniyatni rivojlantira olmaydi. Uning ulkan salohiyatidan bahra ola olmaydi.

Buyuk avlod ajdodlarimiz tomonidan amalga oshirilgan ulkan ishlar jahon sivilizatsiyasining yutug'i sifatida barcha xalqlarga xizmat qilib kelmoqda. Bu o'z navbatida har bir o'zbek farzandida g'urur uyg'otadi ba bu ma'naviy boyluklarni chuqur o'zlashtirishga intilishini kuchaytirib boraveradi.

Uygʻonish davrida islom madaniyati oʻzining yuksak taraqqiyotiga erishdi. Islom Arabistonda vujudga kelgan boʻlsa ham, islom ilm fani Movarounnahrda ravnaq topdi. Bu diyor allomalari oʻz durdona asarlari bilan oʻrta asrlarda Qurʻon tafsiri, hadisshunoslik, arab filologiyasi, fiqh (islom huquqshunosligi), kalom (islom falsafasi) ilmlarining turli sohalarida yangi davrni boshlab berdilar. Qurʻonni tafsir qiluvchilarning aksariyati “Imom al –Moturudiy, Imom Abu Lays as –Samarqandiy, Imom az Zamahshariy, Imom an –Nasafiy” ushbu diyor vakillari edi.

Xadislar toʻplami sunna deb nom olgan boʻlib, islom dunyosida eng nufuzli deb eʼtirof etilgan oltita ishonchli hadislar toʻplami mualliflarining aksariyati Oʻrta Osiyolikdir. Ular ichida buyuk muhaddis Imom al –Buxoriyning “Sahihi Buxoriy” toʻplami eng moʻtabar hisoblanadi. “Bu moʻtabar zot merosining gultoji boʻlmish eng ishonchli hadislar toʻplami – “Al - jomeʼ as –sahih” kitobi islom dinida Qurʻonni Karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba boʻlib, ahli islom eʼtiqodiga koʻra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulugʻi hisoblanadi”⁴³.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72 – sessiyasidagi maʼruzasida Markaziy Osiyo uygʻonish davrining koʻplab yorqin nomoyondalari, ularning islom va jahon sivilizatsiyasiga qoʻshgan bebaho hissasi haqida soʻz yuritib Imom Buxoriy faoliyatiga alohida urgʻu berdi. “Al –Jomiʼ as – Sahih asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta boʻlib, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat”⁴⁴.

Bu davrda ushbu zaminda islom huquqi –shariat rivoj topgan boʻlib, bu sohada ham Movarounnahrlik allomalar boy meros qoldirganlar. Ayniqsa Burhoniddin al –Margʻinoniyning “Al – hidoya” asari islom olamida mashxur boʻldi. “Margʻinoniyning oʻlmas merosi, xususan, ellik yetti kitobdan iborat “Hidoya” – “Toʻgʻri yoʻl” deb atalgan asari, mana, sakkiz asrdiki, musulmon mamlakatlarida eng nufuzli va mukammal huquqiy manba sifatida eʼtirof etib kelinayotgani albatta bejiz emas”⁴⁵.

Musulmon olamida keng tarqalgan buyuk taʼlimot –tasavvuf jamiyat maʼnaviy hayotining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Oʻrta Osiyoda Yassaviya, Kubraviya va Naqshbandiya tasavvuf tariqatlari shakllanib, keng tarqaldi. Bahouddin Naqshbandning “Diling ollohda, qoʻling mehnatda boʻlsin” degan hayotbahsh hikmati islom dinining maʼno mohiyatini yorqin ifodalab beradi.

⁴³ Islom Karimov “Yuksak maʼnaviyat –engilmas kuch” T – “Maʼnaviyat” 2008 -38 bet

⁴⁴ Sh.M. Mirziyoev. BMT Bosh Assambleyasining 72 –sessiyasidagi nutqi 2017 yil 19 sentabr

⁴⁵ Islom Karimov “Yuksak maʼnaviyat –engilmas kuch” T – “Maʼnaviyat” 2008 -40 bet

3 –masala bayoni Mustamlaka va mustabid tuzim sharoitida o‘zbek xalqini milliy va diniy qadriyatlardan mahrum etilishi va toptalishi

Tarixdan ma’lumki, bir xalqni o‘ziga tobe qilishni istagan kuchlar avvalo, uni o‘zligidan, tarixidan, madaniyatidan judo qilishga intiladi. Bosib olingan mamlakat xalqlari madaniy-ma’naviy taraqqiyotini bo‘g‘ib qo‘yish istilochi, bosqinchi mamlakatlar tomonidan mustamlakachilik tartiblarini saqlab turish va mustahkamlashning azaliy, tarix sinovidan o‘tgan an’anaviy yo‘llaridan biri hisoblanadi. Istilochi mamlakat itoat qildirilgan xalqlarni bora-bora o‘ziga singdirib yuborishni, buning uchun o‘z mafkurasi va g‘oyalarini ularga majburan joriy etish, madaniyatiga shikast yetkazish, milliy tili, milliy urf-odatlar va milliy qadriyatlari rivojiga yo‘l bermaslikni o‘z siyosatining asosiy maqsadi deb biladi. Xitoy donishmandi Konfutsiy bundan 2700 yil oldin o‘z imperatoriga shunday maslahat bergan ekan: “Hoqonim, agar biror mamlakatni bosib olib, u yerda uzoq hukmronlik qilmoqchi bo‘lsangiz, dastavval o‘sha yerda yashayotgan xalqni o‘z tarixiy madaniyatidan mahrum eting, ma’naviy bo‘hronni kuchaytiring. O‘z madaniyatidan bebahra bo‘lib, ma’naviy qashshoqlik holatiga uchragan xalq uyushmaydi, ichki nizolar girdobiga o‘raladi, sizga qarshilik ko‘rsata olmaydi. Bunday holga kelgan halqni, mamlakatni idora qilish qiyin bo‘lmaydi”⁴⁶. Madaniyat va ma’naviyatni barbod etish, milliy til, urf-odatlar kamolotiga yo‘l bermaslik itoat ettirilgan xalqni jilovda ushlab turishning eng zarur va nozik yo‘llaridan biri ekanligini istilochi va bosqinchilar doimo juda yaxshi bilgan. Shuning uchun ham mustamlakachi va bosqinchilar Xitoy donishmandi aytgan gaplarni oldindan rejalashtirib qo‘yishdi.

Madaniyat, ma’naviyat va ma’rifat zarbaga uchrab, xalqning, mamlakatning ma’naviyati va ma’rifati barbod bo‘laversa, odamlar o‘z-o‘zidan e’tiqodsiz bo‘lib ketadi. Undan o‘lkada, mamlakatda ommaning olomonlashuvi, siyosiy manqurtlik, beparvolik boshlanadi. Oxir-oqibatda milliy g‘urur, iftixor, milliy qadriyatlar asta-aekin zaiflasha boshlaydi. Ana shunday o‘lkani, mamlakatni, uning xalqini mustamlakachilik kishanlarida ushlab turish, itoatkor qulga aylantirish mumkin.

Chingizxon ham O‘rta Osiyo zaminini istilo qilayotganida o‘z sarkardalariga: Shaharlarga nodon, irodasiz, ahmoq kishilarni oshliq etib tayinlanglar, ularni qo‘llab-quvvatlanglar va ko‘klarga ko‘tarib maqtay beringlar, mahalliy xalqlarning aqlli, bilimli, obro‘-e’tiborli kishilarini yo‘q qilinglar, deb topshiriq berar ekan. Bu siyosatning ham chuqur o‘ylagan sabablari bo‘lgan. O‘z madaniyatidan, obro‘-e’tiborli, dono vakillaridan judo bo‘lgan xalq ma’naviy rahnamosiz qolib qovusha va uyusha olmaydi.

⁴⁶ Qarang: Guseynov A.A. Velikie moralisty. M., 1995, 36-bet.

Tarix shundan guvohlik beradiki, hamma yerda bosqinchi hukmdorlar bosib, olingan mamlakatlar hududlarida Xitoy donishmandi va Chingizxon aytgan tarzda siyosat yurgizdilar. Bundan O'rta Osiyo xalqlari ham mustasno emas. Ilm-fan va madaniyat, ma'naviyatning eng rivojlangan markazlaridan bo'lgan Turkistonni zo'ravonlik yo'li bilan bosib olgan chor hukumati yerli aholini qaramlik va qullik, siyosiy karaxtlik va ruhiy qashshoqlik holatida ushlab turishni mustamlakachilik siyosatining markaziy masalalaridan biri deb hisobladi. "murakkab va hal qiluvchi pallasida har qanday millat va ellat o'z ahlligi birdamligini o'z saqlab o'z milliy manfaat yo'lida qat'iyat bilan turmasa, mas'uliyat va xushyorligini yoqoqtadigan bo'lsa ohir oqibatda o'zuning eng katta o'zining tengsiz boyligi bolmish mustaqilligi va ozodligida judo bo'lishi shubhasiz mana shunday mashum qismat Turkiston xalqlarini ham chetlab o'tmadi."⁴⁷ Bosib olingan mamlakatda ilm-fan, ma'naviyat, madaniyat istilochi mamlakatga nisbatan bir necha bor ustun bo'lsa, unday joylarda mustamlakachilik tartibini saqlab turish oson kechmaydi. Bizning o'lka esa bosqinchi chor Rossiyasiga nisbatan ma'naviy-ma'rifiy va madaniy taraqqiyot jihatdan ancha ustun turardi. Chor hukumati olimlar maslahatiga amal qilib, bizning o'lkada qanday qilib bo'lmasin, o'zlarining yerli xalqidan ustunliklarini isbotlashga va shu tariqa "uzil-kesil" g'alabaga erishishga astoydil kirishdilar.

O'tmishdagi bosqinchilar singari chor bosqinchilari ham bu sohadagi amaliy ishni Turkiston xalqini bir necha ming yillik tarixi, madaniyati, urf-odatlaridan mahrum qilish, ruhan, ma'nani mayib-majruh qilishdan boshladilar.

Bu chuqur o'ylab, uzoqni ko'zlab va rejalashtirib qo'yilgan mash'um siyosat edi. Bu siyosatning zamirida chor hukumatining manfaatini har tomonlama himoya qilish va Turkiston xalqlarini, shu jumladan o'zbek xalqini milliy o'zligini anglashdan butkul mahrum qilib o'tmishini unutgan, vatanparvarlik tuyg'usidan judo bo'lgan, istiqbolini ko'rolmaydigan odamlar guruhiga aylantirish muddaosi turgan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Inson uchun tarixidan judo bo'lish – hayotdan judo bo'lish demakdir"⁴⁸.

Ma'naviyat va ma'rifat xalqining o'z o'tmishini bilishi va istiqbolini tushunib yetishiga yordam beradi, Vatanni sevish va u bilan faxrlanishga da'vat etadi, dushmanlarga, bosqinchi va mustamlakachilarga qarshi murosasiz kurash olib borishga, erk va adolat uchun jasorat ko'rsatishga undaydi.

Ma'naviyat va ma'rifatan mahrum xalq milliy jihatdan: o'zini anglab ololmaydi, taqdirga tan berib yashashni o'ziga ep ko'radi. Chor amaldorlari buni yaxshi

^{47 47} Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" T – "Ma'naviyat" 2008 -51 bet

⁴⁸ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. 10-bet.

anglagan holda o‘z mustamlaka asoratiga solgan Turkiston xalqlarini ma’naviyat, ma’rifat va madaniyatdan bebahra qoldirish masalasiga alohida ahamiyat berdilar, bu yo‘lda hech tap tortmay insofu diyonatni, rahm-shafqatni butunlay unuttildilar.

Chor Rossiyasining Turkistondagi siyosati milliy tuyg‘uni poymol etishga, milliy qadriyatlarni toptashga, butkul yo‘qotib yuborishga qaratilgan edi. Chorizm bu o‘lkada savodsizlik, bilimsizlik holatini vujudga keltirish va uni mustahkamlashdan manfaatdor edi.

Chorizm mustamlakachilik siyosatini Sharqda qon va qilich bilan joriy qilgan generallardan biri M.D.Skobelev: “Millatni yo‘q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, tilini, san‘atini yo‘q qilsang bas, tez orada o‘zi tanazzulga uchraydi”, - deb “bashorat” qilgan edi. Uning ana shu “dono” ko‘rsatmasi Turkistondagi ma’naviyat, ma’rifat va madaniyatga nisbatan amalga oshirilgan jaholat va yovuzliklar uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qildi. Chorizm Turkiston xalqlarining savodsizlik, bilimsizlik holatida ushlab turishdan manfaatdor edi. Uning maqsadi g‘aflat uyqusida yotgan, zamonaviy fan-texnika, ma’rifat yutuqlaridan behabar, milliy ongi past, milliy g‘ururi toptalgan xalqni talash, ezishdan iborat edi. Chor hukumatining mustamlaka o‘lkalardagi gumashtalari “yarim podsho” Kaufman, general-gubernator Kuropatkin, jallod Golovanovga o‘xshaganlar Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon, Toshkentdagi buyuk asoriatihalarni, masjid-madrasalarni, arklar tarixiy-madaniy yodgorliklarni to‘pga tutib yer bilan yakson qildilar. Axir qanday qilib qo‘l ostidagi mazlum xalqlar madaniyati, ma’naviyati, ma’rifati, tarixi bosqinchi-jallodlarnikidan baland bo‘lishi kerak? Bunga ular toqat qila olmas edi. Ularning usuli qo‘y qilish, madaniyatni, til va tarixni, Turkiston xalqlari, shu jumladan o‘zbek xalqi g‘ururlanadigan, iftixor qiladigan nimaiki bo‘lsa, hamma-hammasini, tag-tugi bilan ayamay yakson qilish edi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “...Tarix – xalq ma’naviyatining asosidir”⁴⁹.

Chor hukumatining Turkistondagi mustamlakachilik siyosatining tub mohiyatida qanday maqsad va muddao yotganligini xalqimizning bilimli, madaniyatli, ziyrak oqilu dono farzandlari allaqachon tushunib yetgan edilar. Chor hukumati mustamlakachilik siyosatini fosh etgan, xalqni erk va ozodlikka, bilim va madaniyatga chorlagan, milliy qadriyatlarimizni qo‘llab quvvatlagan, shu yo‘lda jafoda chekib halok bo‘lgan buyuk xalq egasi Abdurauf Fitrat o‘zining “Turkistonda ruslar” risolasida: “Ko‘rdim, kezdim, eshitdim, o‘qidim. Mamlakatlar orasida Turkistonimiz kabi baxtsiz bir mamlakat yo‘qdir... Rus kapitalistlari bilan rus poplarining sodiq ishonchli qorovullari bo‘lg‘on eski Rusiya hukumati ellik yil orasida Turkistondagi turk bolalarining foydalariga biror ish ko‘rdimi, ko‘rmoqchi bo‘ldimi? Mana shu savolga – “Yo‘q” dan boshqa bir yo‘qdir. Yurtimiz ellik bir

⁴⁹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. 4-bet.

yil idorai askariy ostida turdig'i uchun biz Ovro'poning madaniy millatlari bilan ko'risholmadik, ularning ijtimoiy va iqtisodiy fikrlaridan istifoda qilolmadik. Bizning ko'zlarimizni ochirmaslik fikri uchun fikri ochiq tatar qarindoshlarimizning dahi Turkistondan yer olmoq va Turkistonda maktab ochmoqlari man etildi.

Bizning diniy va milliy hissiyotlarimizni o'ldirmoq tilagi bilan Ustroutov kabi mutasib poplarning irodasinda gazeta chiqarildi, maktab ochildi, lekin o'z millatimiz va diyonatimizni anglamoq uchun o'z tarafimizdan ochilgan maktablar va g'azitalar bog'landi, sha'riy mahkamalarimizning huquq va salohiyatlaridan buyuk bir qisti g'asb etildi. Mahkamalarda, uylarda, yo'llarda, tijoriy ishlarda, hatto vag'on arbalarinda Turkiston yerlisining huquqi Turkiston musofiri bo'lg'on rus va armanidan tubanda tutilgan", - deb yozgan edi. Abdurauf Fitratning qalb nidosi bo'lgan ushbu so'zlarda mustamlakachilik siyosatining barcha tomonlari fosh etilgandi.

Shunday qilib, chor hukumatining Turkiston xalqlariga nisbatan tutgan mustamlakachilik siyosati bu xalqlar o'rtasidagi har qanday davlat kurtaklarini yo'q qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy taraqqiyotini bo'g'ish, ularga erkinlik bermaslik, milliy qadriyatlarini yerga urish, kamsitish, milliy g'ururlarini, ma'naviyatini poymol etish, qo'rquvda ushlashdan iborat edi. Bu siyosatni amalga oshirish orqali mustamlakachilar o'lkada o'zining hukmronligini abadiylashtirishni maqsad qilgan edilar. "El yurtimiz o'zining lo'p asrluk tarixi davomida bunday mash'um hatarlarni necha bor ko'rgan, ularni jabrini tortgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma'naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali o'tmish, bosib o'tgan mashaqqatli yo'limiz barchamizga saboq bo'lishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo'lib yashashga da'vat etishi lozim. O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutmagan millatning kelajagi yo'q". Rossiyada Oktyabr to'ntarishidan keyin, sovet hokimiyatining dastlabki yillarida boshqa jamhuriyatlarda bo'lganidek, O'zbekistonda ham, albatta, madaniy, ma'rifiy taraqqiyot bo'ldi, tabbiy va ijtimoiy fanlar anchagina o'sdi, milliy ziyolilar safi kengaydi, iqtisodda, ijtimoiy, siyosiy hayotda ijobiy o'zgarishlar bo'ldi. Bundan ko'z yumish mumkin emas. Lekin O'zbekiston Mustaqilligiga qadar bo'lgan yetmish to'rt yil ichida madaniy-ma'rifiy taraqqiyotimiz imkoniyatlaridan to'la foydalana olmadik. "Markaz" tomonidan yurgizilgan davlat siyosati tufayli milliy ongimiz, milliy tilimiz, tariximiz, urf-odatlarimiz rivojlanishiga yo'l bermaydigan g'ovlar paydo bo'ldi. Agar Chor Rossiyasi bizning ma'naviyatimizni turg'unlikda; qoloqlikda tutishga uringan bo'lsa, bolshevik-shovinistlar mahalliy xalqlarni o'z milliy madaniyatidan butkul begonalashtirish siyosatini tutdilar. O'zbek xalqining madaniyati va ma'naviyatiga, milliy ongi

rivojlanishiga to'siqnlik qilish sobiq sovet jamiyati davrida chorizm zamonidagidan ko'ra kuchaysa-kuchayadiyu, ammo kamaymadi. Sho'ro davlati milliy chekka o'lka xalqlarini ezish, boyliklarini talash maqsadida chorizm mustamlakchilik siyosatini oshkora davom ettirdi. Sho'ro tuzum milliy birdamlik, milliy tuyg'u rivojlanishi va yuksalishiga millatchilik deb qaradi. "Biz boshimizdan kechirgan sobiq mustabid tuzum davrida milliy ma'naviyatni rivojlantirishga mutlaqo yo'l qo'yilmagan. Aksincha, halqimizning tabiati, yashash tarziga yot bo'lgan kommunistik mafkurani har qanday yo'llar va zo'ravonlik bilan joriy etishga harakat qilingan"⁵⁰.

Sho'ro zamonida xalqlarimizning ming yillik tarixi, e'tiqodi rad etildi, o'rniga "shaxsga sig'inish" balosi ro'baro' bo'ldi.

Prezidentimiz Islom Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" risolasida ta'kidlaganidek: "...Sho'rolar zamonida tarixiy haqiqatni bilishga intilish rahbatlantirilmas edi, hukmron mafkura manfaatlariga xizmat qilmaydigan manbalar xalq ko'zidan iloji boricha yiroq saqlanardi"⁵¹. "Qariyb 150 yil davom etgan tariximizning tom ma'nodagi qora kunlari bo'lmish o'sha zamonda bir paytlar o'zining qudratli davlatchiligi, buyuk farzandlari, yuksak ilmu madaniyati, obod shahar va qishloqlari bilan dunyoni hayratda qoldirgan el-yurtimiz qanday og'ir mashaqqatlarga duchor bo'lganini yaxshi bilamiz"⁵².

Insonlarning ma'naviy-axloqiy yuksalishiga ko'maklashadigan muqaddas kitob Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Shayx Najmiddin Kubro, Az-Zamaxshariy, Bahouddin Naqshband singari ulamoyu fuzalolarning mo'tabar asarlari xalqdan yashirildi, ularga o't qo'yildi, suvlarga oqizildi. Qaramlik va mo'telik yillarida sodir bo'lgan bu dahshatli voqea va hodisalar o'zbek xalqining milliy ma'naviyati muayyan darajada tanazzulga uchrashiga sabab bo'ldi. Sho'ro hukumati va tuzum qurila boshlagan dastlabki yillaridayoq, avvalo butun ziyolilar va hatto eski o'zbek yozuvini biladigan (mulla deb nom olgan) kishilar ham qamoqlarga jo'natildi. Keyinchalik esa uyda arab alifbosi yozuvidagi kitob va qo'lyozmalarni saqlagan odamlar qattiq ta'qib ostiga olindi. Xullas, o'zbek xalqining ilg'or qismi – ziyolilarga, ma'rifat homiylariga juda katta zarba berildi. Bu qatag'onlik xatti-harakati o'tgan yetmish yil davomida u yoki bu darajada doimiy va uzviy ravishda davom etdi.

Milliy ma'naviy qadriyatlardan biri milliy urf-odatlar, an'analar, diniy-tarbiyaviy marosimlar, xalq bayram va sayillari kabilarga qilingan hujum o'zbek xalqi boshiga tushgan og'ir dard bo'ldi.

⁵⁰ Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asari 5-bet.

⁵¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., "Sharq", 1998, 4-bet.

⁵² Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asari 25-bet.

Umuman olganda, sho‘ro yillari davomida o‘zbek xalqi erkin fikrlash huquqidan mahrum etildi. Bu esa, o‘z navbatida, xalqning ma‘naviyatiga salbiy ta‘sir qildi.

Yuqorida qayd etganimizdek, 30-yillarning o‘rtalariga borib milliy ma‘naviyatimizni to‘liq sindirib, yanchib tashlashga qaratilgan siyosat izchil amalga oshirila boshlandi. Asl ziyo egalari otib, bukib, tashlandi. Bular qatoriga Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Usmon Nosir kabi xalqimizning, millatimizning, uning ma‘naviyatining o‘nlab, yuzlab asl o‘g‘lonlarini kiritishimiz mumkin.

Qaramlik va mutelik yillari o‘zlarini ilmning hamma sohasini yakkayu yagona bilag‘oni deb atagan kommunistik mafkura targ‘ibotchilari o‘z faoliyatlarida o‘tmishdan qolgan barcha ma‘naviy merosni butunlay inokr etish yo‘liga o‘tib oldilar. Navoiy, Bobur, Ulug‘bek, Yassaviy, Mashrab, Nodirabegim singari allomalar feodalizm davri namoyandalari, deb e‘lon qilinib, ularning meroslarini o‘rganish taqiqlandi. Buyuk allomalarning yubileylarini o‘tkazish esa millatchilik kayfiyatlarini kuchaytiruvchi omil sifatida baholandi.

O‘rta Osiyo xalqlarining O‘rta asrlarda jahon fani, madaniyati taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi haqida gapirish tarixni ideallashtirish deb ko‘rsatildi. O‘tmishning ulkan merosi, bebaho milliy ma‘naviyat qadriyati bo‘lgan qo‘lyozmalarni o‘rganish, nashr qilish imkoniyati chegaralab qo‘yildi.

O‘zbekistonda barcha dinlarning, birinchi navbatda, islom dinining ko‘zga ko‘ringan yirik vakillari birin-ketin qamaldi, surgun qilindi, imi-jimida otib tashlandi. Chorak kam bir asr davomida diniy-ma‘naviy tarbiyaga o‘rin berilmadi. Dahshatlisi shu bo‘ldiki, islom dinini “fosh etish” maqsadida aziz-avliyolarning mozorlariga o‘t qo‘yildi, maqbaralari ostin-ustun qilindi. Kommunistlar, rahbar hodimlar ota-onalari, yaqin kishilari janozasiga borishdan qo‘rqib qolishdi. Yurak yutib borganlar partiyadan o‘chirilib, ishdan olindi.

Xalq o‘rtasida dahriylikni targ‘ib qilish va dinga qarshi murosasiz kurash niqobi ostida o‘rta asr me‘morchiligining takrorlmanmas namunasi bo‘lgan, milliy naqshlar jilovlanib turgan minglab masjidlar, yuzlab madrasalar, xalqimizning milliy g‘ururi hisoblangan muhtasham qasrlar, tarixiy obidalar, xonlar, amirlarning saroylari vahshiylik va yovuzlik bilan buzib tashlanib, omborxonalariga, paxta quritadigan joylarga aylantirildi. Bu kabi xunuk ishlar “feodal o‘tmish, eskilik sarqitlaridan tozalash” degan qizil so‘zlar bilan beriladi.

Prezidentimiz shunday ta‘kidlaydi:

- “O‘zingiz o‘ylab ko‘ringlar, aziz do‘stlar, mustabid tuzum, mustamlakachilik davrida biz kim edik?
- Taqdirimiz, erkimiz kimlarning qo‘lida edi?
- Ka‘ba deb qaerga sig‘inar edik? Har tong “Assalom!...” degan madhiya ohanglari ostida kimlarga qulluq qilib uyg‘onardik?

- Tilimiz, dinimiz qay ahvolda edi? Imom Buhoriy, Imom termiziy, Xoja Bahouddin Naqshbandlarning muqaddas hoklariga e'tibor bormidi? Amir Temur, Bobur Mirzo va boshqa ulug' bobokalonlarimizning buyuk nomlari qaysi tuproqlarda qorishib yotgan edi?
- Milliy g'ururimiz, insonlik sha'nimiz, urf-odatlarimiz qanday tushunchalarga almashtirilgan edi?
- Xo'sh, o'zimizchi? O'zimiz o'zligimizni bilarmidik? Qanday mo'tabar zamin, ulug' ajdodlarimizning o'lmas meroslari bilan oziqlangan elning farzandlari ekanimizni anglarmidik?
- Aytinglar, o'sha kezlari O'zbekistonni dunyoda birov bilarmidi? Birov biz bilan hisoblasharmidi?
- Yurtimiz qanday va qancha beqiyos boyliklar hazinasi ekanidan qay birimiz habardor edik?
- Go'yo milliy iftixor bo'lmish paxta, haqiqatda milliy g'urur o'rniga bo'yinturuq bo'lib, xalqimizni yalangoyoq qilishdan, boshimizga azob-uqubat, ta'namalomatdan boshqa nima keltirardi"⁵³.

Mustaqillik tufayli diniy qadriyatlarga bo'lgan bunday salbiy munosabatlarga barham berildi.

O'tmish xalq og'zaki ijodi ma'naviyatimizning ilk sarchashmasi sanaladi. Totalitar tuzum davrida xalqimizning qadimiy qadriyatlari, xalq og'zaki ijodining yuksak namunasi sifatida asrlardan-asrlarga ma'naviy meros bo'lib o'tib kelayotgan afsona, rivoyat, ertak, maqollarga, "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustam", "Avazxon", "Hasanxon", "Ravshanxon" kabi dostonlarga bir yoqlama munosabatda bo'lindi, ularga zamonasozlik, sinfiylik, partiyaviylik nuqtai nazaridan turib baho berildi. O'zbek xalq og'zaki ijodiyotining har bir asariga ikki sinf, ikki madaniyat nazariyasi asosida baho berildi, kommunistik mafkura nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda yondashildi. Ulardagi milliy va umuminsoniy qadriyat va g'oyalar nazar-pisand qilinmadi. Chunonchi, "Alpomish" dostonida xonlar, beklar maqtaladi, bosqinchilik va zo'ravonlik targ'ib qilinadi, islom diniga mansub bo'lmagan boshqa xalqlarga yomon munosabat tasvirlanadi, degan ayblar to'nkaldi. Dostonning bosh qahramoni Alpomish mehnatkash xalqning olijanob fazilatlarini va orzk-umidlarini o'zida ifoda etmaydi, aksincha, u hokim, qonxo'rbek, tipik zo'ravon va zolim sifatida harakat qiladi, deb da'vo qilindi.

Pirovard natijada doston kitob do'konlari peshtaxtalaridan, kutubxona javonlaridan yig'ishtirib olindi. Sirasini aytganda, bu o'zbek xalqiga tuxmat, uni boy o'tmishidan ajratib tashlash, milliy qadriyatlarni yerga urishdir. Mustaqillik tufayli ma'naviy merosimizning bu sohasiga nisbatan bo'lgan salbiy munosabatlarga uzil-

⁵³ Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asari 5-6-bet.

kesil barham berildi. Buning yaqqol isboti 1999 yilda “Alpomish” dostoni yaratilganligining 1000 yilligi yurtimizda keng nishonlanganligidir.

Til – har bir xalq va millatning milliy o‘zligini namoyon qilishda muhim vositadir. Ja’niki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi... Ona tili – bu millatning ruhidir. O‘z tilini yo‘qotgan har qanday millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrar! Shaxs ma’naviy kamolotining zarur shartlaridan biri o‘z ona tilini bilishidir. Til bilmaydigan odam xalqning dilini ham bilmaydi. Biron-bir sabab tufayli milliy til yo‘qolsa, millat bora-bora yo‘qolib ketadi, milliy o‘ziga xosligini yo‘qotadi⁵⁴. Shunday bo‘lgach, biron-bir milliy tilning yo‘qolishi o‘sha xalqning muqarrar ravishda halok bo‘lishiga olib keladi.

Sobiq sovet hukumati hukmronlik qilgan 70 yildan ko‘proq vaqt davomida milliy chekka o‘lka xalqlari, jumladan o‘zbeklarning milliy tili, tarixi va madaniyati rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi uchun ishlatilmagan hiylayu-nayrang qolmadi. Shaxsga sig‘inish yillarida millatlarning bir-biriga qo‘shilib, yagona Sovet xalqiga aylanishi haqida “nazariyalar” paydo bo‘ldi. “Milliy tillar yo‘qoladi, yagona til bo‘ladi”, “bashorat” qilindi. Bundan soxta nazariya Stalin tomonidan o‘rtaga tashlangan edi. 1930 yildan boshlab qariyb oltmish yil davomida sobiq markaz millatlar va milliy tillarni qo‘shib yuborish siyosatini zo‘r berib hayotga joriy etishga urindi. Baynalmilallik bayrog‘i ostida milliy tillar rivojlanishi cheklab qo‘yildi. O‘zbek tiliga nisbatan qilingan ijtimoiy adolatsizlik, ayniqsa, dahshatli tus oldi. Bu narsa davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib amalga oshirildi. Uning lug‘at tarkibiga ruscha baynalmilal so‘zlar sun‘iy ravishda tiqishtirildi. Natijada og‘zaki va yozma nutqimiz ortiq darajada buzildi.

Ijtimoiy hayotda o‘zbek tilidan foydalanish kengayib borish o‘rniga asta-sekin torayib bordi. Korxonalarda, ilmiy muassasalarda, maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida, tabobatda, aloqa tashkilotlarida o‘zbek tilidan foydalanishda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yildi. O‘zbek tili fuqaro havo flotida, ichki ishlarda, armiyada surib chiqarildi, undan foylanilmadi. O‘zbek tili dars soatlari yil sayin o‘quv muassasalarida qisqarib bordi.

Ahvol shu darajaga borib yetdiki, barcha yig‘inlar, majlislar, yozishmalar rus tilida olib borildi, dissertatsiyalar, kitoblar, risolalar, maqolalar, arizalar, shikoyat va iltimosnomalar rus tilida yoziladigan bo‘ldi, aks holda ular mutasaddi tashkilot idoralarida qabul qilinmadi.

O‘zbek tili chetga surib tashlandi, uning mavqei benihoya pasayib ketdi. Natijada, rus tilini bilmaydigan odam mas’ul idoralarda ishlaymaydi, degan tushuncha yuzaga keldi. Aslida ham ahvol shunday edi, hayot va ish sharoitiz faqat rus tilini bilishni talab qilardi. Natijada o‘zbeklar orasida o‘z tilini bilmaydiganlar, o‘zbekcha

⁵⁴ Qarang: Islom Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. 23-bet.

yozolmaydiganlar va o'zbekcha fikrlay olmaydiganlar, ko'payib ketdi. Hatto o'z ona tilini bilmaslik ayb sanalmaydigan bo'ldi.

Ma'muriy buyruqbozlik ish usullari avjiga mingan, hamma narsa, har bir katta yo kichik masala markazning ko'rsatmasi, roziligi bilan hal qilinadigan yillarda (tobelik vaqaramlik o'zining yuqori cho'qqisiga chiqqan davr) o'zbek tili o'rnini rus tili egalladi, desak xato qilmaymiz. Ba'zi rahbarlar butunlay yerli aholidan iborat majlislarda ham ruscha so'zlab, buni o'zlari uchun madaniyatlilik alomati, faxr-iftixor deb bilish darajasiga yetdilar. Rus tilini bilish, shu tilda chiroyli so'zlash ma'naviy kamolotning cho'qqisi, madaniyatlilik beligsi deb qabul qilindi. Natijada o'z ona tiliga mensimay qaraydigan kishilar paydo bo'ldi. Bu, ayniqsa, yoshlar orasida avj ola boshladi. Buni jamiyatning, millatning, uning ma'naviyatining eng katta fojiasi deb tushunmoq lozim.

Millatni himoya qilish uchun uning tilini himoya qilish, asrash, rivojlantirish zarur. Buni esa davlat bajarildi. Til davlat himoyasiga olinmas ekan, u rivojlana olmaydi. Til hokimiyat bilan tirik. Mustaqillikka erishgunimizga qaqdar o'zbek tilini muhofaza qilish zarurati yuzaga keldi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi oson-silliq kechmadi. Uni himoya etish va qonuniy mavqeini tiklash uchun bo'lgan kurashda shoir va yozuvchilar, olimlar, muallimlar, huquqshunoslar, hamma-hamma faol ishtirok etdi. Eng muhim bu kurashda xalq uyg'onadi.

Til muammosi singari nihoyatda nozik, qaltis va jiddiy masalani ijobiy hal etish uchun jumhuriyatimizda Islom Karimov rahbarligida keng miqyosida tashkiliy, g'oyaviy-siyosiy va keng ko'lamli tarbiyaviy ishlar olib borildi.

Uzoq davom etgan bahslar, tortishuvlar, munoazar va muhokamalardan so'ng O'zbekiston Oliy Kengashi o'n birinchi sessiyasida 1989 yil 21 oktyabrda "O'zbekiston SSR ning davlat tili haqida" Qonun qabul qilindi. Natijada Sovet davrida milliy til masalasida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tuzatish uchun keng yo'l ochildi.

Qonunga binoan, o'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tili, deb e'lon qilindi. Bu hol xalqimizni behad quvontirib, dilini yaratib yubordi, milliy g'ururini kuchaytirdi.

Ammo, shuni ham qayd etish lozimki, Mustaqil Respublikamizning dunyoga yuz tutishida yoshlarimizning, ayniqsa, talabalarning xorijiy mamlakat xalqlari tilini bilishligi muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi boshqa tillarni bilish, o'rganishni rad etmaydi. Boshqa tillarni bilish – har bir ma'lumotli kishining ko'rkidir. Xalqlar o'rtasida birlik, ahillik, mehr-oqibat, hurmat, turli aloqalar til va madaniyatni bilishdan boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi paytda yoshlar maktablar va oliy o'quv yurtlarida rus, ingliz, nemis, fransuz, ispan tillari bilan bir qatorda Sharq xalqlari tillarini ham katta qiziqish bilan o'rganmoqdalar. Arab, fors, hind, xitoy tillarini

o'rganish natijasida aksariyat qismi arab va fors tillarida yozilgan qadimiy qo'lyozmalarimizni bemalol o'qib-o'rganadigan yetuk mutaxassislariga ega bo'lamiz. Bu mustaqillik yillarida yangi zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirish borasida erishilgan eng katta yutug'imiz hisoblanadi.

Mustabid tuzum siyosati talabi va zo'ravonligi asosida ma'naviyatimizning muhim qirrasini imlomiz ketma-ket uch marta o'zgartirildi. 1929 yilda arab alifbosidan lotin alifbosiga o'tildi. Oradan o'n ikki yil o'tgach, kirill alifbosi qabul qilindi. Shu tariqa xalqimiz o'zining 1000-1200 yillik ko'hna tarixi, o'tmishi, ma'naviy merosi haqidagi qo'lyozma asarlarni o'rganishdan mahrum bo'ldi. Ota-bobolarimizdan qolgan kitoblar, asosan arab va fors tillarida yozilgan. Imloning o'zgartirilishi natijasida o'sha kitoblarni o'qiy olmaydigan bo'lib qoldik. Yaqin o'tmishimizning riyokor siyosati natijasida mo'g'ul bosqini keltirgan yo'qotishdan ham ko'ra kattaroq ma'naviy inqirozga uchradik. Bu tariximizni, madaniyatimizni, milliy ma'naviy merosimizni yo'qotishga urinishning yangicha yo'li edi.

Insofu-diyonatni yo'qotgan kommunistik mafkura yalovbardorlari, arab va lotin alifbosini yo'qotib maqsadlariga erishib bo'lgach, o'zbek xalqi "inqilobgacha" savodsiz edi, yozuvi ham, maktabi ham, kitobi ham, olimu ulamolari ham bo'lgan emas, tili rivojlanmagan degan safsatani butun dunyoga yoydilar. Bu xalqimiz sha'niga ag'darilgan g'irt tuhmatdir. Bu o'lkadan ko'plab ilm-fan, madaniyat, ma'naviyat namoyandalari yetishib chiqqan. O'lkamiz qadimdan ma'naviyat va ma'rifat yuksak darajada rivojlangan hudud bo'lganligi bilan fahrlanishimiz lozim. Biz yuqorida mustamlakachilik, qaramlik sharoitida o'zbek xalqining boy ma'naviy va ma'rifiy merosiga munosabat va uning ijtimoiy oqibatlarining ba'zi jihatlari gina ko'rib o'tdik. O'tmishda toptalgan, taxqirlangan ma'naviy va ma'rifiy merosimizga mustaqillik yillarida munosabat tubdan o'zgardi. Milliy ma'naviy merosimiz qayta tiklanib, xalqimiz qalbida chuqur ildiz otdi.

Ona Vatanimiz tarixini uning taraqqiyot jarayonlarini chuqur o'rganish, ilm sohasida turgan o'ta dolzarb vazifa hisoblanadi. Uni o'rganishimiz bugungi mustaqillikning qadr-qimmatini to'laroq anglashimiz, taraqqiyotimizga yot oqimlarga qarshi kurashimizda, Vatanimiz va xalqimiz manfaatlari yo'lida chinakam fidoiy bo'lishimizga yordam beradi.

4-masala bayoni. Mustaqillik yillrida O'zbekistonda ma'naviyatning davlat siyosatida ustuvor sohaga aylanishi.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, erkin fikrlaydigan, o'z o'zini angelaydigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalash vazifasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi qilib belgilandi. Uni amalga oshirish esa, eng avvalo, yoshlarning ichki

ruhiy dunyosini, ma'naviyatini boyitish va mustaqil dunyoqarashini shakllantirishni taqazo etadi.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyin nafaqat mamlakatimizda, shuningdek, butun MDH mamlakatlari rahbarlari orasida birinchilardan bo'lib, ma'naviyat tushunchasini ilmiy iste'molga kiritdi va uning jamiyat va inson komolotidagi o'rnini ilmiy asosladi hamda amaliyotga tadbiiq etdi. Mamlaktda olib boriladigan islohatlarni ma'naviy sohada olib boriladigan islohatlar bilan uzviy ravishda olib boorish zarurligini ilmiy asosladi.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning birinchi sessiyasida qilingan ma'ruzasida ham ma'naviyat masalasi XXI asr bo'sag'asida ikkinchi ustuvor yo'nalish deb qaraldi. Erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi eng dolzarb vazifa ekanligi qayd etilgan. Boshqacha aytganda, o'z haq –huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalash kerak ekanligi uqtilangan. Mustaqillik yillarida ma'naviyatni ustuvor sohaga ko'tarilishini bir qator sabablari bor. Ular quyidagilardan iborat :

Birinchidan, jamiyatda amalga oshiriladigan barcha vazifalarning taqdiri, unda yashaydigan odamlarning tafakkuri, ongi va tafakkurini amalga oshirmoqchi bo'lgan vazifalari mohiyati va manfaaati yo'nalishidan kelib chiqqan holda o'zgartirmasdan turib ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Ana shu ma'noda ham ma'noda ham ma'naviyat jamiyat hayotini o'zgartirishning muhim mexanizmi hisoblanadi va har qanday davlat o'z maqsadlari va manfaatlaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishga ustuvorlik bilan qaraydi.

Ikkinchidan, mustaqillikning dastlabki yillarida sobiq sovet mafkurasidan voz kechish bayrog'i ostida umuman har qanday mafkuraga qarshi kurash boshlandi. Bu o'z navbatida odamlarning ma'naviyatiga, shakllangan qadriyatlariga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkaza boshladi. Ayniqsa, matbuotlarda ba'zi olimlar, birinchi navbatda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish zarur, ma'naviyat esa ana shu iqtisodiy tafakkur zaminida yuzaga keladi degan fikrlarni ilgari sura boshladilar. Oqibatda odamlar ruhiyatida yana bir tomonlama ketish turmush tarzida yetakchi o'rinni egallay boshladi. Bu o'z navbatida, milliy manfaatlar yoki vatanparvarlik haqida qanchalik gapirmaylik, u o'zining biz kutayotgan natijalarini bermasdan, balki odamlarda shaxsiy manfaatlariga ustuvorlik berishga hizmat qila boshladi. Bunday salbiy jarayonning yuzaga kelishi yangi jamiyat qurish uchun xatarli.

Uchinidan, mustaqillikning dastlabki yillarida yuzaga kelgan muammolar oldida odamlarning aksariyat qismi dovdirab qoldi, ko'pchilik hollarda yoshlarni ta'lim olish, kasb o'rganish, san'at va badiiy asarlarga qiziqishdan ko'ra bozorga chiqish, pul topishga intilish xavfini yuzaga keltirdi. To'g'ri, pul toppish, o'z hayotining iqtisodiy imkoniyatini mustahkamlash har bir inson uchun hayotiy ehtiyoj va zarurat hisoblanadi. Ammo, bu ehtiyoj shaxs va millat kamoloti manfaatlariga zid bo'lmasligi, ularning ma'naviy qashshoqlashib ketishiga hizmat qilmasligi lozim. Ana shu yuzaga kelayotgan xavfli jarayonning oldini olish zarur.

To'rtinchidan, sobiq ittifoq sharoitida fan, maorif, texnika, oliy ta'lim, bir qator sanoat korxonalarini vujudga keltirish va rivojlantirishda ko'pgina yutuqlar qo'lga kiritilgan edi. Ammo, ular markaz va qolaversa "katta og'a" manfaatlariga hizmat qilgan. Ana shu potensial sobiq ittifoqdosh respublikalarga turli bahonalar bilan rus millati vakillarini yuborish, ularni mahalliy xalqni boshqarish, ularga rus turmush tarzi, tili, urf –odatlarini, xarakterini singdirish hisobiga mamlakatda rus millati ma'naviyati ustuvorligiga tayanuvchi yagona til, ma'naviyat va turmush tarzini shakllantirishga hizmat qilib kelgan edi. Bunday ayyorona va zo'ravonlik siyosati oqibatida millatlarning o'zligini anglashga bo'lgan intilishiga katta zarba berildi. Bu sobiq ittifoqda umummilliy inqirozni yuzaga keltirdi.

Bu inqiroz millatning "yo'q" bo'lib ketishi xavfini vujudga keltirdi. Bunday salbiy jarayonning oldi olinmasdan, millatning rivojlanishiga erishib bo'lmaydi. Uni bararaf etish faqat milliy ma'naviyatni tiklash va rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Beshinchidan, ma'naviyatning davlat siyosatida ustuvor bo'lishiga yana bir sabab, millat son jihatidan kattami yoki kichikmi bundan qat'iy nazar, uning real sub'ekt, ma'lum moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchisi, iste'molchisi, boshqalarda uchramaydigan, o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini va o'zining mustaqil o'rniga ega bo'lishi kabi omillarni, ya'ni chinakam millat sifatidagi maqomini tiklash hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'tarilgan edi. Uni hal etish millat va davlatning kelajagi uchun amaliy ahamiyatga egadir.

Oltinchidan, o'zbeklar jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan xalqdir. Uning ma'naviyat, fan, madaniyat sohasidagi erishgan yutuqlari jahon xalqlariga asrlar osha hizmat qilib kelmoqda. Ammo, sho'rolar tuzumi davrida ajdodlari tomonidan yaratilgan ana shu yutuqlarni o'zbek xalqining ongi va qalbidan "chiqarish" borasida ham katta ishlar amalga oshirilgan edi. Mustaqillik sharoitida esa uni qayta tiklash, jahon sivilizatsiyasidagi munosib va adolatli o'rinni tiklash zarur edi. Bunga esa faqat ma'naviyatni rivojlantirish orqali erishish mumkin.

Yettinchidan, ma'naviyat millatni va butun mamlakat aholisini ma'lum maqsadlar sari davlat atrofida uyushtiruvchi, ularni faollashtiruvchi, kelajakka yorqin ishoniruvchi, inson zotini ulug'lovchi, uning qadrini anglatuvchi ulkan

“mexanizm” hamdir. Xuddi ana shu muhim “mexanizm” hamdir. Xuddi ana shu “mexanizm” dan mustaqillikni mustahkamlash, islohatlarni amalga oshirish, millatimizni qaddini ko‘tarishda foydalanishga bo‘lgan ehtiyij davlatimiz, eng avvalo birinchi prezidentimiz Islom Karimov tomonida o‘z vaqtida anglab olindi.

Mustaqillikni qo‘lga kiritgandan keyin ma‘naviyatni rivojlantirish va milliy merosni qayta tiklashni davlatimiz hayotida ustuvor siyosat darajasiga ko‘tarilishiga olib keldi. Shu sababli birinchi Respublika Prezidentimiz 1994 yil 23 aprelda “ Ma‘naviyat va ma‘rifat jamoatchilik markazini tashkil qilish to‘g‘risida”, 1996 yil 9 sentyabrda “ Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida” , 1999 yil 3 sentabrda “ Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat kengashini qo‘llab –quvvatlash to‘g‘risida” gi farmonlarini chiqardi. 1996 yil 9 sentabrdagi farmonda, “ ma‘naviy – ma‘rifiy islohatlar davlat siyosatining asosiy, ustuvor yo‘nalishi, deb hisoblansin” , deb belgilandi.

1998 yilning 24 iyulida Vazirlar Mahkamasi “ Ma‘naviy –ma‘rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora –tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Yuqorida qayd etkanimizdek, Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida ham jamiyat ma‘naviyatini yanada yuksaltirish, islohatlarni amalga oshirishda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi ekanligi yana bir bor qayd etildi. Bu sohadagi muhim vazifalar, oldimizda turgan muammolar va ularni kechiktirmay hal etish zarurligi xalqimiz e‘tobori qaratildi. Ana shu muhim hujjatlar mamlakatimizda ma‘naviyatni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirishda katta amaliy ahamiyatga ega bo‘ldi.

Birinchi prezidentimiz ing milliy ma‘naiy tilanishimiz borasidagi milliy konseptual g‘oyalarni amalga oshirishdagi xizmatlarini alohida ta‘kidlash lozim bo‘ladi. Mustaqillik yillarida ma‘naviy merosimiz rahnomolari nomlari tiklandi, ular tavallud topgan kunlar nishonlanmoqda, asarlari chop etildi va etilmoqda. Chunonchi, Bahouddin Naqshbandning 675, Najmiddin Kubroning 850, Imom Buxoriy hazratlarining 1225, Ahmad Farg‘oniy 1200, Jaloliddin Manguberdining 800, Amir Temurning 660, Mirzo Ulug‘bekning 600 yillik tavallud ayyomlari; “Alpomish” dostoni va Xorazm Ma‘mun akademiyasining 1000 yilligi nishonlandi.

Mustaqillik yillari “Qur‘oni Karim” o‘zbek tiliga tarjima qilinib, ko‘p nusxada chop etildi. Imom Buxoriyning to‘rt jildlik hadislari, Xoja Ahmad Yassaviyning “Xikmatlar” to‘plami, ko‘plab “Qur‘oni Karim”shaharlariga oid kitoblar chop etilganligi va ulardan xalqimiz bahramand bo‘layotganligining guvohi bo‘lib turibmiz.

Mustaqillik yillari Iydi Ramazon va Qurbon Hayit kunlari bayram sifatida nishonlanmoqda. “Navro‘z” umumxalq bayrami sifatida xalqimiz hayotidan

mustahkam o‘rin oldi. Har yili minglab vatandoshlarimiz muborak haj safarlarini ado etmoqdalar. Mustaqillik yillari ko‘plab masjid va madrasalar ta‘mirlandi, yangilari barpo etildi.

Mustaqillik tufayli milliy istiqlolimiz qurbonlari Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Behbudiy va boshqalarning nomi tiklandi, asarlari chop etildi, ular tavallud topgan kunlar umummilliy bayram sifatida nishonlandi. Qatag‘on yillarida Vatanimiz mustaqilligini ta‘minlash yo‘lida qurbon bo‘lgan xalqimizning ana shu sevikli farzandlarining muborak nomlarini abadiylshtirish maqsadida Toshkent shaxrida Shahidlar hiyoboni barpo etildi.

Uzoq tariximiz, boy madaniyatimiz, serqirra ma‘naviyatimizdan guvohlik beruvchi Xiva, Buxoro va Termiz shaharlarining 2500, Qarshi shaxrining 2700, Marg‘ilonning 2000 yilligi katta tantana bilan nishonlandi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston jadal rivojlanmoqda. Ajdodlarimizning donishmandlik an‘analariga amal qilib teran anglagan holda islohotlar amalga oshirilmoqda, mamlakatimizning yangi qiyofasi shakllantirilmoqda. Ko‘p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o‘rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma‘naviy muhitni ta‘minlashning muhim shartlaridan biri sifatida hisoblanmoqda.

“So‘nggi yillarda mamlakatimizda tashkil etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi, Islom akademiyasi, Mir Arab oliy madrasasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari boy ilmiy-tarixiy merosimizni o‘rganish va targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda”⁵⁵.

Xalqimizga azal-azaldan xos bo‘lgan ma‘rifatparvarlik, bag‘rikenglik, mehr-muruvvat, bunyodkorlik kabi ezgu fazilatlar va qadriyatlarimizni keng targ‘ib qilish, jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlashda diniy-ma‘rifiy soha vakillarining o‘rni va ishtirokini oshirish hamda 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq,

diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish- ning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi.

➤ **Ular quyidagilar, “jaholatga qarshi ma‘rifat”** ulug‘vor g‘oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz ifodasi ekanligini keng yoritish va bu sohadagi ilmiy-ma‘rifiy faoliyatni jadal tashkil etish;

⁵⁵ **Mirziyoev Sh.M.** - Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

➤ islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo‘shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o‘rganish asosida yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish;

➤ dinni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadigan buzg‘unchi yot g‘oyalarning asl mohiyati va maqsadlari haqida aholining, ayniqsa, yoshlarning xabardorlik darajasini oshirish;

➤ jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo‘lgan g‘oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish;

jamiyatda bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, tinchlik va totuvlikni, ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlashda diniy-ma‘rifiy soha vakillarining

daxldorlik hissi va ishtirokini yanada oshirish;

➤ diniy-ma‘rifiy tashkilotlarning moddiy-texnika ta‘minotini mustahkamlash, soha vakillari mehnatini munosib rag‘batlantirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;


➤ globallashuv sharoitida jamiyatimizdagi ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligi va e‘tiqod erkinligiga tahdid tug‘dirishi mumkin bo‘lgan omillarni barvaqt aniqlash va oldini olishga qaratilgan axborot-tahliliy faoliyatni kuchaytirish;


➤ diniy va dunyoviy bilimlar uyg‘unligini rivojlantirish asosida ta‘lim sifatini oshirish, diniy-ma‘rifiy sohada malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimini yaratish, maqsad yetib qo‘yildi.


Qur‘oni karim va hadislarning asl mohiyatini, hadis ilmining ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o‘rgangan, hadis ilmi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan ulug‘ vatandoshlarimizning ulkan ilmiy merosini puxta o‘zlashtirgan, hadisshunoslik sohasida ilmiy izlanishlar olib borish ko‘nikmasiga ega mutaxassislarni tayyorlash hamda hadislardagi ezgu umuminsoniy g‘oyalarni xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodga yetkazish maqsadida 2017-yil 8-noyabr kuni Samarqand shaxrida Imom Buxoriy ilmiy markazida Xadisshunoslik va Imom Moturidiy markazi qoshida kalom ilmi maktablari ochildi. 10 – noyabr kuni Buxoroda Mir Arab oliy madrasasi huzurida Baxouddin Naqshband tasavvuf ilimiy maktabi va Qashqadaryo viloyatida “Abu Mu‘in an –Nasafiy” nomidagi aqida ilmi maktabi ochildi.

13 –noyabr kuni Farg‘onada Islom huquqi maktabi tashkil etildi. Xulosa qilib aytganda, ushbu maktablarni tashkil etilishidan maqsad kelgusida chuqur bilimli imom –hatiblar, islomshunos mutaxassislar, ulamolar tayyorlashda, eng muhimi, farzandlarimizni buyuk ajdodlarimizning bebaho merosi ruhida, sog‘lom e‘tiqod ruhida tarbiyalashda bu maktablar tayanch bo‘lib hizmat qiladi.


Mavzu bo'yicha chizmalar.









I.A. Karimovning “ Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch “ asarida Turkiston halqlarining mustamlaka asoratiga tushib qolishining sabablarini ko’rsatilishi





6-chizma



Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiyasida “Ma’rifat va diniy bag’rikenglik “ deb nomlangan maxsus rezalyusiyasini qabul qilish taklifini berdi.

Bu xujjatning asosiy maqsadi

Barchaninn ta’lim olish huquqini ta’minlashga, savodsizlik va jaholatga barxam berishga ko’maklashishdan iborat

Ushbu rezalyusiya rezalyusiya bag’rikenglik va o’zaro hurmatni qaror topdirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo’l qo’ymaslikka qaratilgan.

Takrorlash uchun savollar:

1. Mustamlakachilik siyosatining maqsadini tushuntiring ?
2. Nima uchun mustamlakachilar xalqni tarixidan, ma'naviyatidan mahrum qilishga intilish sabablarini izohlang ?
3. Chor Rossiyasining O'rta Osiyoda olib borgan mustamlakachilik siyosatining oqibatlarini haqida nimalarni bilasiz ?
4. Rossiya imperiyasi ma'murlari Turkiston o'lkasi xalqlarining milkiy ma'naviyatiga qanday munosabatda bo'ldilar ?
5. Mustamlakachilarning ta'lim sohasidagi siyosatini asosiy yo'nalishlarini ochib bering ?
6. Turkiston o'lkasida ilmiy jamiyat va muassasalarning tashkil topishi ilm fan rivojida qanday o'rin tutadi ?
7. Sho'rolar davrida islom diniga, diniy qadriyatlarga qanday munosabat ko'rsatilgan ?
8. Sho'rolar davrida tariximizga, madaniyatimizga, boy ma'naviy merosimizga qanday munosabat ko'rsatilgan ?
9. Ruslashtirish siyosatining mohiyati va oqibatlarini tushuntirin ?
10. Sovet tuzumining O'zbekistonda amalga oshirgan "madaniy inqilob" siyosatining mohiyatini va milliy madaniyatga yetkazgan zarari to'g'risida gapirib bering ?
11. Xalq ta'limi va Oliy ta'limning rivojlanishida qanday ziddiyat va qiyinchiliklar bor edi ?
12. Bu davrda kino, musiqa, teatr va tasviriy san'atida qanday o'zgarishlar yuz berdi ?
13. Sho'rolar davrida Respublika ilm fanining rivojlanishi haqida hikoya qilib bering ?
14. 20 -30 yillarda O'zbekistonning madaniy hayotida mavjud bo'lgan asosiy g'oyaviy ziddiyatlar nimalardan iborat edi ?
15. Qayta qurish davrida o'zbek madaniyati qanday ahvolda edi ?
16. Mustaqillik uchun, ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash uchun xalqimiz olib borgan kurash haqida nimalarni bilasiz ?

17. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ma’naviyatning davlat siyosatida ustuvor sohaga aylanishi ?
18. Mustaqillik yillarida ma’naviy qadriyatlarni tiklash yo‘lida amalga oshirilgan tadbirlar haqida so‘zlang ?
19. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning “ Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida islom dinining milliy ma’naviyatimizda tutgan o‘rniga qanday baho berilgan ?
20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakteristik strategiyasi”ning ma’rifat, diniy bag‘rikenglik masalariga bag‘ishlangan bandini izohlab bering ?
21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” maxsus rezalyusiyasining asosiy maqsadi nimada ?
22. Mamlakatimizda qanday diniy xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari, maktablari tashkil topdi ?

Foydalanilgan adabiyotlar

3. I.A.Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajagi yo‘q” T -1998 yil
2. I.A.Karimov “Yusak ma’naviyat yengilmas kuch” T -2008 yil
- 3.Sh. M.Mirziyoev “ BMT Bosh assambleyasining 72 –sessiyasidagi nutqi 2017 yil 19 sentabr
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash muqaddas dinimizni sofliqini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi 2017 yil 15 iyun
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga 2017 yil 22 dekabrda murojaatnomasi
- 6.Falsafa ensiklopedik lug‘at. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti T -2010 yil
- 7.O‘zbek milliy ensiklopediyasi. II jild 2001 yil
- 8.Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi T -2009 yil
- 9.Sh. I. Xaitov O‘zbekiston falsafa tarixi T -2011 yil
- 10.I.Jabborov “Jahon dinlari tarixi” T- 2002 yil.
- 11.Xoji Ismatulloh Abdulloh “Markaziy Osiyoda Islom madaniyati” T -2005 yil
12. Abduhalimov B. Bayt al –hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bog‘dodda ilmiy faoliyati T – O‘zbekiston 2010 yil
- 13.Imom Ismoil al –Buxoriy Hadis I-IV jildlar T _ 1997 yil
- 14.Alixonto‘ra Sog‘uniy “Tarixiy Muhammadiy” T -2007 yil

15. Boboyev X, Do'stjonov T, Xasanov S. Avesto sharq xalqlarining bebeaho yodgorligi T -2004 yil
16. Otamurodov S, Xusanov S, Ramatov J "Ma'naviyat asoslari" T -2002 yil
17. O'zbekistonning yangi tarixi, birinchi kitob, Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachilik davrida T -2000 yil
18. Qosimov B, Yusupov Sh va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti T -2004 yil
19. Usmonxon Alimov "Oilda farzand tarbiyasi" T -2016 yil
20. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi T- 2001 yil
21. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Aqoid ilmi va unga bog'liq masalalar" T – 2013
22. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Tafsiri hilol" T- 2017 yil
23. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Baxtiyor oila" T – 2013yil
24. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Keksalarni e'zozlash" T -2018 yil .

8- Mavzu: O'zbekistonda vijdon erkinligi.

Ma'ruza rejasi:

6. Din masalasida mavjud xalqaro me'yoriy hujjatlar
7. Vijdon erkinligi diniy e'tiqod erkinligidir. Mustaqil O'zbekistonda vijdon erkinligining Konstitutsion kafolatlanishi.
8. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" gi Qonun
9. Missionerlik va prozelitizmga qarshi kurashning huquqiy-amaliy asoslari.

1 –masala bayoni. Din masalasida mavjud xalqaro me'yor (norma)lar.

Vijdon erkinligi ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u quyidagilarni bildiradi; Har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatdagi mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmaganda vijdoni buyurganicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi. Siyosiy jihatdan esa unga demokratiya ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi. Yuridik nuqtai nazardan vijdon erkinligi insonning asosiy shaxsiy xuquqlari sirasiga kiradi va demokratik erkinliklardan biri hisoblanadi⁵⁶. Ko'rinadiki vijdon erkinligi zamirida shaxsning xuquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy-siyosiy, xuquqiy va axloqiy tushunchalar yotadi. Xozirgi vaqtda vijdon erkinligi demokratiyaning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Biz bu o'rinda vijdon erkinligini fuqarolarning din erkinligi nuqtai nazaridan izohlashni maqsad qilib qo'rganmiz. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi barcha davlatlarning

⁵⁶ Qarang. Islom: ensiklopediya. 63-bet.

ijtimoiy hayotida muhim va shu bilan birga murakkab masalalaridan biri bo'lib kelgan.

Bu masalada xalqaro me'yorlarga kelsak, BMTning Ustavidan tortib, barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, dunyoviy davlatlarning Konstitutsiya va qonunlarida vijdon erkinligi masalasi o'z ifodasini topgan. 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan «Inson xuquqlari umumiy deklaratsiyasi»ga muvofiq har bir inson erkin fikrlash, vijdon va din erkinligi xuquqiga ega. Bu xuquq o'z dini va e'tiqodini o'zgartirish erkinligini, diniy ibodatlarni bajarishda va diniy marosimlarda yakka tartibda va odamlar bilan birgalikda qatnashish erkinligini o'z ichiga oladi.

Din va vijdon erkinligi to'g'risida xalqaro hujjatlardagi yana bir muhim masala, turli dunyoqarash va e'tiqodda bo'lgan kishilar o'rtasidagi, davlat, din, diniy tashkilotlar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarning amalda xuquqiy ta'minlanishini ham nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tegishli moddalarida aks etgan Vijdon erkinligi, shuningdek «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» qabul qilingan qonun xalqaro hujjatlardagi talablarga mos holda tuzilgandir.

1- Masala bayoni. Vijdon erkinligi – diniy e'tiqod erkinligidir.

Din erkinligi nuqtai nazaridan vijdon erkinligi - bu fuqarolarning u yoki bu dinga e'tiqod qilish yohud hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik xuquqidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida qayd etilganidek, «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki heya qaysi dinga e'tiqod qilmaslik xuquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi»⁵⁷. Mazkur qonuniy kafolatga muvofiq, biron bir kishi boshqa odamlarga sen u dinga, sen bu dinga e'tiqod qilasan. Sening biror dinga e'tiqod qilishga haqqing yo'q, Sen bedinsan deb ayta olmaydi. Ayni paytda u yoki bu aqidaga bo'ysunishga majbur eta olmaydi. Hech kim dindor kishini «Diniy e'tiqodingizdan qayting» deb majbur ham qilolmaydi. Bunday xolatlarga qonun yo'l bermaydi. Dindor yoki daxriy bo'lish, o'zi hoxlagan dinga ishonish yoki hech qaysi dinga ishonmaslik har kimning shaxsiy ishi. Bu xuquq O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 31-moddasida qonun bilan mustahkamlangan.

Mustaqil O'zbekistonda vijdon erkinligining konstitutsion kafolatlanishi. Vijdon erkinligining kafolatlari ko'p qirralidir. Bu – avvalo dinlarning va diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilganligi; barcha fuqarolar uchun ularning dinga e'tiqod qilish yoki qilmasligidan qat'i nazar maorif va madaniyat maskanlari eshiklarining ochiqligi; maktabning dindan va diniy

⁵⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, «O'zbekiston»; 2003. 8-bet.

tashkilotlardan ajratilganligi; dindorlarning diniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarning yaratib berilganligi va boshqalardan iborat.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng yangi sharoitda dinning va diniy tashkilotlarning jamiyatdagi o'rnini yana bir karra aniqlab olish ehtiyoji tug'ildi. Bunga sabab ayrim kimsalarning o'z siyosiy manfaatlarini amalga oshirish uchun dindan va diniy tashkilotlardan foydalanishga urinib kelayotganliklaridir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1991 yil 14 iyunda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» gi qonuni qabul qilgan. Oradan yetti yil o'tib 1998 yil 1-mayda O'zbekiston Respublikasi birinchi chaqiriq Oliy Majlisining o'n birinchi sessiyasida bu qonunning yangi taxrirdagi matni qabul qilindi.

Mazkur qonun, avvalo har bir fuqaroga mustaqil ravishda, biron-bir tarzda majburlashsiz o'zining dinga munosabatini belgilash, dushmanlik va adovat uyg'otish, ularning diniy yoki dahriylik e'tiqodi munosabati bilan bog'liq xis-tuyg'ularni haqorat qilish mumkin emasligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, muqaddas qadamjoh hisoblangan diniy inshootlar – masjid, madrasa, maqbaralarni oyoqosti qilish qonunga muvofiq jazolanishi, hech kimning o'zining diniy e'tiqodiga ko'ra, qonunda belgilangan majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlashi mumkin emasligi tayin etilgan.

Qonunning 5-moddasi «Dinlarning va diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilishi» deb yuritiladi. Bu qanday ma'noni anglatadi? Bu degani – mamlakatimizda dinlar va diniy tashkilotlar davlat ishiga aralashmaydi, ayni paytda esa davlat diniy tashkilotlarning va dindorlarning qonunlarga zid bo'lmagan faoliyatiga aralashmaydi, davlat o'z vazifasini va din ham o'z vazifasini bajarishi lozim.

Davlat dindor fuqarolarning diniy e'tiqod va haq-huquqlarini qanchalik hurmat qilsa, dindorlar ham davlat qonunlarini va siyosatini shunchalik hurmat-extirom qilishlari ham shart. Diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, ammo ular jamiyatdan ajratilmagan. Binobarin, dindorlar va diniy tashkilotlar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida qatnashish xuquqiga egadirlar.

Shu o'rinda diniy tashkilot nima, uning maqomlari qandayligini bilib olish ham foydadan holi emas. Diniy tashkilot – diniy ehtiyojlarni birgalikda qondirish yoki qondirishga ko'maklashish maqsadida tuziladigan va diniy marosimlarni ado etish asosida ish ko'radigan ixtiyoriy, teng huquqli va o'z-o'zini boshqaruvchi uyushma. U ayni vaqtda fuqarolarning vijdon erkinligini kafolatlovchi tuzilmalardan biri sanaladi. Diniy tashkilotlarning eng muhim belgisi ularning o'z-o'zini boshqarishidir, ya'ni ular ma'muriy jihatdan davlat idoralaridan ajratilgan.

Diniy tashkilotlar o'z Nizomlariga asosan mustaqil ish olib boradilar.

Yangi taxrirdagi qonunga binoan diniy tashkilot O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan va respublika xududida doimiy yashayotgan 100 kishidan kam bo'lmagan fuqarolar tashabbusi bilan tuzilishi mumkin. Tuzilgan uyushma va

tashkilotlar Respublika Adliya vazirligi tomonidan, joylarda tegishli viloyat, tuman, shahar, qishloq xududida bo'lgan adliya boshqarmalari tomonidan ro'yhatga olinadi.

Qonunga muvofiq, diniy tashkilotlar biron bir siyosiy partiyalar faoliyatida qatnashish, siyosiy partiyalarga moliyaviy yordam ko'rsatish huquqiga ega emas. Shuningdek diniy-siyosiy partiyalar tuzish taqiqlangan.

Diniy tashkilotlar, dindorlar va boshqa fuqarolarning dindan davlatga, Konstitutsiyaga qarshi targ'ibot olib borishiga, dindan o'z siyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun niqob sifatida foydalanishga davlat yo'l qo'ymaydi.

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» qonunda belgilangan tartiblarni buzganlar qonunga binoan javobgarlikka tortiladi.

Qonunning yana bir muhim moddasi «Maktabni dindan va diniy tashkilotlardan ajratish» deb ataladi. Buni qqqanday tushunmoq va izohlamoq kerak? Mamlakatimizda davlat bilim yurtlari dunyoviy bilimlar beruvchi bilim yurtlaridir. Umumiy ta'lim, kollejlari, akademik litseylar, oliy o'quv yurtlari o'quv rejalariga diniy bilim berish dars sifatida kiritilmaydi. Biroq, bu fuqarolar diniy ta'lim olish huquqiga ega emas, degan gap emas.

Mamlakatimizda diniy ta'lim qanday tarzda amalga oshiriladi. Buni ham bilib qo'yish muhimdir. Qonunning 3-moddasi 2-qismida ko'rsatilganidek «Voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'rnini bosadigan shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitishga yo'l qo'yilmaydi». Mazkur qonunga zid ravishda voyaga yetmagan bolalarni dinga o'qitish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 145-moddasiga muvofiq – eng kam ish haqining ellik barobaridan yetmish besh baravarigacha jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yohud uch yilgacha ozodlikdan maxrum etish bilan jazolanadi. Qonunga binoan diniy ta'lim maxsus diniy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari ruhoniylar va o'zlariga zarur bo'lgan diniy xodimlar tayyorlash uchun diniy o'quv yurtlari tashkil etishga haqlidirlar.

Dindan saboq beruvchilar, murabbiylar tegishli puxta bilimga va uni o'qitish haqidagi maxsus ruhsatnomaga ega bo'lishlari shart.

Qonunda xususiy tartibda, ya'ni uyda diniy ta'lim berish man etilgan.

Xozirda O'zbekistonda 16 ta diniy o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bular Toshkentdagi Imom al-Buxoriy nomli Islom instituti, Toshkent Islom universiteti, «Ko'kaldosh», Buxorodagi «Mir Arab» madrasalari; shuningdek, Toshkentdagi «Xadichai Kubro», Buxorodagi «Jo'ybori Kalon» ayol-qizlar islom o'rta maxsus bilim yurtlari; Namangandagi «Mulla Qirg'iz», Urganchdagi «Faxriddin ar-Roziy», Andijondagi «Said Muxyiddin Maxdum» islom o'rta maxsus bilim yurtlari

va boshqalar. O'zbekistonda din davlatidan ajratilgani uchun diniy o'quv yurtlari davlat xalq ta'limi tizimiga kirmaydi.

Endi ana shu diniy bilim yurtlarining ba'zilari haqida ma'lumot beramiz.

Imom al-Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti oliy diniy o'quv yurti bo'lib 1970 yilda tashkil etilgan va 1971 yil oktyabridan faoliyatini boshlagan. O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufida. U dinlar tarixi va nazariyasini chuqur egallagan, islom dini asoslarini o'zlashtirgan, arab tilida so'zlasha oladigan mutaxassislar, imom xatiblar tayyorlaydi. O'qish muddati 4 yil. Toshkent Islom instituti O'zbekiston musulmonlar idorasi tomonidan tasdiqlangan qoidalar asosida o'rta umum ta'lim hamda o'rta maxsus diniy ma'lumotga ega bo'lgan 35 yoshgacha yoshlarni qabul qiladi. Bu yerda 130 talaba taxsil oladi. Bu ta'lim maskani mustaqilligimizga qadar sobiq Ittifoqda yagona oliy islom o'quv yurti bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent Islom universiteti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 7 apreldagi Farmoniga binoan tashkil etilgan.

Farmonda ta'kidlashicha bunday nufuzli ilm o'chog'ini tashkil etishdan maqsad: «Xalqimizning muqaddas e'tiqodi – islom diniga oid boy ma'naviy-madaniy merosimizni asrab-avaylash, diyorimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalarning ilmiy g'oyalari va asarlarini chuqur va har tomonlama o'rganish, tahlil etish va zamonaviy ruhda rivojlantirish, shu sohada ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish, zamon talablari darajasida malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashni ta'minlash, ularga lozim bo'lgan shart-sharoitlar yaratish hamda ajdodlarimizdan qolgan noyob manbalar asosidagi tadqiq etilgan ma'lumotlar bilan xalqimizning diniy savodxonligini oshirish...»⁵⁸ ekanligi ta'kidlangan. Mazkur universitetda hozirgi kunda 500 dan ziyod talaba dinshunoslik, islomshunoslik, islom falsafasi, islom huquqi, sharq va g'arb tillari, jahon dinlarini qiyosiy o'rganish va boshqa fanlarni chuqur o'rganmoqda. O'niversitet tarkibida tashkil etilgan Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazida: Qur'on, tafsirlarni o'rganish, islom tarixi va falsafasi, shariat, manbashunoslik, qo'lyozmalarni o'rganish kabi bo'limlar samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda malakali diniy mutaxassislar tayyorlaydigan bilim yurtlaridan yana biri Buxorodagi Mir Arab madrasasi sanaladi. U 1530-1536 yillarda qurilgan. Sobiq Sho'rolar davrida uning faoliyati vaqtincha to'xtatilgan va 1945 yilda yana qayta tiklangan. O'quv yurtiga 15 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan o'rta va to'liqsiz o'rta ma'lumotli kishilar qabul qilinadi.

⁵⁸ «Xalq so'zi» gazetasi, 1999 yil 8 aprel.

Dunyoviy umumta'lim maktablarida va boshqa bilim yurtlarida dinlar tarixi, jumladan Islom dini tarixi – dinshunoslik sifatida o'rganiladi.

2- Masala bayoni .”Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida” gi Qonun

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikkinchi chaqiriq beshinchi sessiyasida (1998) “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida” gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Shu nomda qabul qilingan avvalgi qonun (1991 va 1993 y.) Konstitutsiya mazmunini to'liq aks ettirmas, respublika hayotidagi o'zgarishlardan orqada qolgan edi. Bundan tashqari, diniy tashkilotlarning faoliyatini qonunga muvofiqlashtirish, davlat organlari bilan munosabatlarini tartibga keltirish zarurati ham paydo bo'lgandi. Shu mulohazalarga ko'ra, qonunning yangi tahriri ancha to'ldirildi, kengaydi va uning moddalari batafsil va tushunarli qilib bayon etildi.

Yangi tahrirdagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida” gi Qonun 23 moddadan iborat bo'lib, ularda vijdon erkinligi huquqi, dinga munosabat va fuqarolik huquqlari tengligi, davlatning dindan ajratilgani, davlat, davlat organlarining va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining diniy tashkilotlar bilan munosabati, din va ta'lim, diniy tashkilotlarning ta'rifi va huquqlari, diniy o'quv yurtlari, diniy tashkilotlarni ro'yhatga olish tartibi, diniy urf-odat va marosimlar, diniy tashkilotlarning mulki, davlat mol-mulkidan foydalanish yo'llari nashr ishlari va diniy adabiyotlarni tarqatish, diniy missionerlik, muradlik (prozelitizm) kabi masalalarga munosabat o'z ifodasini topgan. Ushbu moddalar faqat davlatning dinga munosabatini ham ifodalaydi. Zero, qonun diniy tashkilotlarning erkin faoliyat yuritishi barobarida, ayrim noqonuniy guruhlar, chunonchi, jamiyat osoyishtaligiga xavf soladigan, mamlakatimiz milliy manfaatlariga zid keladigan xatti-harakatlarni cheklashni ham nazarda tutadi. Ushbu qonunga ko'ra, konstitutsion tuzumni ag'darishga chog'langan hamda jamiyat tinchligini xavf ostida qoldirishga intiluvchi yashirin diniy tashkilotlar man etiladi, “dindan davlatga va Konstitsiyaga qarshi targ'ibot olib borishda, dushmanlik, nafrat, millatlararo adovat uyg'otish, axloqiy negizlarni va fuqaroviy totuvlikni buzishda, bo'hton, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalarni tarqatishda, aholi o'rtasida vahima chiqarishda hamda davlatga, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan boshqa xatti-harakatlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi”.

Shu kabi terrorism, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko'maklashadigan diniy harakatlar va jamoalar faoliyati taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan: 57-modda.

Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rluk bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarning tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.

Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzilishi taqiqlanadi.

Dinga bo‘lgan munosabatdagi muhim jihatlardan biri missionerlik va prozelitizmdir. Missionerlik (da‘vatchilik) “qayta qurish” yillari va o‘tgan asrning 90-yillari boshida avj olgan edi. Bir tomondan, xorijiy Sharq mamlakatlaridan kelgan islom da‘vatchilari faoliyati, vahhobiylik oqimi tarafdorlari faollashgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, boshqa dinlarning da‘vatchilari ham mahalliy aholining turli qatlamlari orasida tashviqot ishlarini kuchaytirgan edi. Bu tashviqotchi – da‘vatchilarning har biri o‘z dinni haq din emas, deyish orqali tarafdor qidiradi. Ikkinchidan, xorijdan kelgan musulmon da‘vatchilari bizning an‘anaviy dindorlik rasm-rusumlar, milliy odatlarni nazar-pisand qilmasdan, o‘zlarida shakllangan odatlar, mazhablarni o‘rnatishga intilardi. Ular nazarida, Markaziy Osiyoda sho‘ro zamonida yoppasiga hamma “dahriy”, “kofir” bo‘lib ketgan emish. Holbuki, xalq o‘sha dahriylik mafkurasi hukm surgan sharoitda ham o‘z imon-e‘tiqodini saqlab qolgan, ajdodlari an‘analarini saqlab kelmoqda edi. Shu bois bunday “da‘vatchilik” harakati aholining haqli noroziligiga uchradi va tezda yo‘qotildi.

Shularni hisobga olgan holda zikr etilgan Qonunning 5-moddasida bunday deb yoziladi: “Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi”.

Mustaqillik: dinga va diniy tashkilotlarga munosabatning o‘zgarishi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, dinga va diniy tashkilotlarga munosabat tubdan o‘zgaradi. Bu o‘zgarishlarning mohiyatini va ahamiyatini teran anglab yetmoq uchun sobiq Sho‘ro davrida dinga va diniy qadriyatlarga nisbatan bo‘lgan salbiy munosabatni bilish bizni o‘ylash va fikr yuritishga, mustaqillikning qadrini anglashga yo‘llaydi.

Sobiq Sho‘ro davrida «Din xalq uchun afyundir», «Din ma‘naviy og‘uning bir turidir» degan g‘oya asosida dinga ateistik yondoshuv shakllangan edi. Bu esa amalda fuqarolarning vijdon erkinligini kamsitish, diniy qadriyatlarga nisbatan ma‘lum ma‘noda salbiy munosabatning shakllanishiga olib kelgan edi. Kommunistik mafkuraning yalovbardorlari deyarli 70 yil mobaynida daxriylikka asoslangan jamiyatni qurishga harakat qildilar. Oqibatda halqimizning ma‘naviy boyligi bo‘lgan diniy ruhdagi kitoblar xalq ko‘zidan yashirildi, ko‘plari yo‘qotildi.

Din ravnaqi yo'lida zahmat chekkan al-Buxoriy, at-Termiziy, Baxouddin Naqshband, Motrudiy, Zamaxshariy kabi o'nlab buyuk bobokolonlarimiz yaratgan islom madaniyati reaksiyon madaniyat deb qoralandi.

Diniy-ma'muriy obidalar, ulug' allomalar mangu uyquga ketgan maqbaralar qarovsiz, tashlandiq holga kelib qoldi. Bunga istagancha misol topiladi.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston fuqarolari uchun tom ma'nodagi vijdon erkinligi ta'minlandi.

Milliy va diniy qadriyatlarimiz qayta tiklandi va tiklanmoqda. Jumladan Ramazon va Qurbon xayitlari har yili ommaviy ravishda, emin-erkin bayram sifatida nishonlanib kelinmoqda.

Diniy-ma'rifiy soxada Imom Buxoriy, Imom Motrudiy, Imom at-Termiziy, Baxouddin Naqshband, Burxoniddin Marg'inoniy kabi ulug' mutafakkirlarimizning yubileylari o'tkazildi.

Mustaqillik tufayli respublikamiz fuqarolari Haj safariga borish, muqaddas qadamjohlarni ziyorat qilish imkoniga ega bo'ldilar. Agar o'tmishda sobiq Sho'ro bo'yicha har yili 25-30 kishi hajga borgan bo'lsa, 1991 yilda O'zbekistondan 1500 kishi, 2003 yilda 3800 nafar kishi Haj ibodatini bajarish imkoniga ega bo'ldi. Mustaqillikning o'tgan o'n uch yili davomida ja'mi 48000 dan ortiq yurtimiz fuqarolari Haj va Umra kabi diniy farzini ado qilish imkoniga ega bo'ldilar⁵⁹.

Mustaqillik yillari diniy tashkilotlarning ham soni ortdi. Agar XX asrning 90 yillarida respublikamizda 119 ta diniy tashkilot mavjud bo'lgan bo'lsa, 2003 yilga kelib ularning soni 2091 taga yetdi. Mustaqilligimizga qadar bor yo'g'i 2 ta diniy o'quv yurti faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, xozirda ularning soni 16 taga yetdi. Imom al-Buxoriy nomidagi Toshkent Islom institutini 1975-1990 yillar orasida 153 kishi, Mir Arab madrasasini 1950-1990 yillarda 272 kishi bitirgan bo'lsa, 1991-2003 yillar orasida ularni 4732 kishi bitirib chiqdi. Bu imomlarning diniy ma'lumot darajasi keskin oshganligini ko'rsatadi. Mustaqillik yillari o'rta maxsus diniy ma'lumotga ega bo'lgan imomlar ulushi 2,6 foizdan 47 foizga, oliy diniy ma'lumotga ega bo'lganlarning ulushi 1,6 dan 23 foizga o'sdi.

O'tgan yillar davomida xalqimizning ma'naviy boyligi bo'lgan noyob manbalarni tizimli o'rganish yo'lga qo'yildi. Ularning natijasi o'laroq Imom Buxoriyning xadislari to'plami 4 jildda, Burxoniddin Marg'inoniyning «Al-Hidoya»si, Imom at-Termiziyning «Sunan at-Termiziy» asarlari o'zbek tilida ilk bor nashr etildi. Muqaddas Qur'oni karim ma'nolarining tarjimai 2 marotaba nashr etildi.

Buyuk diniy ulamo va mutafakkirlarning yubileylari muntazam o'tkazilib kelinmoqda, maqbaralari ta'mirlanib xalqimizning ziyoratgohiga aylantirilmoqda. Chunonchi 1993 yilda Baxouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi; 1995 yilda

⁵⁹ Qarang. Jo'raev U., Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. 13-bet.

Najmiddin Kubro tavalludining 850 yilligi; 1998 yilda Imom Buxoriyning 1225 yillik; 2000 yilda Imom Motrudiyning 1130 yilligi va Burxoniddin Margʻinoniyning 910 yilligi; 2001 yilda «Avesto» yaratilganligining 2700 yilligi; 2003 yilda Abduxoliq Gʻijduvoniyni 900 yillik yubileyi nishonlangan boʻlsa, 2004 yilda Xoja Axror Valiy tavalludining 600 yilliklari nishonlanadi. Mana shularning hammasi mustaqillik yillari Oʻzbekistonda vijdon erkinligi, din, diniy tashkilotlar va dindorlarga nisbatan davlat siyosatida tub oʻzgarishlar boʻlganligini isbotlovchi dalillardir.

Mustaqillik yillari dinning jamiyatdagi mavqei tiklandi, barcha diniy uyushmalarga, mazhab va jamoalarga qonun doirasida ochiq va daxlsiz faoliyat imkoniyati yaratildi.

Oʻzbekiston koʻpmillatli, koʻp konfessiyali davlatdir. Yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashab, ular turli dinlarga eʼtiqod qiladilar. Bunday sharoitda diniy bagʻrikenglik mamlakatimizda qurilayotgan demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri boʻlib qolayotganligi tabiiy xoldir.


«Diniy bagʻrikenglik gʻoyasi xilma-xil diniy eʼtiqodga ega boʻlgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob gʻoya va niyatlar yoʻlida hamkor va hamjihat boʻlib yashashini anglatadi»⁶⁰.

Azal-azaldan diyorumizda islom, nasroniylik, iudaizm kabi dinlar yonma-yon yashab kelgan. Tariximizning eng murakkab, ogʻir damlarida ham ular oʻrtasida diniy asosda majoro va ziddiyatlar boʻlmagan. Xozirda Vatanimizda turli dinlar va din vakillari oʻrtasida umumbashariy qadriyatlar asosida birodarlikni mustahkamlashga muhim ahamiyat berilmoqda. Bunda respublikamizda mavjud boʻlgan 16 ta diniy konfessiya birlashmalari faoliyati katta ahamiyat kasb etayotir. Ularning oʻz faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida faol ishtirok etishi uchun hamma sharoitlar yaratilgan.

Bu boradagi xuquqiy asoslar Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida» gi qonunda oʻz ifodasini topgan. Diniy bagʻrikenglik gʻoyasining amaldagi tasdigʻini 1995 yilda musulmon va xristian ilohiyotchilari ishtirokida «Bir samo ostida» mavzuidagi xalqaro xristian-musulmon konferensiyasi; shuningdek Rus pravoslav cherkovi Toshkent va Oʻrta Osiyo yeparxiyasining 125 yilligi hamda Yevangel – Lyuteran jamoasining 100 yilligi nishonlanganligida; hamda 1998 yildan Toshkent Pravoslav diniy seminariyasi, Samarqand Protestant seminariyalari faoliyat koʻrsatib kelayotganligida koʻrishimiz mumkin.

⁶⁰ Milliy istiqloq gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent. 2000 yil.

**VIJDON ERKINLIGI
TO‘G‘RISIDAGI HUJJATLAR VA
ULARNING MAZMUNI.**



3- Masala bayoni Missionerlik va prozelitizmning mazmun-mohiyati.

Missionerlik soʻzi asli lotin tilidagi «missio» feʻlidan olingan boʻlib, «yuborish», «vazifa topshirish», missioner esa “vazifani bajaruvchi” degan maʼnolarni anglatadi. Missionerlik esa belgilangan vazifalarni hal qilishga qaratilgan nazariy va amaliy faoliyat majmuini bildiradi.

Turli lugʻatlar va manbalarda missionerlikka koʻplab taʼriflar berilgan. Ularning deyarli barchasida missionerlikka xos xususiyatlar tavsiflanishi barobarida, bu soʻz asosan xristian dini bilan bogʻlanadi. Jumladan, har yili qayta nashr etiladigan «World Book» (“Jahon kitobi”) ensiklopediyasida “Missioner biror diniy guruh tomonidan boshqalarni oʻz diniga targʻib qilish va kiritish uchun yuborilgan inson”,- degan fikr qayd etilgan. 2005 yilda Moskvada nashr etilgan “Kirill va Mefodiyning katta ensiklopediyasi”da esa «Missionerlik biror diniy birlashma

vakillarining o'z e'tiqodini boshqa din vakillari orasida yoyish harakati», - degan ta'rif keltirilgan.⁶¹

Umuman olganda, turli lug'atlar va manbalarda bayon etilgan ta'riflar bib-biriga juda yaqin va o'xshash bo'lib, ularga tayangan holda quyidagi xulosani chiqarish mumkin: *missionerlik* - bir dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ'ib qilishni anglatadi.

Missionerlik bilan yonma-yon ishlatiladigan *prozelitizm* esa, to'g'ridan-to'g'ri biron bir dinga ishongan fuqaroni o'z dinidan voz kechishga va o'zga dinni qabul qilishga qaratilgan harakatlarni anglatadi. U o'z mohiyatiga ko'ra missionerlikning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Missionerlik o'ziga xos va uzoq tarixga ega. Dastlab muayyan darajada ijobiy ko'rinishga ega bo'lgan missionerlik islom va xristian dini rivojlangan davlatlar o'rtasida o'zaro savdo hamda madaniy munosabatlar orqali bir-biriga ta'sir etishiga sabab bo'ldi. O'zga xalqlar erishgan yutuqlarning kirib kelishi, mahalliy madaniyatlarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Fan, texnika va texnologiya yutuqlarining jadal kirib kelishida ham missionerlarning ishtiroki katta. Bu esa iqtisodiyotning rivojlanishiga, xalqlarning turmush darajasining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Biroq bugungi kunda missionerlikdan g'arazli maqsadlarda foydalanish ham keng tus olgan. Missionerlik e'tiqodni o'zgartirishdan tashqari shaxsiy bo'ylik orttirish, geosiyosiy maqsadlarni amalga oshirish uchun ham vositachilik qilmoqda. Missionerlik harakatlarining kuchayishi bilan, ayniqsa, zamonaviy telekommunikatsiya, kompyuter, internet tarmog'i orqali biron bir hududga xos ma'naviy qadriyatlarni o'zga xalqlarga singdirish, insonlarning ongi va qalbini zabt etish yo'li bilan jahonda ma'naviy hukmronlikni o'rnatishga urinish hollari ham kuzatilmoqda.

Afsuski, missionerlikning salbiy ta'sirlari kuchayib bormoqda. SHunga qaramasdan ayrim mamlakatlarga bunday illatning oldini olishga harakat qilib, boshqalari esa aksincha, missionerlik faoliyatiga qonun bilan ruxsat berib qo'yishgan. Masalan, Armaniston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunida (8-modda) prozelitizmning ta'qiqlanganligi ko'rsatilgan bo'lsa, Ukraina va Belorussiyaning bu boradagi qonunchiligida "missionerlik jamiyatlari" faoliyatiga diniy tashkilot sifatida rasman ruxsat etilgan⁶².

Missionerlik dastlab buddizmda mil. avv. 3-asrdan boshlangan bo'lsa-da, haqiqatdan ham, o'z tarixiy taraqqiyotida u ko'proq xristian dini doirasida namoyon bo'ldi. Ma'lumki, xristian dinida missionerlik 4-asrdan boshlab paydo

⁶¹ A.Ochilidiev, J.Najmiddinov Missionerlik:moxiyat,maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari (yuz savolga-yuz javob) "Toshkent islom universiteti"nbm 2009-y 53-b

⁶² <http://www.minjust.uz/uz/press/ourpublications/2012/07/2010/>

bo'lgan. 13-14 asrlarda xristian missionerligi Hindiston, Xitoy, Yaponiya kabi davlatlarga kirib bordi. Katolik cherkovida missionerlar Ispaniya va Portugaliyada mustamlaka imperiyalari tashkil topgach (15-16 asrlar), o'z faoliyatini kuchaytirdi. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi umumiy missionerlarning 2/3 qismini xristian missionerlari tashkil etadi. XX asrga kelib, o'z holicha missionerlik bilan shug'ullangan tashkilotlarni birlashtirish yo'lida harakatlar boshlandi va ilk xalqaro protestant missionerlik tuzilmalari shakllantirildi. Birinchi butunjahon protestant missionerlari konferentsiyasi 1910 yilda Shotlandiyaning Edinburg shahrida bo'lib o'tgan edi. Keyinroq esa «Xalqaro missiyalar kengashi» tuzildi. Bugungi kunda yuzlab shunday maqomga ega missiyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularni yanada rivojlantirish, yetarli moddiy, ma'naviy va inson resurslari bilan ta'minlash juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Odatda, xalqaro missiyani tashkillashtirishda ma'lum bir konfessiyaning barcha shaxobchalari qatnashadi. Masalan, tashkilotning nashriyoti uni tegishli adabiyotlar bilan ta'minlasa, tadqiqot markazi muayyan mamlakat aholisi, uning hayot tarzi, urf-odatlari, zaif tomonlari haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va diniy adabiyotlarni mahalliy tillarga tarjima qilish bilan shug'ullanadi. Missiyani moddiy-moliyaviy ta'minlashda ishlab chiqarish tuzulmalarining, missioner kadrlar tayyorlash va ko'ngilli homiylarni topishda missionerlik bazalarining ahamiyati katta. Mana shunday kuch va tayyorgarlik bilan xalqaro missiya istalgan mamlakatda tegishli targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali tashkil etishiga shubha qilmasa ham bo'ladi.

Missionerlik faoliyatida ijtimoiy tabaqalar bilan ishlash strategiyasi.

Missionerlar makon va zamonga moslashgan holda o'z uslub va vositalarini doimiy takomillashtirib kelganlar. So'nggi vaqtlarda ular ma'lum bir ijtimoiy qatlamni ajratib olib, maqsadli ish olib borishga intilmoqdalar. Jumladan, missionerlar asosiy e'tiborni aralash millat vakillaridan iborat oilalarning a'zolari, ilgari hech bir dinga e'tiqod qilmagan, og'ir xastalikka, judolikka, moddiy qiyinchilikka duch kelgan, axloq tuzatish muassasalaridan chiqib kelgan, ya'ni moddiy va ma'naviy ko'makka muhtoj kishilarga qaratmoqdalar.

Ziyolilarning turli qatlamlari ichida san'at sohasi xodimlari, kutubxonachilar, o'rta maktab o'qituvchilari, turli idoralar xizmatchilari faol missionerlik targ'iboti ob'ekti sifatida tanlanayotganini ham qayd etish lozim. Bunday yondashuvda o'ziga xos mantiq bor. Masalan, prozelit san'atkor san'atning hissiy-emotsional ta'sir quvvatidan foydalanib, e'tiqodiy bosim o'tkazishda yuqori samaradorlikka erishishi mumkin bo'lsa, e'tiqodini o'zgartirgan kutubxonachida esa «o'lja» sifatida tanlanganlar bilan yakka tartibda ishlash imkoniyati mavjud bo'ladi.

Missionerlarga tabiatan ishonuvchan, tashqi ta'sirga moyil bo'lgan va ayni paytda, hayotda sabr-bardoshli va fidoiy bo'lish bilan bir qatorda hamisha ma'naviy-ruhiy ko'makka, qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadigan ayollarga

ham alohida e'tibor bilan qaramoqdalar. Ayollar orasida ish olib borish ular uchun „bir o'q bilan kamida uch quyanni urish“dir. Birinchisi- ayolning o'zi, ikkinchisi -uning farzandlari va uchinchi - turmush o'rtog'i. Ayollarning ulushi baptistlar va pyatidesatniklar cherkovlariga qatnaydiganlar orasida 70, adventistlar va „Iegovo shohidlari“ orasida 80, presviterian cherkovlariga qatnaydiganlar tarkibida 90 foizgacha borishi esa missionerlarning ana shu maqsadlar yo'lidagi xatti-harakatlarining hayotiy-amaliy natijasidir.

Qayd etilgan misollar ham missionerlik ob'ekti sifatida tanlanayotgan qatlamlar doirasi muntazam ravishda kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Bugungi kunda missionerlik tashkilotlari yangi „o'lja“lar orttirishda tibbiy va ta'lim sohalarida faoliyat olib borish, xayriya yordamlari ko'rsatish, uyma-uy yurib tashviqot olib borish, mahalliy tillarda xristianlikni targ'ib qiluvchi adabiyotlar, gazeta va jurnallar chop qilib, tarqatish, radio teledasturlar tayyorlash, kino maxsulotlari ishlab chiqarish hamda internet tarmog'i orqali o'z qarashlarini targ'ib qilishga alohida e'tibor bermoqdalar. Ayni damda missionerlar o'zlari istiqomat qiladigan mintaqaning milliy xususiyatlari va maishiy hayotidan ham foydalanishga harakat qiladilar.

Missionerlikda yoshlarga alohida e'tibor berilishining sabablari. Yoshlarning faol ijtimoiy kuchga aylanib borayotgani bugungi kunda ularning turli mafkuraviy ta'sir va tazyiqlarning asosiy ob'ektiga aylanishiga olib keldi. Bunda ularning jamiyatning hali yetarli tajribaga ega bo'lmagan, tashqi ta'sirlarga tez beriluvchan va ayni paytda, eng harakatchan qatlami ekani inobatga olinmoqda.

Missionerlikning taniqli nazariyotchisi Patrik Djonstoun talaba yoshlarni missionerlik faoliyatining asosiy ob'ekti deb qarab, o'zining «Dunyo operatsiyasi» kitobida shunday yozadi: «Butun dunyoda universitet va kollejlarda 37 million talaba tahsil oladi. Ularning ko'plari 20 yildan so'ng yirik mansablarni egallashadi». Ushbu fikrlar missionerlarning jamiyatning ertangi kunini belgilab beradigan avlod ongini egallash, nazorat qilishni ko'zlab ish yuritayotganini anglash imkoniyatini beradi.

Xayriya yordamlari ko'rsatish ham missionerlikdagi eng qadimiy va samarali usullardan biri hisoblanadi. Bunda turli tadbirlar uyushtirilib, ularga asosan yoshlar jalb etiladi. Beg'araz deya taqdim etilayotgan, aslida jamiyatning yordamga muhtoj qatlamlarini aniqlash va so'ngra ular bilan maqsadli ish olib borishni ko'zlaydigan bunday harakatlar hatto «Yangi yil», «Navro'z», «Xotira va qadrlash kuni» kabi xalqimizda keng nishonlanadigan bayramlar davomida ham g'arazli maqsadlarda amalga oshirilishi kuzatilgan. Missionerlar o'zlari ko'rsatayotgan «yordamni» shu bayramlar ruhiga moslashtirishga ham harakat qilmoqda.

Uyma-uy yurib «Xushxabar» yetkazish usulining o'ziga xos xususiyatlari. Bu usul missionerlarga odamlar bilan kunning dolzarb masalalari haqida suhbatlashish,

ularning dardlariga qiziqish bildirish va ushbu muammolardan chiqish yo'llarini ko'rsatib berishni taklif qilib, o'z tashkilotlariga jalb qilishga asoslanadi. Bu missionerlikni amalga oshirishda eng yaxshi samara beradigan va katta mablag' talab qilmaydigan usullardan biri hisoblanadi. Masalan, ushbu usuldan faol foydalayotgan «Iegovo shohidlari» oqimi a'zolari, o'zlarini go'yoki, Iso Masih o'z havoriylariga buyurgan yo'ldan foydalanayotganlarini da'vo qilib, muayyan hududda «tayanch nuqta»ni shakllantirish va unga suyangan holda yaqin qo'shnilar orasida uyma-uy yurib adabiyotlarni tarqatish, maktab o'quvchilari va yoshlar orasida targ'ibot ishlarini olib borishga alohida e'tibor bermoqda. Bunday maqsadli faoliyat natijasida iegovochilar soni yildan yilga ortib bormoqda va bugungi kunda dunyo bo'yicha qariyb 7 millionni tashkil etmoqda.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi missionerlikdan ko'zlangan maqsadlar. Ta'lim tizimi bosqichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tufayli g'oya va qarashlarni singdirishdagi tadrijiylik ta'minlanadi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida amalga oshirilgan targ'ibot natijalarini bevosita tekshirib ko'rish va uni takomillashtirib borish imkoniyati ham mavjud. Bu kabi xususiyatlar missionerlarning ta'lim tizimiga alohida e'tibor bilan qarashini keltirib chiqarmoqda. Adventistlarning dunyo bo'yicha 5000 dan ortiq o'quv markazlariga, pyatidesyatniklikning eng yirik oqimlaridan biri – «Xudo assambleyalari» cherkovlari bir necha kollej va Bibliya maktablariga egalik qilayotgani ham aynan shu bilan izohlanadi.

Jumladan, O'zbekiston istiqlolining dastlabki yillarida missionerlar turli volantyor tashkilotlar niqobi ostida mamlakatimiz ta'lim tizimiga kirib olishga uringanlari kuzatilgan. Ular yurtimizdagi mavjud ta'lim muassasalarida turli til, kompyuter, sport to'garaklari tashkil etish niqobi ostida talaba va o'quvchilar orasida o'z dinlarini targ'ib qilishga harakat qilgan.

Shuningdek, missionerlik tashkilotlari o'z dinlarini targ'ib qilishda audio, video va elektron mahsulotlar, gazeta va jurnallar, teledasturlar, internetda onlayn o'quv kurslari tashkil etish yo'llaridan ham foydalanmoqda. Ommaviylik, davriylik, o'quvchilar auditoriyasining kengligi tufayli gazeta va jurnallar missionerlar tomonidan o'z qarash va g'oyalarini singdirish quroli sifatida qo'llanilmoqda.

Missionerlikka qarshi kurashning huquqiy-amaliy asoslari. O'zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridanoq missionerlik va prozelitizmning salbiy oqibatlariga olib kelishini hisobga olgan holda bu borada tegishli qonuniy asoslar ishlab chiqildi. Qonunlarda missionerlik harakatlari taqiqlandi.

Ma'lumki, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun (yangi tahriri) kishilarning vijdon erkinligini huquqiy kafolatlash bilan birga diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qiladigan hamda davlat va din munosabatlarini tartibga soladigan muhim hujjat hisoblanadi. Qonunga binoan «Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-

harakatlar (prozelitizm), shuningdek boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar» (5-modda, 3-band).

Mazkur moddadan kelib chiqib, «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi»ga noqonuniy diniy xatti-harakatlarning oldini olish bilan bog'liq bir qator moddalar kiritilgan. Jumladan:

- diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki tarqatish;
- diniy yig'ilishlar, ko'cha yurishlari va boshqa diniy marosimlar o'tkazish qoidalarini buzish;
- O'zbekiston Respublikasida g'ayriqonuniy nodavlat notijorat tashkilotlari, oqimlar, sektalar faoliyatida qatnashishga undash;
- nolegal diniy faoliyat bilan shug'ullanish;
- diniy tashkilotlar rahbarlarining mazkur tashkilotlar ustavini ro'yxatdan o'tkazishdan bosh tortishi;
- dindorlar va diniy tashkilotlar a'zolari tomonidan bolalar va o'smirlarning maxsus yig'ilishlari, shuningdek diniy marosimga aloqasi bo'lmagan mehnat, adabiyot va boshqa xildagi to'garaklar hamda guruhlarini tashkil etish va o'tkazish;
- bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm) va boshqa missionerlik faoliyati;
- maxsus diniy ma'lumoti bo'lmay turib va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatisiz diniy ta'limotdan saboq berish, xuddi shuningdek xususiy tartibda diniy ta'limotdan saboq berish bilan bog'liq harakatlar sodir etilganda belgilangan eng kam ish haqining tegishli miqdoridagi jarima solinishiga yoki belgilangan muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'lishi haqidagi qoidalar mustahkamlab qo'yilgan.

Amaldagi qonunchiligimizga ko'ra, muayyan hollarda birinchi marta qonunni buzgan shaxs yoki tashkilotga ma'muriy jazo qo'llaniladi. Agarda o'sha shaxs yoki tashkilot shundan keyin ham qonunni buzishda davom etsa, unga endi jinoyat kodeksidagi choralar qo'llaniladi. Masalan, «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi» normalariga ko'ra, «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi»ning yuqorida qayd etilgan bandlaridagi harakatlar ma'muriy jazo qo'llangandan keyin yana sodir etilsa, bu «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi»da belgilanganidan ko'ra og'irroq jazolar qo'llanishiga olib keladi.

Shu bilan birga, «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi»da «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi»da nazarda

tutilmagan bir qator harakatlar uchun ham jazolar belgilanganini qayd etish zarur. Jumladan:

- voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish;
- voyaga yetmagan bolalarni ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitish;
- dindorlardan majburiy yig'im undirish va soliq olish;
- diniy ta'lim olishda hamda fuqaro dinga nisbatan, dinga e'tiqod qilish yoki e'tiqod qilmaslikka nisbatan, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka nisbatan o'z munosabatini belgilayotgan paytda majburlash bilan bog'liq diniy faoliyat yuritish;
- g'ayriqonuniy jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish yoki ularning faoliyatini tiklash;
- g'ayriqonuniy jamoat birlashmalari yoki tashkilotlari faoliyatida faol qatnashish bilan bog'liq harakatlar belgilangan eng kam ish haqining tegishli miqdorida jarima solinishiga yoki belgilangan muddatga axloq tuzatish ishlari, yoki qamoq yohud ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizda missionerlik va prozelitizmning oldini olish, ayniqsa yoshlarni bunday zararli oqimlar domiga tushib qolishlarining oldini olish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirishni taqozo qilmoqda. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etishda yosh avlodni hozirgi davrda mamlakatimizda din sohasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, yaratilgan imkoniyatlar bilan muntazam tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, qiziqishlari, bilim darajalarini inobatga olgan va differentsial yondashgan holda yoshlarning din, shu jumladan, xalqimiz asrlar davomida e'tiqod qilib kelgan islom dini haqidagi bilimlarni va milliy-diniy an'analar asoslarini sog'lom asosda egallashlariga ko'maklashish ham bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday bilimlar ob'ektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi va o'z mohiyatiga ko'ra, Vatan va millat manfaatlarini bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak. Yoshlarimizning missionerlikning mohiyati haqida xolis va yetarli bilimga ega bo'lishlari unga qarshi immunitetni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar hech bir mintaqada, hech bir davlat bunday tahdiddan xoli emasligini ko'rsatadi. Bunday holatlarning oldini olish uchun esa missionerlikning mohiyatini to'g'ri va chuqurroq anglash, uni bartaraf etish yo'lida maqsadli, tizimli va tadriijiy faoliyat olib borish zarur bo'ladi. Egallangan bilimlar qanchalik xolis va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga keladigan baholar, qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Shakllangan qadriyatlar tizimi esa turli tahdidlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Din masalasida qanday me'yoriy xujjatlar mavjud? Ularning mazmunini izohlang.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida Vijdon erkinligi bayon etilgan? Uning mazmunini izohlang.
3. O'zbekiston Respublikasida vijdon erkinligining kafolatlanishi nimalarda o'z ifodasini topgan?
4. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» gi qonun qachon qabul qilingan? Uning mazmuni haqida nimalarni bilasiz?
5. Dinlarning va diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilishining mohiyatini izohlang.
6. Maktabni dindan va diniy tashkilotlardan ajratilishi deganda nimani tushunasiz?
7. Mamlakatimizda diniy ilm olish qanday amalga oshiriladi?
8. Mustaqillik yillari mamlakatimizda dinga va diniy tashkilotlarga bo'lgan munosabatda qanday o'zgarishlar bo'ldi?
9. Missionerlik va prozelitizm so'zlarining mazmun-mohiyati nimada?
10. Missionerlik tashkilotlari asosan qanday maqsadlarni ko'zlaydi?
11. Mustaqil O'zbekistonda missionerlik va prozelitizmga qarshi kurashning qanday huquqiy-amaliy asoslari yaratilgan .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A. Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajagi yo'q" T -1998 yil
2. I.A. Karimov "Yusak ma'naviyat yengilmas kuch" T -2008 yil
3. Sh. M. Mirziyoev " BMT Bosh assambleyasining 72 –sessiyasidagi nutqi 2017 yil 19 sentabr
4. Falsafa ensiklopedik lug'at. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti T -2010 yil
5. O'zbek milliy ensiklopediyasi. II jild 2001 yil
6. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi T -2009 yil
7. Sh. I. Xaitov O'zbekiston falsafa tarixi T -2011 yil
8. I. Jabborov "Jahon dinlari tarixi" T- 2002 yil.
9. Xusanov S.X, Mirjavharova D.S. "Dinshunoslik" o'quv uslubiy qo'llanma T 2004
10. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi" Toshkent 2017

9-Mavzu: Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: O'zbekiston tajribasi.

Ma'ruza rejasi

1. Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblikning mazmun-mohiyati.
2. Terrorizm tushunchasi va uning asosiy belgilari.
3. Islom niqobidagi ekstremizmning g'oyaviy ildizlari.
4. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari.

Tayanch tushunchalar:

Ekstremizm, diniy ekstremizm, fundamentalizm, mutaassiblik, aqidaparastlik, terror, terrorizm, xalqaro terrorizm, firqalar.

1- Masala bayoni. Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblikning mazmun-mohiyati. Diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalsa-da, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungidek tahdid solmagan. Zero, hozirda diniy ekstremizm va terrorizm global xarakterga ega bo'lib, dunyoning barcha mamlakatlari hamda mintaqalariga birdek xavf solmoqda. Shunday ekan, uning oldini olish va unga qarshi kurashish insoniyatning istiqboliga daxldor masalaga aylandi.

Ekstremizm (lotincha – «aql bovar qilmas darajada», «haddan oshish» “keskin”) jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalariga zid radikal qarashlar va harakatlarni anglatadi. Ularga diniy tus berish esa, diniy ekstremizmga olib keladi.

Diniy ekstremizm – jamiyat uchun an'anaviy bo'lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid g'oyalarni aldov va zo'rlik bilan targ'ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi.

Ekstremistik qarashlarni barcha dinlarda, buddaviylik, xristianlik, islomdagi turli oqimlarda uchratish mumkin. Masalan, mutaxassislar papa hokimiyati dushmanlarini ta'qib qilish uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurbon bo'lishiga olib kelgan inkvizitsiya faoliyatini ham ekstremizmning o'ziga xos ko'rinishi sifatida baholaydilar. Ammo hozirda islom dini niqobi ostidagi diniy-siyosiy harakatlar a'zolari tomonidan turli jinoyatlar sodir etilayotgani jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda.

Fundamentalizm – (lotincha – «asos») tushunchasining ma'nosi muayyan ijtimoiy hodisaning dastlabki ko'rinishini anglatadi.

Diniy fundamentalizm – «ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin», degan fikrni ilgari surish ta'limotini anglatadi. Istilohda aqidaning o'zgarmasligini himoya qiladigan, muayyan diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarni qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo'llaniladi.

«Fundamentalizm» atamasi aslida xristian dini bilan bog'liqdir. Fundamentalizm iborasi birinchi bor I Jahon urushi arafasida vujudga kelgan protestantlikdagi ortodoks oqimlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu oqim 1910 yildan keyin shu nom bilan atala boshlagan. Fundamentalistlar xristianlikning an'anaviy aqidalariga, ayniqsa Bibliyaning mutlaqo mukammalligiga ishonishni mustahkamlash, uni so'zma-so'z sharhlashga qat'iy rioya qilishni talab qildilar. Bu oqim keyinchalik Amerikada keng tarqalib ketdi. 1919 yili Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assotsiatsiyasiga asos solindi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab, bu so'z islomga nisbatan qo'llanila boshladi. Bunda «fundamentalizm» atamasi – Qur'on va hadislarini so'zma-so'z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ'ib qiluvchi diniy-konservativ ruhdagi yo'nalishga nisbatan ishlatildi. Buning natijasida jahon matbuotlarida islom niqobidagi mutaassib jangarilarni «fundamentalistlar» deb atash ham odat tusiga kirdi. Shunday ekan, ekstremizm yoki fundamentalizmni faqat muayyan din bilan bog'lash mutlaqo asossiz.

Hozirgi davrda ko'plab ekstremistik uyushmalar va mutaassib harakatlar turli dinlar, shu jumladan, islom, xristianlik, yahudiylik dinlari ta'limotlaridan foydalanmoqdalar.

Aqidaparastlik (arab. – «aqida» – «ishonch», «biror narsani ikkinchisiga bog'lash») muayyan sharoitda, biron-bir g'oyaga qat'iy ishonib, uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qo'llash yoki shunga urinishni anglatadi. U muayyan qonun va qoidalar ta'sir doirasini sun'iy kengaytirishga urinishda yorqin namoyon bo'ladi.

Mutaassiblik (arab. – «g'uluv ketish», «chuqur ketish») o'z fikr-mulohaza va dunyoqarashi to'g'riligiga o'ta qattiq ishonib, boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'lishni anglatadi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo'nalishlar orasida keskin nizo va to'qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Ayni paytda, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik ham diniy mutaassiblik g'oyalarning tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu jarayonning eng xatarli jihati dinni siyosilashtirish vositasida hokimiyatga intilish, dindan odamlar orasiga nifoq solish, qo'poruvchilik ishlarini amalga oshirish va g'arazli manfaatlarni ro'yobga chiqarishda foydalanishga urinishlarda namoyon bo'lmoqda.

Demak, diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiysi sababi bu – mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo'lishidir. Mutaassiblik diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi.

2- **Masala bayoni** **Terrorizm tushunchasi va uning asosiy belgilari.** Terrorizm (lotincha – «qo'rqitish», «vahimaga solish», «daxshat») – aholining

keng qatlamlarida vahima va qo'rquv uyg'otish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadiga qaratilgan jinoiy faoliyatdir.

Terror – ommaviy va siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo'ravonlikdan hamda zo'ravonlik qilish bilan tahdid solishdan muntazam foydalanishdir. Shunday qilib, «terror» dushmanni jismoniy zo'ravonlik yo'li bilan qo'rqitish, hatto uni jismonan yo'q qilishni anglatadi. «Terrorizm» esa terror amaliyotidir.

XX asrning 60-yillaridan boshlab, terrorizmning mojarolarni keltirib chiqaruvchi hodisa sifatidagi salohiyati, butun-butun mintaqalar yo'nalishi turlicha bo'lgan terrorchi tashkilotlar va guruhlar faoliyat ko'rsatgan joylarga aylanib qoldi. Buning natijasida, terrorchilik harakatining ko'lamigina emas, balki metodlari ham o'zgardi. Uning eng dahshatli ko'rinishlaridan biri – o'zini avvaldan o'linga tayyorlagan terrorchi-kamikadzelar tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarni keltirish mumkin.

Musulmon mamlakatlarida terrorchi uyushmalar ommaviy bo'la olmagan uchun aholining keng qatlamlari nomidan harakat qilish taassurotini uyg'otish maqsadida diniy shiorlardan niqob sifatida foydalanadilar.

Demak, terror, terrorchilik faoliyati, terrorchi birgalikda bir butun hodisa sifatida terrorizmni tashkil etadi. Hozirgi davrda u global miqyos kasb etib, xalqaro terrorizm shaklini oldi.

«Xalqaro terrorizm» tushunchasi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qo'poruvchilik faoliyatini ifodalaydi. U og'ir jinoyatlardan bo'lib, uzoq davom etgan jarayonlarning hosilasi hisoblanadi.

Xalqaro terrorizm fenomeni, ayniqsa, XX asr boshlarida avj ola boshladi, ya'ni xalqaro terrorizmga qarshi kurashda davlatlararo hamkorlikni yo'lga qo'yilishi o'tgan asrning 30-yillaridan boshlangan. 1937 yilda 20dan ortiq davlat terrorizmning oldini olish va bunday harakatlar uchun jazolash haqidagi Konventsiyani imzoladi.

Terrorizmni turlarga bo'lishda terakt jarayonida ishlatiladigan vositalarga asosiy mezon sifatida qaraladi. Shunga ko'ra terrorizm ikki turga: an'anaviy va zamonaviy (texnologik) terrorizmga ajratiladi. Odamlarni xalok qiluvchi azaldan ma'lum vositalar (sovuq qurol, o'q otuvchi qurol, portlovchi moddalar va hokozolar)dan foydalanib siyosiy maqsadlar yo'lida amalga oshiriladigan terror an'anaviy terrorizmga xos xususiyatdir.

Zamonaviy (texnologik) terrorizm esa radioaktiv materiallar, o'ta zaharli gazlar, kimyoviy va biologik moddalar kabi vayron qilishning yangi vositalarini qo'llashni afzal ko'radi, nisbatan katta hududni qamrab olishi va ko'plab aholining qurbon bo'lishiga olib kelishi jihatidan o'ta xavfli jinoyat turiga kiradi.

Zamonaviy (texnologik) terrorizmning ko'rinishlari:

❖ *Yadroviy terrorizm* - yadroviy portlovchi qurilmalarni portlatish yoki portlatish tahdidi, radioaktiv materiallar bilan zaharlash, yadroviy ob'ektlarni bosib olish yoki diversiya uyushtirishni ifoda etadi. Hozir dunyoning 30 mamlakatida 450 ga yaqin yadroviy sanoat ob'ektlari, yuzlab yadro reaktorlari, o'n minglab yadroviy qurilmalar mavjudligi e'tiborga olinsa, terrorizmning bu ko'rinishi insoniyatga nisbatan qanchalik katta tahdidga aylanganini tasavvur qilish mumkin.

❖ *Xaydjeking* - yirik transport vositalari: samolyot, poezd, avtomobil va kemalarni o'g'irlashni ko'zda tutadi. 2001 yil 11 sentyabrda AQSH hududida mamlakat aviakompaniyalariga qarashli uch yirik samolyotning passajirlar bilan birga olib qochilganligi, amalga oshirilgan terakt natijasida ko'plab fuqarolarning halok bo'lganligi katta fojia bo'lgan edi.

❖ *Kiberterrorizm* — maxsus xaker dasturlari orqali kompyuter boshqaruvi tarmoqlarini egallab olish, kompyuter viruslari yordamida internet tarmog'ida terakt sodir etish, internet tarmog'ini ishdan chiqarishni ko'zda tutadi.

❖ *Bioterrorizm* — shtam, virus, kukun kabi bakteriologik vositalardan foydalangan holda terakt sodir etish.

❖ *Kimyoviy terrorizm* - zarin, neprin kabi zaharlovchi va bo'g'uvchi gazlardan terroristik maqsadlarda foydalanish.

❖ *Ekoterrorizm* — terakt ob'ekti sifatida flora (o'simlik dunyosi) va fauna (hayvonot dunyosi)ning tanlanishi.

❖ *Infoterrorizm (axborot terrori)* — terakt sodir etishga olib kelishi mumkin bo'lgan ma'lumotning OAV orqali tarqatilishi, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatning o'z texnik imkoniyatlaridan boshqalarning zarari uchun foydalanishini anglatadi. Misol uchun biron bir yolg'on xabar ba'zan butun dunyo davlatlarini bir-biriga qarama-qarshi qilib qo'yadi, millionlab odamlarning ruhiyatini zaharlaydi, ularni yo'ldan adashtiradi. Shu bois, jahon ommaviy axborot vositalari orqali, xususan, «Internet» tarmog'idan tarqatilayotgan xabarlar noxolis berilar ekan, demak, turli zararli oqibatlar ham kelib chiqadi. Bunda zararli axborotlarni «Axborot terrori» deb atash mumkin.

Bugungi kunda terrorchilik uslublari ancha kengayganini ta'kidlash zarur. 1970-yillarda biror shaxs yoki siyosiy arbobga qarshi uyushtirilgan terror amaliyoti ko'proq uchragan bo'lsa, hozirda jamoat joylarida, samolyot, avtobus va poezdlarda portlashlarni sodir etish orqali ko'plab tasodifiy kishilarning qurbon bo'lishiga olib keladigan qo'poruvchilikni amalga oshirishga e'tibor berilmoqda. Ekspertlarning fikricha, bunday harakatlar birinchi navbatda nobud bo'lganlardan ko'ra, uning guvohlariga qaratilgan.

So'ngi yillarda turli-tuman siyosiy, iqtisodiy va diniy-mafkuraviy sabablarga ko'ra, Falastin hududlari, Suriya, Iroq Respublikasi diniy ekstremizm bilan bog'liq terrorchilik harakatlaridan katta talafot ko'rmoqda. Ayniqsa, Suriya davlatining iqtisodiyotiga 5 yillik urush 255 milliard AQSH dollari miqdorida zarar keltirdi.

Mamlakatning o'nlab shaharlaridagi 2 milliondan ziyod bino va inshootlar poydevorigacha yo'q qilingan, 85% suriyaliklar qashshoq holatga tushib qolgan. BMT ma'lumotlariga ko'ra, Suriyani tiklash uchun yiliga 100 milliard AQSH dollari lozim bo'ladi. Shundan keyingina 9 yil ichida davlat 2010 yilgi darajaga chiqishi mumkin. 2010 yili Suriyaning yalpi ichki mahsuloti 62 milliard AQSH dollariga teng bo'lgan. Ammo, fuqarolar urushidan so'ng yalpi ichki mahsuloti 27 milliard AQSH dollariga tushib ketgan. Faqatgina ishlab chiqarish maydonlarining o'zi 90% vayron qilingan. Turar-joy binolarining yarmi esa buzib tashlangan.

Xalqaro terrorchilik harakatlarining asosiy belgilari:

- xalqaro huquq himoyasidagi ob'ekt yoki sub'ektlarga qarshi qaratilgani;
- davlatlar chegaralarini buzish orqali amalga oshirilishi;
- a'zolari ikki yoki undan ortiq davlat fuqarolari, shu jumladan, yollanma shaxslar bo'lgan ekstremistik guruhlar tomonidan sodir etilishi;
- ekstremistik guruhlar tarkibida qo'poruvchilik harakatlari bo'yicha xorijlik yo'riqchilarning qatnashishi;
- ekstremistik guruh a'zolarining boshqa davlatlar hududida tashkil etilgan maxsus lagerlarda tayyorgarlik ko'rishi;
- tayyorgarlik ko'rish va qo'poruvchilikni sodir etishda xorijiy davlatlar va ekstremistik uyushmalar yordamidan, xalqaro tus olgan noqonuniy qurol-yarog' savdosi va narkobiznesdan keladigan moliyaviy manbalardan foydalanilishi.

Muayyan mamlakat hududida sodir etilgan terrorchilik xurujida qayd etilgan u yoki bu belgilarning bo'lishi, unga xalqaro maqom berilishi va shundan kelib chiqib, unga mos choralar ko'rilishiga olib keladi.

3- Masala bayoni. Islom niqobidagi ekstremizmning g'oyaviy ildizlari. Islom niqobi ostidagi ekstremistik harakatlarning ildizlari uzoq o'tmishga, hatto islom tarixining birinchi asriga borib taqalishini ko'rish mumkin. Uning ilk vakillaridan biri sifatida 657 yili xalifa Ali (r.a.) askarlaridan ajralib chiqqan, o'zlarini haqiqiy musulmon, saflariga qo'shilmaganlarni «dindan qaytgan» deb e'lon qilib, ularga qarshi murosasiz kurash olib borgan «*xorijiylar*» (arabcha–ajralib chiqqanlar, isyonchilar) diniy-siyosiy oqimi faoliyati fikrimizning isboti bo'la oladi.

Xalifa Ali (r.a.) bilan Muoviya (r.a.) o'rtasidagi tuzilgan bitimdan Kufa yaqinida turgan 12 ming kishidan iborat qo'shinning bir qismi norozi bo'ldi. Ular «hukm chiqarish faqat Allohning iznidadir», degan shior bilan qo'shinni tark etib, Kufa yaqinidagi Harura qishlog'iga ketdilar. Bu firqaning Kufadagi «xypyj» (bo'ysunmaslik) voqeasi ularning «xavorij» (qarshi chiquvchilar) nomini olishlariga sabab bo'ldi. Bu voqea Harura qishlog'ida yuz berganligi bois avvaliga ularni «haruriylar» deb ham ataganlar. Ular o'zlarini «Shurot» (Jonlarini Alloh yo'lida tikkan kishilar) deb nomlaganlar. Yana ularning «Muhakkima» («hukm Allohning iznida» deguvchilar) degan nomlari ham bo'lgan.

Xorijiyalar o'zlariga Abdulloh ibn Vahb ar-Rosibiyni amir etib saylab, Ali (r.a.) va Muoviya (r.a.)ni yo'q qilish payiga tushdilar. Xalifa Ali (r.a.)ni 661 yilda xorijiy Abdurrahmon ibn Muljam o'ldirgach, xorijiyalar ikki firqaga bo'linib, biri Iroqda qoldi, ikkinchisi Arabiston yarim oroliga ketdi. Umaviylar davrida xorijiyalarga qarshi keskin kurash olib borildi. Chunki ular Umaviylar davlatiga katta xavf solardilar.

Hokimiyat Umaviylardan Abbosiylar sulolasi (749-1258) qo'liga o'tganidan keyin ham bu toifa bir muddat o'z kuchini yo'qotmadi. Biroq Abbosiylar uzoq vaqt ularga qarshi uzluksiz olib borgan kurashlaridan so'nggina xorijiyalar inqirozga yuz tutdi.

Demak, islomda dastlab paydo bo'lgan firqa «xorijiyalar»dir. «Xorijiyalar» o'z talqinlaridagi «sof» islom qoidalariga qat'iy rioya qilish tarafdori edi. Aynan ular o'z qarashlari va faoliyatiga qo'shilmaganlarni imonsizga chiqarish, ularga qarshi «jihod» olib borish haqidagi g'oyalarni ishlab chiqib, terror uslubini qo'llash orqali hukmdorlarni jismonan yo'q qilish amaliyotini boshlab bergan edi. Bunday g'oyalar kelib chiqishiga ko'ra hokimiyat uchun kurashning zo'ravonlikka asoslangan usullaridan bo'lib, minglab kishilarning halok bo'lishiga olib kelgan.

VII asrning ikkinchi yarmida xorijiyalar orasida rahbarlarining ismi bilan ataladigan bir necha firqalar paydo bo'ldi. Ana shunday mutaassib firqalar orasida eng murosasiz va shafqatsiz jamoa nomini olgan Nofi' ibn Azraq (v.685y.) boshchiligidagi «*Azraqiylar*» oqimi alohida o'rin egallaydi. Azraqiylar gunohi kabira (katta gunoh) qilgan barcha musulmonlarni «kofir» deb, ularning ta'limotiga qo'shilmagan kishilarga qarshi jihod e'lon qilish, hattoki, qariya, ayol va bolalarning qonini to'kishni halol, deb bilganlar.

IX asr oxirida Janubiy Iroqda yuzaga kelgan *qarmatiylar* namoz, ro'za, zakot, haj kabi amallar farz qilinmagani, Qur'on oyatlarida masjid qurish yoki u erda yig'ilish haqida hukmlar yo'q, degan da'vo bilan masjidlariga borishni man qilish darajasigacha borgan edi. Harakat o'z nomini uning asoschisi Hamdon ibn al-Ash'asning laqabi Qarmat so'zidan olgan bo'lib, uning ma'nosi manbalarda turlicha «kalta oyoq» yoki «qizil ko'z» kabi ma'nolarda ifodalangan. Islomdagi mavjud qoida va tartiblarning mohiyatini buzib talqin qilish oqibatida ular hattoki, hajga keluvchilar Ka'baga sig'inib, Allohga shirk keltirishmoqda, degan da'volar ostida 930 yilda Makkaga hujum qilib, uni talon-taroj qilib, hojilarning bir qismini qul qilishgan, bir qismini esa o'ldirishgan. Ka'bani vayron qilib, qora toshni ikkiga bo'lib, Bahraynga olib ketishgan, faqat 20 yildan keyin katta to'lov evaziga u Makkaga qaytarib berilgan. Qarmatiylar islom tarixida o'chmas dog' qoldirgan jinoyatlarni sodir etgan.

XI asr oxirida Eronda yuzaga kelib, maxfiy ravishda ish ko'rgan «*hashshoshiylar*» (arabcha – hashish (nasha) chekuvchilar, giyohvandlar) terrorchilik oqimi esa

hokimiyatni egallash maqsadida ularga xayrixoh bo'lmagan hukmdorlarga suiqasd uyushtirish amaliyotini oldinga surgan edi. Uzoq vaqt hashshoshiylar ko'plab hukmdorlarga tahdid solib turgan, hattoki, ayrim Yevropa mamlakatlari rahbarlari o'z xavfsizliklarini ta'minlash uchun ularga to'lov to'lashga majbur bo'lgan. Shu bilan birga, «hashshoshiylar» zamonaviy terrorchilar tomonidan ham keng qo'llanilayotgan, oddiy kishilar va yoshlarga giyohvand moddalarni iste'mol qildirib, o'lsa shubhasiz jannatga tushishiga ishontirgan.

Islom qadriyatlarini himoya qilish va qayta tiklash niqobi ostida diniy terroristik aktlar sodir etgan va hamon dunyoning ko'pgina nuqtalarida yashirin faoliyat yuritayotgan jinoiy guruhlardan biri **vahhobiylik** harakatidir. Vahhobiylar islomni Muhammad (s.a.v.) davridagi asl holiga keltirishga, arablarni chinakam islom bayrog'i ostida birlashtirishga harakat qilganlar. Harakatning asoschisi Muhammad ibn Abdul Vahhob ibn Sulaymon bo'lib, 1703 yilda Arabistondagi Nadj viloyatining Ayyana shahrida tug'ilgan. Vahhobiylik muqaddas joylarni ziyorat qilishni, avliyo va mozorlarga sig'inishni, zohidlikni qoralaydi.

XVIII asrning o'rtalarida Markaziy Arabistonda yuzaga kelgan vahhobiylik oqimi islom dinini «asl holatiga qaytarish» da'vati ostida bosqinchilik, talonchilik va begunoh insonlarning qonini to'kish kabi terrorchilik ishlari tufayli tarixning qora sahifalaridan o'rin oldi. Jumladan, bu oqim vakillari marhumlarni xotirlash, ularning ruhiga Qur'on tilovatini qilib, qabrlarini ziyorat etishni kechirilmas gunoh hisoblaydilar. Ular har qanday yangilikni islomga zid deb bilib, zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan foydalanishni qat'iy qoralab, musiqa, teatr va tasviriy san'at bilan shug'ullanishni rad etadilar. Bir so'z bilan aytganda, o'zlari yashab turgan jamiyatni Muhammad (s.a.v.) davrlaridagi sodda hayot tarziga qaytarishga intiladilar. Bunga qarshi chiqqanlarni esa islom dushmanlari deb atab, ularga nisbatan siyosiy va qurolli kurash olib boradilar.

Yurtimizga suqilib kirib olgan vahhobiylar hokimiyatni qo'lga kiritish yo'lida har qanday buzg'unchilik, xunrezlik, suiqasd uyushtirishdan qaytmasliklarini 1999 yil 16-fevralida mamlakatimiz Prezidenti va hukumat a'zolariga qarshi uyushtirgan jinoyatkorona harakatlari bilan isbotladilar. Biroq hukumatimizning izchil va qat'iy siyosati bu oqimning keng yoyilishining oldini oldi.

Diniy terroristik tashkilotlardan yana biri «**Xizb-ut-tahrir**» (Ozodlik partiyasi)dir. Bu tashkilot mohiyatan g'oyaviy-siyosiy tashkilotdir. To'liq nomi «Xizb-ut-tahrir al-Islomiy» bo'lgan bu norasmiy diniy-siyosiy partiya 1952 yilda Quddus shahrida falastinlik huquqshunos Taqiyuddin Nabaxoniy (1909—1979) tomonidan tashkil etilgan. Xozirda bu diniy-siyosiy partiyaning falastinlik Abulqadim Zallum boshqarib kelmoqda. Asosiy maqsadlari musulmonlar yashovchi mavjud yigirma ikkita arab, jami 55 ta musulmon mamlakatlarini birlashtirib, yagona islom davlati — xalifalikni yaratishdir.

«Hizb-ut-tahrir»ning siyosiy strategiyasi mafkuraviy ta'sir vositasida aholining ko'pchiligini qamrab olish, agar bunga imkon bo'lmasa noqonuniy yo'l bilan davlat to'ntarishini amalga oshirish va konstitutsiyaviy hokimiyatni ag'darib tashlashni ko'zda tutadi. Dastlab xayr-ehson va ma'rifatchilik ko'rinishida o'z faoliyatini shakllantirishga harakat qilib, tarafdorlar orttirgach, o'z maqsadlariga erishish uchun terror usulini qo'llovchi hizbchilar «Xudo bizning ideal, Payg'ambar bizning dohiy, Qur'on bizning konstitutsiya, jihad bizning vosita, din va Xudo yo'lida qurbon bo'lish bizning ezgu niyatimiz» kabi soxta iboralarni shior qilib olishgan.

Vahhobiylar hukumatni qo'lga olishda ochiq kurash, ekstremizm, terror yo'lini tutsalar, «hizbchilar» g'oyaviy, mafkuraviy kurash usulini qo'llaydilar. Hizbchilar demokratiyani butkul inkor etadilar. Mazkur diniy tashkilot 1992 yildan O'zbekistonda maxfiy faoliyat yurita boshlagan. O'z maqsadlari halifalikni tiklash yo'lida mamlakatimizdagi tinch, osoyishta hayotni izdan chiqarib, fuqarolar urushini boshlash, mamlakat iqtisodiy faoliyatiga putur yetkazish, millatlararo va dinlararo nizolarni keltirib chiqarishga uringanliklari sir emas.

Ular o'z faoliyatlarini asosan uch bosqichda olib borishga yo'naltirganlar:

- Tushuntirish ishlari. Ongi to'liq shakllanmagan yoshlarni din niqobi ostida o'z tuzog'iga ilintirish. Fikri zaif, ta'sirga beriluvchan huquq-tartibot organlari, hokimiyatlardagi mas'ul shaxslarni o'z tarafiga og'dirish;
- birgalikda harakat qilish, fikriy kurash orqali «ummatning oyoqqa turishi, fikriy ongliligi» yo'lida fikriy inqilobga etishish. Ya'ni g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan kishilarni hizbchilarning yovuz niyatli inqilobiga tayyor holga keltirish;
- inqilob-to'ntarish, hukumatni ummat orqali qo'lga kiritib, «Halifalik» davlatini tuzish.

Islomdagi eng ta'sirchan diniy ekstremistik guruhlardan yana biri 1928 yilda Misrda tashkil topgan «*Musulmon birodarlari*» («Al-ixvon al-muslimun») uyushmasidir. Bu uyushma diniy-siyosiy tashkilot bo'lib, u xayr-ehson va ma'rifatchilik faoliyatidan tortib to siyosiy hayotda terror usulini qo'llashgacha bo'lgan murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Diniy ekstremistik kuchlar 20-asrning 60-70 yillarida Misrda Jamol Abdul Nosir hukumatini ag'darib tashlashga urindilar. 1981 yilda esa Misr prezidenti Anvar Sadatga suiqasd uyushtirib o'ldirdilar.

1994 yilda Qandahor xududida yuzaga kelgan yangi siyosiy harakat – «*Tolibon*» harkati ham diniy ekstremizmning Afg'onistondagi bir ko'rinishidir. Ular Afg'oniston hayotiga o'rta asr diniy tartib-qoidalarini tatbiq etish, xalqni dunyo madaniyatidan uzib qo'yish yo'lidan bordilar. Tolibonlar hokimiyat tepasiga kelgach insoniy haq-xuquqlar poymol etildi. Xotin-qizlarni erkin bilim olish va

mehnat qilish xuquqidan maxrum etish, ularni yana paranji ichiga tiqish yo'lida keskin chora-tadbirlar o'tkazdilar. Yigitlarni soqol o'stirib yurishga majburladilar. Diniy ekstremistik tashkilotlardan yana biri «**Akromiylar**» diniy-siyosiy harakatidir. 1997-1999 yillarda Farg'ona vodiysida paydo bo'lgan. Uning asoschisi 1960 yilda Andijonda tug'ilgan Akrom Yo'ldoshevdir. U vahhobiylik oqimiga tayanib 1992 yilda 12 darsga mo'ljallangan «Imonga yo'l» deb nomlangan dasturni ishlab chiqqan. Bu harakat vakillari faqat Allohgagina e'tiqod qilib, Payg'ambarimizga imon keltirmaydilar. Harakat a'zolari davlat, qonun, ota-onaga emas, faqat oqim sardorlariga bo'ysunish lozim deb hisoblaydilar. Ularning pirovard maqsadi islom davlatini qurishdir. Akromiylar siyosiy hokimiyatga erishishning 5 bosqichini rejalashtirganlar:

1. «Sirli» yoki «maxfiy»;
2. Moddiy.
3. Ma'naviy.
4. «Uzviy maydon»;
5. To'ntarish.

Dasturda diniy taassubga moyilligi bor shaxs tanlab olinishi, uning moddiy hayoti yaxshilanishi, ekstremizm, terrorchilik ruhidagi adabiyotlar bilan tanishtirilishi, boshliqning topshiriqlarini so'zsiz bajarishi va nihoyat mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag'darib tashlab, o'z hokimiyatlarini o'rnatishi bayon etilgan. Akromiylar hozirgi kunda musulmonlarga namoz, ro'za, zakot, haj amallari farz emas, chunki biz kufr davlatida yashamoqdamiz, deb hisoblaydilar. Toki islom davlati qurilmaguncha, mazkur ibodatlarini bajarish shart emas deb hisoblaydilar. Oqim xalqning keskin qarshiligiga uchrab, faoliyati barxam topdi.

«**Nurchilar**» diniy-siyosiy oqimi g'oyalarining mamlakatimizga kirib kelishi 1992 yillardan boshlab kuzatilgan. Bu oqim asoschisi turkiyalik Said Nursiy bo'lib, maqsadi mavjud hokimiyat uchun qarshi chiquvchi o'ta diniy-mutaassib, fanatik kishilarni tarbiyalashdan iborat.

Xozirgi kunda «Nur» harakati Turkiyadagi eng nufuzli diniy-siyosiy oqim sanaladi. Uning saflari asosan yoshlardan iborat. «Nur» chilar diniy bilim berish yo'li bilan islom aqidaparastligini avj oldirish yo'lini tutadilar.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatgan ekstremistik ruhdagi harakatlardan yana biri «**Tavba**» sanaladi. Unga Ozarbayjonda Xoji Abdullo asos solgan. O'zbekistonda bu harakatga namanganlik Abduvali Yo'ldoshev va Isxoq Jabborovlar rahbarlik qilgan.

Islom diniy ekstremizmi turli mamlakatlarda barpo bo'lajak «islomiy tartib» o'rnatish uchun keskin va agressiv harakat qilish zarur deb hisoblaydi. Ular o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun turli usullardan foydalanmoqdalar. Bular asosan quyidagilardan iborat:

- Zo'ravonlik, ya'ni terroristik harakatlarni amalga oshirish orqali omma ichida qo'rquv paydo qilish va o'zlarining kuchlarini ko'rsatish orqali hukumatga bosim-tazyiq o'tkazish;
- Mamlakat iqtisodini turli yo'llar bilan: diversiya, sanoat va qishloq xo'jaligi manbalarini izdan chiqarish orqali uni tanazzulga uchratishga urinish bilan hokimiyatni zaiflashtirish va pirovardida osonlik bilan ag'darib tashlash;
- Turli tashkilot va ommaviy axborot vositalarining «beg'araz» yordamida go'yo «mamlakatda fuqarolarning vijdon erkinligi xuquqlari buzilmoqda va diniy e'tiqod poymol etilmoqda» kabi soxta, g'arazli qarashlarni tarqatib hukumatni din sohasidagi siyosatini buzib ko'rsatish orqali uni obro'sizlantirish va fuqarolarning unga bo'lgan ishonchini yo'qotish;
- Oz sonli diniy tashkilotlarga qarshi xujum uyushtirib, hatto ulardan ba'zilarni namoyishkorona jismonan yo'q qilish yo'li bilan dinlararo va millatlararo nizo keltirib chiqarishga urinish orqali mamlakatda beqaror vaziyatni vujudga keltirish va undan o'z maqsadlari yo'lida foydalanish;
- Islomiy ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zimdan tashkil etish orqali mamlakatni islomlashtirish va soddadil fuqarolar ongiga asta-sekin xorijiy va mahalliy doiralarning ekstremistik g'oya va maqsadlarini singdirib borish. Oqibatda tayyor bo'lgan ijtimoiy ongni kerakli vaqtda o'z diniy ekstremistik maqsadlarini amalga oshirish uchun osonlik bilan yo'naltirib yuboradigan holatga keltirish va boshqalar. Diniy ekstremizm qanday nomlanmasin yoki qanday ko'rinishga ega bo'lmasin, uning asosiy maqsadi jangari guruhlarini shakllantirish orqali hokimiyat tepasiga kelishdan iborat.

4- Masala bayoni. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. Islom mafkura sifatida musulmonlarni birlashtiruvchi kuchli omil bo'lib kelgan. Asrlar davomida turli ijtimoiy tabaqalar va millatlarni qamrab olishi natijasida, bugungi kunda islom o'z rivojlanishida katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Islom dini doirasida yuzaga kelgan turli qarama-qarshiliklar oqibatida jangari millatchilik va diniy ekstremizmga asoslangan siyosiy kuchlar va ittifoqlar paydo bo'lmoqda.

Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash olib borishda kompleks va tizimli, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy chora-tadbirlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Albatta, bunday chora-tadbirlarni qo'llash katta vaqt, tegishli reja va yirik mablag'lar talab qiladi.

Diniy ekstremizmga qarshi kurashda xalqaro birdamlik va kelishuvlar ham katta ahamiyatga ega. Xususan, o'z hududida diniy ekstremistlar va terrorchilar faoliyatiga yo'l ochib bermaslik, ularga yordam ko'rsatmaslik va siyosiy boshpana bermaslik hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Arab – musulmon davlatlari ichida Misr Arab Respublikasi birinchi bo'lib terrorizm muammosiga 1940-yillarda, «Musulmon birodarlar»ning o'z faoliyatida ishontirish usullaridan radikal terrorchilikka – davlat, politsiya va armiyaning ko'zga ko'ringan arboblarni jismonan yo'q qilish yo'liga o'tishi natijasida duch keldi. Ushbu davlatning diniy mutaassiblikka qarshi kurashdagi bir necha o'n yillik tajribasi radikal diniy guruhlariga xayrixohlik bilan qarash, ularni pinhona rag'batlantirish ekstremistik harakatlarning yanada faollashuviga, yangilarining paydo bo'lishiga imkon yaratishini ko'rsatadi.

Musulmon mamlakatlarining diniy ekstremizmga qarshi kurash strategiyasi umuman olganda, har bir davlatning o'ziga xos xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlaridan qat'i nazar, bilvosita va bevosita qarshilik ko'rsatish usullarini o'z ichiga oladi.

Bilvosita choralarga rasmiy diniy tashkilotlar bilan hamkorlik, zo'ravonlikka qarshi kurashda diniy arbob va muassasalarning ahamiyatini oshirish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga yordam beradigan dasturlarni kiritish mumkin.

Bevosita qarshilik ko'rsatish o'z ichiga huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan ko'riladigan choralarni, aksiterrorchilik qonunlarini qabul qilish, ulardan keng foydalanish kabi tadbirlarni oladi. SHu o'rinda, masalan, Misr qonunchiligi diniy asosda partiyalar tashkil etishni taqiqlashini ta'kidlash joiz. Bundan tashqari, davlat noqonuniy ravishda qurol saqlaganlar, zo'ravonlikni targ'ib etuvchilar, radikal guruhlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlovchilarga nisbatan qattiq ma'muriy-jinoiy choralarni qo'llashini ham qayd etish lozim.

1990-yillarda zo'rlik va terror harakatlarining kuchayishi esa Misr hukumatini «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi qonun kabi, bir qator yangi huquqiy hujjatlarni qabul qilishga majbur qildi. Bunday maxsus Qonunning qabul qilinishi xavfsizlik idoralariga ko'proq erkinlik berish va ular olib borayotgan faoliyatning samaradorligini ta'minlash bilan bog'liq edi.

Musulmon mamlakatlari diniy ekstremizm va zo'ravonlik muammolarini ilmiy va keng qamrovda yechish bo'yicha amaliy ishlarni tashkil etmoqda. Jumladan, ilmiy-tekshirish institutlari va strategik markazlarda bu muammoning ilmiy-tizimli tahliliga katta e'tibor berilmoqda. Bu jarayonda har bir mamlakatda muayyan o'ziga xosliklar kuzatilishi, tabiiy, albatta. Masalan, Indoneziyada ekstremizmga qarshi olib borilayotgan kurashda ekstremistlarning yirik vakillari, jumladan, qamoqda bo'lgan Abu Bakar Bashir tomonidan tashkil etilgan «islom maktablari»ni yopish choralari ko'rilayotgani bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, 2002 yilda Bali orolida sodir etilgan va 200 dan ortiq kishining umrini xazon qilgan portlashlarning tashkilotchilaridan biri Imom Samudra

tomonidan yozilgan va jangarilik g'oyalariga boy bo'lgan kitoblarni bosish va tarqatish man etilganini ham qayd etish zarur.

Bunday harakatlar hozirda hukumat va ulamolarning diniy ekstremizmga qarshi birgalikda olib borayotgan ishlarining bir qismi sifatida qaralmoqda. Umuman olganda, Indoneziyada «Politsiya ishtirokida kuchga va musulmon ulomolarining faol ishtirokida mafkuraga tayanib ish olib borish – ekstremizmga qarshi kurashning ikki fronti» sifatida e'lon qilinganini ta'kidlash lozim. Radikal qarashlarga qarshi kurash bo'yicha yetakchi musulmon ulamolari ishtirokida guruh shakllantirilgani ham bu yo'lda amaliy ishlarga o'tilganining isboti bo'la oladi.

Diniy ekstremizm va terrorizm muammosi bilan duch kelayotgan musulmon mamlakatlari ushbu masalani turli xalqaro forumlarda ko'tarish bilan dunyo jamoatchiligi diqqatini uni hal etishga qaratib kelmoqda. Shuningdek, radikal kayfiyatdagi mutaassiblar yashayotgan davlatlar bilan xavfsizlik sohasida hamkorlik qilish va jinoyatchilarni almashish bo'yicha ikki tomonlama kelishuvlarni imzolashga ham alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston tanlagan dunyoviy, demokratik taraqqiyot yo'li, mamlakatdagi huquqiy tartib hizbchi va boshqa diniy aqidaparast kuchlarga yoqmaydi. Ular bugungi o'tish davriga xos bo'lgan turli qiyinchiliklardan ustamonlik bilan foydalanib, hokimiyatni terror orqali egallashga intiladilar. Biroq O'zbekistonda o'rnatilgan huquqiy tartib, terrorizmning har qanday ko'rinishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar bunga yo'l qo'ymaydi.

O'zbekiston Respublikasi JKning 155-moddasida terrorizm portlatishlar, o't qo'yishlar yoki odamlarning halok bo'lishi, katta mulkiy zarar keltirish yoxud ijtimoiy xavfli oqibatlariga olib kelish xavfini tug'diruvchi boshqa harakatlar sodir etishdan iborat bo'lgan va jamoatchilik xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyat sifatida qayd etilgan.

Mustaqil davlatimiz qonunchiligida terrorizmga qarshi kurashning asosiy printsiplari (qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi, jazoning muqarrarligi) bir qator normativ- huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, bu hujjatlarning asosiylari quyidagilardir:

1. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi (2001 yil 18 oktyabrdagi o'zgartish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi qonuni (2000 yil 15 dekabr).
3. O'zbekiston Respublikasining «Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonuni (2001 yil 29 avgust).
4. O'zbekiston Respublikasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizمنى moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida»gi

qonuni (2004 yil).

Mamlakatimizda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi tizimli, tadrijiy, qat'iy siyosatni quyidagi yo'nalishlarda izchil olib borilmoqda:

- Xalqaro shartnomalarda ishtirok etish;
- Mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash;
- Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha mintaqaviy tashkilotlarda ishtirok etish;
- Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar – jamiyat barqaror rivojlanishining asosiy omili;
- Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish;
- Din sohasida ilmiy asoslangan siyosat olib borish;
- Fuqarolarda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi mafkuraviy immunetetni shakllantirish.

Dinni qurol qilib olgan bunday ekstremistik harakatlar bugun umuman kishilik jamiyati hayotiga jiddiy tahdid solmoqda. Zamonaviy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash davlatlarning doimiy e'tiborini, uning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan ko'p qirrali siyosatni amalga oshirishda o'zaro hamkorlik va sobitlikni talab etadi. Shakllanib, keng tarmoq otgan terrorizmga qarshi kurashmagan davlatlar zaiflashib, o'z xalqi va mamlakati osoyishtaligi va barqaror rivojlanishini xavf ostida qoldiradi.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblik tushunchalarining mazmuni nima?
2. Terrorizmning mohiyati va uning xalqaro miqyos kasb etishining sabablari nimada?
3. Diniy mutaassiblikning ilk paydo bo'lishi qaysi davrga borib taqaladi?
4. Musulmon dunyosining diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash tajribasining ahamiyatli jihatlarini keltiring.
5. Fundamentalizm va ekstramiz nima?
6. Diniy ekstremistik kuchlar o'tmishda qanday jinoyatlarni amalga oshirganlar ?
7. Diniy fundamentalizm va diniy ekstremizm deganda nimani tushunamiz?
8. Diniy ekstremistik kuchlar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun qanday kurash usullardan foydalanishga harakat qiladilar?
9. Vahhobiylik qachon yuzaga kelgan? Ularning asosiy g'oyasi va maqsadi nima?
10. Vahhobiylar o'z maksadlari yo'lida qanday jinoyatkorona ishlarni amalga oshirganlar?
11. Vahhobiylik oqimining tashkiliy tizimi bo'lmish «O'zbekiston islom harakati» haqida nimalarni bilasiz? Uning O'zbekiston taraqqiyotiga tahdidi nimalarda?
12. Agar vahhobiylarning g'oya va da'vatlarini qabul qilsak nimalarga rozi bo'lishimiz kerak bo'ladi?

13. «Hizbut-Tahrir» oqimining asosiy g‘oyasi va maqsadi nima?
14. «Hizbut-Tahrir» tuzilma jihatdan qanday shaklda?
15. O‘zbekiston taraqqiyotiga tahdid solgan yana qanday diniy-ekstremistik harakatlarni bilasiz?
16. Islom Karimov O‘zbekiston taraqqiyotiga tahdid solayotgan kuchlarning niyati va maqsadini qaysi risolalarida bayon etgan?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo‘llari / A.Hasanov, O.Yusupov, K.Shermuhamedov, U.G‘afurov, J.Karimov. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – 160 b.
2. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To‘ldirilgan nashr. Mas’ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sharq, 2014. – 536 b.
3. Imdan boshqa najot yo‘q / A.Abdullaev, N.Hakimova, Sh.Jo‘raev, J.Karimov. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015. – 156 b.
4. Shermuhammedov K., Karimov J., Najmiddinov J. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. – Toshkent: «Movarounnahr» nashriyoti, 2016. – 224 b.
5. Irisov B “Din, aqidaparastlik va tahdid” Toshkent , ma’naviyat 2002 yil

Glossariy

Aborigen – biror joyning tub aholisi.

Abxidxarma-Pitaka – buddizmning muqaddas kitobi Tripitakaning falsafa va psixologiyaga oid qismi.

Avesto – (qad. eron-pahlaviy. «oʻrnatilgan, qatʻiy qilib belgilangan qonun-qoidalar») zardushtiylikning muqaddas kitobi.

Altarʼ – (lot. «baland») xristian cherkovida ibodatxonaning mehrob va minbar oʻrnatilgan eng baland qismi.

Al-hajar al-asvad – (arab. «qora tosh») Kaʼbaning janubiy-sharqiy burchagida yerdan 1, 5 m. balandlikda oʻrnatilgan muqaddas tosh.

Ansorlar – (arab. «yordam beruvchilar») ilk islom tarixida Makkadan hijrat qilgan Paygʻambar va muhojirlarga yordam bergan madinalik musulmonlar.

Arafot – (arab. «tanimoq, bilmoq» feʼlidan) Makka shahrining sharq tomonidagi tepalik. Rivoyatlarga koʻra, jannatdan tushirilgan Odam Ato va Momo Havo yerda ilk bor mana shu tepalikda uchrashganlar. Shuning uchun ham uni «Arafot» – «Tanishuv» deb ataganlar. Haj mavsumida barcha hojilar qurbon hayitidan oldingi kun tongdan kun qaytgunga qadar shu tepalik atrofidagi maydonda turishlari farz. SHu sababli hayitdan oldingi kun «arafa kuni» deb ataladi.

Atarxurra (Ozarxurra) – zardushtiylikning muqaddas olovi.

Axriman – zardushtiylikdagi yovuzlik ilohiyoti.

Axura-mazda – zardushtiylikdagi eng oliy yaxshilik ilohiyoti.

Bibliya – (qad. yunon. «kitoblar») xristianlikning muqaddas kitobi.

Braxman – Hindistondagi oliy kasta (tabaqa) vakili. Braxmanlik va hinduizmdagi din arbobi.

Budda – (sansk. «nurlangan, oliy haqiqatga erishgan») buddizm asoschisi Siddxartxa Gautamaga berilgan nom.

Varna – (sansk. «sifat, rang») qadimiy hind jamiyatidagi diniy-sinfiy kasta.

Vasaniya - (arab. «vasan» – «yogʻochdan ishlangan but») butparastlik.

Vahiy – ilohiyot bilan insonlarning paygʻambarlar orqali muloqot yoʻli.

Veda – (sansk. «bashorat») Qadimiy Hindistonning shimolida yashagan xalqlarning muqaddas kitobi.

Vinaya-pitaka – Tripitakaning rahboniylik odobi va xonaqoh nizomiga bagʻishlangan qismi.

Vishtasp – zardushtiylikni qabul qilib, uning tarqalishida Zardushtga yaqindan yordam bergan Baqtriya podshosi.

Galaxa – yahudiylikdagi diniy, oilaviy va fuqarolik qonunlari majmui.

Dao – daosizm dinidagi oliy ilohiyot.

Daʼvat – (arab. «chaqirish») dinga targʻib qilish.

Diakon – xristianlikdagi eng quyi tabaqa ruhoniysi.

Diniy jamoa – diniy tashkilotning boshlangʻich shakli boʻlib, diniy marosimlar va boshqa diniy faoliyatlar uchun unga birlashganlar.

Diniy idora – diniy tashkilot markazi.

Diniy tashkilot – diniy jamoalarning eng yuqori rasmiy uyushmasi.

Episkop – (qad. yunon. «nazorat qiluvchi») ko'p xristian cherkovlarida – oliy ierarx. Barcha arxiereylarning (patriarx, mitropolit, arxiepiskop) umumlashgan nomi.

Esseylar – qadimiy yahudiylikdagi oqim.

Johiliya – (arab. «yagona Allohni tanimaslik») Arabiston yarim orolining islom dinidan avvalgi davri shunday atalgan.

Zaif – (arab. «kuchsiz, kasal») ishonchli ekanligiga shubha bo'lgan hadis.

Zakot – (arab. «tozalanish, poklanish») islomning besh ruknidan biri. Mol-mulk *nisobiga* (muayyan miqdorga) yetgach, uning qirqdan biri kambag'allar foydasiga sadaqa sifatida beriladi.

Zardusht – mil. av. VI – V asrlarda yashagan ilohiyotchi, faylasuf, shoir, payg'ambar. Zardushtiylik dinining asoschisi.

Zino – o'zaro nikohda bo'lmagan erkak va ayolning jinsiy aloqasi. Zino aksariyat dinlarda katta gunohlardan sanaladi.

Zooantropomorfizm – (qad. yunon. «zoo» – hayvon, «antropo» – inson, «morf» – shakl) diniy va mifologik obrazlarni hayvon shaklida, insonga xos xususiyatlarga ega deb tasvirlash.

Ijtihod – islomda yangi paydo bo'lgan diniy muammolarni hal qilishning o'ziga xos usuli.

Ikona – xristianlikdagi avliyolar portreti tushirilgan rasmlar. Ular cherkovlarda ibodat buyumi bo'lib xizmat qiladi.

Indulgentsiya – katolik cherkovi tomonidan dindorlarga qilingan yoki qilinishi mumkin bo'lgan gunohlarni kechirish haqida beriladigan guvohnoma. U pul yoki cherkov oldidagi xizmatlar evaziga beriladi.

Isroil – (ivrit. «isro» – «banda», «iyI» – «xudo») Ya'qub payg'ambarning ikkinchi nomi, yahudiylar unga nisbat berilib, «Isroil bolalari» deb ataladi.

Iisus Navin – Qadimiy Ahd rivoyatlariga ko'ra, Musoning yordamchisi va noibi, Isroil qabilalari uchun Kan'onni (Falastinni) bosib olgan sarkarda.

Yomkipur – yahudiylik dinida nishonlanadigan gunohlardan poklanish bayrami.

Karma – (sanskrit. «harakat, burch, faoliyat») hindlarning diniy ta'limotlarida alohida mistik kuch, insonni qayta dunyoga kelishiga hal etuvchi ta'sir ko'rsatadigan amallar to'plami.

Karomat – (arab. «ulug'lik, buyuklik») islom ta'limotiga ko'ra, Alloh tomonidan uning do'stlari – avliyolarga ato etiladigan sehrdan farqli g'ayrioddiy qudrat.

Kasta – (portugal. «irq, qavm, tabaqa») muayyan kasb bilan shug'ullanadigan, o'ziga xos turmush tarzi, urf-odatlar, an'analari, tartib-qoidalari va h.k. bilan o'zgalardan ajratilgan ijtimoiy guruh.

Ka'ba – (arab. «kub») Makka shahrida hozirgi davrda Baytul Harom (Muqaddas Masjid) ichida joylashgan islom dinining qiblasi hisoblanmish bino. Islom ta'limotiga binoan, uni buyuk to'fondan so'ng Ibrohim payg'ambar o'g'li Ismoil bilan qayta tiklagan.

Konfessiya – (lot. «e'tirof, e'tiqod») din, diniy e'tiqod.

Konfutsiy – Qadimgi Xitoy faylasufi va pedagogi, konfutsiychilikning asoschisi.

Kosmogoniya – astronomiyaning osmon jismlari, ularning paydo bo'lishi va o'zgarishlari haqidagi bo'limi. Bu yerda osmon jismlarini ilohiyashtirish.

Krishna – hinduizmdagi e'tiborli xudolardan biri.

Linga – (qad. hind. «tavsifnoma, jins belgisi») qadimiy hind mifologiyasida ilohiy yaratuvchilikning ramzi.

Magiya – (qad. yunon. «magus», arab. «majus») sehrgarlik.

Mazhab – (arab. «yo'l») islomdagi shariat qonunlari tizimi va yo'nalishi.

Matriarxat – onalik davriga oid, jamiyatda ayolning roli ustun bo'lgan davr.

Maxayana – (sanskrit. «katta arava») buddizmdagi oqim.

Meditatsiya – (lot. «fikrlash, o'ylash») shaxsning ruhiy faoliyatga chuqur berilish holati.

Mirmadan – Qadimgi Yunoniston xalqlaridan biri.

Mistitsizm – (qad. yunon. «yashirin, sirli») ilohiyot olami bilan bevosita muloqot qilish mumkinligi haqidagi ta'limot.

Mitra – zardushtiylikdagi quyosh xudosi.

Mitropolit – (qad. yunon. «bosh shahar, poytaxt, mitropoliya odami») pravoslav cherkovining poytaxt shaharlardagi oliy ruhoniyluk unvoni.

Mif – (qad. yunon. «hikoyat, rivoyat») biror xalq orasida mashhur bo'lgan hikoyat, rivoyat, asotir.

Modernizm – dinni hozirgi zamon voqeligiga moslashtirishni yoqlab chiquvchi oqim.

Monoteizm – (qad. yunon. «mono» – «yagona», «teo» – «ilohiyot») yakkaxudolik.

Mujtahid – ijtihod qilish darajasiga yetgan faqih olim.

Murid – (arab. «xohlovchi») sufizm yo'lga kirib, murshidga qo'l bergan shogird.

Murshid – (arab. «to'g'ri yo'lga boshlovchi») sufizm yo'lga kirganlarni hidoyatga boshlovchi ustoz, shayx.

Musulmon (arab-fors. «muslimlar») – islom diniga e'tiqod qiluvchi kishi.

Mushaf – (arab. «sahifalangan») Qur'oni karimning nomlaridan biri.

Mutaassiblik – o'z g'oyasini «to'g'ri» deb, boshqacha fikr egalarini tan olmaslik va ularni buzg'unchilikda ayblash.

Mushrik – ko'pxudolikda ayblangan odam.

Muqaddas ruh – xristianlikdagi Xudoning uch ko'rinishidan biri.

Muhaddis – (arab. «hadis so'zlovchi») hadislar bilan shug'ullanuvchi olim.

Muhajirlar – (arab. «muhojir, emigrant») ilk islom tarixida Payg'ambar bilan Madinaga hijrat qilgan makkalik musulmonlar.

Nirvana – (sanskrit. «so'lish») buddizm va jaynizm diniy falsafalariga ko'ra, ruhning sansara kishanlaridan to'la ozod bo'lishi va oliy maqomga erishish.

Nom – mil. av. IV asrlarda Qadimgi Misrda qabilalar *nom* deb atalgan.

Oxirat – (arab. «boshqa, oxirgi, ikkinchi») bu dunyo oxiriga yetganidan keyin barcha qayta tirilib, qilgan amallariga yarasha mukofot yoki jazo oladigan ikkinchi hayot.

Oyat – (arab. «belgi; mo'jiza») Qur'on suralarini tashkil etuvchi qism, «jumalar».

Pergament – qog'oz kashf etilguniga qadar yozuv materiali sifatida ishlatilgan teri.

Panislomizm – XIX asrning oxirlarida O'rta SHarqda vujudga kelgan islom mamlakatlarini yagona bayroq ostida birlashtirish g'oyasini ko'tarib chiqqan siyosiy oqim.

Papa – katolik oqimining bosh ruhoniysi.

Pasxa – xochga mixlangan Iso Masihning qayta tirilishi xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan xristianlikdagi yirik bayram.

Patriarx – (qad. yunon. «ota, asos soluvchi») ortodoksal cherkovdagi (pravoslavie) oliy diniy martaba bo'lib, undagi 14 ta avtokefal – mustaqil cherkovlar boshliqlari shu nom bilan ataladilar.

Pesax– yahudiylarning Qadimgi Misrdan qochib chiqib, ozod bo'lishi munosabati bilan nishonlanadigan bayram.

Pir - murshid.

Pozitivizm – falsafada XIX asrning 30-yillarida vujudga kelgan, pozitiv (aniq) fanlarni birdan-bir haqiqiy bilimlardir, deb e'tirof etgan oqim.

Politeizm – (qad. yunon. «poli» – «ko'p», «teo» – «xudo») ko'pxudolik.

Pora (Juz) – (fors. «pora», arab. «juz'» - «qism, bo'lim») Qur'onning o'ttizdan bir qismi.

Post - xristian dinidagi ro'za. Post kunlari xristianlarga faqat o'simlik mahsulotlarini yeyish ruxsat etiladi.

Ravvin – yahudiy din arbobi. U yahudiy jamoasi diniy va oilaviy masalalarida hakamlik qiladi.

Risolat – payg'ambarlik.

Roviy – (arab. «rivoyatchi») hadis rivoyat qiluvchi kishi.

Rosh-hashona – yahudiylikdagi yangi yil bayrami.

Saduiqlar – qadimiy yahudiylikdagi oqim.

Safo – Makka shahrida Ka'ba yaqinidagi tepalik. Haj va umra qiluvchilar Safo va Marva tepaliklari orasida yetti bor yugurishlari lozim.

Sahih – (arab. «sog'lom; to'g'ri») olimlar tarafidan ishonchli, to'g'ri deb topilgan hadis.

Sahoba – Payg'ambar bilan hamsuhbat bo'lgan ilk musulmonlar.

Siddxarta – Buddaning shaxsiy ismi.

Sinagoga – yahudiylar ibodatxonasi.

Sinion – Quddus yaqinidagi tepalik.

Sionizm – yahudiylikdagi diniy-siyosiy oqim.

Sunnat – islomda Payg'ambar amallari.

Sura - (arab. «devor, to'siq») Qur'onni tashkil etuvchi qismlar. Qur'on jamlanish davrida ularning umumiy soni 114 ta deb belgilangan.

Sutra – (sanskrit. «ip») Qadimgi Hindiston diniy-falsafiy ta'limotlarining lo'nda iboralar shaklidagi qisqa bayoni. Diniy-falsafiy adabiyot turi.

Sutra-pitaka – Tripitakaning din mazmuniga bag'ishlangan qismi.

So'fiy– islomdagi mistik-asketik oqim vakili.

Tabu – totemistik tasavvurlar mavjud bo'lgan jamiyatdagi diniy taqiq. Bu tasavvurlarga ko'ra, tabuni buzgan odam ruhlari va xudolar tomonidan unga og'ir kasallik yoki o'lim yuborish bilan jazolanadi. Tabu ma'lum bir buyumga tegmaslik, ma'lum so'zni aytmaslik, ma'lum hayvonlarning go'shtini yemaslik kabilardan iborat bo'lishi mumkin.

Tavakkul – tasavvuf ta'limotiga ko'ra, o'z irodasini Allohga ishonib topshirish.

Talmud – (ivrit. «lameyd» - «o'rganish» so'zidan) Tavrotga yozilgan sharhlar to'plami.

Tafsir – (arab. «bayon qilish») Qur'on oyatlariga o'ziga xos ravishda ma'no berish.

Terrorizm - (fr. «qo'rqitish») o'z fikrini zo'ravonlik yo'li bilan boshqalarga o'tkazish. Bu yo'lda suiqasd, qo'poruvchilik kabi usullardan foydalaniladi.

Tipitaka – Tripitaka so'zining o'zgargan shakli.

Tobiyun – (arab. «ergashuvchilar») Payg'ambar sahobalarini ko'rgan va ularga ergashgan kishilar.

Tora – (arab. «Tavrot») Muso payg'ambarga nozil bo'lgan kitob.

Totem - (SHimoliy Amerikadagi Ojibva qabilasining tilida - «uning urug'i») totemizmda muqaddas sanaladigan o'simlik va hayvon.

Traditsionalizm – an'anachilik. Dindagi ratsionalizmga qarshi o'laroq, naql (taqlid) tamoyiliga asoslanuvchi oqim.

Tripitaka – (sanskrit. «uch savat») buddizmning muqaddas kitobi.

Farziylar – qadimiy yahudiylikdagi oqim.

Farishta – nurdan yaratilgan, nafs va xohishga ega bo'lmagan, faqatgina unga xudo tomonidan buyurilgan muayyan vazifalarni og'ishmay bajaradigan, insonlar ko'ziga ko'rinmaydigan maxluq.

Fanatizm– mutaassiblik.

Fatvo – faqihning dinda paydo bo'lgan yangi muammolarni Qur'onga zid kelmaydigan ravishda hal qilib chiqargan hukmi.

Fath – (arab. «ochish») biror shahar yoki mamlakatga harbiy yo'l bilan dinni olib kirish.

Faqih – fiqh ilmining bilimdoni.

Fetish – (fr. «but, sanam, tumor») tabiatdagi jonsiz predmetlarga sig'inish.

Fir'avn – ilohiyot darajasiga ko'tarilgan Qadimgi Misr podshohlari tituli.

Fiqh – (arab. «tushunish») shariat qonun-qoidalarini o'rganuvchi fan.

Fundamentalizm – ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari surish ta'limoti.

Xinayana – (sanskrit. «kichik arava») buddizmdagi oqim.

Xonaqoh – 1) sufiylar jamlanib zikru samo bilan mashg'ul bo'ladigan maxsus bino; 2) masjidning mehrob va minbar o'rnatilgan qismi.

Shaman – (tungus. «sehr»ga) ruhlarning olami bilan muloqot qiluvchi ruhoni.

Shom – Suriyaning qadimiy nomi.

Shopur – 243-273 yillarda hukmronlik qilgan Sosoniylar sulolasi hukmdori, Avestoning bizgacha yetib kelgan nusxasini tartibga solingan.

Evolutsionizm – dinshunoslikda din ham dunyoning shakllanishi kabi bosqichma-bosqich soddadan murakkabga qarab rivojlangan degan g'oyani ilgari suruvchi ta'limot.

Ekstremizm – o'z maqsadi yo'lida turli haddan ortiq keskin tadbir-choralar ko'rishga tarafdorlik.

Eran-vej – Avestoda zikr qilingan Zardushtning vatani.

Esxatalogiya – dunyoning oxiri, narigi dunyo, jannat, do'zax haqidagi tasavvurlar majmui.

E'tiqod – dunyoqarash. Biror dinga e'tiqod qilish - uni haq deb bilib, uning ta'limotini tan olish.

Yasna – Avestodan bizgacha yetib kelgan to'rt kitobning ikkinchisi.

Yasrib – Madina shahrining hijratdan avvalgi nomi.

Yasht – Avestoning 1-qismi.

Yahve – yahudiylik ta'limotiga ko'ra, dunyolarni yaratuvchi yagona qudratli Xudo.

Yahudo – Ya'qub payg'ambarning farzandlaridan biri. Uning avlodlari «yahudiylar» deb ataladi.

Qiyomat – (arab. «tik turish») bu dunyoning oxiri.

Qiroat – (arab. «o'qish») Qur'onni o'ziga xos qoidalarga muvofiq tilovat qilish.

Qur'on – (suryoniy «kerain» - «muqaddas yozuv») islom dinining muqaddas kitobi.

Hadis – (arab. «yangi; so'z») Muhammad payg'ambarning aytgan so'zlari, qilgan ishlari haqidagi rivoyatlar.

Haniflik – islomdan avval Arabiston yarim orolida mavjud bo'lgan yakkaxudolik g'oyasi.

Hoshimiylar – Makkada yashagan Quraysh qabilasidan bo'lgan Hoshim ibn Abdumanofning avlodlari.

“Dinshunoslik faniga kirish.” mavzusidan keyslar.


Vaziyatli masalalar!



1- keys-stadi

1- “case stady”: Konstitutsiyamizning 61-moddasida “Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi”, deyilgan.

Savol:



Ularning namoyon bo'lish jarayonini tushuntirib bering?




2-keys-stadi

2- “case stady”:Dinning paydo bo'lish xususida ikki xil qarash mavjud. Birinchisi, diniy qarash bo'lib unga ko'ra din — Xudo dastlabki inson, ya'ni Odamni yaratgach vujudga kelgan, unga ma'lum yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar beradi va bu ko'rsatmalar o'z navbatida din deb ataldi.

Ikkinchisi, ilmiy qarash bo'lib unga ko'ra din — ijtimoiy-tarixiy hodisa, kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo'lgan ijtimoiy ong shakllaridan biridir, umuminsoniy qadriyatdir degan yondashuvga ko'ra, u muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatida namoyon bo'ladigan olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida usulidir.

Savol:




Siz bu fikrlarni qanday izohlaysiz?



3- “case stady”: “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi qonunning 3-moddasiga ko’ra voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o’rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o’qitishga yo’l qo’yilmaydi. Deylik sizning voyaga yetmagan ukangiz noqonuniy tarzda diniy tashkilotga jalb etilgani haqida xabar topdingiz.

Savol:



Siz qanday yo’l tutasiz?



4- “case stady”: **Fetishizm** («fetish» so’zi fr. fétiche – «but», «sanam», «tumor» ma’nosidagi so’zni anglatadi). Mohiyati tabiatdagi jonsiz predmetlarga sig’inishdir. Unga ko’ra alohida buyumlar kishini o’z maqsadiga erishtirish, ma’lum voqea-hodisalarni o’zgartirish kuchiga ega. Fetish ham ijobiy, ham salbiy ta’sir etish kuchiga ega.

Fetishizm yog'och, loy va boshqa materiallardan yasalgan buyumlarning paydo bo'lishi bilan bir paytda shakllangan. Bu butlarda va tumorlarda jamoalar g'ayritabiiy dunyodan keladigan ilohiy qudratning timsolini ko'rdilar. Bizning jamiyatimizda ham fetishizmning ko'rinishlari mavjud bo'lib, odamlar ko'zmunchoq, taqa, tumor... kabilarda qandaydir ilohiy qudrat bor deb hisoblaydilar. Islomda esa bu shirk hisoblanadi.

Savol:



Sizning mazkur fikrga munosabatingiz qanday?



5- “case stady”: **Shamanizm** («shaman» so'zining tungus tilidagi ma'nosi – «sehrgar»). Sehrgarlik (afsun, magiya) real natijalar olish uchun ilohiy kuchlarga ta'sir etish maqsadida amalga oshiriladigan rituallar – urf-odatlar majmuasidir. U totemizm va animizm bilan bir vaqtda paydo bo'lib, unga ko'ra uning vositasida kishilar o'z *totemlari*, ota-bobolarining ruhlari bilan xayolan bog'lanishni amalga oshirib kelganlar. Shamanizm qadim o'tmishda paydo bo'lib, minglab yillar davomida saqlanib kelgan va tabiiyki, muntazam rivojlanib borgan. Odatda, afsungarlik urf-odatlari bilan maxsus odamlar – shamanlar, afsungarlar shug'ullanganlar.

Afsungarlik maqsadga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: 1) zarar keltiruvchi – yovuz afsungarlik. Bundan kimgadir zarar yetkazish niyat qilinadi; 2) harbiy afsungarlik. Bunday afsungarlik dushmanga qarshi qo'llaniladi (masalan, qurol aslahalarni sehrlash); 3) sevgi afsungarligi, boshqacha aytganda, «issiq» yoki «sovuq» qilish; 4) tibbiy afsungarlik. Davolashda ishlatiladi; 5) ob-havo

afsungarligi. Bu sehrgarlik turidan yomg'ir chaqirish yoki shunga o'xshash ob-havoni o'zgartirish maqsadlarda foydalanilgan.

Sehrgarlik hozirda ham mavjud. Dinlarda, turli xalqlar urf-odatlarida saqlanib qolgan. Bizning jamiyatimizda ham bu holatlar mavjud. Masalan, sevgi afsungarligi, boshqacha aytganda, «issiq» yoki «sovuq» qilish

Savol:



Ushbu fikr qay darajada o'rinli deb o'ylaysiz? Bu borada sizning fikringiz?

“Islom dini” mavzusidan keyslar.

1 - “Keys-stadi”:

Qur’oni Karimning Kahf surasining 86 oyatida Zulqarnayn haqida masala qo’yilgan, lekin Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Tavsiri hilol” asarlarida shu masala haqida Iskandar Zulqarnayn bilan Aleksandr Makedonskiy boshqa-boshqa odamlar deb keltirilgan. Biroq so’z mulkining sultoni Alisher Navoiy “Hamsa” asarining “Sad’i Iskandariy” dostonida ularni bir shaxs sifatida keltirgan.

Savol: Siz bu haqda qanday fikrdasiz?

2 - “Keys-stadi”:

Qur’oni karimda insonning yaralishi haqida so’z yuritilganda, albatta shayton va farishtalar haqida ham fikr mavjud. Agar shayton farishtalarning ustoz bo’lsa, nega u farishta deb yuritilmaydi.

Savol: Siz bu masalaga qanday qaraysiz?

3 - “Keys-stadi”:

3 - “case study”: Anvar va Sevaraning turmush qurganlariga 10 yil bo’ldi. 10 yilning faqat 6 yilida ular birga yashashdi, 4 yil esa Anvar chet davlatlariga borib-kelib yurdi. Bir kuni Anvar kayfi taroq holda, jahl ustida xotiniga taloq berdi. Ertalab turib qarasa, Sevara uydan ketib qolibdi. Nima bo’lganini tushunmasdan Anvar Sevaraning ota-onasining boriga bordi. Hayriyat Sevara o’sha yerda ekan. Anvar ketib qolishining sababini so’raganda kecha unga taloq berganini aytdi. Lekin Anvar aytgan so’zlarini umuman eslay olmadi.

Savol: Sizning-cha bu masalani qanday hal etsa bo’ladi?

- a) Qaytadan nikoh o’qitish mumkin.
- b) Musulmon idorasiga jarima to’lab, keyin nikoh o’qitish kerak.
- v) Taloqning katta-kichikligini aniqlab, keyin masala hal etiladi.
- g) “Baqara” surasining oyatlarining talablariga ko’ra hal etiladi.

Islom manbalari mavzusiga oid KEYSLAR

1. «Al-Adab al-mufrad»ning 1-24 boblari ota-onaga xizmat qilish, ularning hurmatini joyiga qo’yish, ayniqsa, qarigan chog’ida ularni e’zozlab parvarish qilish, diliga ozor bermaslik, ularning haqqini ado etish masalalariga bag’ishlangan. Ba’zi misollar keltiramiz.

Muslim ibn Xayyila (raziyallohu anhu) aytdilar-ki, rasulullohdan «Ey rasululloh, men yaxshiligimni kimga qilsam bo’ladi?» — deb so’radim. «Onangga» — dedilar. «Men shu savolni uch marta qaytarsam ham rasululloh

«Onangga» deyaverdilar. To'rtinchi marta so'raganimda: «Otangga va yaqin bo'lgan qarindoshlaringga» dedilar.

Savol: Nima uchun avvalo uch marta onangga, keyin otangga yaxshilik qil deyilgan?


2. Hadislardan anchasi qarindosh-urug'larga yaxshilik qilish, ular bilan bordi-keldi qilib turish, holidan xabar olish va ularga rahm-shafqatli bo'lish haqidagi hadislardir. Bakr ibn al-Horis Ansoriy (raziyallohu anhu)dan rivoyat qilindi. U kishi rasulullohdan «Yo rasululloh, men yaxshiligimni kimga qilishim kerak?» — deb so'radilar. Rasululloh (s.a.v.); «Onangga, otangga, opa singillaringga, aka-ukalaringga va yaqin kishilaringga, zaruriy burch va uzilmasligi kerak bo'lgan qarindoshliqdir», - dedilar.

Muammoli vaziyat-savol. Keltirilgan misol islomshunos qaysi olimning qanday asaridan olingan.

3. Islom so'zi arabcha «Ollohga o'zini topshirish», «itoat etish», «taslim bo'lish», «bo'ysunish» ma'nolarini beradi. Islomning asosiy manbasi bo'lmish Qur'oni Karim VII asrda nozil bo'lgan bo'lsa-da, islom ta'limotiga ko'ra bu din, er yuzida insoniyat paydo bo'libdiki, barchalariga nozil qilingan. Muhammad s.a.v. avvalgi payg'ambarlar ishini davom ettirgan, ular dinini qayta tiklagan, qiyomat oldidan yuborilgan oxirgi payg'ambar – *Nabiy* va *Rasul* deb tan olinadi.

Nabiy – payg'ambar, arab tilidan tarjimasi *xabarchi*, *xabar yetkazuvchi* ma'nolarini beradi. Payg'ambarlar orasida ularga Alloh tomonidan alohida kitob va shariat nozil qilinmagan va avvalgi payg'ambarning kitob va shariatini insonlarga targ'ib qilganlari *nabiylar* deb ataladi (Ismoil, Ishoq, Ya'qub, Zakariyo kabi).

Rasul – payg'ambar, arab tilida *yelchi* ma'nosini anglatadi. Alloh tomonidan alohida kitob va shariat berilgan payg'ambarlar *rasullar* darajasiga erishgan hisoblanadi (Ibrohim, Muso, Iso kabi).



Keyslarga javob bering:

1. Islom so'zining ma'nosi nima?
2. Nabiy va Rasul qanday ma'nolarni anglatadi?

1. «Qur'on» - arabcha «qara'a» (o'qimoq) fe'lidan olingan. Qur'on suralardan iborat. Sura Qur'ondan bir bo'lak bo'lib, eng kami uchta yoki undan ortiq oyatlarni o'z ichiga oladi. Qur'onda jami 114 ta sura mavjud. Oyatlar soni esa, Qur'on matnlarini taqsimlashning turli yo'llariga ko'ra, 6204ta, 6232ta, hatto 6666 tagacha belgilangan. Bu narsa Qur'on nusxalarining bir-biridan farqli ekanligini emas, balki undagi oyatlarning turlicha taqsimlanganligini bildiradi.

Suralar Qur'onda o'z mazmuniy izchilligiga yoki o'qilgan vaqtiga, ya'ni xronologik tartibiga qarab emas, balki hajmiga ko'ra – avval katta suralar, undan so'ng kichik suralar tartibi Muhammad s.a.v. ko'rsatmalariga binoan joylangan. Suralarning hajmi ham har xil: eng katta hajmga ega bo'lgan 2-surada, ya'ni Baqara surasida 286 oyat bor, eng kichik suralar faqat 3 oyatdangina iborat.



Keyslarga javob bering:

1. Qur'on so'zining ma'nosi nima?
 2. Eng katta va eng kichik suralar qanday ataladi?
-
2. Mustaqillik yillarida vijdon erkinligi printsiplarini tiklash va unga og'ishmay amal qilish davr, kundalik hayot talabi va zaruriyatiga aylanib qoldi. 1998 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunni qayta qabul qildi. Mazkur Qonun 23 moddadan iborat. Uning 1-moddasida ushbu qonunning maqsadi nimalardan iborat ekanligi ochiq va ravshan bayon etilgan: «Ushbu Qonunning maqsadi har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat'iy nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash, shuningdek diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat».




Keyslarga javob bering:

1. Vijdon erkinligi to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?

2. Qonun nechta moddadan iborat?

3. Diniy ekstremizm – muayyan diniy konfessiya va tashkilotlardagi ashaddiy mutaassib, fanatik unsurlarning faoliyati mafkurasi. Fanatizm o'z aqidasiining shak-shubhasiz to'g'riligiga ishonib, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda ularni tan olmaslik, balki ularni diniy asoslarni buzishda ayblab, ularga qarshi urush ochishga olib boradigan omillardandir. Diniy fanatizm diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi.

Fundamentalizm – ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning yo'nalishi. Diniy fundamentalizm – aqidaning o'zgarmasligini himoya qiladigan, vahy va mo'jizalarning muqaddas kitoblardagi bayonining harfiy talqini tarafdori, ularning har qanday majoziy talqiniga murosasiz, muayyan diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarni qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo'llaniladigan istilohdir.




Keyslarga javob bering:

1. Diniy ekstremizm qanday ma'noni anglatadi?
2. Islomni niqob qilib, diniy ekstremizm va terrorizmga kirib faoliyat olib borayotgan fuqarolar haqida nima deya olasiz?
3. ISHID haqida nimalarni bilasiz?

9. Inson Ollonning xalifasi sifatida bilim egasi, yorug' dunyoning barcha bilimlariga uning idroki yetadi. Faqat kibrga berilib ketmasa, o'zini hammadan ortiq qo'ya boshlamasa bas. Parvardigor bizni inson qilib yaratgan ekan, aql-xush, ilmu-amal bergan ekan, demak, biz inson sifatida tafakkur qilib, dunyoviy ilmlarni - dunyoni o'rganib, dunyo orqali Ollonning zotini, ilmlarini kashf etib yashashimiz kerak. Din - ruhiyatimiz tarbiyachisi, ilm-dunyoni va oxiratni bilish quroli, inson unisini ham, bunisini ham egallamog'i kerak. Bizning bobolarimizning yo'li ana

shunday bo'lgan. Bir misol keltiramiz. Rivoyat qilishlaricha, Abu Ali Ibn Sino bilan mashhur shayx Abusaid Abulxayr uchrashibdilar. Ular bir kecha bir-birlariga hech narsa demay «suhbatlashib» chiqibdilar. Ertalab SHayxning shogirdlari undan Ibn Sino haqida nima deysiz, deb so'rganlarida, Abusaid Abulxayr: «Men nimaiki vajd (intuitsiya) bilan bilgan bo'lsam, u aql bilan bilib olgan», debdi. Ibn Sino esa o'z shogirdlariga: «Men nimaiki aql bilan bilgan bo'lsam, u ko'ngli bilan idrok etadi», deb aytgan ekan. Ko'rinadiki, Ibn Sino dunyoviy ilmlar olimi, Abusaid Abulxayr esa - tasavvuf shayxi, ilohiyot olimi. Ammo ular bir-birini tushungan va har ikki ilm ham kerakligini anglaganlar.




Keyslarga javob bering:

1. Ikkita olimning uchrashuvidan qanday xulosa qilish mumkin?
2. Dunyoviy va diniy ilmlarning nima farqi bor?

10. Gap hoh diniy, hoh dunyoviy ma'rifatni to'g'ri va chuqur anglashda, har ikkovini ham egallamay nodon, johil bo'lib qolmaslikdadir.

Har ikki ilmni egallagan kishi ikki dunyosini obod qiladi.

Islom bu faqat aqida emas, avvalo, ma'rifat, ilmdir. Islom tarixiga nazar tashlasak, Muhammad payg'ambarimizgacha bo'lgan davr arablarda «johiliya» davri deb ataladi. «Johiliya» nodonlik davri degani. Islom ana shu nodonlik davri o'rniga keng ma'noda ma'rifat, madaniyat vujudga keltirdi, ilm-fan, falsafa, adabiyot va san'atni rivojlantirdi, o'ziga xos ma'naviyat va ma'rifatni yaratdi. Bizning ulug' bobolarimiz islom ma'naviyati va ma'rifati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib, kalom ilmi, fiqh, tasavvuf ta'limotini rivojlantirdilar.



Keyslarga javob bering:

1. Johiliya davri bilan islom davrining farqi nimada?
2. Qaysi ilmlar insonning ikki dunyosini obod qiladi?

**Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar mavzusidan
keyslar.**

Vaziyatli masalalar!

Bugungi kunda jahonda tinchlik va barqarorlikni saqlab qolish muammosi ko'pchilik davlatlarning barcha sayi-harakatlarini ishga solishni taqoza etmoqda. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarining, xususan vijdon erkinligi qoidalarining izdan chiqishi, turli dinlarga mansub bo'lgan xalqlarning diniy erkinliklarini nazar pisand qilmaslik, turli mojarolarning kelib chiqishi, millatlararo kelishmovchilikka olib kelishi natijasida davlatlarning siyosiy barqarorligiga putur yetkazishi mumkin.

Bugungi kunda diniy bag'rikenglik va milliy o'zlikni anglashga zid bo'lgan ayrim muammolar ham mavjud

1-keys

Bu birinchidan, missionerlik yo'nalishida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

“Missionerlik” asli lotincha «missi» so'zi «yuborish», «jo'natish» demakdir. CHerkov tomonidan odatda hukumat yordamida boshqa davlatdagi boshqa din vakillari o'rtasida o'z dini tashviqotini olib borish uchun yuborilgan shaxs – missioner, deyiladi.

Missionerlar islom dinini, muqaddas kitobimiz «Qur'on»ni, muborak Hadislarimizni maqsadlariga mos holda talqin qilish va nasroniylikni ulug'lash orqali soddadil musulmon birodarlarimizni, ayniqsa yoshlarimizni o'zlariga og'dirib olishga harakat qilmoqda. Afsuski, ma'lum darajada bunga erishayaptilar ham. Ular hadya etayotgan sadaqalarga mukkasidan ketayotgan musulmon birodarlarmizdan ayrimlari o'z dinidan voz kechmoqda.

Topshiriq:

1. Missionerlik va prozeletizmning bugungi kundagi jamiyat barqarorligiga tahdidi nimada deb o'ylaysiz.?

2. Missionerlik va prozeletizmning dinlararo bag'rikenglikka salbiy ta'sirining oldini olish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

2-keys

Ikkinchidan, mavjud muammoning yana bir yo'nalishini **diniy fundamentalizm va ekstremizmda** ko'rish mumkin. Bu "dinda haddan oshish" bilan bog'liq holatdir.

So'nggi yillarda butun dunyo, shu jumladan, mintaqamizda kuchayib borayotgan diniy aqidaparastlik va jangarilik islomning asl mohiyati bo'lgan bag'rikenglikka zid bo'lgan harakatlarga sabab bo'lmoqda. Davlatlarning dunyoviy taraqqiyoti, demokratik o'zgarishlar, diniy bag'rikenglik jarayoniga aqidaparastlik, diniy ekstremizm, diniy murosasizlik, siyosiy maqsadlarga erishishda konfessional asoslardan foydalanish kabi illatlar salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Topshiriq:

1. Diniy fundamentalizm va ekstremizmning tinchlik va barqarorlikka tahdidi nimalardan iborat?

2. "Dinda haddan oshish" qanday salbiy oqibatlariga olib keladi?

3-keys

Uchinchidan, yo'nalishdagi muammo, islomni "**soxta islomiy g'oyalar bilan**" tanglashtirishga urinish, islom va demokratiyani bir-biriga qarshi qilib qo'yish, turli dinlar o'rtasida ixtiloflarni keltirib chiqarishga urinishlar bilan bog'liq.

Islom dini va qadriyatlari jaholatning har qanday ko'rinishiga qarshidir. U ma'rifiy din bo'lib, insonlarni ezgulikka undaydi. Sir emaski, islom dini rivoji tarixida undan tuban maqsadlarda ham foydalanish xollari ham uchraydi. Tarixda dindan bunday qarama –qarshi maqsadlarda foydalanishning fojeali oqibatlari,

nazariy, metodologik jihatlarini Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan asoslab berilgan.

Topshiriq:

1. Islomning ma'rifiy, ezgulik g'oyalari mohiyatini qanday izohlaysiz?
2. Turli dinlar o'rtasida ixtiloflarning oldini olishda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning ahamiyati nimada?

Muammoli vaziyatdan chiqib ketish yo'llari

1. O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyati qurish maqsadini demokratiya, din va milliy o'zlikni anglash bilan uzviy bog'liqligini keng jamoatchilik, xususan yoshlar orasida targ'ibot-tashviqot, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishga keng jamoatchilikning ko'proq e'tiborini qaratish maqsadga muvofiq.

2. Siyosiy – ijtimoiy fanlarni o'qitishda, xususan "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" "Milliy istiqlol g'oyasi", "Dinshunoslik" fanlarini o'qitishda demokratiya, din va milliy o'zlikni anglash munosabati muammosini O'zbekiston erishgan tajribani umumlashtirish asosida yoshlarga yetkazish yo'llari to'g'risida o'ylab ko'rish, unga bag'ishlangan davra suhbatlari, bahs-munozara, ilmiy-nazariy anjumanlar tashkil etish zarur.

3. Islom dini va demokratiyani bir-biriga zid qo'yish holatlari mavjudligini hisobga olgan holda "Islom va demokratiya" bilan bog'liq yo'nalishlarda Respublika va xalqaro anjumanlarni ko'proq tashkil etish to'g'risida o'ylab ko'rish kerak.

4. Diniy bag'rikenglik sohasida O'zbekiston davlati siyosatida erishilgan yutuq va tajribalarni keng ommalashtirish maqsadida turli jahon tillarida "Альбом" tashkil etish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

5. Respublikaning OAV orqali, shuningdek bugungi kommunikatsion texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng foydalangan, holda, “Vebsayt”larni ochib, ular orqali turli tillarda O‘zbekistonning davlat siyosatida demokratiya, din va milliy o‘zlikni anglash masalalarini chuqur aks ettiradigan ma’lumotlarni muntazam berib borish, bu sohada amalga oshayotgan demokratik o‘zgarishlarni atroflicha o‘rganishga hamda xolisona qarashlarni shakllanishiga xizmat qiladi.

6.. O‘zbek xalqi milliy o‘zligini islom qadriyatlariga ham bog‘liq, deb biladi. SHuning uchun islom va uning tarixi, ta’limotini o‘rganishga qiziqish ortmoqda. Ayni paytda, respublikada islomdan tashqari xristian dinining pravoslav, katolik va protestantlik yo‘nalishlari, iudaizm sinagogi mavjudligini hisobga olish zarur. Diniy e’tiqodlar tufayli turli guruhlar o‘rtasida milliy biqizlikka yo‘l qo‘ymaslik uchun ular o‘rtasida diniy bag‘rikenglik to‘g‘risida tushuntirish ishi olib borish maqsadga muvofiq.

7. Oliy o‘quv yurtlarida, akademik litseylarda, kasb – hunar kollejlarda falsafa, dinshunoslik, ma’naviyat asoslari, siyosatshunoslik, milliy istiqlol g‘oyasi, tarix va boshqa ijtimoiy – gumanitar fanlarda umuman dinlarni, xususan, islomni siyosiy lashtirishning zararli oqibatlari haqida tizimli bilim berib borish maqsadga muvofiq.

8. O‘zbekistonda mustaqillik davrida yosh avlodni ahloqiy pok, jismoniy baquvvat qilib tarbiyalash zarurligini hisobga olib, ajdodlarimiz diniy merosi va qadriyatlaridan keng foydalanish mumkin. Ma’lumki, diniylik va milliylik tarixan bir – biri bilan bog‘lanib ketgan, uni ajratishga urinish ham befoyda. Xususan, yosh avlodga tushunarli tilda kitobchalar, rangli plakatlar tuzish lozim, deb hisoblaymiz.

9. O‘zbekistonda demokratik davlat va fuqoralik jamiyatini qurishda ajdodlarimiz milliy madaniy merosi va islomiy qadriyatlardan foydalanish mumkin. Buning uchun fuqoralarning huquqiy madaniyatini oshirish, vijdon

erkinligi, O'zbekistonda qonun ustuvorligiga rioya qilishning amaliy chora - tadbirlarini ko'rish maqsadga muvofiq.